1.Abduqodirov A. Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2020.

2.Ahmadaliyev B. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

3.Bekmurodov M. Ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

4.G‘afurova D. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Mehnat, 2018.

5.Jo‘rayev O. STEAM texnologiyasining ta’lim jarayonidagi o‘rni. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022.

6.Karimova S. Maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion metodlar. – Toshkent: Sharq, 2020.

7.Mamatqulov A. O‘yin texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

8.Norqobilov B. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

9.Sodiqova M. STEAM yondashuvi asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish. – Toshkent: Yangi asr, 2023.

10.Yoqubov H. Pedagogik innovatsiyalar va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2022.

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА НА ТЕРРИТОРИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА

Хазраткулова Наргиза Таджимуратовна

Аннотация: *В статье рассматриваются уникальные особенности и значение русского языка как языка межнационального общения. Кроме того, в статье содержатся глубокие размышления о деятельности и роли русского языка в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Язык межнационального общения, Узбекистан, международные отношения, русский язык (язык русского народа), СНГ, ООН, ЮНЕСКО.*

Введение: Своеобразие русского языка как языка межнационального общения проявилось в его способности функционировать рядом и параллельно с ними, выполняя при этом свои социальные функции. Наряду с узбекским языком, язык рустилий также имеет положительное значение, так как способствует обмену опытом и ознакомлению каждой нации и этнической группы с культурными достижениями всех других народов и мировой культурой. Между русским языком и языками народов мира происходит постоянный процесс взаимообогащения. Русский язык был и остается одним из ведущих языков мира.

В современном мире по числу говорящих на русском языке (500 млн человек) он занимает третье место после китайского (более 1 млрд) и английского (750 млн). Русский язык — национальный язык русского народа, форма русской национальной культуры, родной язык русского народа. Русский язык — один из самых развитых языков в мире. Он отличается богатым словарным запасом и терминологией по всем областям науки и техники, а также выразительной краткостью и ясностью грамматических средств, которые отражают все многообразие окружающего мира. Согласно политической конституции Российской Федерации, государственным языком на всей территории Российской Федерации является русский язык. Русский язык является не только государственным языком Российской Федерации, но и входит в число мировых языков, то есть языков, служащих средством межнационального общения между народами разных стран.

Его также называют самой развитой группой мировых языков, из более чем двух с половиной тысяч языков, известных в мире. Язык является важнейшим средством, с помощью которого люди общаются друг с другом. Русский язык — национальный язык русского народа. Русский язык по своему происхождению относится к славянским языкам. Наиболее близкими к русскому славянскими языками являются украинский и белорусский. В Российской Федерации он является государственной компанией, а его пользователями по всему миру являются более 500 миллионов человек. Сильные русскоязычные общины имеются не только в республиках СНГ, но и в странах, географически удаленных от Российской Федерации: США, Турции, Израиле и др. Русский язык считается одним из самых богатых и сложных языков в мире.

Кроме того, русский язык (русский: Русскийязык) — язык русского народа, один из самых распространенных языков в мире. Сначала в СССР, затем в Российской Федерации и СНГ он был средством межнационального и межгосударственного общения. Русский язык является одним из 6

официальных языков ООН. Вместе с украинским и белорусским языками хинди образует восточную группу славянских языков, относящуюся к семье европейских языков. Русский язык имеет очень долгую и сложную историю развития. Древнейший русский литературный язык сформировался в Киевской Руси и до XIV века считался общим языком восточных славян. В XIV и XV веках древнерусский язык делился на 3 языка — великорусский (русский), украинский и белорусский. С этого периода русский язык, иначе говоря, великорусский язык, начинает развиваться на территории Российского государства, центром которого является Москва. Коренные изменения в жизни нашего общества коснулись всех сторон его жизни, в том числе и народного образования. Особое значение имели изменения, произошедшие в национальных школах различных регионов, где процесс преподавания всех учебных предметов, прежде всего русского языка и литературы, претерпел значительные изменения. Языковая ситуация в большинстве республик, недостаточное внимание к преподаванию родного языка привели к значительному сокращению количества часов, отводимых на изучение русского языка и литературы. В связи с этим на повестку дня стали актуальными вопросы разработки новых программ, основанных на принципах взаимосвязанного изучения русского языка и литературы. В июне 2005 года был принят Федеральный закон «О государственном языке Российской Федерации». В настоящее время русский язык является четвертым по распространенности языком в мире, за ним следует английский, на котором говорят примерно 500 миллионов человек как родной или второй язык. Китайский язык является вторым по распространенности языком в мире, а испанский – третьим. Каждый может хотя бы раз в жизни подумать о своем родном языке или других языках. Произведения русских поэтов используются в качестве учебников в узбекских школах. Вы когда-нибудь задумывались, что в русских школах преподают учебники узбекского языка и произведения узбекских писателей? Русский язык – это не только государственный язык Российской Федерации. Имеется в виду число мировых языков, то есть языков, служащих средством международного общения между народами разных стран. Из более чем двух с половиной тысяч языков, известных в мире, международное общение обеспечивает наиболее развитая группа мировых языков, называемая мировым языковым клубом. Выдвижение языка на роль мирового языка определяется общечеловеческим значением культуры, созданной на этом языке. Статус языка как мирового языка юридически определяется путем признания его официальным или рабочим языком международных организаций или конференций (ООН, ЮНЕСКО и других

организаций). Таким образом, наряду с русским, английским, арабским, испанским, китайским и французским языком он признан одним из шести официальных языков ООН. Язык относится к социальным явлениям, существующим во все эпохи человеческого общества. Основная цель языка – служить средством общения. Язык неразрывно связан с мышлением, сознанием человека, служит средством формирования и выражения наших мыслей и чувств.

В настоящее время перспективными направлениями развития методики обучения русскому языку являются внедрение принципа коммуникативной направленности, инновационных технологий, личностно-ориентированного подхода. Особого внимания заслуживает важность осуществления образовательного процесса в гуманном духе, демократизации отношений между субъектами этого процесса. Одним из перспективных направлений развития коммуникативной методики обучения русскому языку является текстоцентризм. Начали внедряться программы обучения языкам, направленные на развитие у школьников не только навыков восприятия и обработки текста, но и навыков его составления. Инновации в области обучения русскому языку связаны не только с изменением целей, содержания, методов и технологий, форм организации и систем управления, но и с изменением педагогических методов и организации образовательного процесса.

В современном Узбекистане русский язык по-прежнему актуален и используется в различных сферах. Ниже мы рассмотрим основные направления:

В сфере образования русский язык преподается как иностранный в школах, лицеях и университетах, а в некоторых высших учебных заведениях (например, Ташкентский государственный технический университет, Ташкентская медицинская академия и др.) обучение ведется на русском языке.

Существуют также частные и государственные русскоязычные школы. В сфере работы и бизнеса, в международных компаниях и государственных учреждениях знание русского языка дает дополнительное преимущество. Поскольку многие предприниматели сотрудничают с Россией и странами СНГ, русский язык является важным инструментом делового общения. Русский язык широко используется в банковской сфере, юридических услугах и торговле.

Кроме того, в сфере СМИ и культуры в Узбекистане действуют русскоязычные газеты, журналы, интернет-издания (например, «Правда Востока», «Народное слово»). Широко распространены российские

телеканалы и радиопередачи. В культурных мероприятиях и театрах также проходят спектакли на русском языке. Русский язык также широко используется в повседневной жизни. Например: В крупных городах (Ташкент, Самарканд, Бухара) проживает много русскоязычного населения. Многие узбеки знают русский как второй язык и используют его в повседневной жизни. Реклама, дорожные знаки и документы иногда также предоставляются на русском языке.

Заключение: В заключение следует сказать, что русский язык по-прежнему играет важную роль в Узбекистане, но в последние годы государство повышает престиж узбекского языка. Поэтому значимость русского языка в будущем может несколько снизиться, но сейчас он активно используется в образовании, работе и культуре. Сегодня подготовка человека к общению на изучаемом языке равносильна подготовке к межкультурному общению. Соответственно, практика преподавания русского языка должна оперативно реагировать на эту ситуацию и вырабатывать пути оптимального решения возникших проблем.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Рус тили маданияти. (Дарслик) Маслов В.Г., 2010

2. Рус тили ва нутқ маданияти: Олий ўқув юртлари учун дарслик. Л.А. Введенская, Л.Г. Павлова, Е.Ю. Кашаева, Ростов н / а: "Феникс" нашриёти, 2001.

3. Рус тили ва нутқ маданияти / И. А. Долбина, Т. А. Карпинец, О.А. Салтакова; Кузбас давлат техника университети, 2011

4. XX аср охиридаги рус тили. В.Л. Воронцова ва бошқалар -М.: Рус маданиятининг тиллари, 2009.

5. Замонавий рус тили. Дарслик. Валгина Н.С., Росентҳал Д.Е., Фомина М.И., 2002.нашр.

MAKTAB MUSIQA TA’LIMIDA FORTEPIANO CHALISHGA O’RGANISH USLUBLARI

Imomnazarova Aziza Rustamovna.
UzFinPI “musiqa ta’limi” kafedrasi jo`rnavoz o`qituvchisi.
Ilmiy rahbar: Hamrayeva Umida Shonazarovna
UzFinPI “musiqa ta’limi” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Umumiy musiqiy-estetik tarbiyada umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan fortepiano to’garaklarining o’rni va mashg’ulotlarda ijrochilikka o’argatish uslublari haqida so’z yuritiladi.*

Ta’lim tarbiyani yuqori bosqichlarda rivojlantirish talablari tizimning barcha bosqichlarida, shu jumladan umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan fortepiano ijrochiligi to’garaklarida o’quvchi-yoshlarni fortepianoda chalish ko’nikma va malakalarini rivojlantirish mashg’ulotlarni pedagogik va metodik jihatdan to’g’ri yo’lga qo’yilishi g’oyat muhimdir. Shu o’rinda ta’limning ilg’or usullari, zamonaviy interfaol texnologiyalarini qo’llash, mashg’ulotlar davomida o’quvchilarning o’ziga xos musiqiy ijrochilik qobiliyatlariga mos pedagogik yondashuvlar asosida ish tutish mazkur jarayonni samarali kechishini ta’minlovchi eng asosiy shartlardandir.

Fortepiano sinfiga o’tkazilgan dastlabki mashg’ulotlar jarayonida qo’llaniladigan eng muhim ish tutish usullariga quyidagilarni tavsiya etish metodik jihatdan to’g’ri buladi:

- musiqiy eshitish (tinglash) tasavvurlarini faollashtirish;
- tinglash va eslab qolish(xotira) qobiliyatlarini rivojlantirish;
- musiqa materialini harakat tasavvurlari bilan birga obrazli tasavvuir qilish malakasini tarbiyalash;
- Tinglash diqqatini va o’z ijrosini nazorat qilish va baholash ho’nikmasini faollashtirish;
- O’quvchilarni nota bilan chalish, varaqdan o’qish, shu o’rinda qo’yilgan vazifalarni mustaqil bajarish, mustaqil izlanish va ijodiy anglashga rag’batlantirish.

Zamonaviy ta’lim metodikasi mashg’ulotlarni o’tkazishning turli xil shakllari, muammoli ta’lim usullaridan, ilg’or xorijiy tajribalar elementlaridan maqsadli va o’z o’rinda foydalanish o’quvchilar bilan yakka tartibda va ansambl bo’lib ijro etishda ularning o’z ijrochilik qobiliyatlarini to’liqroq namoyon etishlarida qo’l keladi. Bu tarzda ish olib borish pedagogikaning umumiy didaktik prinsiplariga ham mos keladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, umuta’lim maktablarida

tashkil etiladigan cholg’u ijrochiligi to’garaklarini maqsadi ham haqiqiy musiqachi-ijrochilar tayyorlashni ko’zda tutmaydi. O’quvchining musiqiy-ijrochilik kamolotiga mashg’ulotlar: varaqdan o’qish, eshitib chalish, tovushlarni baland va past pardaga o’tkazish, badiiy ijro, ansamblda chalish, asarni xomaki o’rganish kabilarni qamrab olishi lozim. Badiiy ijro etish o’quvchilarni estetik va aqliy kamol toptirishdan iborat bo’lib, badiiy idrok va ijro musiqaning eng oddiy shakllarini solishtirish va taqqoslashdan, chuqur badiiy-nazariy tahlil qilish va umumlashtirishgacha bo’lgan fikrlash bilan tavsiflanadi.

Fortepiano cholg’usida ijro etish faqat muayyan ko’nikma va malakalarni emas, balki ijodiy faollikni, maqsadga intilish, diqqat – e’tiborlilik, qat’iy intizom va tashabbuskorlikni talab qiladi. O’quvchilar turli janr, xarakterdagi musiqa asarlarini o’rganish va ijro etish, asarda ifoda, badiiy obraz, voqeilik, lirik kechinmalar, ularni musiqada aks etishi, muallifning ichki kechinmalarini his etish, tushunish, badiiy idrok etish bilan shu kechinmalar, ma’naviy-estetik fikrlarga erishadilar.

Fortepiano to’garaklarida o’tkaziladigan yakka tartibdagi mashg’ulotlarni tashkil qilish va o’tkazish vazifalari umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani dasturi talablarini hisobga olish lozim. Buning boisi, badiiy havaskorlik to’garaklari mashg’ulotlari maktabda o’qitiladigan “Musiqa madaniyati” darslarini qandaydir darajada to’ldirishi va davom ettirishi, o’quvchilarni musiqiy ijrochilikka bo’lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondirish maqsadiga hizmat qilish, ular o’zaro bog’langan, bitta uslubiy yo’nalishga ega bo’lishi lozim. Umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani dasturida asosiy vazifalar o’quvchilarda musiqa mashg’ulotlariga qizish rivojlantirish, musiqiy nazariy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga o’quvchilar dastlabki darslardanoq faqat musiqani idrok etish, musiqa nazariyasi, musiqa ijrochiligiga oid bilim, malakalarni emas, balki musiqa san’ati haqida fikr yuritish, unga o’z munosabatini bildirish, mushohida va tahlil qilishni ham o’rganadilar. Musiqa darslarining mavzulilik va yaxlitlilik tamoyili eng muhim ahamiyatga ega bulib, nazariy ma’lumotlarni bayon qilish va o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi esa musiqani hissiyot bilan tushunishi, idrok qilish asosida amalga oshiriladi.

Umumta’lim maktablaridagi musiqa fanini o’qitilishi, musiqa ijrochiligi bo’yicha tashkil etiladigan to’garaklarning asosiy maqsadi o’quvchilarni g’oyaviy-hissiy va axloqiy, estetik tarbiyalash ularda musiqa madaniyatini tarkib topishi va yuksalishiga ko’maklashishdan iboratdir. Shuning uchun ham musiqa ta’limi tizimini yosh avlodni uyg’un kamol toptirishning asosiy omili sifatida ahamiyatlidir. Musiqa bilan shug’ullanish badiiy bilim faoliyati bo’lib:

- G’oyaviy e’tiqodni shakllantiradi;

- Axloqiy-estetik tarbiyalaydi;
- O’quvchilarda musiqiy qiziqishining psixologik maqsadi va eng asosiy yo’nalishlarini belgilaydi;
- Ijtimoiy kayfiyatni vujudga keltiradi;
- Musiqani idrok etish, his qilish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- Musiqiy-badiiy didni o’stiradi;
- Ijodiy faollikni, tafakkurni, musiqiy dunyoqarashni kengaytiradi;
- Eng zarur bilim, ko’nima va malakalarni hal qiladi, bo’sh vaqt muammosini hal qilishda yordam beradi.

Hozirgi vaqtda keng qo’llanilayotgan va ta’rif berilgan metodika bo’yicha fortepiano chalishni o’rghanish ta’limning ilk bosqichlaridan quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

1.Musiqiy iste’dodi kuchsiz bolalar musiqiy jihatdan ancha layoqatli bo’lib qoladilar.

2. O’quvchikarda fortepiano cholg’usi bilan jiddiy shug’ullanishga qiziqish, intilish vujudga keladi.

3. O’quvchida obrazli tafakkur, ijodiy tasavvur kuchayadi.

4. O’quvchining diqqati, irodasi faollashadi, o’z-o’zini nazorat qilish mas’uliyati ortadi.

5. O’ziga xos ijrochilik sifatlari jadal rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTRLAR

1. Rajabova D. “Fortepiano mashg’ulotlari”. Toshkent, O’qituvchi, 1994yil.
2. Muhammadjonova Z. “Fortepiano ansamblini o’rganish uslubiyati”. Toshkent. Turon-Iqbol, 2010 yil.
3. Azimov N. “Fortepiano darsligi”. -Toshkent, O’qituvchi, 1998y.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA YIRIK QURILISH KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH

G’ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi
Tayanch doktorant
Toshkent arxitektura – qurilish universiteti

Kalit so’zlar: *Innovatsiyalar, issiqlik elektr stansiyalari, energiya samarador binolar, shaharlashuv, smart city, qurilish chiqindilarini qayta ishlash, aylana iqtisodiyot, strategiya, yashil iqtisodiyot.*

Keywords: *Innovations, thermal power plants, energy-efficient buildings, urbanization, smart city, construction waste recycling, circular economy, green economy, strategy.*

Ключевые слова: *Инновации, тепловые электростанции, энергоэффективные здания, урбанизация, «Умный город», переработка строительных отходов, циркулярная экономика, зеленая экономика, стратегия.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yirik qurilish korxonalarida strategik boshqaruvni tashkil etish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar asosida xulosa va takliflar keltirib o’tilgan.*

Abstract: *This article presents conclusions and proposals based on analytical data on the organization of strategic management in large construction enterprises in the context of the development of a green economy.*

Аннотация: *В статье представлены выводы и предложения на основе аналитических данных по организации стратегического управления на крупных строительных предприятиях в условиях развития зеленой экономики.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yurtimizda qurilish sohasidagi o’zgarishlar qo’llanilayotgan innovatsiyalar va kirib kelayotgan xorij tajribasidan foydalanish sohadagi yutuqlar ko’lamini kengaytirmoqda.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonda 233,8 trln. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 8,8% ga oshgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, mamlakatda qurilish faoliyati bilan

shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni 27 408 tani tashkil etgan. Shulardan 6 555 tasi yoki 23,9% Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, bu qurilish korxonalarining eng katta qismini tashkil qilgan.

O‘tgan yilning yanvar-noyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy qurilish ishlarining 9,2% ulushini tashkil etgan. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyatida eng yuqori ulush Toshkent shahri (14,5%), Qashqadaryo viloyati (12,9%) va Toshkent viloyati (12,1%) hududlarida qayd etildi. Fikrimizning dalili esa so’ngi 5 yil davomida qurilish korxonalarining jadal sur’atda o’sayotganidir (1-rasm).



1-rasm. O’zbekiston Respublikasida so’ngi 5 yilda qurilish korxonalarining o’sish ko’rsatkichlari

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga qurilish sohasida ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni 54 223 tani tashkil etgan.

Asosiy qism. Bugungi kunning talabi bo’lgan - yashil qurilish bu sohada yanada ko’proq izlanishni, yerdan mas'uliyat bilan foydalanishni, suv va energiya samaradorligini, barqaror materiallarni tanlashni, chiqindilarni kamaytirish va ichki muhit sifatini yaxshilashni talab qiladi. Bunda, asosiy e'tibor uglerod gazini kamaytirish va binoning umumiy barqarorligini oshirishga qaratilgan.

Yurtimiz rivoji uchun qurilish sohasida ayniqsa yashil qurilish sohasida mislsiz yangiliklar va ulkan strategiyalar bilan katta hissa qo’shayotgan tashkilot bu- “O‘zbekgidroenergo” AJ hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5044-sonli Farmoni va “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkillashtirish chora

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2972-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-iyundagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 407-sonli qarori ijrosiga muvofiq tashkil etilgan.

Fitch Rating agentligi prognozlariga ko‘ra, «O‘zbekgidroenergo» investitsiya dasturlari 2030-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarishda issiqlik elektr stansiyalari ulushini 75 foizdan kamroq darajagacha qisqartirish imkonini beradi.

Qayd etilishicha, O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarining qariyb 90 foizi uglevodorodlar (asosan tabiiy gaz va ko‘mir), qolgan 10 foizi gidroenergetika hissasiga to‘g‘ri keladi. Hukumat energetika sanoatining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish maqsadida gaz bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari sonini kamaytirish, shu orqali energetika sanoatida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshirishga intilmoqda. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, yurtimiz energiya sohasida yangi burulish bo’sag’asida turibdi, modomiki, issiqlik elekter stansiyalaridan voz kechmoqchi ekanmiz gidro elektr stansiyalar hamda quyosh va shamol elektr stansiyalariga ta’lab darajasi ortadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun yurtimizda bir qancha harakatlar boshlab yuborilgan (2-rasm). Xususan, O‘zbekiston 2018-yilgi Iqlim bo‘yicha Parij kelishuvi doirasida 2030-yilgacha YAIM birligiga nisbatan issiqxona gazlari (karbonat angidrid, metan, azot oksidi) ajratilishi hajmini 2010-yildagi bazaviy darajadan 35 foizga kamaytirishga **va’da berdi**. Ushbu majburiyatlarni bajarish uchun hukumat xorijiy xalqaro investitsiyalarni faol jalb qilmoqda.

2-rasm. Yashil qurilishni rag‘batlantirish uchun hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlar

2022-2026 yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyamizda yashil iqtisodiyot ko’lamini kengaytirish, tadbirkorlarimiz uchun imkoniyatlar yaratish va

ekologiyamizni yosh avlod uchun sof va toza saqlash doirasida bir qancha maqsadlari mavjud:

1.energiya samarador binolarni qurishga e’tibor qaratish

O‘zbekiston yangi qurilishlar uchun energiya samaradorligi bo‘yicha standartlarni joriy qildi. Masalan, yangi binolarda energiya tejovchi materiallar va texnologiyalardan foydalanish talab qilinmoqda. Toshkent va boshqa shaharlarida avtomatlashtirilgan energiya tizimlari va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari bilan jihozlangan zamonaviy "aqlli" binolar loyihalari amalga oshirilmoqda.

2.ekologik toza qurilish materiallaridan foydalanish

Past uglerod izi bilan ajralib turuvchi mahalliy xomashyolardan, masalan, xom g‘isht, pishiq g‘isht va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish tavsiya etiladi. Beton, po‘lat va shishadan qayta ishlangan materiallarni qurilishda qo‘llashga bo‘lgan qiziqish oshmoqda.

3. Qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish

O‘zbekistonning quyosh energiyasi imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ko‘plab loyihalarda quyosh panellarini o‘rnatish yo‘lga qo‘yilmoqda. Ayniqsa, turar-joy binolari va davlat obyektlarida bu amaliyot ommalashmoqda. Ayrim loyihalar energiya ishlab chiqarishi iste’mol qilinganidan ko‘proq bo‘lgan binolarni yaratishga qaratilgan.

4.xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish

O‘zbekiston Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) kabi tashkilotlar bilan yashil qurilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorlik qilmoqda. Xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda quyosh va shamol energiyasiga asoslangan yirik loyihalar ishlab chiqilmoqda, bu esa qurilish kompaniyalariga infratuzilmani yashil echimlar bilan boyitish imkonini bermoqda.

5. Barqaror shaharlashuvni targ‘ib qilish

*Toshkent va Samarqanddagi loyihalar***:** Yirik shaharlar yashil shaharsozlikka e’tibor qaratmoqda. Masalan, energiya tejamkor ko‘p qavatli uylarning qurilishi va ekologik jamoat joylarini tashkil etish.

Smart city tashabbuslari: "Aqlli shaharlar" loyihasi doirasida energiya samarador infratuzilma, yashil jamoat transporti va optimallashtirilgan chiqindilarni boshqarish tizimlari joriy etilmoqda.

6. Chiqindilarni boshqarish va aylana iqtisodiyot

Qurilish chiqindilarini qayta ishlash: Qurilish sohasida chiqindilarni qayta ishlash amaliyoti asta-sekin yo‘lga qo‘yilmoqda.

*Aylana iqtisodiyot***:** Qurilish materiallarini binolarning umr oxirida qayta ishlash yoki qayta foydalanish imkonini beradigan loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Ko’rinib turibdiki, maqsadlarga erishishning negizi bu qurilish va qurilishni to’g’ri tashkil etishdir. Aksiyadorlik jamiyatimizning bu boradagi barcha vazifa va topshiriqlarini o’z zimmasiga oluvchi “O‘zbekgidroenergoqurilish” AJ hisoblanadi.

“O‘zbekgidroenergoqurilish” AJ 1932-yilda tashkil etilgan bo‘lib, gidroelektr stansiyalari, issiqlik elektr stansiyalari energetika qurilishida, shuningdek, fuqarolik va sanoat inshootlarini qurishda katta tajribaga ega.

Korxona tashkil etilganidan buyon Chirchiq gidroelektr stansiyalari kaskadi va noyob Chorvoq GESi qurilishini yakunladi, Sirdaryoda birinchi GES – Farhod va Qayroqumni, ularga suv omborlari biriktirilgan Sirdaryoda qurdi. Markaziy Osiyodagi eng yirik issiqlik elektr stansiyalari. 80 yil davomida umumiy quvvati 13920 MVt dan ortiq bo‘lgan 33 ta gidroelektrostantsiya va 13 ta issiqlik elektr stansiyasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Hozirda “O‘zbekgidroenergoqurilish” AJ tizimida Respublikamizning turli hududlarida joylashgan va umumiy qurilish, montaj, ishga tushirish, temir-beton buyumlari ishlab chiqarish, avtotransport xizmatlari ko‘rsatish kabi turli yo‘nalishlarga ixtisoslashgan 4 ta tarkibiy korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

“O‘zgidroenergoqurilish” aksiyadorlik jamiyati Koreyaning “Samsung C&T Corporation” kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand, Jizzax viloyatlari va Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida qurilishi rejalashtirilgan har biri 200 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasini qurmoqda.

Sirdaryo viloyatida qurilishi rejalashtirilgan 1500 MVt quvvatga ega issiqlik elektr stansiyasi qurilish-montaj ishlarini Xitoyning “CGGC International” va Misrning “ELSEWEDY ELECTRIC” kompaniyalari bilan hamkorlikda amalga oshirmoqda.

“O‘zgidroenergoqurilish” AJ Samarqand shahrining kommunal infratuzilmasini o‘zgartirish rejasi doirasida Fransiyaning “SUEZ” kompaniyasi bilan suv ta’minoti tarmog‘i bo‘yicha bosh pudratchi sifatida qurilish va elektromexanik ishlarini olib bormoqda.

O’zbekistondagi yashil iqtisodiyot sari yo’l qay darajada barpo etilayotganini yuqoridagi ma’lumotlar orqali tushunchaga ega bo’ldik. Endi O’zbekistondagi yashil qurilish loyihalariga misollarni ko’rib chiqsak (3-rasm).

3-rasm. O’zbekiston hududida qurilayotgan ekologik toza va turizm rivoji uchun ahamiyatli loyihalar

Nur Navoi quyosh elektr stansiyasi. Karmana tumanida barpo etilayotgan mazkur quyosh fotoelektr stansiyasi 268 gektar maydonni egallagan bo‘lib, loyihaning umumiy qiymati 110 mln dollarni tashkil etadi. Yangi quyosh fotoelektr stansiyasining ishga tushirilishi natijasida o‘rtacha 31 ming xonadon elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. Stansiya yiliga 260 mln kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Elektr energiyasini sotish tarifi — 2,679 sent, gaz tejamkorligi — 78,7 mln kub metr.

Samarqanddagi yangi shaharsozlik loyihalari. Samarqandda Zarafshon daryosi sohilida, aeroportdan uncha uzoq bo‘lmagan joyda 389 gektar maydonda ko‘p qavatli uylar, savdo majmualari va boshqa obyektlardan iborat zamonaviy “Shirin” massivini qurish rejalashtirilmoqda. Ushbu loyihalarning asosiy maqsadi “Buyuk ipak yo’li”ning ajralmas qismi bo’lgan Samarqandda turizm sohasini yanada rivojlantirish, yurtimizdagi turizm salohiyatini oshirish va xorijiy turizm oqimini o’zimizga jalb qilishdan iborat.

Qurilish korxonalarida samarali boshqaruv va raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun turli strategiyalar qo‘llaniladi. Ular quyidagi asosiy 5 yo‘nalishni va ularning ichidagi turli strategiyalarni o’z ichiga oladi:

Raqobat strategiyalari

Differensial strategiya – Korxona o‘z xizmatlari va mahsulotlarini raqobatchilardan farqlash orqali mijozlarni jalb qiladi. Masalan, yuqori sifat, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion qurilish materiallari ishlatish.

Narx bo‘yicha yetakchilik – Qurilish narxini raqobatchilarga qaraganda past saqlash orqali bozorga kirish va ulushni kengaytirish. Bu uchun samarali xarajat boshqaruvi, texnologik optimizatsiya va katta hajmdagi buyurtmalar muhim.

Fokuslangan strategiya – Muayyan segmentga (masalan, premium uy-joylar, sanoat obyektlari yoki ekologik qurilish) yo‘naltirilgan strategiya.

Loyihalarni boshqarish strategiyalari

Tezlashtirilgan qurilish (Fast-Track Construction) – Qurilish jarayonini loyihalash va bajarishni parallel olib borish orqali muddatlarni qisqartirish.

Lean Construction – Qurilish jarayonida isrofgarchilikni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategiya. Bu usulda loyihalash, xarid qilish va qurilish bir-biri bilan uyg‘unlashtiriladi.

Agile Construction – Moslashuvchan qurilish usuli bo‘lib, talab va sharoitlar o‘zgarishiga tez moslashish imkonini beradi.

Innovatsion strategiyalar

Raqamli transformatsiya – Qurilishda BIM (Building Information Modeling), dronlar, IoT, sun’iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Yashil qurilish (Sustainable Construction) – Ekologik toza materiallar va energiyani tejovchi texnologiyalarni qo‘llash.

Modulli qurilish (Modular Construction) – Zavodda oldindan tayyorlangan qismlarni joyida yig‘ish orqali qurilish jarayonini tezlashtirish va sifatni oshirish.

Tarmoq va hamkorlik strategiyalari

Tarmoq integratsiyasi – Qurilish kompaniyasi ta’minotchilar, pudratchilar va mijozlar bilan kuchli aloqalar o‘rnatib, barqaror biznesni shakllantiradi.

Jamoaviy sheriklik (Joint Ventures) – Yirik loyihalar uchun boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik qilish orqali risklarni taqsimlash va resurslardan samarali foydalanish.

Outsourcing – Qurilishning ayrim qismlarini maxsus tashqi tashkilotlarga topshirish orqali xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish.

Bozorni kengaytirish strategiyalari

Mahalliy bozorga yo‘naltirish – Ichki bozorda talabga qarab xizmat va mahsulotlarni moslashtirish.

Xalqaro bozorga chiqish – Boshqa davlatlarga ekspansiya qilish orqali biznesni kengaytirish, eksport va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Diversifikatsiya – Qurilish bilan bog‘liq qo‘shimcha xizmatlar (masalan, ta’mirlash, dizayn, ko‘chmas mulk boshqaruvi) bilan shug‘ullanish.

Yuqorida keltirilgan strategiyalarni to‘g‘ri tanlash va amalga oshirish qurilish korxonalarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o’rnida shuni takidlashimiz zarurki, faqatgina qurilish sohasida emas barcha sohalarda maqsadga erishish uchun unga olib boruvchi eng to’g’ri yo’l bu - strategiyani to’g’ri shakllantirishdir.

Respublikamizdagi yirik qurilish tashkilotlaridan biri sifatida faoliyat yuritayotgan “O‘zgidroenergoqurilish” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yashil iqtisodiyot talablari asosida strategik boshqaruvni oqilona tashkil etish orqali

rivojlantirish mumkin. Bunda, strategiyani samarali va maqsadga muvofiq tashkil etish uchun quyidagi 5 ta tamoyilni taklif etamiz:

1. Farovonlik tamoyili
2. Adolatlilik tamoyili
5. Sayyora chegaralari tamoyili
4. Samaradorlik va yetarlilik tamoyili
5. Samarali boshqaruv tamoyili

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.o‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-939-son qonuni.

2.o’zbekiston Respublikasi Prezidentiting 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

3.o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 - 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori.

4.o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5044-son Farmoni.

5.o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2972-sonli qarori.

6.o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

UYQU FIZIOLOGIYASI, UYQUNING HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI

Abduraimov Otabek Muxtor o’g’li
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti davolash fakulteti 131-guruh talabasi
Email: *otabek262@yahoo.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada uyqu fiziologiyasi, uning organizm uchun ahamiyati va inson hayotiga ta’siri tahlil qilinadi. Uyquning biologik asoslari, uning bosqichlari, sirkadiyal ritmlar hamda uyqu sifatiga ta’sir etuvchi omillar keng yoritiladi. Shuningdek, uyquning jismoniy va ruhiy salomatlikdagi roli, xotira, ish faoliyati va umumiy hayot sifatiga ta’siri, ko’p uxlab ham uyquga to’ymaslikning sabablari haqida ilmiy dalillarga asoslangan ma’lumotlar keltiriladi. Bu maqola butun hayot davomida uyquning ro’li qanchalik katta ekanligi va to’g’ri uyqu rejimiga o’tish uchun ko’rsatma va dalillar bilan yoritilgan! Maqola tibbiyot talabalari, ilmiy tadqiqotchilar va sog‘lom turmush tarzi bilan qiziqqan barcha o‘quvchilar uchun foydali bo‘ladi.*

Uyqu o’zi nima? Uyquni biz inson tanasi bilan miyasi muloqat qiladigan doimiy vaqt deb mavhumiy tushunishimiz ham mumkin. Uyqu – bu organizmning dam olish va tiklanish jarayoni bo‘lib, asab tizimi faoliyatining vaqtincha pasayishi bilan kechadi. Uyqu – bu organizmning tabiiy fiziologik holati bo‘lib, u davomida markaziy asab tizimining faoliyati vaqtincha pasayadi, organizm energiyani tiklaydi va muhim biologik jarayonlar sodir bo‘ladi. Uyqu davomida miyada axborotlarni qayta ishlash, gormonlar ajralishi, hujayralarning yangilanishi va immun tizimining mustahkamlanishi kabi jarayonlar kechadi. Bu holat sirkadiyal ritmlar tomonidan boshqariladi va inson salomatligi hamda hayot sifati uchun juda muhim ahamiyatga ega. Uyqu muhim biologik zaruriyat bo‘lib, u asab tizimi, yurak-qon tomir tizimi, immunitet va ruhiy salomatlikka kuchli ta’sir qiladi.

Uyqu inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, organizmning tiklanishi, miya faoliyati, gormonal muvozanat va umumiy salomatlik uchun juda muhimdir. Tadqiqotlarga ko‘ra, inson hayotining taxminan 1/3 qismini uyquga sarflaydi. Zamonaviy tibbiyotda uyqu fiziologiyasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, chunki uyquning sifati insonning jismoniy va ruhiy holatiga bevosita ta’sir qiladi.

UYQUNING FIZIOLOGIK ASOSLARI

Uyqu – bu passiv holat emas, aksincha, organizmda muhim fiziologik jarayonlar sodir bo‘ladigan **faol holat** hisoblanadi. Uyquni boshqaradigan asosiy tuzilmalar quyidagilardan iborat:

- **Gipotalamus** – uyqu va uyg‘oqlik siklini tartibga soluvchi markaz.
- **Epifiz** – melatonin gormonini ishlab chiqaradi, bu esa uyquga ketishga yordam beradi.
- **Talamus** – axborot oqimini boshqaradi, uyqu davrida sezgi tizimlarini pasaytiradi.
- **Bosh miya po‘stlog‘i** – tush ko‘rish, xotira mustahkamlanishi jarayonlari sodir bo‘ladigan hudud.

Sirkadiyal ritmlar:

Sirkadiyal ritmlar – inson biologik soati bo‘lib, 24 soat davomida **uyqu va uyg‘oqlik** jarayonlarini tartibga soladi. Bu ritmlar asosan **yorug‘lik va qorong‘ilik** ta’sirida shakllanadi. Masalan, ertalab quyosh nuri kortizol gormonini faollashtirib, uyg‘oqlikni oshiradi. Kechqurun esa epifiz tomonidan melatonin ishlab chiqariladi va uyquga ketish jarayoni boshlanadi.



Bunda biz yuqoridan adenozin - ya’ni charchash gormoni, pastdan esa kortizol - ya’ni xushyorlik gormonini ko’rishimiz mumkin. Bundan ko’rib turibmizki, 21:00 da ikkisi ham uxlash uchun, uyquning sifatli bo’lishi uchun maksimal darajada bo’ladi.

UYQUNING BOSQICHLARI:

Uyqu ikki asosiy bosqichga bo‘linadi:

1. NREM (Non-Rapid Eye Movement) – Sekin to‘lqinli uyqu

Bu bosqich 3 qismga ajratiladi:

- **1-bosqich (Yengil uyqu)** – organizm tinchlanadi, mushaklar bo‘shashadi, yurak urishi sekinlashadi.
- **2-bosqich** – miya faoliyati kamayadi, tana harorati pasayadi.

- **3-bosqich (Chuqur uyqu)** – organizm tiklanadi, immun tizimi faollashadi, o‘sish gormonlari ishlab chiqariladi.

2. REM (Rapid Eye Movement) – Tez ko‘z harakati bosqichi

- Bu bosqichda **tush ko‘rish** faollashadi.
- Miya faoliyati uyg‘oqlik holatiga yaqinlashadi.
- Yangi o‘rganilgan bilimlar mustahkamlanadi.



Odam bir kechada taxminan **4-6 marta** bu sikllarni boshidan kechiradi.



E’tibor bergan bo’lsak, har bir siklda tez uyqu qiymati oshib borayapti. Shu bilan birgalikda, chuqur uyquni 3-sikldan keyin boshqa uchratmiyapmiz, Chuqur uyquda inson tanasidagi hamma hujayralar yangilana boshlaydi. Tez uyquda esa miya faoliyati kuchayib xorira shakllanishi kuzatiladi. Aynan bu

davrda inson tush ko’radi. Tush – bu uyquning REM bosqichida miyamiz tomonidan yaratiladigan vizual, eshitish va hissiy tasvirlardan iborat psixologik hodisadir. Tushlar real yoki fantastik bo‘lishi mumkin va ular bizning ongsiz fikrlarimiz, xotiralarimiz, his-tuyg‘ularimiz bilan bog‘liq. Tush – bu miya tomonidan yaratilgan ajoyib fenomen bo‘lib, u bizning ong ostimiz bilan bog‘liq. U xotirani yaxshilaydi, hissiyotlarni boshqaradi va ijodiy fikrlashga yordam beradi. Ularning turlari:

Oddiy tushlar – kundalik hayotdan olingan tasvirlar.
Yo‘qotilgan tushlar – ilgari ko‘rilgan tushlarni qayta his qilish.
Qo‘rqinchli tushlar – stress, charchoq yoki xavotir natijasi.
Ongli tushlar – odam o‘zini tush ichida ekanligini biladigan holat.

Oldin ota-bobolarimiz 2 sigmentli uyquga rioya qilishgan. Bu esa xotirasining mustahkamlanishiga ham jismonan tetik bo’lishiga ham sabab bo’lgan.



Bu orada ba’zi odamlar yaqinlarining uylariga borib, birgalikda ovqatlanib, vaqt o’tkazib, kelib yana o’z uylariga kelib ertalabgacha uxlashgan. Hozirgi kunga kelib esa bular qo’shilib, yagona bitta sigmentli uyquga aylanib qolishgan.

Uyqu falaji:

Uyqu falaji (paralichi) — odam uyg‘onayotgan yoki uxlab qolayotgan vaqtda tanasining harakatlana olmasligi bilan ifodalanadigan holat. Bu hodisa uyquning REM (tez ko‘z harakati) bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, odam hushyor bo‘lishiga qaramay, tanasi harakat qila olmaydi.

Uyqu falajining sabablari:

1. **Uyquning buzilishi** – uyqusizlik, notekis uyqu rejimi, stress.
2. **REM uyqu bosqichi buzilishi** – miyada harakatni nazorat qiluvchi mexanizmlar vaqtincha bloklanadi.
3. **Uyqu rejimining o‘zgarishi** – kechasi kam uxlash yoki ko‘p ishlash.
4. **Genetik moyillik** – ayrim oilaviy holatlar kuzatilgan.
5. **Stress va xavotirlik** – psixologik bosim uyqu sifatiga ta’sir qiladi.

Belgilar:

- **Harakat qilolmaslik** – odam uyg‘oq bo‘lsa ham, qo‘l-oyoqlarini harakatlantira olmaydi.
- **Bosim hissi** – ko‘krakda yoki butun tanada og‘irlik sezilishi.
- **Xayoliy tasvirlar (gallyutsinatsiyalar)** – ko‘z oldida qorong‘u soyalar yoki notanish ovozlarni eshitish.
- **Dahshat hissi** – odam o‘zini xavf ostida deb his qiladi.

Uyqu falaji haqida na’zi manbalarda 13 ta fakt keltirilgan:

1. Uyqu falajligi Er yuzida yashovchi aholining kamida 8 foizida yuz beradigan holat bo`lib, bunda qandaydir vaqt oralig`ida mushaklar qisqarishi batamom to`xtaydi.

2. Uyqu falajligi paytida gapirish, oyoq-qo`lni ishlatish, hattoki boshni qimirlatishning ham imkoni bo`lmaydi. Biroq bir maromda nafas olinib, atrofdagi hodisalarni anglab turiladi.

3. Uyqu falajligi asosan ilk bor o`smirlik davrda yuz beradi, keyinchalik 20-40 yoshgacha tez-tez uchrab turishi va yosh ulg`aygan sari davom etib turishi ham mumkin.

4. Uyqu falajligi nasldan naslga o`tishi, ammo istalgan inson hayotida yuz berishi ham mumkin. Uning asosiy sabablari: uyqusizlik, qattiq hayajon, kun tartibining almashinuvi va chalqancha (osmonga qarab yotgan holda) uxlash.

5. Insoniyat taraqqiyotining turfa davrlarida bu holat turlicha tushunilgan. Qadimda odamlar buni shayton yoki jin bosishi, deb hisoblashgan.

6. Uyqu falajligidan bir nechta harakat yo`llari bilan xalos bo`lish mumkin. Masalan: panjalarni qimirlatishga urinib ko`rish, qo`lni musht qilib ko`rish yoki yo`talib ko`rish.

7. Uyqu falajligi miya uyg`onib, tana hali uyqu holatida bo`lganda yuz berishi mumkin.

8. Uyqu falajligi – eng qo`rqinchli holatlardan biri, u odamni vahimaga solib qo`yadi, ammo organizm uchun xavfsizdir. Shunga qaramay, uning davomli yuz berishi uyqu buzilishiga olib kelishi mumkin.

9. Uyqu falajligi uxlashni boshlaganda yoki uyqudan uyg`onish pallasida yuz berishi mumkin.

10. Uyqu falajligida atrofdan portlashga yoki gumburlashga o`xshash ovozlar eshitiladi.

11. Ayrim hollarda quloq ostida kimningdir vahimali shivirlashlari, javrashlar yoki qandaydir gaplar aniq eshitilib turadi.

12. Yana ayrim hollarda kimdir yuqoridan qattiq bosishi yoki bo`g`ishi seziladi. Buning natijasida nafas olish qiyinlashadi. Bundan tutqanoq yuz berishi ham mumkin.

13. Uyqu falajligi yuz berganida yoshi ulug`larimizning ta`kidlashlaricha, duolar o`qish, kalima keltirib turishi uxlashdan avval tahorat olish, ham yaxshi samara beruvchi choradir.

Davolash va oldini olish:

- **Tartibli uyqu rejimi** – har kuni bir vaqtda uxlash va uyg‘onish.
- **Stressni kamaytirish** – meditatsiya, sport, dam olish muhim.
- **To‘g‘ri uxlash muhitini yaratish** – yotoq xona qorong‘i va shovqinsiz bo‘lishi kerak.
- **Orqa bilan emas, yonboshga yotib uxlash** – ba’zi tadqiqotlar orqa bilan uxlash uyqu falajiga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan.

UYQUNING ORGANIZMGA FOYDALARI:

1. **Asab tizimiga foydasi:**

- Xotira yaxshilanadi, miya axborotni qayta ishlaydi.
- Neyronlarning qayta tiklanishi sodir bo‘ladi.

2. **Immunitetga foydasi:**

- Yetarlicha uyqu immun tizimini mustahkamlaydi.
- Uyqusizlik infeksiyalarga moyillikni oshiradi.

3. **Yurak-qon tomir tizimiga foydasi:**

- Qon bosimi barqarorlashadi, yurak kasalliklari xavfi kamayadi.

4. **Moddalar almashinuviga ta’siri:**

- Yetarli uyqu semirishning oldini oladi.
- Insulin sezgirligi yaxshilanadi, diabet xavfi kamayadi.

5. **Gormonlarga ta’siri:**

- Melatonin, o‘sish gormoni, kortizol kabi muhim gormonlar ishlab chiqariladi. Bu esa insonni osishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bu orqali nafaqat osish va rivojlanish, balki yara yoki kisilgan qismlarning yangilanishi, kasalliklarga qarshi immunitet hosil qilishini ham ko’rishimiz mumkin!

UYQUNING YETISHMOVCHILIGI VA UNING SALBIY OQIBATLARI:

1. Kronik uyqusizlik (Insomniya)

- Doimiy charchoq va energiyaning pasayishi.
- Stress va depressiya xavfining ortishi.

2. Uyqu buzilishlari:

- **Uyqu apnoesi** – nafas olishning to‘xtashi.
- **Narkolepsiya** – kutilmaganda uyquga ketish xurujlari.
- **Parasomniya** – tushida yurish, gapirish, dahshatli tushlar ko‘rish.

3. Diqqat va xotira buzilishi

- Uyqusizlik o‘qish va ishlash samaradorligini pasaytiradi.
- Miya funksiyalari sekinlashadi, qaror qabul qilish qiyinlashadi.

Idiopatik gipersomniya – kunduz kuni uyqu bosishi bilan kechadigan patologik sindrom. Gipersomniya monosimptom sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni boshqa nevrologik va psixotik buzilishlar kuzatilmaydi. Bunday bemor tunda qattiq uyquga ketadi va ertalab uyg‘otmasa, kunduzi soat 12 gacha uxlab qoladi. Sababi noaniq bo‘lgan ushbu sindrom ko‘proq yoshlarda uchraydi. Bu holatni pasaytirish uchun psixostimulyatorlar buyuriladi yoki kunduz kungi jismoniy mehnatga jalb etiladi.

Narkolepsiya – kunduz kuni to‘satdan uxlab qolish, muskullar tonusining birdan yo‘qolishi va keskin psixoemotsional buzilishlar bilan kechuvchi patologik sindrom. Har qanday yoshda kuzatiladigan ushbu sindromning etiopatogenezi to‘la o‘rganilmagan. Uning kelib chiqishiga nasliy omillar sababchi deb ko‘rsatiladi.

Narkolepsiya kunduz kunlari kuchli darajada uyqu bosishi, katapleksiya, gipnogogik holatlar, nutq buzilishi (gapira olmay qotib qolish) va kuchli emotsional reaksiyalar (xoxolab kulib yuborish, yonidagi odamga ajablanib yoki o‘ta qahr ila qarash) bilan namoyon bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, birovga tan jarohati yetkazmaydi. Bu holat bir necha daqiqa yoki soat davom etadi va o‘tib ketadi. Shu bois uni isterik xurujlar bilan adashtirishadi va tashxis qo‘yishda qiyinchilik tug‘diradi.

Katapleksiya – muskullar tonusining birdan yo‘qolishi bilan namoyon bo‘luvchi holat. Shu sababli bemor yiqilib tushadi va bir necha soniya (yoki daqiqalar) mobaynida oyoq-qo‘llarini qimirlata olmay yotadi. Biroq uning xushi saqlangan bo‘ladi. Agarda katapleksiya jag‘ muskullarida ro‘y bersa, bemorning pastki jag‘i osilib qoladi. Bunday holat, ko‘pincha qattiq kulganda ro‘y beradi. Narkolepsiyada kunduz kungi gipersomniya kuzatilsa-da, kechasi tez-tez uyg‘onib ketishlar ro‘y berib turadi. Agar bemor uyg‘onib qolsa, ko‘zini ochadi-yu, oyoq-qo‘llarini qimirlata olmaydi. Bunday holat qattiq qo‘rqib uyg‘onib ketgan sog‘lom odamda ham kuzatilib turadi (ayniqsa, o‘smirlarda).

SIFATLI UYQU UCHUN FOYDALI MASLAHATLAR

*Har kuni bir vaqtda uxlash va uyg‘onish.
*Kechqurun telefondan foydalanishni cheklash.
*Kofein va og‘ir ovqatni kechqurun iste’mol qilmaslik.
*Harorat va yorug‘likni nazorat qilish.
*Yotishdan oldin sport bilan shug‘ullanishdan saqlanish.

Bundan tashqari 13:00-14:00 oralig’ida 20-25 daqiqa mizg’ib olish ham kunning qolgan qismini tetik o’tkazishga katta yordam beradi:



Uyqu inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, organizmni tiklash va sog‘lom yashash uchun zarur. Yaxshi uyqu – bu sog‘lom yurak, kuchli immunitet, faol miya va uzoq umr kafolati! Tadqiqotlar uyquning sifati va davomiyligi sog‘liq bilan bevosita bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Har bir inson o‘zining uyqu gigiyenasiga e’tibor qaratishi va sifatli uyqu odatlarini shakllantirishi lozim.

Men bu haqida o’rganib boshlaganimdan buyon uyqumning sifati ham oshdi va o’zimni doimgidan yaxshiroq his qiladigan bo’ldim! Uyqumning sifatini yaxshilash uchun amal qilgan asosiy narsalarim 1.5x soatlik uyqu rejimi, ya’ni uyqumda har bir sikl to’liq amalga oshishi uchun 1.5 soatlik 1 ta sikldan 4-6 tani to’liq bo’lishiga harakat qildim. Bundan tashqari yotishdan bir - bir yarim soat oldin hech qanaqa telefon va barcha ko’k nurlarga qaramaslikka harakat qildim!

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. “Tibbiyot Psixologiyasi” (Zarifboy Ibodullayev) 2019-nashr

2. “Umumiy Psixologiya” (M.E. Zufarova) 2010-nashr.

3. Kryger, M. H., Roth, T., & Dement, W. C. (2017). *Principles and Practice of Sleep Medicine*. Elsevier.

4. Sateia, M. J. (2014). International classification of sleep disorders – third edition: Highlights and modifications. *Chest Journal*, 146(5), 1387–1394.

5. Ohayon, M. M., & Shahar, E. (2017). Sleep paralysis and associated hypnagogic and hypnopompic experiences. *Journal of Clinical Sleep Medicine*, 13(10), 1203–1211.

6. Cheyne, J. A., Rueffer, S. D., & Newby-Clark, I. R. (1999). Hypnagogic and hypnopompic hallucinations during sleep paralysis: Neurological and cultural perspectives. *Consciousness and Cognition*, 8(3), 319–337.

7. American Academy of Sleep Medicine – www.aasm.org

8. National Sleep Foundation – www.sleepfoundation.org

9. **https://darakchi.uz/oz/45232**

10. **https://youtu.be/r1pGhWQHucA?si=x-QVsvYQ37WQwa42**

DALALARNI LAZER USKUNASI YORDAMIDA TEKISLASHNING TUPROQ AGROFIZIK XOSSALARIGA VA HOSILDORLIKKA TA’SIRINI O‘RGANISH

Sapayeva Saodatjon Satimbay qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
Davlat Universiteti Tuproqshunoslik
yo‘nalishi 1-kurs magistranti
saodatjonsapayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dalalarni lazer uskunasi yordamida tekislashning tuproq agrofizik xossalariga va shuning bilan birga hosildorlikka ta’sirini chet el olimlari hamda O‘zbekistonlik olimlar olib borgan tajribalari o‘rganilib bayon etilgan. Lazer tekislash uskunasi nafaqat dalalarni tekislab qolmay balki hozirgi kundagi asosiy muammo suv yetishmovchilikini ham oldini olishga va suvdan foydalanish koeffitsiyentining oshirishi o‘rganilgan. Bundan tashqari lazerlangan dalalardagi hosil lazerlanmagan dalalarga qaraganda ancha ortganliklari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *suv tejovchi texnologiyalar, suv resurslari, an’anaviy dehqonchilik, sug‘orish vaqti, hosil elementlari, minerlar o‘g‘itlar.*

Abstract: *This article examines the impact of leveling fields using laser equipment on the agro-physical properties of soil and, consequently, on crop yield, based on experiments conducted by both foreign and Uzbek scientists. The laser leveling equipment not only levels the fields but also helps prevent the current major issue of water scarcity and improves the water usage coefficient. Furthermore, the analysis reveals that the crop yield in laser-leveled fields is significantly higher compared to non-laser-leveled fields.*

Keywords: *water-saving technologies, water resources, traditional agriculture, irrigation timing, yield elements, mineral fertilizers.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены эксперименты, проведенные как зарубежными, так и узбекскими учеными, касающиеся влияния лазерной планировки полей на агрофизические свойства почвы и, как следствие, на урожайность. Лазерное оборудование не только выравнивает поля, но и помогает решать одну из основных современных проблем — нехватку воды, а также изучается повышение коэффициента использования воды. Кроме того, проведен анализ того, что урожай на лазерных полях значительно выше, чем на нелазерных.*

Ключевые слова: *водосберегающие технологии, водные ресурсы, традиционное сельское хозяйство, время орошения, элементы урожая, минеральные удобрения.*

Bugungi kunda aholi sonining ko‘payishi, insonlarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining ortishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan yuqori va sifatli mahsulot yetishtirish, har bir resursdan unumli foydalanishga undaydi. Ayniqsa, suv resurslariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi dehqonchilikda suvdan foydalanishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy qilishni talab qilmoqda. Itimoiy hamda iqtisodiy faoliyatning muntazam o‘sishi va iqlim o‘zgarishi kelajakda suv zahirasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelgusida suvga bo‘lgan talabni kamaytirish va atrof-muhitning buzilishini oldini olish, kam suv sarflab, yuqori va sifatli hosil olishga erishish mumkin (Laghari, Vanham et al. 2012).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF– 6024-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiyada ko‘rsatilgan ma’lumotlariga ko‘ra, 2015-yilgacha bo‘lgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 mlrd kub metrni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 7 mlrd kub metrni, 2050 yilga borib esa 15 mlrd kub metrni tashkil etishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida sug‘orma dehqonchilikda suv resurslaridan foydalanishda tejamkor texnologiyalarni qo‘llash majburiyatiga olib keladi.

Suv tejovchi texnologiyalardan biri bu – yerlarni tekislashda lazer nivelir texnologiyasini qo‘llashdir (Martius et al., 2012). Bu usulda tekislangan dalalarning yuzasi ± 2 sm nishablik farq bilan tekislanadi. Bu esa yer tekislashda yuqori darajadagi aniqlikka erishish , suvni tejash va ekinlar hosilini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Lazerli tekislash bilan muntazam ravishda AQSh, Yevropa, Xitoy, Pokiston, Nepal, Bangladesh, Eron va Koreyada qo‘llanib kelmoqdalar (Level- & Kumar, 2018). Respublikamizda ham bu texnologiyani qo‘llash bo‘yicha bir nechta texnik yo‘riqnoma, qo‘llanma, ishlanma va maqolalar nashrdan chiqqan. Ushbu nashrlarda, lazer nivelirida tekislash texnologiyasining afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatilgan va bu texnologiya amaliyotga joriy qilingan. Birgina Xorazm viloyatida 2022 yilda 41408 ga maydon lazer uskunali tekislagichlar bilan tekislangan. Viloyatda 300 dan ortiq lazer tekislagich texnikasi mavjud (Xorazm viloyati statistika bo‘limi ma’lumoti).

Yerni lazer bilan tekislash - bu dalaning o‘rtacha qiyaligi va dalaning turli nuqtalari o‘rtasidagi balandlik farqini ± 2 sm gacha kamaytiradigan texnologiya bo‘lib, dala bo‘ylab bir tekis qiyalikni ta’minlaydi (ur Rehman, Ali et al. 2011). Bu usul orqali suvni tejash va yuqori hosildorlikka olib keladigan dalani aniq tekislashga erishiladi (PIPIP 2018). Yerlarni lazer nivelirda tekislashning muhim afzalliklari orasida ekinlarga suvni bir hil qo‘llash, nihollarning bir xil unib chiqishi, suv isrofgarchiligini sezilarli darajada kamaytirish, o‘simliklarga ozuqa moddalarning bir xil taqsimlanishi kiradi. Bundan tashqari yog‘ingarchilik davrida yaxshi drenaj bo‘la oladi (Saxena, Ambast va boshq., Eid, Mohamed et al. 2014). Lazerli yer tekislashning turli ekinlarga ta’sirini baholash uchun tadqiqotlar o‘tkazildi. An’anaviy tekislash bilan solishtirganda sug‘oriladigan bug‘doy ekinlari uchun suvni tejash 20-30% oralig‘ida, hosildorlik 5-23%, ozuqa moddalaridan foydalanish samaradorligi 11% va yerlarni lazer bilan tekislashda qishloq xo‘jaligi mehnatini 18% tejash (PIPIP 2018) (Jat, Chandna va boshq. 2006, PIPIP).

Dehqonchilikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan yuqori hosil olishda aniq dehqonchilik tizimlaridan foydalanish ekinlar hosildorligini oshirishga imkon yaratadi. Jumladan, Kunjun Li (Li et al., 2018) va boshqalar aniq ekish va yerni lazer bilan tekislashning kuzgi bug‘doy hosildorligini oshishini o‘rgangan. Bundan tashqari tuproqdagi azot qoldig‘ining miqdori kamayishini ham aniqlashgan. Tajriba Xitoyning markaziy qismidagi Xenan provinsiyasining Changge shahrida o‘tkazilgan. O‘tkazilgan izlanishlar natijasida yerni lazerli tekislash texnologiyalari bilan integratsiyalangan aniq ekishda bug‘doy hosili 22,51% ga oshgan.

Hindistonning Haryana shtadi Mevat tumanida Usha Ahuja (Narayan & Singh, 2016) boshchilik bir guruh tadqiqotchilar ushbu hududdagi fermer xo‘jaliklarining dehqonchilik tizimini o‘rgandilar. Bu hudud yerlari to‘lqinsimon bo‘lib, sug‘oriladigan maydonlari kam, suv resurslari ham yetishmasligi ma’lum bo‘ldi. Tadqiqotchilar tumanning oltita qishlog‘ida yerlarni lazer nivelir orqali tekislash bo‘yicha tajribalar o‘tkazdilar. Natijada sug‘oriladigan ekin maydonlari 67,8% dan 100% bo‘lishiga erishilgan. Bundan tashqari begona o‘tlar 35,3 %dan 7,5% ga kamaygan, suvdan foydalanish samaradorligini optimallashtirilgan.

Vojid Ali Shahani (Shahani et al., 2016) va bir guruh tadqiqotchilar Pokistonda dehqonchilik mahsulotlari hosilining juda pastligi va bunga asosiy sabab aksariyat fermerlar haligacha an’anaviy dehqonchilik tizimidan foydalanib kelayotganligini ko‘rsatib o‘tishdi. Tadqiqotchilar Pokistonning Sind provinsiyasi hududidagi bug‘doy va paxta yetishtirishga ixtisoslashgan 120 fermer xo‘jaligida dalalarni lazerli tekislash bo‘yicha tajribalar o‘tkazdi. Tajriba natijasida sug‘orish suvlari 25% ga tejalgan. Bundan tashqari bug‘doy va paxta hosili sezilarli darajada oshgan. Ayrim fermer xo‘jaliklari tejalgan suv hisobiga shakarqamish yetishtirish mumkinligini ko‘rsatib o‘tishgan.

Jeetendra P. Aryal (Aryal et al., 2015) boshchilik bir guruh tadqiqotchilar Hindistonning Haryana va Panjob shtadlarida yerlarni an’anaviy usulda tekislash va lazer nivelirda tekislashda bug‘doy va sholi ekinlarinig hosildorligining o‘zgarishini statistik tahlil qildilar. Bundan tashqari, sug‘orish uchun ketgan vaqt hisobiga sug‘orish suvining tejalishini o‘rgandilar. An’anaviy yer tekislash bilan solishtirganda, yerni lazerli tekislashdan foydalanish bug‘doy va sholining hosildorligini oshirishga va bu ekinlar uchun zarur bo‘lgan umumiy sug‘orish vaqtini qisqarganini aniqladilar. Tekshiruv natijalari asosan sholi dalalarida lazerli tekislash sug‘orish vaqtini mavsumda 47-69 s/ga qisqartirgan va hosildorlik esa taxminan 7% ga oshgan. Xuddi shunday bug‘doyda sug‘orish vaqti mavsumda 10-12 soat / ga qisqargan, hosildorlik Haryanada taxminan 7% va Panjobda 9% ga yaxshilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, yerlarni lazer nivelir yordamida tekislash sug‘orish suvini sezilarli darajada tejaydi va hosildorlikni oshiradi.

Muhammad Khalid Jamil va boshqa tadqiqotchilar Pokistondagi Hind daryosi havzasida notekis dalalarda toshqin suvlari hisobiga dehqonchilik qiladigan maydonlarda o‘z tatqiqotlarini olib bordilar. Hind daryosi havzasidagi bir joyda lazerli va an’anaviy tekislangan bug‘doy dalalarida qiyosiy dala tajribasini o‘tkazdilar. Tadqiqot natijasida sug‘oriladigan bug‘doy uchun yerlarni lazer bilan tekislashning suvni tejash imkoniyatlarining fazoviy aniq bahosini ishlab chiqilgan. Eksperimental natijalar suvni 20% tejalgani va Hind daryosi havzasida sug‘oriladigan bug‘doy uchun yiliga 6 km^3 suv iqtisod qilingani aniqlangan.

Yerlarni lazerli tekislash yer, suv, energiya, mehnat, o‘g‘it kabi resurslardan to‘g‘ri foydalanishda yuqori ko‘rsatkich berishini Qingfeng Miao (Miao et al., 2021) va boshqa tadqiqotchilar o‘z tajribalarida o‘rgandilar. Tajriba Xitoyning Xetao irrigatsiya okrugida va Portugaliyaning Quyi Mondego irrigatsiya okrugida makkajo‘xori yetishtiriladigan ekin maydonlarda o‘tkazilgan.

Lazerli tekislash ozuqaviy moddalardan foydalanish samaradorligini oshirishi, aniq dehqonchilik qilish imkoniyatini kafolatlanilishini, begona o‘tlar bilan bog‘liq muammolarni kamayishii, ekinlarning unuvchanligini bir xilligini va vazifalarni bajarish vaqtini qisqartirishini M.A. Hoque va M.A. Hannan (M.A. Hoque., 2014) Bangladesh qishloq xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti (BARI) fermasida 2010-2011 yillardagi tadqiqotlar natijasida ko‘rsatib berdilar. Tajriba an’anaviy va lazerli tekislangan bug‘doy ekilgan dalalarda o‘tkazildi va bug‘doyning hosil elementlari tahlil qilindi.

Muhammad Nasir, Adnan Noor Shah (Saleem et al., 2023) Pokistonning janubiy Panjob shtatidagi fermerlar dalalarida 3 gektar maydonda yerlarni lazer yordamida tekislashning suvdan foydalanish samaradorligi va hosildorlikka ta’sirini baholash uchun tajriba o‘tkazdilar. Tajriba yerni tekislashda 0,05% nishablik va an’anaviy tekislash o‘tkazilgan dalalar solishtirildi. Tajriba natijalarida yerni 0,05% gradient bilan tekislash boshqa usullarga nisbatan suvdan foydalanish samaradorligini, hosildorlikni va sof foydani sezilarli darajada yaxshilagan.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti ilmiy hodimlari A.B.Ochilov va boshqalar yerlarni lazer nivelirda tekislash ekologik barqarorlikni ta’minlashda, suv resurslaridan samarali foydalanishda katta samara berishini o‘z tadqiqotlarida o‘rganishgan.

Avezov S.A. (S.A. et al., 2022) shogirdlari bilan birga Xorazm viloyati sug‘oriladigan ekin maydonlarida sholi yetishtishtirishda lazer nivelirni qo‘llash bo‘yicha taqdiqot olib borilgan. Tajriba natijasida sholi ekin maydonlarini tekislashda an’anaviy va lazer nivelir orqali tekislashning farqlari keltirilgan. An’anaviy usulga nisbatan lazerli tekislangan sholi ekin dalalarida suvning sarflanishi 25% tejalgan, tuproq sho‘rlanishining kamayshiga erishilgan, sug‘orish vaqti, ishchi kuchi, energiya sarfi kamaygan, ekinlar bir tekisda unib chiqishiga erishilgan, ekinlar bir xil namlik va oziqa bilan ta’minlangan, bug‘doy-sholi hosili gektariga 4-7 s ga oshganligi aniqlangan.

Olib borilgan tadqiqot natijalari ma’lumotlari asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, yerlarni lazer nivelir asosida tekislash eng yaxshi suv tejovchi texnologiyalardan biridir. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda lezer tekislashning bir qancha afzalliklari ko‘rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aryal, J. P., Mehrotra, M. B., Jat, M. L., & Sidhu, H. S. (2015). Impacts of laser land leveling in rice–wheat systems of the north–western indo-gangetic plains of India. *Food Security*, *7*(3), 725–738. https://doi.org/10.1007/s12571-015-0460-y

2. Level-, L. L., & Kumar, G. R. (2018). What is the Procedure for Dialysis? *Kauvery Hospital*, 850–852. https://kauveryhospital.com/blog/nephrology/what-is-the-procedure-for-dialysis/

3. Li, C., Wang, Y., Lu, C., & Huai, H. (2018). Effects of precision seeding and laser land leveling on winter wheat yield and residual soil nitrogen. *International Journal of Agriculture and Biology*, *20*(10), 2357–2362. https://doi.org/10.17957/IJAB/15.0820

4. M.A. Hoque., M. A. H. (2014). PERFORMANCE EVALUATION OF LASER GUIDED LEVELER. *AgEcon Search*, 82–86. file:///F:/Spec 2/Traffic Delay Model.pdf

5. Martius, C., Rudenko, I., Lamers, J. P. A., & Vlek, P. L. G. (2012). Cotton, water, salts and soums: Economic and ecological restructuring in Khorezm, Uzbekistan. *Cotton, Water, Salts and Soums: Economic and Ecological Restructuring in Khorezm, Uzbekistan*, *9789400719*, 1–419. https://doi.org/10.1007/978-94-007-1963-7

6. Miao, Q., Gonçalves, J. M., Li, R., Gonçalves, D., Levita, T., & Shi, H. (2021). Assessment of precise land levelling on surface irrigation development. Impacts on maize water productivity and economics. *Sustainability (Switzerland)*, *13*(3), 1–22. https://doi.org/10.3390/su13031191

7. Narayan, P., & Singh, A. (2016). *RESEARCH ARTICLE IMPACT OF LASER LEVELING IN PEARL MILLETS : A CASE STUDY OF MEWAT * Usha Ahuja Prem Narayan and Amarjeet Singh*. *October*.

8. S.A., A., U.S., Q., & O.O, S. (2022). SHOLI EKIN DALALARNI LAZER NIVELIRI YORDAMIDA TEKISLASH VA KARTALASHTIRISH. *Экономика и Социум*, *7*(98), 17–21.

9. Saleem, S., Hussain, I., Ullah, H., Iqbal, M. U., Aslam, U., Nasir, M., Khaliq, A., Masood, S. A., Rauf, H. A., Shah, A. N., & Hussain, F. (2023). Gradient-based LASER Land Leveling Increases the Water Use Efficiency, Growth, and Yield of Cotton Crop under Changing Climate. *Proceedings of the Pakistan Academy of Sciences: Part B*, *60*(2), 215–224. https://doi.org/10.53560/PPASB(60-2)813

10. Shahani, W. A., Kaiwen, F., & Memon, A. (2016). Impact of Laser Leveling Technology on Water Use Efficiency and Crop Productivity in the

ТИЛ – МУОМАЛА ВОСИТАСИ ВА ЎРГАНИШ ФАНИ СИФАТИДА.

Muxtorova Farangiz Abbos qizi
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Мақолада тилнинг муомала воситаси ва фундаментал-лингвистик аспектдаги фан сифатида тил, нутқ, нутқ фаолияти, тил материали каби тушунчалар билан боғлиқ ҳолда ўрганилиши муаммоси кўриб чиқилган. Тил муомала воситаси сифатида умуминсоний феномен сифатида қаралади ва тилнинг мазкур жиҳати унинг барча аспектларида тилни тадқиқ қилишнинг ҳам назарий, ҳам методик мақсадларда ўрганишни ўз ичига олади. Тил ўрганиш фани сифатида икки аспект – тилни назарий, лингводидактик, ҳамда методик мақсадларда ўрганиш, яъни ҳам ўргатиш, ҳам ўрганиш фани нуқтаи назаридан таҳлил қилинади. Тил муомала воситаси, ҳамда ўрганиш фани сифатида ўзаро боғлиқдир ва улар бир-бирини тақозо қилади, чунки улар ҳам тил, нутқ, нутқ фаолияти ва тил материалининг умумий, ҳамда алоҳида ҳар бирининг мантиқий ташкил этувчи унсурлари ҳисобланади.*

Kalit so'zlar: *til, nutq, nutq faoliyati, til materiali, statika, dinamika, nazariya, amaliyot.*

Kirish

Тил – ҳар бир инсон учун бебаҳо қадрият, муқаддас тушунчалар мажмуи, дунёни англашнинг дебочасидир. Мил-лат мавжудлигининг асоси, миллат ҳаётийлигининг тимсоли – тилдир. Она тили инсон туғилишиданоқ вужудига сингган бебаҳо қудрат, маънавий қадриятлар шаклланишининг туб негизи. Миллий тил ҳам мамлакат мадҳияси, байроғи, туғи, конституцияси қаторида турувчи амал қилиши қонун билан ҳимоя қилинадиган давлат рамзларидан биридир. Инсон дунёга келибдики, ота-онаси, қон-қариндоши, ватанини ўзи танлай олмаганидек она тилини ҳам ўзи танлолмайди, фақат уни шарафлашга, улуғлашга, асраб-авайлашга маҳкумдир – бу тилни фарзандларига, авлод-ларига бус-бутун ҳолда мерос қилиб қолдиради. Дарҳақиқат, буюк маърифат-парвар Абдулла Авлоний сўзлари билан айтганда, *«ҳар бир миллатнинг дунёда борлиғини кўрсатадурғон ойнаи ҳаёти тил ва адабиётидур. Миллий тилни йўқотмак миллатнинг руҳини йўқотмакдур»*.

Til aloqa vositasi va o'rganish intizomi sifatida statik va dinamik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali hodisadir.

Til, o'rganish fanlari to'plami sifatida, aloqa vositasi sifatida uning xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, tilning aloqa vositasi va tilning o'rganish intizomi sifatida o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi yaqin va mantiqiy izchildir. Tilni fan sifatida o'rganishning ikki tomoni bor:

1) monografiya, dissertatsiya, maqola va boshqalar kabi matn turlarida amalga oshiriladigan nazariy o'rganish;

2) darslik, o'quv qo'llanma, o'quv qo'llanma va boshqalar kabi matn turlarida amalga oshiriladigan amaliy o'rganish (lingvodidaktika va metodologiya).

Tildan aloqa vositasi va o'rganish intizomi sifatida foydalanish uning quyidagi tushunchalarini hisobga olish asosida amalga oshiriladi:

♦ til (statikadagi til);

♦ nutq, nutq faoliyati (dinamikadagi til);

♦ til materiallari *(tilning dinamik, funktsional jarayonining grafik yoki akustik sobit natijasi).*

Ushbu tushunchalarni ikki tomondan – nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqing. Til, nutq, nutq faoliyati, til materiallari *(nazariy va uslubiy jihatlar)*.

Til, nutq, nutq faoliyati, til materiallari – F. de Sossyur tomonidan kiritilgan til-nutq dixotomiyasi asosida shakllangan tilshunoslikning to'rtta asosiy tushunchalari umumiy tilshunoslik, xususiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslikni qamrab oluvchi monolingual rejada ham, ikki va ko'p tilli rejalarda ham nazariy va amaliy tadqiqot-larning asosidir, lingvistik tipologiya, qiyosiy lingvistika, lingvodidaktika va meto-dika.

Til, nutq, nutq faoliyati, lingvistik material - F. de Sossyur tomonidan kiritilgan til-nutq dixotomiyasi asosida shakllangan tilshunoslikning ushbu to'rtta fundamental tushunchasi ham bir tilda, ham ikki va ko'p tillarda nazariy va amaliy tadqiqotlarning asosi bo'lib, umumiy tilshunoslik, o'ziga xos lingvistika, kompilyatsiya uistika, ling-vodidaktika va metodologiya.

Til, nutq, nutq faoliyati, til materiallari-inson aloqasining asoslari, chunki alo-qasiz aloqani amalga oshirish mumkin emas:

a) tilni statika sifatida bilish;

b) nutqni dinamika sifatida bilish;

c) nutq faoliyatini uning barcha turlarida amalga oshirish qobiliyati *(tinglash, o'qish, yozish, gapirish, ichki nutq, tarjima)*;

d) til materiallarini, ya'ni matnlarni bilish.

1. Til - bu statik holatda bo'lgan til birliklari *(tovushlar, so'zlar, iboralar, jumlalar, bir juft miyologik birliklar va boshqalar)* to'plami,

ya'ni.kommunikatorlar tomonidan foydalanilmagan holatda. Til-bu barcha til birliklari, barcha til aloqa vositalari saqlanadigan omborga o'xshaydi.

Tilda *(uning statik holatida)* til birliklari o'zgarishsiz, bir xil grammatik shakllarda, bir xil leksik ma'nolarda, stilistik ranglarda va boshqalarda uchraydi. tilning statik holatida kontekstual ma'nolar, so'zlarning fono variantlari, individual mualliflik yangiliklari va boshqalar paydo bo'lishi mumkin emas, chunki bularning barchasi tug'iladi va tilning dinamik *(funktsional)* holatida, ya'ni nutqda, nutq fao-liyati jarayonida ishlaydi.

Shunday qilib, til statikdir, bu o'zgarishlarga, nutqdan tashqari talqinlarga mos kelmaydigan normalar, chunki statik holatdagi tilning barcha boyligi harakatsiz boy-likdir. Statik holatdagi til uning dinamik holatini ifodalash, nutq faoliyati orqali nutqni yaratish uchun asosdir.

2. Nutq-tilning dinamikasi, ya'ni.ma'ruzachi va tinglovchi *(tinglovchi va ma'ruzachi)*, yozish va o'qish, ikki tilli, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish bilan shug'ullanadigan uning faoliyatidagi holati.

Nutqda til birliklari asosan ularda til holatida, ya'ni statikada o'rnatilgan me'yor va qoidalarda ishlaydi. Ammo turli xil taqsimotlarda bo'lish, bir-biri bilan har xil aloqada bo'lish, til birliklari sifat jihatidan ham, miqdoriy jihatdan ham o'zgarishi mumkin. Masalan:

a) til birligi yangi majoziy ma'noga ega;

b) til birligi uning fonovariantini shakllantiradi, u yangi stilistik rangga ega yoki yo'q;

c) til birligi sinonim, antonimga ega;

d) yangi til birligi *(leksema, frazeologizm, maqol va boshqalar)* tug'iladi, bu til va nutqqa yangi tushuncha, yangi og'zaki belgi kiritadi;

e) tilning so'z yasovchi tomoni tilning ichki vositalari hisobiga ham, boshqa tillar bilan aloqa qilish orqali ham rivojlanadi *(boyitiladi)* va hokazo.

3. Nutq faoliyati-bu shaxs, jamiyat tomonidan fikrni ifodalash, ma'lumotni uzatish va ma'lumotni og'zaki va yozma ravishda, to'g'ridan-to'g'ri aloqa orqali ham, maso-fadan turib ham idrok etish uchun amalga oshiriladigan faoliyat jarayoni.

Nutq faoliyati har xil. Uning mazmuni, til-nutq vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan nutqiy vaziyatning xususiyatlariga, kommuni-katorlarning tilni bilish darajasiga, ularning bilim darajasi, umumiy va til madaniyati darajasiga bog'liq.

Nutq faoliyatining har bir turi o'ziga xos lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlar bilan ajralib turadi, bu nutq faoliyatini u yoki bu kalitda, u yoki bu kontsep-tual mazmunli hajmda va hokazolarda amalga oshirishga yordam beradi.

Nutq faoliyati turlari olti turga bo'linadi:

1) idrok *(eshitish/tinglash)* nutq faoliyati;
2) artikulyatsion nutq faoliyati *(gapirish);*
3) ovozli-harfli nutq faoliyati *(o'qish)*;
4) grafik *(yozma/yozish)* nutq faoliyati;
5) ichki nutq faoliyati *(shaxsning ichki nutqi)*;
6) tarjima nutq faoliyati *(bir tildan boshqasiga tarjima)*.

Ovoz yozish moslamalari, elektron aloqa vositalarining paydo bo'lishi bilan shaxs va jamiyatning nutq faoliyatini amalga oshirish yanada xilma-xil, soddalash-tirilgan *(bir tomondan)* va yanada murakkablashdi *(boshqa tomondan)*. Bir-biridan uzoq masofada joylashgan odamlarning bir lahzalik aloqasi til va nutqqa o'z tuzatish-larini kiritadi. Inson aloqasining nutq tomoni *(ham og'zaki, ham yozma)* kuchli turtki oldi, bu til birliklaridan standart me'yorlarda foydalanish jarayoniga jiddiy ta'sir qiladi, ya'ni. elektron aloqada *(Internet)*, unda ko'pincha ba'zi normalar buziladi yoki kommunikatorlar o'rtasida elektron aloqa uchun qulay bo'lgan yangi normalar shakl-lana boshlaydi. Ilmiy adabiyotlarda ko'pincha *"nutq"* va *"nutq faoliyati"* tushun-chalari va atamalari sinonim sifatida ishlatiladi.

Masalan: yozma nutq va yozma nutq faoliyati; og'zaki nutq va og'zaki nutq faoliyati. Biz M. Jusupovdan keyin nutqni nutq turlarining to'plami *(tinglash, gapirish, o'qish, yozish)* va nutq faoliyatini nutq turlarini keltirib chiqaradigan faoliyat jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz.

Inson va umuman jamiyat nutq faoliyatining lingvistik va nutqiy natijasi elektron akustik, grafik jihatdan aniqlangan matn turlari, shuningdek, lingvistik va nutqiy aloqa ishtirokchilarining ongida shakllanadigan ma'nolar, tushunchalar, ob'ektlar, hodisalarning tovushli yoki yozma psixofillari.

4. Til materiallari - bu matn turlari, ya'ni.nutq, nutq faoliyatining akustik yoki grafik jihatdan aniqlangan natijasi. Saqlangan *(allaqachon yaratilgan)* barcha akustik yoki grafik sobit matn turlari til materialidir *(kitoblar, jurnallar, ommaviy axborot vositalaridagi matnlar va boshqalar)*.

Til va nutqning barcha normalari, til va nutq normalaridagi kontekstual o'zgarishlar, individual mualliflik yangiliklari qayd etiladi va til materialida *(matn turlarida)* saqlanadi.

Til materiallari, birinchi navbatda, nutq faoliyatining natijasi, ya'ni. nafaqat til va nutqning normativligini, balki ularning kontekstual, vaziyatli o'zgaruvchanligini ham qayd etadigan til va nutq sohasi, ya'ni. tilning statikasida mavjud bo'lmagan yangiliklar, shu bilan birga, umuman olganda, ushbu dinamik neoplazmalarning ombori hisoblanadi. til va nutqda, chunki ular allaqachon matnlarda, matnlar esa vaqt va hudud makonidagi til materialidir. Ushbu tilda so'zlashuvchilarning yangi avlodi ushbu matnlarga e'tibor qaratadi, ushbu

mazmunli til materialida tarbiya-lanadi, unda vaqt o'tishi bilan nutqdagi dinamik yangiliklarning ma'lum bir qismi allaqachon til normasiga aylanadi.

Shunday qilib, norma, bir tomondan, barcha foydalanuvchilar uchun til tomonidan majburiy bo'lgan statik hodisa, boshqa tomondan, u yoki bu darajada til dina-mikasining ba'zi jihatlarini keltirib chiqarishga yordam beradi, shuning uchun ham ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan normaning lingvistik nutq talqinlarining sababi va shuning uchun yangi sinonim yoki antonimik normaning paydo bo'lishi-ning sababi.

Bu ona tilida so'zlashuvchi *(xodim, uy bekasi, yozuvchi, shoir, olim va boshqalar)* erkin shaxs sifatida, kundalik faoliyati sohasida tilni ishlatadigan ijodiy shaxs, ya'ni. nutq faoliyatini keltirib chiqaradigan, albatta, til va nutq me'yorlariga rioya qilishga intiladi va shu bilan birga ushbu me'yoriy doiradan tashqariga chiqishga intiladi, chunki u ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladigan nutqni beradi, unda normaning talqinlari paydo bo'lishi mumkin yoki nutq mahsulotlarini seman-tikaga yangiliklar bilan maxsus tayyorlaydi, mos keladigan kontekstda foydalana-digan til birligi uslubida uning yangi til va nutq nuanslarini amalga oshirish uchun.

Tilning lingvodidaktik va uslubiy jihatlari aloqa vositasi va o'rganish intizomi sifatida ko'plab ixtisosliklar bilan ajralib turadi, bu ta'limning maqsadi va vazifalariga, o'qitishning kasbiy yo'nalishiga *(filologik, filologik bo'lmagan)*, *(boshlang'ich, o'rta daraja, o'qitishning ilg'or darajasiga)* bog'liq. Shu nuqtai nazardan, sotsiolingvistik vaziyat *(til muhitining mavjudligi yoki yo'qligi)* katta ahamiyatga ega, bu tilni o'qitishning u yoki bu usulini belgilaydi *(tabiiy til muhitida, sun'iy ravishda yaratilgan til muhitida)* va boshqalar.

Til aloqa vositasi va o'rganish intizomi sifatida til va nutqning statik va dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitilishi kerak. Bunday holda, til *(statika)* va nutq, nutq faoliyati *(dinamikasi)* va til materiallari qamrab olinishi kerak. Shuning uchun turli xil mashqlar tipologiyalari taklif etiladi, ammo asosiylari quyidagilar:

1) til nazariyasini o'rgatish mashqlari;

2) nutq faoliyatini o'rgatish mashqlari;

3) til materialini tahlil qilish ko'nikmalari va ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari;

4) tilning statik va dinamik jihatlarini va til materialining turlarini o'z ichiga olgan mashqlar.

Taklif etilayotgan o'quv til topshiriqlarining murakkabligi o'quvchilarning qaysi tilni o'rganishiga bog'liq:

♦ ona tili *(o'zbek, qozoq)*, ona tili bo'lmagan til - rus tili;

♦ chet tili – ingliz tili va boshqalar, shuningdek til darajalari *(fonetika, lug'at, so'z shakllanishi, morfologiya va boshqalar),* ularning xususiyatlari har xil.

Tilni fan sifatida o'qitishning muvaffaqiyatli metodologiyasi til nazariyasini, o'quv maqsadlari uchun til materialini lingvodidaktik tavsiflash darajasiga bog'liq. Tilni o'rganish intizomi sifatida o'qitishning yakuniy maqsadi o'rganilayotgan tilda *(kundalik aloqa, kasbiy aloqa va boshqalar)* talabalarning bilimlari, ko'nikmalari va *(faoliyatning aloqa ko'nikmalarini amalga oshirish)* ni shakllantirishdir.

Shunday qilib, til aloqa vositasi va o'rganish intizomi sifatida muammoning nazariy va amaliy jihatlari bir – biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan poli aspekt hodisasidir: til statikasi, til dinamikasi *(nutq, nutq faoliyati)*, til materiallari, lingvodidaktika, metodologiya. Ularni birgalikda va tabaqalashtirilgan holda o'rga-nish tilning ichki mohiyatini aloqa vositasi va o'rganish intizomi sifatida ochib bera-digan nazariy va amaliy natijalarni beradi.

Ushbu tushunchalar tilni nazariy *(to'g'ri ilmiy)* va amaliy *(o'quv-ilmiy)* o'rga-nish muammolari bilan teng bog'liqdir. Bu tilning nazariy tavsifi ikki jihatdan amalga oshirilganligi bilan izohlanadi:

1) til nazariyasini nazariy maqsadlarda tahlil qilish va tavsiflash;

2) til nazariyasini lingvodidaktik va uslubiy maqsadlarda tahlil qilish va tavsiflash *(o'quvchilarga ushbu tilni, ushbu fanni o'rgatish uchun).*

Til nazariyasini tavsiflashning ushbu usullari jiddiy farqlarga ega, chunki ularning yakuniy maqsadi har xil *(aslida ilmiy va o'quv va ilmiy).*Til nazariyasini tavsiflashning ikkala turi ham til va nutqning asosiy tushun-cha-lariga asoslanadi, ularning har birida til mavjud – aloqa vositasi sifatida va til o'rganish intizomi sifatida, ularsiz tilni inson hodisasi sifatida to'liq o'rganish mumkin emas.

Xulosa: Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ҳар бир миллатнинг ўзига хос турмуш тарзи, урф-одатлари ва маданияти бор. Тил уларнинг энг муҳим таркибий қисмидир. Шундай экан, тил нафақат алоқа воситаси, балки миллат маданияти, халқнинг урф-одати, турмуш тарзи, ўзлиги, кечмишидир. Она тилига, давлат тилига, шунингдек, бошқа тилларга ҳурмат эса шахснинг юксак маданияти, саводхонлиги даражасини белгилаши билан бирга, ўзаро муло-қотга, ҳурматга йўл очади. Президентимиз таъкидлаганидек, “ҳар биримиз давлат тилига бўлган эътиборни мустақилликка бўлган эътибор деб, давлат тилига эҳтиром ва садоқатни она Ватанга эҳтиром ва садоқат деб били-шимиз, шундай қарашни ҳаётимиз қоидасига айлантиришимиз лозим”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bel'dian V.M. Lingvodidaktika va uning mashqlar tizimini qurish uchun talablari // Milliy universitetda rus lingvodidaktikasining muammolari. – M., 1994, 39-50-betlar.

2. Yusupov M. Rus va qozoq tillarining tovush tizimlari. bo'g'in. Interferentsiya. Talaffuzni o'rgatish. – Toshkent: Fan, 1999, 241 b.

3. Yusupov M. Lingvodidaktika va metodologiyasi polyscientific tizimi til ta'limi / rus tili chet elda. M, 2009 yil, № 2. B.26-32.

4. Yusupov M. Ijtimoiy lingvistika, lingvodidaktika, metodologiya (o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'liqlik) / Chet elda rus tili. M, 2012 yil, № 1. 22-28-betlar.

5. Begmuradovich, S. A. (2025). Einsatz von Informationstechnologie im Fremd sprachenunterricht. Современное образование и исследования, 1(3), 97-102.

6. Bekmuradovich, S. A. (2025). The usage of modern educational technologies in teaching a foreign language in higher educational institutions. Ta‘‘lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 1(2), 180-184.

7. Begmuradovich, S. A. (2023). Integration of educational process forms. Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar/ Journal of pedagogy, psychology and social research, 2(2), 20 23.

8. Leontiev A.A. Til, nutq, nutq faoliyati. – M.: Ta’lim, 1999 yil.

9. Sossyur, F. de. Umumiy tilshunoslik kursi / Tilshunoslikka oid asarlar. M., 1997 yil.

7. Shcherba L.V. Til hodisalarining uch tomonlama jihati va tilshunoslikdagi tajriba to'g'risida // Shcherba, Til tizimi va nutq faoliyati. Leningrad, 1994 yil.

ABDULLA QAHHOR VA CHEXOV HIKOYALARIDAGI OBRAZLAR TAHLILI

Abduvohidova Farangiz Vahob qizi

Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti noshirlik ishi yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya*:* *Ushbu ishda, Abdulla Qahhor va Anton Chexovning hikoyalaridagi asosiy obrazlar tahlil qilinadi. Abdulla Qahhorning asarlarida, ko‘pincha o‘zbek xalqining ijtimoiy va madaniy hayoti, uning an’analari, orzu-istaklari, va insoniy munosabatlari yoritiladi. Chexov esa o‘z hikoyalarida inson tabiatining murakkabligini, ichki qarama-qarshiliklarini va jamiyatdagi*

o‘zgarishlarni tasvirlaydi. Ushbu tahlil orqali har ikki yozuvchining obrazlari, ulardagi insoniyatning umumiy va o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, ularning asarlarida mavjud bo‘lgan o‘xshash va farqli elementlar ko‘rib chiqiladi. Abdulla Qahhorning o‘ziga xos mahorati va Chexovning psixologik teranligi orqali, har bir yozuvchi o‘z milliy va universal qadriyatlarini qanday ifodalashini o‘rganish mumkin.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qahhor, Anton Chexov, hikoyalar, obrazlar tahlili, ijtimoiy va madaniy hayot, inson tabiatining murakkabligi, psixologik portret, so‘z ixchamligi, aforizm, hikoyalar sharhi.*

Abdulla Qahhor, haqli ravishda qisqa hikoyaning mahoratli ustasi va o‘zbek nasrining asoschilaridan biri sifatida tanilgan. Uning hikoyalarida insonning murakkab tasvirlari, hayotdagi ziddiyatlar va muammolar chuqur yoritilgan. Qahhorning asarlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ular insoniyatning illatlari va oddiy odamlarning hayotini aks ettiradi. Uning ijodiy merosi, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Qahhorning qahramonlari, ularni shakllantirgan muhit, an’analari va urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotiga hikoya janrining beqiyos ustasi sifatida kirgan va u o‘zbek Chexovi deb ataladi. O‘z ijodida u so‘zning buyuk ustasi A. P. Chexovni o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. Qahhor, Chexovning gumanizm g‘oyalarini asosiy yo‘nalish sifatida olib, o‘zbek xalqining eng yaxshi xususiyatlarini - aniq aql, kundalik donolik va hazilni tasvirlaydi. Uning tili lakonik, aforizmlar bilan boyitilgan va o‘zbek nasriga xos rang-baranglikdan iborat.

Abdulla Qahhor o‘zining asarlari orqali zamonaviy yozuvchilarga ta’sir ko‘rsatgan va Sharq badiiy tafakkurini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Uning hikoyalarida haqiqatni tasvirlash, realizmni badiiy san’at shaklida ko‘rsatish asosiy maqsad bo‘lgan. "O‘g‘ri" hikoyasida eski va yangi dunyo qarama-qarshiligini ko‘rsatayotgan Qahhor, ota va o‘g‘il o‘rtasidagi dushmanlikni tasvirlaydi. Uning qahramonlari, oddiy mehnatkashlar, ularning og‘ir hayotini ochib berish uchun muallif nutqidan, personajlarning nutqini stilistik usulda ishlatadi[1]

Qahhorning "O‘g‘ri", "Anor", "Bemor" kabi hikoyalarida amaldorlarning yomon ishlarini qoralaydi va shohlik davridagi axloqqa bo‘ysunadi. "Bemor" hikoyasida esa og‘ir azob chekayotgan ayolning taqdiri, unga yordam berishga ojiz bo‘lgan sotibolining holati, shuningdek, ona va bola o‘rtasidagi muqaddas aloqalar bayon etiladi. Uning asarlarida satira va hazil orqali o‘tmish qoldiqlari zamonaviy mavzular bilan birlashtirilgan[2]

Abdulla Qahhor va Anton Chexovning hikoyalaridagi obrazlar tahlili – o‘zbek va rus adabiyotlarida zamonaviy jamiyat va insonni tasvirlashdagi o‘xshashliklar va farqlarni o‘rganishga qaratilgan qiziqarli mavzu. Qahhorning asarlari, ayniqsa qisqa hikoyalar, o‘zbek milliy adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning hikoyalari, asosan, xalq hayoti, uning an’analari, mehnati va ijtimoiy-psixologik muammolarni yoritadi. Shu bilan birga, Qahhorning adabiyotga qo‘shgan hissasi Chexovning tasviriy uslublarini o‘ziga xos tarzda o‘zlashtirishdir. Chexovning psixologik tahlilga bo‘lgan katta e’tibori va uning yondashuvi, Qahhor ijodida ham ko‘rinadi.

Qahhor va Chexovning asarlarida, ko‘pincha, kishi va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, insonning ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklar, ba’zan esa jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy adolatsizliklar ko‘rsatiladi. Qahhor, Chexovga o‘xshab, odamlardagi ichki kurashni, ularning xarakterlarini, va boshqalar bilan munosabatlarini chuqur tahlil qiladi.

Qahhorning adabiy merosi nafaqat o‘zbek, balki butun Sharq badiiy tafakkurini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. U o‘z ijodida Chexovning realizm va psixologik tahlil uslublarini qo‘llagan bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniyati va axloqiy qadriyatlarini chuqur yoritishga e’tibor qaratgan. Shuningdek, Qahhor o‘zining hikoyalarida amaldorlar, jamiyatdagi ikki yuzlamachilik, mehnatkashlarning hayoti va ularning o‘zini anglashiga katta ahamiyat beradi.

Tahlil davomida shuni ham ta’kidlash kerakki, Qahhorning asarlarida bo‘layotgan ijtimoiy ziddiyatlar, psixologik qarama-qarshiliklar, va insoniy ehtiyojlar bugungi kunda ham dolzarbdir. Uning asarlari, ayniqsa "O‘g‘ri", "Anor", "Bemor", "Boshsiz odam" kabi hikoyalar, o‘zbek xalqining turmush tarzini, axloqiy normalarini, shuningdek, xalqning ijtimoiy, ma’naviy holatini yoritishdagi ahamiyatga ega[3]

Chexov va Qahhorning obrazlari va tahlil uslublari o‘xshash bo‘lsa-da, har bir yozuvchining o‘ziga xos yondashuvi bor. Qahhor o‘zbek xalqining an’anaviy qadriyatlarini hurmat qilgan holda, zamonaviy ijtimoiy muammolarni o‘rganadi. Chexov esa, ko‘proq shaxsiy va psixologik omillarni keltirgan, insoniyatning noaniq va murakkab tomonlarini ko‘rsatishga intilgan. Har ikki yozuvchining asarlarida o‘zlarining hikoya qilish uslublari orqali ijtimoiy adolatsizlik, mehnatkashlar hayoti va insoniyatning psixologik holatlari qamrab olingan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor va Anton Chexovning hikoyalari o‘zaro mushtarakliklarga ega bo‘lsa-da, ularning adabiy uslublari va inson obrazlarini yaratishdagi yondashuvlari alohida xususiyatlarga ega. Qahhor o‘zbek adabiyotining klassik yozuvchisi sifatida xalq hayoti va qadriyatlarini chuqur tasvirlab, o‘zbek milliy adabiyotiga ulkan hissa qo‘shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Irina Borolina. Abbdulla Qahhorning ijodkorlik inshosi 2020
2. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an’anaviylik, vorisiylik, o‘ziga xoslik Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodi misolida.
3. Sultanxo‘jayeva G.S. // A.P.Chexovning zamonaviy o'zbek adabiyoti rivojiga ijodiy ta'siri masalalar

MECHANISMS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN SECONDARY SCHOOLS

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHET TILINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Ismatova Madina Inomjon qizi
Tashkent State Pedagogical University
Foundation doctoral student (PhD)
ismatovamadina2407@gmail.com

Abstract. *This article analyzes mechanisms for improving foreign language teaching methodology in general education schools. The paper examines the importance of modern approaches, innovative methods and technologies, teacher professional development issues, and ways to improve curricula. Based on literature analysis, practical recommendations for improving foreign language teaching methodology have been developed.*

Keywords: *foreign language teaching methodology, communicative approach, modern technologies, competency-based approach, motivation, interactive learning, language skills development.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy yondashuvlar, innovatsion usullar va texnologiyalarning ahamiyati, o'qituvchilar malakasini oshirish masalalari, hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Adabiyotlar tahlili asosida chet tilini*

o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *chet tili o'qitish metodikasi, kommunikativ yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, kompetentsiyaviy yondashuv, motivatsiya, interaktiv ta'lim, til ko'nikmalarini rivojlantirish.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы механизмы совершенствования методики преподавания иностранного языка в общеобразовательных школах. В статье рассматриваются современные подходы, значение инновационных методов и технологий, вопросы повышения квалификации учителей, а также пути совершенствования учебных программ. На основе анализа литературы разработаны практические рекомендации по совершенствованию методики обучения иностранному языку.*

Ключевые слова: *методика обучения иностранному языку, коммуникативный подход, современные технологии, компетентностный подход, мотивация, интерактивное обучение, развитие языковых навыков.*

INTRODUCTION

In today's era of globalization, learning foreign languages is more important than ever. In Uzbekistan, improving the foreign language teaching system has been elevated to the level of state policy, with a number of reforms being implemented (Mamadaliyev, 2022). However, there are still issues with teaching methodology in practice that need to be addressed.

Foreign language learning and teaching methodology continues to evolve alongside developments in pedagogical science. Forming communicative competence, using modern technologies, and considering students' individual characteristics are currently relevant issues (Jalolov, 2020).

METHODOLOGY AND LITERATURE REVIEW

The research methodology is based on scientific-theoretical analysis, review of pedagogical literature and scientific articles, and comparative analysis. Mechanisms for improving foreign language teaching methodology are analyzed based on information from Uzbek, Russian, and foreign sources.

Modern foreign language teaching methodology encompasses several key approaches. Jalolov (2020) has revealed the advantages and superiority of the communicative approach in his research. The author emphasizes that using communicative situations in the language learning process is important for developing students' language skills.

Rahimov (2023) has deeply studied the problems in the foreign language teaching process in schools and provided recommendations on addressing issues such as improving teacher qualifications, using modern learning materials, and increasing student motivation. According to him, a foreign language teacher's professional competence should include not only knowledge of the language but also the ability to use modern pedagogical technologies.

Among foreign researchers, Richards and Rodgers (2019) have analyzed various methods in foreign language teaching, revealing the advantages and disadvantages of each method. They have substantiated the effectiveness of modern approaches such as Task-based learning, Content and Language Integrated Learning (CLIL), and Total Physical Response (TPR).

Brown's (2021) research has examined the effectiveness of using digital technologies in foreign language teaching. According to him, digital technologies help to further individualize the language learning process, enable students to work independently, and expand opportunities to use authentic materials.

Russian scholar Passov (2018) has proposed a communicative-cognitive approach, demonstrating the importance of forming intercultural competence in foreign language teaching. He emphasizes that in the process of language teaching, it is important to also teach the culture of people who speak that language.

Among local scholars, Sobirov (2025) has emphasized the importance of implementing a competency-based approach to increase the effectiveness of foreign language teaching in schools. Based on his research, practical recommendations for developing students' communicative competence have been developed.

RESULTS AND DISCUSSION

Based on the literature review, the following mechanisms were identified for improving foreign language teaching methodology in general education schools:

The communicative approach is one of the most effective methods in foreign language teaching. As Jalolov (2020) notes, this approach creates environments similar to real-life situations for developing language skills. Key implementation mechanisms include considering individual student characteristics, creating authentic communication situations, organizing role plays and group work, and using authentic materials.

Digital technologies significantly enhance language learning effectiveness. Brown (2021) emphasizes that modern technologies provide students with access to authentic materials and increase engagement. Recommended mechanisms include integrating online resources, mobile applications, and virtual reality technologies, as well as equipping classrooms with appropriate technical tools.

Teacher professional development remains crucial for methodological improvement. According to Rahimov (2023), teachers need both language knowledge and skills in applying modern pedagogical approaches. Important mechanisms include regular professional development courses, experience exchange with foreign partners, online professional development opportunities, and mentoring systems.

Curriculum improvement must focus on meeting contemporary educational standards. Sobirov (2025) highlights the importance of competency-based curricula. This requires adapting curricula to competency-based approaches, focusing on comprehensive language skills development, incorporating intercultural competence elements, developing modern educational materials, and refining assessment systems.

Student motivation significantly impacts language acquisition success. Passov (2018) emphasizes creating emotionally engaging learning environments. Effective mechanisms include implementing interactive teaching methods, educational games, project-based learning, cultural events, and creating opportunities for practical language application outside the classroom.

CONCLUSION

Mechanisms for improving foreign language teaching methodology in general education schools require a multifaceted and comprehensive approach. Based on the literature review, the following conclusions were formulated:

1. The communicative-competency approach has a priority in improving foreign language teaching methodology, as this approach helps develop students' practical language skills.

2. Using modern technologies makes the foreign language teaching process more effective and interesting, increases students' motivation, and expands opportunities for independent learning.

3. Improving teacher qualifications is one of the most important conditions for enhancing foreign language teaching methodology. Teachers should be familiar with modern pedagogical technologies, innovative methods, and approaches.

4. Improving curricula and materials, adapting them to modern requirements, and creating competency-based learning materials are important tasks.

5. To increase student motivation, it is recommended to use innovative approaches such as interactive methods, game technologies, and project work.

By applying these mechanisms comprehensively, it is possible to further improve foreign language teaching methodology in general education schools, develop students' language skills, and achieve results that meet international educational standards.

REFERENCES

1. Brown, H. D. (2021). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
2. Jalolov, J. (2020). *Foreign Language Teaching Methodology*. Tashkent: O'qituvchi.
3. Mamadaliyev, A. (2022). Issues of reforming the foreign language teaching system in Uzbekistan. *Education and Innovations*, 2(3), 45-52.
4. Passov, E. I. (2018). *Communicative Method of Teaching Foreign Language Speaking*. Moscow: Prosveshcheniye.
5. Rahimov, B. (2023). Teaching foreign languages in general education schools: problems and solutions. *Modern Education*, 5(2), 78-86.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2019). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
7. Sobirov, M. (2025). *Competency-Based Foreign Language Teaching Methodology*. Tashkent: Yangi asr avlodi.
8. Xudoyberganova, Z. (2024). Innovative methods of teaching foreign languages in schools. *Scientific Information*, 7(4), 112-120.

NYUTON QONUNLARINI PHET SIMULYATSION DASTURI ORQALI TUSHUNTIRISH METODIKASI

Sayidov Namozjon Erkin o‘g‘li
Navoiy viloyati Karmana tuman 10-maktab

Annotatsiya:*Ushbu maqolada fizika fanini nyuton qonunlarini PhET simulyatsion dasturi orqali tushuntirish metodikasi va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va zamonaviy ta’lim jarayonidagi dolzarb jihatlari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, jumladan, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv ta’lim platformalari o‘quvchilarning fizika qonuniyatlarini vizual tushunishiga yordam beradi. Shuningdek, maqolada ushbu texnologiyalarning afzalliklari, samaradorligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiyalar, fizika ta’limi, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv ta’lim, innovatsion pedagogika, STEM-ta’lim, zamonaviy o‘qitish usullari*

Kirish. Nyutonning harakat qonunlari fizikaning eng muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, ular klassik mexanikani tushunishda asosiy o‘rin tutadi. Nyutonning uchta harakat qonuni (inersiya qonuni, harakatning ikkinchi qonuni va harakatning uchinchi qonuni) barcha jismoniy tizimlarda harakatni tavsiflashda asosiy tamoyillarni beradi. Shunday bo‘lsa-da, bu qonunlarning tushuntirilishi o‘quvchilar uchun ba'zan qiyin bo‘lishi mumkin, chunki ular ko‘pincha matematik jihatdan murakkab va nazariy jihatdan abstraktdir.

Raqamli texnologiyalar, jumladan, PhET (Physics Education Technology) simulyatsiya dasturi, Nyuton qonunlarini o‘rgatishda o‘quvchilarga ko‘plab amaliy va vizual tushunchalarni taklif etadi. PhET simulyatsiyalari o‘quvchilarga fizika qonunlarini tajriba orqali o‘rganishga imkon beradi, bu esa ularning tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu maqolada Nyuton qonunlarini PhET simulyatsion dasturi yordamida o‘rgatish metodikasi tahlil qilinadi.

I. Nyuton qonunlari va ularning o‘qitish muammolari

1.1 Nyutonning birinchi qonuni (inersiya qonuni)

Nyutonning birinchi qonuni, ya'ni inersiya qonuni, jism harakati uning ustiga tashqi kuch tushmayotgan bo‘lsa, to‘g‘ri chiziq bo‘yicha harakatini davom ettirishi yoki dam olishi haqida aytadi. Bu qonun jismning holatini o‘zgartirish uchun kuch kerakligini ko‘rsatadi. Inersiya qonunini tushuntirishda o‘quvchilarga to‘liq namoyishlar va amaliy mashqlar kerak bo‘ladi.

1.2 Nyutonning ikkinchi qonuni (kuch va tezlanish o‘rtasidagi bog‘lanish)

Nyutonning ikkinchi qonuni kuch va tezlanish o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalaydi, ya'ni jismga ta'sir qilayotgan kuch uning tezlanishini o‘zgartiradi va bu tezlanish jismning massasiga teskari proporsional bo‘ladi. Bu qonunni tushuntirishda o‘quvchilarga real tajribalar orqali kuchning massaga va tezlanishga ta'siri ko‘rsatilishi zarur.

1.3 Nyutonning uchinchi qonuni (har bir harakatga qarshi teng va qarama-qarshi kuch)

Nyutonning uchinchi qonuni, ya'ni aksiya va reaktsiya qonuni, har bir kuchga qarshi teng va qarama-qarshi kuch borligini aytadi. Bu qonunni tushuntirishda o‘quvchilarga real dunyo misollaridan, masalan, harakatlanayotgan mashina yoki parvoz qilayotgan raketa haqida tushuncha berish muhimdir.

II. PhET simulyatsiyalari va ularning ta'limdagi ahamiyati

PhET simulyatsiyalari — bu fizika fanida o‘quvchilarga zamonaviy va interaktiv tajribalar yordamida murakkab ilmiy tushunchalarni tushuntirish uchun mo‘ljallangan dasturlar. Ushbu dastur o‘quvchilarga real hayotdagi tajribalarni boshdan kechirmasdan, matematik hisoblashlarni amalga oshirmasdan, faqat ekran orqali sinovlar o‘tkazishga imkon beradi. PhET simulyatsiyalari

o‘quvchilarga nafaqat o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga, balki ularning tushunishini mustahkamlashga yordam beradi.

PhET simulyatsiyalari yordamida Nyuton qonunlarini tushuntirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

III. Nyuton qonunlarini PhET simulyatsiyalari orqali o‘rgatish metodikasi

3.1 Nyutonning birinchi qonuni: Inersiya

Simulyatsiya: "Forces and Motion: Basics" PhET simulyatsiyasining "Forces and Motion: Basics" dasturi o‘quvchilarga inersiya qonunini ko‘rsatuvchi interaktiv platformani taqdim etadi. Bu simulyatsiyada o‘quvchi jismni turli kuchlar bilan siqib yoki tashlab, uning harakatini kuzatishi mumkin. Shuningdek, kuchlar ta'siri ostidagi jismning harakati o‘zgarishini yoki harakatning davom etishini o‘rganish mumkin.

Metodika:

- O‘quvchilar simulyatsiyada jismni to‘xtatib yoki tezlashtirib, uning holatini o‘zgartirishni kuzatadilar.
- Ularning e'tibori inersiyaning qanday ishlashiga qaratiladi, ya'ni jismga tashqi kuch ta'sir qilmasdan uning harakati qanday davom etishini ko‘rsatish.
- O‘quvchilarga mashq qilish uchun jismni to‘xtatish yoki tezlashtirish, uning harakatini tahlil qilish topshiriqlari beriladi.

3.2 Nyutonning ikkinchi qonuni: Kuch va tezlanish

Simulyatsiya: "Forces and Motion: Basics" PhET simulyatsiyasining ushbu moduli orqali o‘quvchilar jismga turli kuchlarni ta’sir etib, uning tezlanishiga qanday ta'sir ko‘rsatishini o‘rganishlari mumkin. Bu simulyatsiyada jismning massasi va unga ta'sir qilayotgan kuchlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish mumkin.

Metodika:

- O‘quvchilarga jismga turli kuchlarni qo‘llash va uning tezlanishini o‘lchash topshiriladi.
- Jismning massasini va unga ta'sir qilayotgan kuchni o‘zgartirib, qanday tezlanish hosil bo‘lishini tahlil qilish talab etiladi.
- O‘quvchilarga kuch va tezlanishning qanday bog‘lanishini tushuntirishda simulyatsiya orqali mashqlar beriladi.

3.3 Nyutonning uchinchi qonuni: Aksiya va reaktsiya

Simulyatsiya: "Collision Lab" PhET simulyatsiyasining "Collision Lab" dasturi o‘quvchilarga jismning harakatini va ularning o‘zaro ta'sirini, ya'ni aksiya va reaktsiyani o‘rganishga imkon beradi. Bu simulyatsiyada o‘quvchilar jismning

boshqa jism bilan to‘qnashishini va shu orqali aks va reaktsiyaning qanday ishlashini kuzatadilar.

Metodika:

- O‘quvchilarga to‘qnashish va kuchlarning reaktsiyasini kuzatish uchun simulyatsiya yordamida bir nechta variantlar beriladi.
- To‘qnashuv vaqtida bir jismning boshqa jismga qanday ta'sir ko‘rsatishini va aksiya-reaktsiya prinsipi qanday ishlashini tushuntirish uchun savollar beriladi.
- O‘quvchilarni aksiya va reaktsiya qonunini real misollar orqali tushunishga yordam berish.

IV. Natijalar va tahlil

PhET simulyatsiyalari yordamida Nyuton qonunlarini o‘rgatish metodikasi o‘quvchilarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- **Interaktiv o‘rganish:** O‘quvchilar o‘zlari turli sharoitlarda amaliyot o‘tkazib, qonunlarning qanday ishlashini ko‘rishlari mumkin.
- **Tushunishni mustahkamlash:** Raqamli simulyatsiyalar o‘quvchilarning murakkab ilmiy tushunchalarni ko‘rish va tushunish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.
- **Tajriba qilish imkoniyatlari:** PhET simulyatsiyalari o‘quvchilarga o‘zlari mustaqil ravishda tajriba qilish va qonunlarni o‘rganish imkoniyatini beradi.

V. Xulosa: Nyuton qonunlarini o‘rgatishda PhET simulyatsion dasturidan foydalanish o‘quvchilarga ilmiy tushunchalarni amaliy va interaktiv tarzda o‘rgatishga imkon beradi. Bu usul nafaqat o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularning bilimlarini mustahkamlaydi va ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Shunday qilib, PhET simulyatsiyalari yordamida Nyuton qonunlarini o‘rgatish, o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Tursunov, Sh. (2020).** *Fizika fanini o‘qitish metodikasi.* Toshkent: O‘zbekiston Milliy

Universiteti nashriyoti.

2. **Jabborov, R., & Xudoyberdiyev, I. (2019).** *Zamonaviy raqamli texnologiyalar va*

ularning ta'lim jarayonidagi o‘rni. Tashkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti

nashriyoti.

3. **PhET Interactive Simulations. (2023).** https://phet.colorado.edu/.

SEMANTIC ROLES AND RELATIONS OF CONSTITUTIVE WORDS IN COMMUNICATION

Shaxruza Behzodova
PhD student of Samarkand state institute of foreign languages
Theory of Language. Practical and computer Linguistics.
+998993442112

Abstract: *it is important to remember that meaning plays a big part in human communication. As a result of this, semantics as a discipline has come under scrutiny. There is still no agreement among linguists on a single, practical definition of semantics. Numerous endless attempts to define semantics have resulted from this dispute. As a backdrop or theoretical framework, this study focuses on the semantic functions of words in a particular setting that supports extentionalist viewpoints. According to the notion, language is made up of words that are used in a certain context to improve communication among people who share the same linguistic boundaries. Given the foregoing, the research primarily examines the functions of words in communication.*

Key words: *semantics, linguistics, word, text, prototype, communication, meaning*

Introduction

There has long been disagreement about the meaning idea in relation to semantics research. It goes without saying that philosophers and modern linguists continue to struggle to agree on the nature of meaning and how it influences human language. According to Lord (1966), meaning is rife with contradiction, ambiguity, and conflict. As a result of the challenge of establishing a single, widely accepted definition, several efforts at redefinition have become possible. Since it would act as a starting point for our investigation, it might not be out of place to provide a brief explanation of what semantics is. Semantics’ etymology may be traced back to the ancient Greek word semantics, which means "significant" and refers to the linguistic and philosophical study of meaning. It examines the connection between signifiers—such as words, phrases, signs, and symbols—and the meanings they convey. Semantics, to put it simply, is the study of meaning (Agbedo 2015). According to him, it refers to how native or proficient speakers of a particular language utilize and comprehend words and phrases with different grammatical structures. The interpretation of signals used in the environment within a certain circumstance or context is the focus of

semantics in linguistics. The study of the relationships between various language units and compounds, as well as homonymy, synonymy, antonymy, hypernymy, hyponymy, menomyny, metonymy, and homonymy, is another purposeful goal of semantics as a subfield.

Main Part

Both of the aforementioned definitions revolve around meaning. It is abundantly evident that the problem with semantics is not unrelated to meaning. The question of what meaning is therefore crucial. This means that the study's focus is on semantic roles as a foundational element to explain and/or understand words in a communication. Over time, semantic roles have been a contentious topic. Regardless of this claim, the research aims to recognize, repeat, and/or reaffirm the widely held belief that language is functional and that word meaning is contextual.

Every definition is an attempt to fill a gap, making it incomplete. Palmer (1981) defines meaning as the movement of concepts from one person's thinking to another through language. Critics argue that the above is insufficient to sustain the classic conceptualist theory of meaning due to its vagueness and generality. According to Katz (1972), previous attempts to provide immediate responses to meaning have faced obstacles. Furthermore, too many theories confound the idea of meaning, including referential theory, stimulus response theory, and use theory. Each theory associates sentence constituents with observable objects, events, and actions.

Linguists formerly prioritized lexical meaning over sentence structure. According to Bienwisch (1969), the study of'meaning' examines how words and sentences connect to objects and processes in the world, as well as their relationships to one another through synonyms, entailments, and contradictions.

Obviously, lexeme and sentence provide complimentary functions. A clause or sentence's meaning is determined by its component lexeme and the context in which it appears. According to renowned philosopher Weitingenstien, the meaning of a word or statement is typically associated with its use. Lyons (1969) describes aims rather than definitions. Semantic analysis explains how sentences in a specific language are understood, interpreted, and connected to state, processes, and things in the world.

In education, understanding the meaning of a statement and its relevance to other expressions requires knowledge of lexical components and their interrelationships. Words should not be viewed as 'containers' of meaning (Yule, 1996), but rather as functional components within a sentence's context.

Semantic Roles

A semantic role is an encoder's underlying notion or knowledge that corresponds to the actions that words take in a particular context. Aside from the language encoding of that scenario, it is the actual activity performed by the person in some real or imagined circumstance. It is also known as the underlying connection between a patient and the primary verb in a phrase.

Gawron (2013) defines semantic roles as the roles that individuals play in events and circumstances. Because they are part of language communication, prototypes are used to define them, and labels are approximate representations of their semantic responsibilities.

Characteristics of semantic roles

Semantic roles (SR) also thematic roles (TR) attempts to identify the similarities and dissimilarities in verb meaning that are reflected in argument expression with emergent generalizations that will contribute to the mapping from semantics to syntax.

Characteristics of SR

1. Completeness; the argument of every verb is designated TR or the other.

2. Uniqueness; designated only on TR.

3. Distinctiveness; every verb is differentiated from the other argument by the role it is assigned.

4. Independence; each role is given a consistent semantic definition that applies to all verbs and all situations [8. 4p]

Scholars have long contested the validity of the semantic function in linguistic theory. The topic is whether semantic roles should be classified as syntactic, lexical, semantic, or conceptual entities, or as a primordial component of language knowledge (1968; 77). Despite current debate, widespread understanding recognizes semantic roles as conceptual aspects (Jac. 1990). The research focuses on the roles of words in context, hence a linguistic theory that explores word meaning is suitable. Lexical semantics is a theory that emphasizes meaning in context.

According to Cruse (1986), the meaning of a word is determined by its contextual relation; hence, a distinction is drawn between degrees of involvement and codes of participation. He emphasizes that in order to achieve this difference, each portion that bears a meaning and integrates it with the meanings of other constituents is labeled as a sentence constituent. Semantic components that cannot be reduced down into simpler constituents are referred to as minimum semantic constituents.

Words and sentences complement each other, therefore they should not be viewed just as reservoirs of meaning, but rather how they interact within a

context. The semantic role refers to a participant's underlying relationship with a word in a sentence.

Conclusion: This study demonstrated the relevance of assigning roles to lexemes as a formative aspect in good communication. Effective communication requires understanding both the denotative and connotative meanings of words, as well as the context of the speech. Every lexical word has meaning, but its social application, as determined by its role, can either improve or degrade communication. Communication is meaning-oriented, whether written or spoken. To avoid ambiguity, misunderstanding, or misconception, the semantic responsibilities of words in situations must be carefully explained. Words have several functions in daily encounters, both formal and informal, due to their multifunctionality and polysemous nature. In other words, words can have several meanings.

REFERENCES

1. Agbedo, C. U. (2015). General linguistics: An introductory reader. Ibadan: Penguine Books.

2. Bienwisch, M. (1969). Certain problems of semantic representations. FL, 5. 153-84.

3. Carnap, R. (1956). A study in semantics and modal logic (enlarged edition). Chicago: University of Chicago Press.

4. Cruber, J. (1976). Studies in lexical relations. MIT: doctoral dissertation and lexical structures in syntax and semantics. North Holland.

5. Cruse,D.(1986). Lexical semantics. Cambridge: Cambridge university press.

6. Fillmore, C. (1968). The case for case in universals in linguistic theory. In E. Bach and R. T. Harms. New York: Holt, Rinehart and Winston.

7. Gawron, J. M. (2013). Semantic roles and grammatical relations. USA: San Diego University.

8. Joseph Akanya, Clement Gowon Omachonu. Meaning and semantic roles of words in context. International Journal of English Language and Linguistics Research Vol.7, No 2, pp. 1-9, March 2019. P-9

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA YENGIL ATLETIKA

To‘lashova Nozima
Qarshi davlat universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ilmiy manbalar va tarixiy dalillarga asoslangan holda, yengil atletikaning O‘zbekistondagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.O‘zbekistonda yengil atletikachilarning mustaqillikdan keyingi davrlarida erishgan yutuqlari, sportning rivojlanish bosqichlari va dastlabki musobaqalar haqida ma’lumot beriladi. Yengil atletikaning mamlakatimizda ommalashib borishi, shuningdek, o‘zbek sportchilari tomonidan qo‘lga kiritilgan ilk natijalar va ularning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Yengil atletika, Osiyo o‘yinlari, yengil atletika yutuqlari, o‘zbek sportchilari, musobaqalar tarixi, olimpiya o‘yinlari, mustaqillik va sport, yengil atletika musobaqalari.*

Asosiy qism

Yengil atletika – sportning eng qadimgi va ommabop turlaridan biri bo’lib,uning bir nechta yo’nalishlari mavjud. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng Olimpiya, Osiyo o‘yinlari, jahon chempionati va boshqa xalqaro musobaqalarga o‘z terma jamoalari bilan bevosita qatnashish huquqiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi 1992-yil Xalqaro yengil atletika federatsiyasi IAAF ga a‘zo bo‘lib kirdi. 1993-yilda esa Osiyo yengil atletika assotsiasiyasiga qabul qilindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng davlatimiz yengil atletikachilari jahon miqyosidagi barcha musobaqalarda faol qatnashib yuqori o‘rinlarni egallashgan.

1991-yil o‘zbek yengil atletikachilari sobiq Ittifoq xalqlari Spartakiadasida 1 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza, medallariga sazovor bo‘lishdi. O‘zbekiston terma jamoasi birinchi marta 1994-yil Xirosima shahridagi (Yaponiya) XII Osiyo o‘yinlarida 11 sportchi bilan ishtirok etib, 3 ta oltin (S.Munkova-balandlikka sakrash, O.Yarigina-nayza uloqtirish, R.G‘aniev- o‘nkurash), 2 ta kumush (V.Parfenov-nayza uloqtirish, O.Veretelnikov- o‘nkurash) va 3 ta bronza (K.Zaytsev-nayza uloqtirish, K.Sarnadskiy-uzunlikka sakrash, V.Popova-disk uloqtirish) medallariga egalik qildi

Keyingi yillarda bo‘lib o‘tgan musobaqalarda ham yurtimiz yengil atletikachilari faol qatnashib, shohsupaning yuqori o‘rinlarini egalladilar va munosib taqdirlandilar.

1999-yil Bangkokda (Tayland) XIII Osiyo o'yinlarida 13 ta atletikachilarimiz ishtirok etib, 2 ta oltin S.Voynov nayza otish, O. Veretelnikov o‘nkurashda, 2 ta kumush A. Abduvaliev bosqon uloqtirishda va 4x100 m estafetada ayollar o‘rtasida g‘alabaga erishgan. Osiyo o‘yinlari va chempionatlarida (1993-2000) o‘zbekistonlik sportchilar 7 ta oltin 13 ta kumush va 7 ta bronza medalini qo‘lga kiritdilar.

Xalqaro arenalarda yosh yengil atletikachilarimiz 1994-2004-yillar mobaynida yuqori sport natijalariga sazovar bo_lishgan. Ulardan Pavel Andreev, Vitaliy Smirnov, Rifat Ortiqov, Olga Varonina, Rustam Xusnitdinov, Yuliya Piskunova, Andreey Padurov, Nataliya Filatovalar Yurtimiz sharafini munosib himoya qilgan bo‘lsalar, 2002-2012-yillar oralig‘ida ular safi kengayib 7 kurash bo‘yicha Yuliya Tarasova, uzunlikka sakrashda Artyom Lobochev, Diana Plumaki, Aleksandra Kotlerova, balandlikka sakrashda Svetlana Radzevil, Nadiya Dusanova, o‘rta masofalarga yugurishda Irina Zudixina, Ruslan Nasirov, yadro irg‘itishdan Vasilina Kozyakskiy, Oksana Kot, Grigoriy Kamulyalar g‘olib va sovrindorlar qatoridan joy olishgan.

2006 yil Qatarning Doxa shahrida o‘tkazilgan XV Osiyo o‘yinlarida vatanimiz yengil atletikachilari 6 m edalni qo‘lga kiritdilar. G.Xubbieva (100 m) - oltin; A.Andreev (langarcho‘pga tayanib sakrash), V .Sm irnov (o ‘nkurash), A.Juravleva (uch hatlab sakrash), G.Xubbieva (200 m) - kumush; Z.Amirova (800 m) - bronza medallariga sazovor bo‘lib, umum jamoa hisobida yaxshi o'rinlarni egallashga o‘z hissalarini qo‘shdilar

Xulosa: Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yengil atletika rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratildi. Mamlakatda sport sohasiga davlat darajasida katta e’tibor qaratilib, sport majmualari va mashg‘ulot bazalari barpo etildi. O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi faoliyati takomillashtirilib, sportchilarning tayyorgarlik jarayonlari xalqaro standartlarga moslashtirildi.

Ayniqsa, yosh iste’dodlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor berildi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida sport to‘garaklari kengaytirilib, trenerlar malakasi oshirildi. Bu esa yengil atletikaning ommalashishiga va yangi sportchilarning yetishib chiqishiga imkon yaratdi.

Natijada, O‘zbekiston sportchilari Osiyo o‘yinlari, jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli qatnasha boshladilar. Mustaqillik yillarida Olga Shishigina, Svetlana Radzivil, Doston Yoqubov kabi atletlar xalqaro maydonda yuksak natijalarga erishdi

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yengil atletika rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar, sport infratuzilmasining rivojlanishi va yosh avlodga qaratilgan e’tibor tufayli bu

sport turi tobora ommalashib bordi. Kelajakda O‘zbekiston atletlarining yanada yuqori natijalarga erishishi va jahon miqyosida tanilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Utayev Z. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.2022.
2. Qudratov R. Yengil atletika. T.; ’’ Noshir ‘’. 2012
3. Abdullayev.M, Olimov.M, To‘xtaboyev. T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.; ‘’Barkamol fayz media‘’ 2017
4. Niyozov.I. Yengil atletika. T.; O‘quv qo‘llanma.2009
5. Shokirjonova.K. Yengil atletika . O‘quv qo‘llanma. T.; Lider Press.2007

SAMARQAND ME’MORIY OBIDALARI: TARIX VA SAN’AT UYG‘UNLIGI

Olimova Sevara Utkirjon qizi
Qarshi davlat universiteti tarix fakulteti mamlakatlar va mintaqalar yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Samarqand me’moriy obidalari, ularning tarixiy rivojlanishi va san’at bilan uyg‘unligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Samarqand Sharq sivilizatsiyasining eng qadimgi markazlaridan biri bo‘lib, uning me’morchiligi turli davrlarning madaniy va san’at yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida barpo etilgan me’moriy obidalar o‘zining betakror naqsh va bezaklari bilan ajralib turadi. Maqolada Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Bibixonim masjidi, Ulug‘bek madrasasi kabi tarixiy yodgorliklarning me’moriy xususiyatlari va ularning san’at bilan uyg‘unligi o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari Samarqand me’morchiligini rivojlantirish va uni kelajak avlodga yetkazish muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand, me’morchilik, tarixiy yodgorliklar, Registon, Shohi Zinda, Bibixonim masjidi, Temuriylar davri, san’at uyg‘unligi, islom me’morchiligi, naqsh va bezak.*

Samarqand dunyo sivilizatsiyasining eng qadimgi markazlaridan biri bo‘lib, uning me’moriy merosi Sharq san’atining eng yuksak namunalari qatoriga kiradi.

Ushbu maqolada Samarqandning tarixiy obidalari, ularning me’moriy xususiyatlari va san’at bilan uyg‘unligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

1. Samarqand me’morchiligining tarixiy taraqqiyoti

Samarqandning me’morchiligi asosan uch asosiy bosqichga bo‘linadi:

1) Qadimgi davr (Afrosiyob shahri va ilk islomiy obidalar),

2) Temuriylar davri (Amir Temur va uning avlodlari barpo etgan muhtasham binolar),

3) Keyingi davr (XVII–XX asrlar va zamonaviy tiklanish jarayonlari).

Bu davrlar davomida shahar o‘zining me’moriy uslublarini boyitib, turli san’at yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan.

2. Temuriylar davrida Samarqand me’morchiligi

Amir Temur davrida Samarqand me’moriy jihatdan gullab-yashnagan. Bu davrda qurilgan obidalar quyidagilar:

- Registon maydoni – uchta madrasadan iborat bo‘lib, Ulug‘bek madrasasi (XV asr), Sherdor madrasasi (XVII asr) va Tillakori madrasasi (XVII asr) bu yerda joylashgan.

- Shohi Zinda majmuasi Samarqanddagi eng qadimgi maqbara majmualaridan biri bo‘lib, XIV–XV asrlarga oid qabr va maqbaralar o‘zining nafis ganch o‘ymakorligi va sirlangan koshinlari bilan mashhur. Shohi Zinda majmuasi Islom me’morchiligining noyob namunasi bo‘lib, u yerda joylashgan maqbaralar Amir Temur va uning qarindoshlariga tegishli. Bu joyning eng asosiy xususiyatlaridan biri – mozaikalar va mayolika naqshlarining nozik ishlanganligidir. Majmuaning nomi "Tirik Shoh" ma’nosini anglatib, afsonalarga ko‘ra, bu yerda payg‘ambar Muhammadning qarindoshi Qusam ibn Abbos dafn etilgan.

- Bibixonim masjidi – Amir Temurning buyuk asari bo‘lib, undagi ulkan me’moriy elementlar va naqshlar Sharq san’atining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

- Ulug‘bek madrasasi – XV asrda barpo etilgan bo‘lib, Samarqandni ilm-fan markaziga aylantirishda katta rol o‘ynagan.

Bu obidalar o‘zining bezaklari, muqarnaslari va geometrik naqshlari bilan Sharq me’morchiligining yuksak namunalaridir.

3. Me’morchilik va san’at uyg‘unligi

Samarqand me’morchiligida san’atning turli yo‘nalishlari uyg‘unlashgan:

- Naqsh va bezak san’ati – Registon va Bibixonim masjidining devorlarida murakkab geometrik naqshlar va arabiy yozuvlar ishlatilgan[1]

- Koshin bezaklari – Moviy, oq va yashil rangdagi sirlangan g‘ishtlar va mayolika san’ati Shohi Zinda va Registon binolarining asosiy bezak uslublaridan biri bo‘lgan.

- Ganch va yog‘och o‘ymakorligi– Samarqand me’moriy obidalarining ichki qismlari ganch naqshlar va yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan bo‘lib, bu Sharq san’atining yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

4. Samarqand me’moriy merosining bugungi ahamiyati

Hozirgi kunda Samarqandning tarixiy obidalari YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu obidalarni saqlash va ularni kelajak avlodga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu yodgorliklarni restavratsiya qilish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ishlari davom ettirilmoqda.

Samarqand Temuriylar davrida Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Amir Temur va uning avlodlari hukmronligi ostida shahar gullab-yashnagan. Quyida Temuriylar davridagi Samarqandning asosiy jihatlari haqida ma'lumot beriladi:

Siyosiy markaz sifatida:

- Amir Temur 1370-yilda Movarounnahrni to‘liq egallagach, poytaxtni Samarqandga ko‘chirdi.
- Samarqand Temuriylar imperiyasining yuragi, davlat boshqaruvi va harbiy rejalashtirish markazi bo‘lib xizmat qildi.
- Temurning o‘g‘illari va nabiralari hukmronligi davrida ham shahar muhim rol o‘ynadi.

Ilm-fan va madaniyat markazi:

- Ulug‘bek Samarqandni ilm-fan markaziga aylantirdi, Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasini bunyod etdi.
- Samarqandda astronomiya, matematika, tibbiyot va boshqa sohalar rivojlandi.
- Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi olim va shoirlar Temuriylar davrida Samarqand bilan bog‘liq bo‘lgan[2]

Savdo va iqtisodiy markaz:

- Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan Samarqand Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi savdo markaziga aylandi.
- Shaharda ipakchilik, zargarlik, kulolchilik kabi hunarmandchilik rivojlandi.
- Turli mamlakatlardan savdogarlar kelib, Samarqand bozorlari jonli savdo maydoniga aylangan.

Temuriylar davrida Samarqand nafaqat O‘rta Osiyoning, balki butun dunyoning eng muhim shaharlari qatoriga kirgan. Shahar ilm-fan, madaniyat va me’morchilik jihatidan gullab-yashnab, o‘sha davrning eng rivojlangan markazlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Samarqand me’moriy obidalari Sharq san’ati va me’morchilik an’analarining eng go‘zal namunalari qatoriga kiradi. Ushbu obidalar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki ularning me’moriy va san’at jihatdan uyg‘unligi jahon madaniy merosiga katta hissa qo‘shadi. Kelajakda bu obidalarni saqlash va ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. YUNESKO (2021). "Markaziy Osiyo madaniy merosi va me’morchiligi."
2. Rashidov, A. (2019). "Temuriylar davrida Samarqand me’morchiligi." Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Yusupova, D. (2020). "O‘zbekiston me’moriy obidalari va ularning san’atdagi o‘rni." Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

GIDROPONIKA USULIDA O‘SIMLIKLARNI PARVARISHLASH

Adhamov Saidvalixon Aziz o‘g‘li
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gidroponika usuli yordamida o‘simliklarni parvarishlash texnologiyalari haqida so‘z boradi. Mualliflar gidroponikaning afzalliklari, jumladan, suv va tuproq resurslarini tejash, hosildorlikni oshirish va ekologik muvozanatni saqlash imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Tadqiqot doirasida turli xil substrat materiallari – kokos tolasi, mineral paxta, perlit, vermikulit va organik substratlar – o‘simlik o‘sishiga ta’siri o‘rganilgan. Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, biogumus va boshqa ekologik xavfsiz substratlar issiqxona sharoitida yuqori hosildorlik va sifatli o‘sish imkoniyatini ta’minlaydi. Ushbu texnologiyaning jadal rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.*

Koreya jamiyati tomonidan yuqori texnologiyali sabzavotchilikka qiziqish ortib bormoqda va korxonalar yangi imkoniyatlarni yaratishga bo‘lgan qiziqish kundan – kunga rivojlanishdan to‘xtagani yuq. Internet tarmog‘ining rivojlanish jumladan ishtimoiy tarmoqdagi yangidan – yangi yutuqlarning rolik shaklida berilish yosh fermer va yer egalarining imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Dunyo bo‘yicha bugun ekin ekiladigan yer maydoni keskin kamayishi tendensiyasining davom etmoqda. Tuproq eroziyasi va degradatsiyasi dunyo bo‘ylab dolzarb ekologik va iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Yer yuzasidagi unumdor tuproq qatlamining yemirilishi natijasida qishloq xo‘jalik yerlari sifati pasayadi, hosildorlik kamayadi va natijada oziq-ovqat xavfsizligi xavf ostida qoladi.

Qishloq xo‘jaligiga ta’siri jihatidan tuproq unumdorligi pasayishi natijasida hosildorlik kamayadi, bu esa oziq-ovqat tanqisligiga olib kelishi mumkin. Ekologik muvozanatning buzilishi orqali o‘rmonlarning kesilishi, yaylovlarning haddan tashqari ishlatilishi va noto‘g‘ri dehqonchilik usullari tuproqning yemirilishiga sabab bo‘ladi. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liqligi holda tuproq eroziyasi natijasida atmosferaga ko‘p miqdorda karbonat angidrid (CO_2) chiqadi, bu esa iqlim o‘zgarishini tezlashtiradi.Suv resurslariga zarar yetkazishi bo‘yicha tuproqning yuvilishi natijasida daryolar va ko‘llar loyqalanib, suv sifati yomonlashadi.

Tuproq unumdorligi past bo‘lgan hududlarda an’anaviy qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanish qiyin bo‘ladi. Bunday hududlarda gidroponika dehqonchilik tizimi – substrat asosida mahsulot yetishtirish samarali yechim bo‘lishi mumkin.

Gidroponika – tuproqdan foydalanmasdan, maxsus oziq moddalar eritmasi yoki substratlar yordamida o‘simlik yetishtirish texnologiyasidir. Bu usul suv resurslaridan tejamkor foydalanish, hosildorlikni oshirish va ekologik muvozanatni saqlash imkonini beradi.

Gidroponikada substrat sifatida tabiiy yoki sun’iy materiallar ishlatiladi. Bu materiallar ildizlarni ushlab turib, oziqa moddalarini yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan substratlarnin tarkibida quyidagi organik moddalarni o ‘z ichiga oladi. Kokos tolasi – namlikni yaxshi saqlaydi, ekologik toza mahsulotdir. Mineral paxta (rockwool) – suv va havoni yaxshi o‘tkazadi, o‘sish tezligi yuqori bo‘ladi. Perlit va vermikulit – engil, havodor va oziqa moddalarini yaxshi saqlaydi. Qum va shag‘al – suvni yaxshi o‘tkazadi, lekin oziqa moddalari kam saqlanadi. Organik substratlar (torf, biogomus , yog‘och qirindilari, kompost) – ekologik xavfsiz va foydali moddalar boydir.

Unumdorligi past bo‘lgan yerlarda gidroponika texnologiyasi dehqonchilikning samarali usuli bo‘lib, suv va tuproq resurslarini tejash, hosildorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Koko torfidan (cocopeat) foydalanadigan issiqxona maydoni so‘nggi 5 yil ichida deyarli ikki baravar o‘sdi. Fermerlar arzon narxlari va qayta ishlash

qulayligi tufayli koko torfini tobora ko‘proq ishlatishmoqda. Pearlitdan foydalanish su’rati ham o‘sib bormoqda va so‘nggi 5 yil ichida taxminan 25% o‘sishni ko‘rsatmoqda.

Tajribaning maqsadi gulning o‘sishi, hosildorligi va sifatiga konteyner hajmi va o‘sayotgan muhitning ta'sirini aniqlash edi. 1:1:1, 2:1:1, 3:1:1, 4:0:1, 4:1:0 va 4:1 nisbatda biogumus, perlit va vermikompost kabi turli xil o‘sadigan vositalardan iborat 6 ta tahlil namunasi o‘rganildi 1:1:1 nisbatda tuproq, qum, samon, yog‘och qirindisi nazorat turli o‘lchamdagi olti turdagi idishda aralashtirildi.

1-rasm. Tajribada tayyorlangan biogumus substrakti

Tayyorlangan turli xil o‘sadigan vositalar aralashmasi idishlarga to‘ldirilgan mahsus qopda saqlanadi (1-rasm). Idishlarning yarmi ekishdan oldin aralashmalar bilan to‘ldirilgan, qolgan yarmi esa o‘simligini o‘rta qismga qo‘ygandan so‘ng to‘ldirilgan, shunda o‘simliklar dastlabki idishlarda bo‘lgan darajada tuproq bilan o‘ralgan, ya'ni 1-2 dyuym pastroqda. Dastlabki bosqichlarda o‘simliklar 1-2 kun oralig‘ida sug‘orilgan, keyin esa o‘sayotgan muhitning namligini saqlab qolish uchun engil sug‘orish amalga oshirilgan. Tekshiruv davomida barcha o‘simliklar hususiyatlar tahlil qilingan bo‘ldi.

2 -rasm. Gulli o‘simliklarni biogumusda o‘stirish

Mahalliy jihatdan o‘zimiz tamonidan yaratilgan biogumus va unga mos ravishda tayorlangan aralashmalar bevosita gulli o‘simliklarni ko‘paytirish uchun qulayligini ko‘rishimiz mumkin. Bu oziqa moddalarning qo‘llash gulning hosildorligiga va sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Umuman olganda, biogumus asosiga ega bo‘lgan substrakntni issiqxona sharoitiada yetishtirilayotgan qulupnay, pomidor, atirgul kabi o ‘simliklarni parvarishlashda qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Albright, L. D. (2007). "Environment Control for Animals and Plants". AS AE Publications.
2. Jones, J. B. (2016). "Hydroponics: A Practical Guide for the Soilless Grow er". CRC Press.
3. Resh, H. M. (2013). "Hydroponic Food Production: A Definitive Guideboo k for the Advanced Home Gardener and the Commercial Hydroponic Grower". C RC Press.
4. Savvas, D., & Passam, H. (Eds.). (2002). "Hydroponic Production of Veget ables and Ornamentals". Embryo Publications.
5. FAO (2020). "The Future of Food and Agriculture – Trends and Challenge s". Food and Agriculture Organization of the United Nations.
6. Mahmudov, A., & Eshquvvatov, B. (2019). "O‘zbekistonda gidroponika te xnologiyalari va ularning istiqbollari". Toshkent Davlat Agrar Universiteti nashri yoti.

O'ZBEK TILIDAGI OMONIM VA ANTONIM SO’ZLAR LUG`ATINI FOYDALANUVCHI WEB INTERFEYSINI ISHLAB CHIQISH

Raximbayeva Muxabbat Dushambayevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, fizika matematika fakulteti “Kompyuter ilmlari” kafedrasi dotsenti, f.m.-f.n. tel. +998 880395262
email:mukhabbataspi@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi omonim va antonim so’zlar lug`atini foydalanuvchi web interfeysini ishlab chiqish to’g’risida so’z boradi. Shuningdek, ushbu loyiha til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi va o‘zbek tilidagi omonim va antonim so‘zlarni kengroq o‘rganish imkonini beradi.*

Kalit so’zlar: *O’zbek tili, omonim, antonim, web interfeysi, "Interfeys" (odamlar orasida), mobil va veb moslik, texnologiya, loyiha.*

Abstract:*"This article discusses the development of a web interface for a dictionary of Uzbek language homonyms and antonyms. Moreover, this project will facilitate the language learning process, help improve both written and spoken speech, and provide the opportunity to learn Uzbek homonyms and antonyms more extensively."*

Key words: *uzbek language, homonym, antonym, web interface, interface (in the context of human interaction) mobile and web compatibility, technology, project.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается разработка веб-интерфейса для словаря омонимов и антонимов узбекского языка. Кроме того, этот проект облегчит процесс изучения языка, поможет развивать письменную и устную речь, а также предоставит возможность более широко изучать омонимы и антонимы узбекского языка.*

Ключевые слова: *узбекский язык, омоним, антоним, веб-интерфейс, "интерфейс" (между людьми) совместимость мобильных и веб-приложений, технология, проект*

Kirish

Tilshunoslikda omonim va antonim so‘zlar muhim o‘rin tutadi. Omonim so‘zlar bir xil yozilishi va talaffuz qilinishi bilan ajralib turadi, lekin turli ma’nolarni bildiradi (masalan, “ko‘z” – inson organi va buloq ko‘zi). Antonim so‘zlar esa bir-biriga qarama-qarshi ma’noga ega (masalan, “katta” – “kichik”).

Ushbu lug‘at foydalanuvchilarga tilni chuqurroq tushunish va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek Antonimlar zid ma’noli til birligi hisoblanadi, uning 3 turi mavjud 1) Leksik antonim:baland-past,uzun-qisqa. 2)Affik antonim: suvli-suvsiz. 3)Sintaktik antonim:yuz-bashara. Antonim-grekcha so’zdan olingan bo’lib ‘’anti’’ zid,qarama – qarshi “onoma’’-nom degani bo’lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so’zlardir, Ya’ni ma’nosi bir-biriga zid ma’noli so’zlar antonim deyiladi. Antonimik juft hosil bo’lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma’no jihatdan o’zaro qarama qarshi bo’lishi kerak. Fe’llardagi bo’lishli –bo’lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudag keltirmaydi. Antonimlar ba’zan juft holda qo’llanib ma’no kengaytiradi yoki ma’no ifodalaydi kunu-tun,(har doim). Demak, bir so’z sinonimik qatorni tashkil etuvchi so’zlarning har biri bilan antonim bo’la oladi: yumshoq-qattiq, tez–sekin, chiroyli-go’zal-xushro’y, xunuk-badbashara-taviya. Antonim badiiy nutqda qo’llanib tazod yaratish uchun xizmat qiladi:Yaxshining ehsoniga yomoning boshi og’rir.Antonimlarni kel-kelma,bor-borma kabi birliklardan farqlamoq kerak,bu birliklar fe’lning bo’lishli-bo’lishsiz shaklidir. Badiiy adabiyotda zid ma’noli so’zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san’at hosil qilinadi. Bunday san’atga tazod san’ati deyiladi.

Shu o’rinda omonimlarga ham qisqacha to’xtalib o’tsak, Omonimlar-umumiy ma’no unsurlariga ega bo’lmagan, tasavvuriy bog’lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so’zlar orasida semantik aloqa bo’lmaydi. Ana shunday so’zlarning tilda mavjud bo’lishi va shunga bog’liq hodisalar omonimiya deyiladi. Omonimning lug’aviy va grammatik ko’rinishlari farqlanadi. Omonimning tilda va paydo bo’lish sabablari turlichadir, avvallari har xil aytilib, bir xil eshitilavdigan so’zlar talaffuzning tarixiy jarayonda tovush almashinishi yoki talaffuz o’zgarishi natijasida bir –biriga mos kelib qolishi; Ot-ism,Ot hayvon, Ot-olov, O’t-o’simlik boshqa tillardan o’zlashgan so’zlarning talaffuz va yozilish jihatidan ona tilidagi so’zlarga mos kelib qolishi mumkin. Omonim mumtoz adabiyotda tajnis san’ati va tuyuq janrini yaratishda,askiya payrovlarida esa so’z o’yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. So’z ustalari,ayniqsa, shoirlar Xorazmiy, Lutfiy, Novoiy, Bobur, So’fi Olloyor va boshqalar poetik ta’sirchanlikni oshirishda Omonimlardan mahorat bilan foydalanganlar.

Shu o’rinda web interfeysi o’z nima ekanligini bilib olsak.

Interfeys bu - ikki tizimning bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishiga imkon beruvchi vosita. Aslida buni bir-biri bilan bog‘lanish amalga oshirilishiga xizmat qiladigan kelishuv va qoidalar to‘plami desa ham bo‘ladi. Shuningdek, "Interfeys" nomi ingliz tilidan, tarjimada "odamlar orasida" degan ma'noga ega.

Internet texnologiyalari sohasida ushbu atama ob'ektlar orasidagi ma'lumotlar almashinuvini kafolatlaydigan yagona aloqa tizimlarini qamrab oladi.

Shunday qilib, omonim va antonim so‘zlar lug‘ati uchun foydalanuvchi veb interfeysini ishlab chiqish tildan samarali foydalanishga yordam beradigan muhim loyihalardan biri hisoblanar ekan. Ushbu loyiha o‘zbek tili yoki boshqa tillarni o‘rganayotgan foydalanuvchilar uchun juda foydali bo‘lishi mumkin. Bunday lug‘at ta’lim muassasalari, tarjimonlar, yozuvchilar va shunchaki tilga qiziqqan har bir inson uchun qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Veb interfeysning samarali ishlashi uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

Birinchisi foydalanuvchilarga qulaylik – Sayt yoki ilova oddiy va intuitiv dizaynga ega bo‘lishi kerak, shunda har qanday foydalanuvchi qiyinchiliksiz undan foydalanishi mumkin.

Ikkinchisi tezkor qidiruv tizimi – foydalanuvchi kiritgan so‘z bo‘yicha tezkor natijalar chiqarilishi, so‘zning turli ma’nolari yoki antonim shakllari aniq va tushunarli tarzda ko‘rsatilishi lozim.

Uchinchisi ma’lumotlar bazasining to‘liqligi – lug‘at iloji boricha ko‘proq so‘zlarni o‘z ichiga olishi, har bir so‘zning to‘liq ta’rifi, u bilan bog‘liq misollar va sinonim/antonym shakllari bilan boyitilishi kerak.

To’rtinchisi mobil va veb moslik – interfeys nafaqat kompyuter, balki mobil qurilmalar uchun ham moslashtirilgan bo‘lishi lozim.

Beshinchisi admin panel – yangi so‘zlarni qo‘shish va mavjudlarini yangilash imkoniyati mavjud bo‘lsa, lug‘at doimiy ravishda boyitilib boriladi.

Oltinchisi tilshunoslikka oid qo‘shimcha funksiyalar – so‘zlarning etimologiyasi, ularning turli matn kontekstlaridagi ishlatilishi kabi qo‘shimcha ma’lumotlar foydalanuvchilar uchun foydali bo‘ladi.

Ushbu loyiha til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi va o‘zbek tilidagi omonim va antonim so‘zlarni kengroq o‘rganish imkonini beradi. Shu sababli, uni yaratish texnik, tilshunoslik va foydalanuvchi tajribasini hisobga olgan holda puxta ishlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, loyiha maqsadi quyidagicha, Lug‘at veb interfeysini yaratishdan asosiy maqsad: Omonim va antonim so‘zlarni tezkor qidirish imkoniyatini yaratish hamda foydalanuvchilarga tushunarli va qulay interfeys taqdim etish va so‘zlarning ma’nolarini, ularning misollarda qo‘llanilishini ko‘rsatish, mobil va desktop qurilmalarga mos keluvchi dizayn ishlab chiqishdan iborat hisoblanadi.

Shuningdek, veb interfeysni yaratishda quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin: Frontend: HTML, CSS, JavaScript (React, Vue.js yoki Angular), Backend: Python (Django, Flask), Node.js yoki PHP, Ma’lumotlar bazasi: PostgreSQL, MySQL yoki MongoDB, API: REST API yoki GraphQL

Foydalanuvchi interfeysi tuzilishi quyidagicha bo’lishi mumkin: Bosh sahifa-qidiruv paneli va lug‘at haqida ma’lumot. So‘z izlash sahifasi omonim yoki antonim so‘zlarni kiritish va natijalarni ko‘rish, so‘z tafsilotlari tanlangan so‘zning ta’rifi, omonim yoki antonim shakllari, misollar, admin panel yangi so‘zlarni qo‘shish va ma’lumotlarni yangilash. Qidiruv funksiyasi foydalanuvchi so‘zni kiritganda, avtomatik ravishda natijalarni taklif qilish. Kirilgan so‘z omonim yoki antonim ekanligini aniqlash. Natijalarni saralash va foydalanuvchi uchun qulay ko‘rinishda taqdim etish.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda bu loyiha ta’lim va tilshunoslik sohalari uchun foydali bo‘lib, foydalanuvchilarga interaktiv va qulay lug‘at taqdim etadi. Veb interfeysda qulay navigatsiya, tezkor qidiruv va ma’lumotlar bazasi bilan samarali integratsiya muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ushbu loyiha til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi va o‘zbek tilidagi omonim va antonim so‘zlarni kengroq o‘rganish imkonini beradi. Shu sababli, uni yaratish texnik, tilshunoslik va foydalanuvchi tajribasini hisobga olgan holda puxta ishlab chiqilishi lozim.

REFERENCES

1.Azim Hojiyev. O’zbek tili haqida Toshkent 2000

2.Sodiqov. A O’zbek tili grammatikasi T.1975, 1981.

3.Dadaboyeva H. A Tilshunoslik nazariyasi va matadologiyasi T 2004. 4.Tilshunoslikga kirish. Qo’llanma. Xolmonova Z.T.T 2000

5. Большакова Е.И. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. Учебное пособие / Большакова Е.И., Клышинский Э.С., Ландэ Д.В., Носков А.А., Пескова О.В., Ягунова Е.В. – Москва: МИЭМ, 2011. – 272 с.

6. Порохнин А.А. Анализ статистических методов снятия омонимии в текстах на русском языке. Вестник АГТУ. Сер.: Управление, вычеслительная техника и информатика. – 2013. № 2. – С. 168-174.

7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – B.5.

8. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: Monografiya. – Toshkent, 2020. – B. 25-27.

9. Rizayev S. O‘zbek tilshunosligida lingvostatistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 18.

10. Baum, L. E.; Sell, G. R. Growth transformations for functions on manifolds. Pacific Journal of Mathematics. 27 (2) 1968. – P. 211–227.; https://en.wikipedia.org/wiki/Hidden_Markov_model.

GLOBALIZATSIYA VA TA’LIM

Isoqulova Ruxshona Bekzod qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili
23/1-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola globalizatsiya jarayoni ta'lim tizimlariga katta ta'sir koʻrsatib, yangi talablar va muammolarni keltirib chiqarishi, raqobat va sifat oshishiga, madaniy xilma-xillikni hisobga olish zaruratiga, innovatsion oʻqitish metodlarining qoʻllanishiga, hamda ta'lim tizimidagi chaqiriqlar haqida soʻz boradi.*

Kalit soʻzlar: *globalizatsiya, ta'lim, ta'lim standartlari, onlayn ta'lim, ta'lim chaqiriqlari, accessible, innovation metodlar, differentsiasiya.*

Globalizatsiya — bu dunyo mamlakatlari oʻrtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning kuchayishi jarayonidir. U erkin savdo, mamlakatlar oʻrtasidagi axborot almashinuvi va odamlarning harakatlanuvchanligini oʻz ichiga oladi. Globalizatsiya natijasida ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish sohalarida hamkorlik yanada kengayadi, madaniyatlarning oʻzaro ta'siri kuchayadi, hamda global muammolar, masalan, iqlim oʻzgarishi va inson huquqlari kabi masalalar ham dolzarblashadi. Yangi texnologiyalar va global aloqalar ta'limning yangi yoʻnalishlarini yaratadi, bu esa oʻquvchilarni global muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Globalizatsiya ta'lim sohasiga bir qator ta'sirlar koʻrsatadi:

1. Bilim almashinuvi: Globalizatsiya orqali ta'lim tizimlari oʻrtasida tajriba, resurslar va bilim almashinuvini rivojlantirish imkoniyati paydo boʻladi.
2. Ta'lim standartlari: Global miqyosda ta'lim standartlari va sifatini oshirishga qaratilgan umumiy dasturlar va reytinglar paydo boʻladi.
3. Madaniy differentsiasiya: Ta'lim jarayonida turli madaniyatlar oʻzaro ta'sirlashadi, bu esa oʻquvchilarga global muammolarni tushunishga yordam beradi.
4. Onlayn ta'lim: Internetning keng tarqalishi orqali global ta'lim platformalari va onlayn kurslar rivojlanadi, bu esa har qanday joyda oʻqish imkoniyatini beradi.
5. Ijtimoiy xarakter: Oʻqitish va oʻqish usullari global tendensiyalarga muvofiq oʻzgaradi, ijtimoiy va madaniy kontekstlarni hisobga olish zarurati paydo boʻladi.

Globalizatsiya ta'limni yanada accessible (qoʻlga kiritish oson) va sezilarli darajada hamkorlikdagi jarayonlarga aylantiradi. Globalizatsiya ta'lim sohasida

yangi chaqiriqlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, jahon bo‘ylab axborot va bilimlarga tezkor kirish imkoniyati ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Internet va raqamli texnologiyalar orqali talabalar turli manbalarga murojaat qilib, global tajribalarni o‘rganishlari mumkin. Biroq, globalizatsiya boshqa muammolarni ham yuzaga keltiradi. Masalan, ta'lim tizimlarining bir-biriga ta'siri natijasida ba'zi mamlakatlarda madaniy identiklik, mahalliy an'ana va til yo‘qolish xavfi tug'diradi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar global bilim bazasidan ortda qolishlari ham mumkin, bu esa ijtimoiy tengsizlikni oshiradi. Ish o‘rinlari va yangi iqtisodiy sharoitlar ham ta'limga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Talabalar xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Shu bilan birga, ta'lim tizimlarida hamkorlikni mustahkamlash va birgalikda o‘qitish usullarini rivojlantirish global ta'lim muammolarini yechish uchun muhimdir. Umuman olganda, globalizatsiya ta'lim jarayonida yangiliklar va imkoniyatlar yaratadi, ammo u bilan birga bir qancha chaqiriqlarni ham olib keladi. Ta'lim tizimlari ularga javob berish uchun moslashishi va yangicha yondashuvlarni qo‘llashi zarur.

Shu so‘z navbatida ta'lim o‘zi nima? Bizning O‘zbekiston Respublikamizda ta'lim tizimi asosan qanday bosqichlardan iborat? Hozirgi kunda ta'lim tizimimiz biz yoshlarga qanday imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda? - degan savollarga ham to‘xtalib o‘tsak o‘rinli bo‘lardi, - deb o‘ylayman.

Ta'lim – bu bilish, o‘rganish va o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, insonlarning bilim, ko‘nikma va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim maktab, kollej, universitet yoki boshqa o‘quv muassasalari orqali, shuningdek, oilada va jamiyatda ham amalga oshiriladi. Nelson Mandela aytganidek: "Ta'lim eng qudratli qurollardan biridir, u jamiyatni o‘zgartirish va kelajakni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi". U shaxsiy rivojlanishni, ijtimoiy moslashishni va professional ko‘nikmalarni egallashni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida o‘quvchilar bilish, fikrlash va muammo yechish imkoniyatlarini oshiradilar. O‘zbekistondagi ta'lim tizimi quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bolalar bog'chasi: 3-6 yoshdagi bolalar uchun ta'lim va tarbiya beriladi. Bu bosqich o‘zaro muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

2. Birinchi bosqich (maktabgacha ta'lim): 6 yoshlikdan boshlanadigan 9 yillik umumiy ta'lim. O‘qish, yozish, matematika, tabiiy fanlar va boshqa asosiy fanlar o‘qitiladi.

3. Ikkinchi bosqich (umumiy o‘rta ta'lim): 10-11 yillik dastur orqali o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar ixtisoslashgan fanlar bilan tanishadilar, shuningdek, kasb-hunar ta'limiga yo‘naltirilishi mumkin.

4. Oliy ta'lim: Universitetlar, institutlar va akademiyalar orqali beriladi. Oliy ta'lim dasturlari bakalavriat va magistratura darajalarini qamrab oladi.

5. Kasb-hunar ta'limi: O‘zbekistonda kasb-hunar kollejlari orqali turli kasblar uchun tayyorgarlik ko‘riladi, bu esa ishchilarni tayyorlashga qaratilgan. Ta'lim tizimining muhim yo‘nalishlari zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, sifatni oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashdir. O‘zbekistonda ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda va o‘zgarishlar davom etmoqda.

Ta'lim tizimida hozirgi kunda yoshlarga quyidagi imkoniyatlar berilmoqda: 1. Raqamli ta'lim resurslari: Onlayn kurslar, elektron darsliklar va boshqa raqamli materiallar orqali o‘qish imkoniyati. Bu yoshlar uchun kengaytirilgan bilim va ko‘nikmalarni olishga yordam beradi.

2. Ixtisoslashgan ta'lim: Maktablar va oliy o‘quv yurtlarida turli ixtisosliklar, jumladan, IT, sanoat, tibbiyot va boshqa sohalarda kengaytirilgan ta'lim dasturlari. 3. Amaliy tajriba: Stajirovkalar, amaliyotlar va loyiha asosidagi o‘qitish orqali o‘quvchilar real hayotdagi tajribalarni olishi mumkin.

4. Xalqaro almashuv: O‘zbekistondagi yoshlar uchun xalqaro ta'lim almashuv dasturlari va grantlar mavjud bo‘lib, bu ular uchun boshqa mamlakatlarda o‘qish imkoniyatini yaratadi.

5. Yoshlar markazlari va klublar: Ijtimoiy faoliyat uchun turli markazlar va klublar, bu yerda yoshlar o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy faollik ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6. Kurslar va seminarlar: Turli sohalarda malaka oshirish va qo‘shimcha ko‘nikmalarni egallash uchun kurslar va seminarlar o‘tkaziladi. Bu imkoniyatlar yoshlarning ta'lim darajasini oshirish, shaxsiy va professional rivojlanishlariga yordam beradi. Shuningdek, biz yoshlar bu imkoniyatlardan unumli tarzda foydalanishimiz kerak. Hamda: "Gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilg'onlaridan so‘ng, Peterburg, Maskov dorilfunlariga yuborilib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qitmoq lozimdir [1]".

Misol sifatida, bizning Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakultetida Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili va ingliz tili yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun yozgi ta'limni unumli o‘tkazish maqsadida Ferienjob, Work and Travel kabi chet davlatida malaka oshirish, butun Yevropa bo‘ylab sayohat qilish, til darajasini yanada rivojlantirish, pul ishlash topish va shunga o‘xshash ko‘plab imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bizlar bulardan unumli foydalangan holda shu yil yozda kursdoshlarimiz birgalikda borishni rejalshtirib turibmiz. Kechagina shu masalalar bo‘yicha kechgi payt suhbat ham bo‘lib o‘tdi, o‘zimizni qiziqtirgan savollarimizga javob ham oldik. Endi bo‘lsa, globalizatsiya jarayoni haqidagi

fikrlarimizni davom ettirsak va bu jarayon orqali ta'lim sohasida qanday chaqiriqlar yuzaga kelishini bir ko‘rib chiqsak.

Globalizatsiya ta'lim sohasida bir qator yangi chaqiriqlarni keltirib chiqaradi:
1. Raqobat va sifat talablarining oshishi: Ta'lim muassasalari o‘zlarining sifatini oshirishga majbur bo‘lmoqda, chunki xalqaro reytinglar va baholashlar ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko‘rsatadi.

2. Madaniy xilma-xillik: Globalizatsiya ta'limda turli madaniyatlarning o‘zaro ta'sirini oshiradi, bu esa o‘qituvchilarni talabalarning madaniy kontekstini hisobga olishga undaydi.

3. Innovatsion metodlar: Texnologiyaning rivojlanishi ta'lim usullarini yangilash zaruratini tug'diradi, bu esa pedagogikalarni o‘zgartirish va yangi metodlarni qo‘llashni talab qiladi.

4. Mahalliy va global muammolar: Ta'limda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalar kiritilishi zarur, bu esa o‘quvchilarga global muammolarni tushunishga yordam beradi.

5. Onlayn ta'lim va raqamli tafovut: Internet orqali ta'lim olish imkoniyatlari ko‘payishiga qaramay, raqamli tafovut va 100%lik muammolari bor, bu esa barcha o‘quvchilar uchun bir xil sharoitlar yaratishni murakkablashtiradi. Ushbu chaqiriqlar ta'lim tizimlarini takomillashtirish, yangilash va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, ta'lim globalizatsiya davrida kelajakka tayyorgarlikning kalitidir, bu orqali yoshlar dunyo bo‘ylab raqobatga qodir bo‘lishadi. Globalizatsiya oqibatida ta'lim jarayonlari yanada ko‘p madaniyatli va xilma-xil bo‘lib, bularning barchasi yosh avlodlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bu jarayon ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni keltirib chiqaradi, bu esa o‘qituvchilar, talabalar va yoshlarni zamon talablariga javob beradigan, sifatli, zamonaviy va innovatsion ta'lim berishlariga undaydi. Shuningdek, ta'lim bilan bir qatorda ilmi bo‘lishlari ham shartdir. "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir [2]", - degan jumlalar bilan tugatmoqni joiz, - deb topdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O‘zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi", - Toshkent, 1997.

2. Ro‘ziqulova. M. "Globallashuv davrda fan va ta'limning dolzarb masalalari", - 2017, 138-139.

3. G'afforov. E. "Globallashuv asoslari" asari, Namangan - 2023.

4. Abduqodirov. I. (2019). O‘zbekiston ta’lim tizimida globalizatsiyaning ta’siri. Iqtisodiyot va ta'lim, 3(1), 45-53.

5. Murodov, D. (2020). "Globalizatsiya va ta'lim: O‘zbekiston kontekstida. O‘zbekiston ta'limi va tarbiyasi", 4(2), 12-19.

6. Jalilova, G. (2018). "Globalizatsiya jarayonida ta'lim tizimining o‘zgarishi. Ta'lim va innovatsiyalar", 5(3), 67-74.

7. Tojiev, M. (2022). "Ta’lim va globalizatsiya: O‘zbekiston misolida". O‘zbekiston davlat universiteti ilmiy jurnali, 12(4), 80-87.

8.Held, D., & McGrew, A. (2002). Globalization Theory: Minefields and Gulf Streams. Globalization, 1(1), 5-21.

9. Marginson, S. (2014). The worldwide trend to high participation higher education: Dynamic and differential. Higher Education, 12(1), 147-162.

ZAMONAVIY JARAYONDA JALOLIDDIN MIIRTOJIYEV IJODINING O’RNI

Axatova Zohira Aktam qizi

San’atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti, San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishi, 3 bosqich talabasi

Annotatsiya: *Jaloliddin Mirtojiyevning “Zahiriddin Muhammad Bobur” va “Alisher Navoiy” asarlaridagi obrazlarning hayoti, siyratlari haykalning ishlanish bosqichlari va ushbu vaqt davomida kechgan qizg’in jarayonlar muhim tadqiqotlar olib borilgan. Jaloliddin Mirtojiyevning “Zahiriddin Muhammad Bobur” hamda “Alisher Navoiy” asarlari badiiy ifoda vositasi asosida tahlil qilingan. Bu asarlar Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosining xalqaro miqyosda o‘rganilishi va baholanishini yoritib beradi.*

Kalit so’zlar: *Jaloliddin Mirtojiyev, Haykaltaroshlik, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Andijon.*

THE ROLE OF JALOLIDDIN MIRTOJIYEV’S ART IN THE MODERN ERA

Axatova Zohira Aktam qizi,

Faculty of Art Studies and Museology, 3rd-year student, Art Studies: Fine and Applied Arts

Abstract: *Jaloliddin Mirtojiyev’s works “Zahiriddin Muhammad Bobur” and “Alisher Navoiy” explore the lives and characteristics of these historical figures, focusing on the process of creating their sculptures and the intensive artistic stages involved. These works are analyzed through artistic expression techniques,*

shedding light on the international recognition and study of Navoiy and Zahiriddin Muhammad Bobur’s legacy.

Keywords: *Jaloliddin Mirtojiyev, Sculpture, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Andijan.*

РОЛЬ ТВОРЧЕСТВА ДЖАЛОЛИДДИНА МИРТОЖИЕВА В СОВРЕМЕННОМ ПРОЦЕССЕ

Ахатова Зохира Актам кизи,

Факультет искусствоведения и музееведения, 3-й курс, направление «Искусствоведение: изобразительное и прикладное искусство»

Аннотация: *В произведениях Джалолиддина Миртожиева «Захириддин Мухаммад Бабур» и «Алишер Навои» рассматриваются жизнь и характеры этих исторических личностей, особое внимание уделяется процессу создания их скульптур и творческим этапам работы. Эти произведения анализируются с точки зрения художественного выражения, освещая международное изучение и оценку наследия Навои и Захириддина Мухаммада Бабура.*

Ключевые слова: *Джалолиддин Миртожиев, скульптура, Захириддин Мухаммад Бабур, Алишер Навои, Андижан*.

KIRISH

O‘zbek haykaltaroshlik san’ati o‘zining boy an’analari va zamonaviy yondashuvlari bilan ajralib turadi. Ushbu sohada o‘ziga xos ijodi bilan tanilgan san’atkorlardan biri – Jaloliddin Mirtojiyevdir. U o‘zbek madaniy merosini yodgorlik san’ati orqali aks ettirishga katta hissa qo‘shgan, tarixiy va ma’rifiy shaxslarning siymolarini ulug‘lashga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar yaratgan. Mirtojiyevning ijodi realizm va ramziy ifodaning uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Uning haykaltaroshlik uslubi tafsilotlarga yuksak e’tibor, kompozitsion uyg‘unlik va obrazlarning ma’naviy chuqurligi bilan tavsiflanadi. Xususan, u yaratgan Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur va boshqa tarixiy shaxslar haykallari o‘zbek san’atining yuksak namunalaridan sanaladi.

ASOSIY QISM

Jaloliddin Mirtojiyev 1954 yil Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1972 yilda Benkov nomli Respublika rassomlik bilim yurti haykaltaroshlik bo‘limini F.I.Grienko rahbarligida bitirgan. 1977 yilda A.Ostrovskiy nomli Toshkent Teatr va rassomchilik institutini tamomlagan. Uning Respublikamiz viloyatlaridagi mashhur tarixiy siymolar, o‘zbek allomalari va taniqli adiblariga bag‘ishlangan monumental asarlari bugungi kunda Vatanimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Zahiriddin Muhammad Bobur (Andijon), Cho‘lpon, Xotira maydonidagi Motamsaro ona (Andijon), Abdurauf Fitrat (Buxoro), Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Elbek (Toshkent viloyati), Motamsaro ona (Farg‘ona) haykallari, shuningdek, 2006 yilda Qarshi shahrining 2000 yillik yubileyiga bag‘ishlangan “El-yurt tayanchi” kompozitsion asari, Toshkent shahridagi Zulfiyaxonimga bag‘ishlangan haykal shular jumlasidandir. Moskva (2002), Tokio (2004) va Bokudagi (2008) A.Navoiy, Xitoydagi (Chanchun) Kamoliddin Behzod (2003), Rigadagi Mirzo Ulug‘bek (2004) va Abu Ali Ibn Sino (2006), Qohiradagi Al-Farg‘oniy (2007) kabi monumental asarlari badiiy qadriyati bilan milliy haykaltaroshlikda erishilgan muvaffaqiyatlarini butun dunyoga tanitdi. Jaloliddin (Ravshan) Mirtojiyev san’atga qo‘shgan hissasi uchun bir qator davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Jaloliddin Mirtojiyevning Respublikamiz viloyatlaridagi mashhur tarixiy siymolar, o‘zbek allomalari va taniqli adiblariga bag‘ishlangan monumental asarlari bugungi kunda Vatanimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Jaloliddin Mirtojiyev aslida rassomlikka juda qiziqqan rangtasvir asarlariga qarab turib uydagi oppoq yostiq jildlarining matosiga qandaydir bir asar ishlashga harakat qilib yurgan kezlari maktabda tarix fanidan kim kichkina haykalcha yasab kelsa besh qo’yaman deganda u Mironning “Diskobol” haykalini gipsdan ishlab ko’radi. Bundan o’zi juda xursand bo’ladi va haykaltaroshlikka mehri ortadi. Shundan so’ng ustozi uning haykaltaroshlikka bo’lgan qiziqishi va qobilayitini ko’rib, Pedagogika Institutining haykaltarosh Abdumo’min Boymatovga shogirdlikka bergan deya eslaydi haykaltarosh esdaliklarda. Jaloliddin Mirtojiyev asarlarini manbaalarga keltirilgan ma’lumotlarga, qo’lyozmalarda ishlangan miniatyuralarga tayangan holda va o’ziga yaqin davrda yashaganlarining “uyiga borib liboslar bo’ladimi va boshqa

mayda detallarigacha o’rganib oila azolaridan o’sha insonni barcha fazilatlarini o’rganib” asarlaridagi obrazning ichki kechinmalarini yuz mimikalarida qarashlarida ifodalay olgan. “Ularning turli xil materiallar, xomashyolar va teksturalardan foydalanib haykallariga dinamik element qo‘shishi, ularni vizual tarzda ajoyib va jozibali qilib ko’rsatadi. Ularning o‘z kasbiga fidoyiligi, badiiy ijod orqali hikoya qilishga ishtiyoqi san’at olamida mohir haykaltarosh sifatida obro‘-e’tibor qozonishiga sabab bo’ldi”.

Zahiriddin Muhammad Bobur Haykali judayam viqorli O’zbekistonning Andijon shaxrida, ko’rkam qadamjolaridan biriga aylangan. 1993 - yilda ishlangan ushbu asar uchun tanlov elon qilinadi, Jaloliddin Mirtojiyev Andijonda o’zidan bir yodgorlik qolishiga astoydil harakat qiladi va tushida namoyon bo’lgan kompozitsiyani tayorlab g’olib bo’ladi. Jaloliddin Mirtojiyevning Bobur asari muskullariga liboslarida bo’rttirishlar yo’qligi yuzlaridagi mayinlik, otning muskullariga e’tibor qilinmagani va yopinchig‘i otning oyog’i ostidagi toshlarga ulanib ketishi kuzatuvchida sarkarda emas balki shoirona tasavvur uyg’otadi. Ijodkor bu asarini juda mahorat bilan o’zgacha boshqa haykallarga o’xshamaydigan badiiy yechimga ega asar sifatida ommaga taqdim qilgan deya olamiz. U tarixiy siymolarni o’z ijodida talqin qilarkan qo’lyozmalardagi miniatyura tasvirlariga asoslangan holda namoyish etilishi ayni shu haykalda mujassam bo’lganini hamda asarga ijodiy yondashganini ko’rishimiz mumkin. Boburning boshidagi sallasi hind madaniyatiga xos bo’lib, uning Hindistonni zabt etgani va u yerning podshohi ekanligini ko’rsatadi va qo’lini ko’ksida turishi esa vataniga bo’lgan muhabbati, sodiqligi, hurmati cheksizligini ko’rsatib turuvchi ramziylik bilan ifodalab berganini guvohi bo’lamiz. Otlarning boshi egik holatda ishlanishi esa egasiga naqadar vafodorligini va ot vafo timsoli ekanligi ijodkorlar tomonidan puxtalik bilan tasvirlab berilgan. Haykallarda ishlangan barcha bezaklar ular yashab o‘tgan davrga xos va murakkab shaklda ishlanganligini ko’rishimiz mumkin.

Alisher Navoiyga bag‘ishlangan ushbu haykal Rossiyada 2012-yilda ishlangan bo’lib, haykaltarosh Jaloliddin Mirtojiyev ijodining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi, u nafaqat tarixiy shaxsni aks ettiradi, balki uning ma’naviy olami va millat madaniyatidagi o‘rnini ham yuksak badiiy ifoda bilan

namoyon etadi. Haykal klassik monumental san’at uslubida yaratilgan bo‘lib, uning kompozitsion tuzilishi vertikal dinamizmga asoslangan. Yuksak postament – shaxsning ulug‘vorligini ta’kidlash bilan birga, uning tarixiy va madaniy merosini e’zozlash ramzi sifatida xizmat qiladi. Figuraning silueti va plastikasidagi uyg‘unlik – Navoiyning ichki dunyosi va tafakkur olamini ochib berishga xizmat qiladi. Qo‘l harakati va gavda holati – Shoirning tafakkurga cho‘mganini, bilim va ma’rifat targ‘ibotchisi ekanligini ifodalovchi kuchli badiiy ifodadir. Haykal ijodiy yondashuv bilan yaratilgan bo‘lib, unda realistik detallar orqali Navoiy siymosi jonlantirilgan. Yuz ifodasi – chuqur tafakkur, donishmandlik va ma’naviy boylikni aks ettiradi. Kiyim detallari – davrga xos an’anaviy liboslar nafis ishlangan bo‘lib, matoning tabiiy burmalari obrazning realistik jozibasini oshiradi. Kitob yoki qo‘lyozma – Navoiy ijodining asosiy mohiyatini ochib beruvchi muhim detal bo‘lib, uning ilm-ma’rifat va adabiyotga bo‘lgan fidoyiligini ramziy aks ettiradi. Haykal bronzadan ishlangan bo‘lib, bu material monumental san’atda keng qo‘llanadi. Bronza mustahkamligi va vaqt o‘tishi bilan yanada qadriyatlilik kasb etishi – haykalning abadiylik va doimiylik ramzi sifatida ahamiyatini oshiradi. Haykal yuzasidagi chuqur ishlov berish – tafsilotlarni aniq va tabiiy ifodalash imkonini bergan. Poydevorining marmardan ishlanishi – jiddiylik va rasmiylik ruhini kuchaytirgan. Bu haykal faqatgina badiiy yodgorlik emas, balki xalqning Navoiyga bo‘lgan hurmati va milliy o‘zligini anglatuvchi ramziy obidadir. O‘zbek madaniyati va adabiyotining buyuk namoyandasi sifatida Navoiy tasviri bu haykal orqali abadiylashtirilgan. Mirtojiyevning mahorati tufayli ushbu yodgorlik realizm va ramziylik uyg‘unlashgan san’at namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa: Jaloliddin Mirtojiyevning ushbu asarlari o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadigan Bobur va Navoiy shaxsi va ijodini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Boburning ijodi va tarixiy faoliyati, shuningdek, Navoiy

asarlarining dunyo bo‘ylab o‘rganilishi va qadrlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng kitobxonlar uchun ham qimmatli hisoblanadi. Bu tadqiqotlar orqali o‘zbek madaniyatining ulug‘ namoyandalari merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev N. Jahon san’ati tarixi. – Toshkent. 2007 “O‘zbekiston” NMIU. 271 b. https://t.me/armmrdi

2. Ахмедова Э.Р. Культурология. Мировая культура: учебник/ Э.Р.Ахмедова, Р.Габидулин; ред. Г.Дресвянская; ретс. Т.К.Кузиев, Р.Х.Такташ. - Ташкент: Академия художеств Узбекистана, 2001. - 304 с. https://t.me/armmrdi

3. Гюл Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана: античост и средневекове /Э. Гюл; науч. ред. А.Хакимов. - Алмати: ПРИНТ-С; Ташкент: Мир ИНФОРМ, 2005. - 208 с. https://t.me/armmrdi

4. Kultasheva N.D. “Umumsan’at tarixi (O’rta asrlar san’ati)”, o‘quv qo‘llanma. T.; 2019. https://t.me/armmrdi

5. Kultasheva N.D. “Umumsan’at tarixi (XIX asr G‘arbiy Yevropa mamlakatlari san’ati)”, o‘quv qo‘llanma. T.; 2019. *https://t.me/armmrdi*

6. *https://uza.uz/oz/posts/umrini-sanatga-bagishlagan-ijodkor-yodi_568327*

7. Жалолиддин Миртожиев - “Мен Ўзбекнинг мусаввириман” хотира кўргазмасидан лавҳа

8. Haykaltarosh Jaloliddin (Ravshan) Mirtojiyev ijodiga nazar va ehtirom | Journal of Culture and Art (imfaktor.com)

BIOLOGIYA DARSLARIDA BILISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH SHAKLLARI

Ablakulova Nodira Abduvahobovna
Guliston davlat universiteti dotsenti, Biologiya fanlari bo’yicha (PhD)
Karabayeva Navruza Toyirjon qizi
Guliston davlat universiteti Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *maqolada darsda o‘quvchilarning bilish faoliyati va o‘qituvchining pedagogik faoliyati, faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasi, local darajadagi pedagogik texnologiyalar yoritb berilgan.*

Kalit so`zlar: *ta’lim, o‘quvchi, metodlar, vositalari, bilim, ko‘nikma, baho, pedagogic, biologiya.*

Ta’lim jarayonida o‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligida, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealaming mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi va bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar uchun o‘quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o‘qitishdan ko‘zda tutilgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlami amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘qituvchi uchun ta’lim jarayoni o‘quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog‘langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o‘zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o‘quvchilarning bilish faoliyati va o‘qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg‘un ravishda tashkil etilgandagina o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq. Biologiyani o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning, o‘quvchilarning o‘tgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarinianiqlash,ularnitizimlashtirish,

yangimavzuyuzasidano‘zlashtirilganbilim, ko‘nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o‘rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyanio‘qitishda local darajadagi pedagogic texnologiyalardan “Keys”, “Insert”, “Waster”, Venn diagrammasi, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”, tezkor o‘yinlar va o‘yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalami o‘qitishda “Keys”dan foydalanish yuqori samara beradi. “Keys” — case studies ingliz tilidan olingan bo‘lib, jarayon yoki vaziyat degan ma’noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlami o‘qitishda foydalanilgan bo‘lib, hozirgi paytda o‘qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlaming tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ularni hal etish uchun o‘quv munozaralari tashkil etiladi. Biologiyani o‘qitishda dastur mazmunidagi evolyutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali “o‘simliklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi”, “hayvonot olamining

paydo bo‘lishi va rivojlanishi” kabi mavzularni o‘qitishda foydalanish mumkin. Ta’lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o‘qituvchi:

dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o‘qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi;

- dars davomida muammoli savol-topshiriqlaming qiyinchilik darajasiga ko‘ra yakka tartibda yoki o‘quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlami tashkil etilishini aniqlash.
- o‘quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o‘quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo‘llarini rejalashtirishi;
- muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o‘rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert - lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni-anglashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilami Insert yordamida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar har bir jumlani o‘rganib chiqib, maxsusjadvalgamuayyansimvollaryordamida belgilashtavsiya etiladi.

Agar jumlada berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, “Bilaman” - V, agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda “Ma’qullayman” +, agar ma’lumotlar o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda “o‘rganish lozim” , o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda “Tushunmadim?” belgisini qo‘yadi**.** Biologiyani o‘qitishda maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Didaktikada ishlab chiqilgan har qanday texnologiya o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, lekin quyidagi texnologiyalarda mazkur masala asosiy g‘oyani egallaydi:

1. Didaktik o‘yin texnologiyalari.
2. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
3. Modulli ta’lim texnologiyalari.
4. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi.
5. Loyihalash texnologiyasi.

Didaktik o‘yinli texnologiyasida yetakchi o‘rinlarni ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, kommunikativ funksiyalar egallab, qolgan funksiyalar ularga ilova bo‘ladi. Muammoli ta’lim texnologiyasida aqliy faoliyat

usullarini shakllantirish, ijodiy faoliyatga yo‘llash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish funksiyalari etakchi o‘rinni egallaydi, qolgan funksiyalar ularga go‘yoki bo‘ysunadi. Shu asnoda boshqa texnologiyalarning ham didaktik funksiyalarini tahlil etish mumkin.

Biologiya o‘qituvchisi darsda o‘rganiladigan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko‘zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nodira, A., Saida, D., & Gulchekhra, A. (2023). Use of cloud technologies in the educational process. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *3*(03), 7-16.

2. Trihadiningrum, Y., Anandita, F. D., & Nadira, A. (2023). Electronic waste management in schools: a case of Surabaya City, Indonesia. *Journal of Material Cycles and Waste Management*, *25*(1), 597-611.

3. Ablakulova, N. A. (2019). Assessment of the effect of natural triterpenoids on wheat fungal diseases. Abstract dissertation. Doctor of Philosophy in Biol. sciences. Tashkent.

4. Abdikulov, Z. U., & Ablakulova, N. A. (2021). O'simliklarning fiziologik faol moddalari.

5. Аблакулова, Н. А. (2019). Оценка действия природных тритерпеноидов на грибковые заболевания пшеницы (Doctoral dissertation, Диссертация на соискания доктора философии (PhD) по биологическим наукам. Ташкент, 2019. 106 с).

6. Ablakulova, N., & Kh, K. (2015). Influence of Growth Regulators on contamination of Winter Wheat. Biological and Chemical Research. The American Journal of Biological and Chemical Research. America, 4, 91-98.

7. Ablakulova, N. A. Otsenka deystviya prirodnyx triteroidov na gribkovye zabolevaniya pshenitsy. Diss. PhD.

8. Ražná, K., Ablakulova, N., Žiarovská, J., Kyseľ, M., Kushiev, K. K., Gafurov, M. B., & Cagáň, Ľ. (2020). Molecular characterization of the effect of plant-based elicitor using microRNAs markers in wheat genome. Biologia, 75, 2403-2411.

XOTIN-QIZLAR HAYOTIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

Abdug’ofurova Gulziyo Farrux qizi
Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tili ta’lim kafedrasi
Sotsiologiya yo‘nalish talabasi
abdugafurovagulziyo@gmail.com

Annotatsiya*: O’zbekiston Respublikasida xotin qizlar manfaatlarini himoya qilish ularni jamiyat va davlat boshqaruv ishlariga keng ko’lamda jalb etish,xotin-qizlar ma’naviy kamoloti va rivojini taminlash davlatni ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jumladan xotin-qizlar manfaatlarini sog’lom turmush tarzini joriy etish asosida muhofaza qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.Har qanday xalqning kelajagi sog‘lom bo‘lishi bugungi kundagi ayol va qizlarning salomatligiga bog‘liq. Maqolada xotin-qizlar hayotida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish haqida ba’zi fikrlar bayon qilingan Shu bilan birga xorij olimlarining konsepsiyalari va nazariyalari erkin bayon etilgan.Hamda kerakli xulosa va tavfsiyalar ishlab chiqilgan*

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, sport, jismoniy tarbiya, xotin-qizlar, sportga ayollar munosabati, mashg‘ulot, jismoniy madaniyat.*

Kirish.

Sog‘lom turmush tarzi inson hayotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sog‘lom turmush tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, ko‘plab obyektiv hamda subyektiv omillar ham ta’sir qilishi mumkin. Obyektiv sabablar deyilganda quyidagilar nazarda tutiladi: aholining turmush darajasi (moliyaviy ahvol, uy-joy bilan ta’minlash va boshqalar), sifatli ovqatlanishning mavjudligi, atrof-muhitning tozaligi va boshqalar. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari o‘z hududlarida aholining sog‘lom turmush tarziga hissa qo‘shadigan maqbul ijtimoiy sharoitlar hali yaratilmaganligini aytib o‘tishadi. Shu bois ular ham rivojlangan davlatlar hukumatlari ham o‘z fuqarolarnıng ayniqsa, ayollarning sog‘lom turmush tarzini ta’minlash uchun barcha imkoniyat va vositalardan foydalanishga harakat qilmoqda. Va bu vositalar orasida jismoniy faollik,jismoniy tarbiya va ko‘ngilochar sport turlarini ajratib ko‘rsatish kerak. Aytish kerakki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarning umumiy soni aholi sonining 30 foizi va undan ko‘prog‘ini tashkil etuvchi rivojlangan mamlakatlarda bu faoliyat bilan

shug‘ullanuvchi ayollar soni 10-15 foiz oralig‘ida o‘zgarib turadi. Birinchi ko‘rsatkich 3-10% bo‘lgan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan ayollar soni 1-3% ni tashkil qiladi Nega ayollarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish foizi past? Birinchidan, tarixiy va diniy omillarni, shuningdek, ko‘plab mamlakatlarda, ayniqsa sharqda mavjud bo‘lgan an’analarni hisobga olish kerak. Hozirgi kunda qizlarni sportga jalb etish, ularning ommaviy sport bilan muntazam shug’ullanishi uchun zarur shartsharoitlarni yaratish mamlakatimizda sportni rivojlantirishining muhim yo’nalishlaridandir. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to’g’risida” Qarori (2018 yil 5 mart) aholi keng qatlami o’rtasida ma’nan va ahloqan komil inson bo’lishga va sog’lom turmush tarzini yuritishga intilishni rag’batlantirishga yo’naltirilgan bo’lib, qizlarni sport bilan muntazam shug’ullanishga jalb etish asosiy vazifalardan biri deb belgilab quyildi.

Metodologiya

Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzining ilmiy-nazariy tahlili olimlar tomonidan o‘rganilgan tajribalari asosida o‘rganilgan. Maqola O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan huquqiy-normativ xujjatlar ham maqolaning mazmuniga ayni davrdagi metodologik yordam sifatida keltirib o‘tilgan. Maqolani yaratish jarayonida xujjatlarni o‘rganish hamda nazariy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Munozara va natijalar Mamlakat miqyosida sportning ommaviyligini ta’minlash, bolalar sportini, xususan, xotin-qizlar sportini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishida eng ezgu – O’zbekiston farzandlarining sog’lom dunyoga kelishi, ulg’ayishi, tarbiya topishi va pirovard maqsadda millat genofondini yaxshilash maqsadi mujassam. Sport-qizlar salomatligini mustahkamlash bilan birga ularning dunyoqarashini kengaytirib, tibbiy madaniyatini yuksaltirmoqda. Mashg’ulotlarda toblangan qizlar oila, jamiyat, Vatan oldidagi mas’uliyatini teran anglab, sog’lom va baxtli turmush qurmoqda.

“Tarix shuni ko‘rsatadiki, ayollar tarbiyasi doimo e’tibordan chetda bo‘lib, asosan erkaklar tarbiyasiga e’tibor qaratgan. Ayollar ko‘proq sezgir va zaif hisoblangan. Ayollik va sport, jismoniy faollik shunchaki mos kelmaydi degan fikr bor va bu ko‘pchilikni ushbu faoliyatdan to‘xtatadi”, - ta’kidlaydi E.I. Degtyarev Ikkinchidan, sog‘lom turmush tarzida jismoniy tarbiya va sportning o‘rni va roliga davlatning munosabati muhim o‘rin tutadi. Afsuski, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida aksariyat shtatlar dam olish sportiga emas, balki elita sportini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratdilar. Va faqat ayrim rivojlangan davlatlar (AQSh, Kanada, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Skandinaviya mamlakatlari, Fransiya, Shveytsariya, Yaponiya va boshqalar) aholining turmush

darajasi yuqori bo‘lganligi sababli sportning dam olish turlarini rivojlantirishga e’tibor qaratishlari mumkin edi.

O‘zbekistonlik olim X. Akramov Sog‘lom turmush tarzini o‘rganib quyidagi xulosalarni tavsiya etadi:

1. Salomatlik va sog‘lom turmush tarzi o‘zaro munosabatda bir yaxlit tizimni tashkil etib, aniq ijtimoiy, ekologik va madaniy funksiyalarni bajaradi. Ular o‘rtasidagi munosabat tizimi ob’ektiv asosni tashkil etib, turmush tarzi va salomatlik bir umumiy struktura sifatida shakllanadi va ishlaydi hamda o‘zida umumiy maxsus va alohida xususiyatlarni kasb etadi. Sog‘lom turmush tarzini o‘rganish kontekstida sotsial-qadriyat, sotsial-intitutsional va sotsial-strukturaviy yondashuvga qaratilgan hulq-atvor shakli sifatida, ijtimoiy muhit o‘zgarishidagi individning nafaqat sog‘liqni saqlash va takomillashtirish balki, moslashuv imkoniyatlari oshirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Insonlarning sog‘lom xayot-faoliyatini shakllantirish kompleksli va tizimli yondashuvini taqazo etadi.

2. O‘z sog‘lig‘ini saqlash hulq-atvorining yoshlar o‘rtasida pasayib borishi, avvalam bor, belgilangan hulq-atvor normalarining salomatlik va mavjud hulq-atvor o‘rtasidagi munosabatning har xilliligida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlar xayotiy qadriyatlari tuzilmasida salomatlik eng birinchi o‘rinda turadi, lekin salomatlik qadriyati fundamental tasnifni emas, balki, instrumental tasnifni tashkil etadi. Salomatlik qadriyati normativ jarayonlarda o‘sdi, lekin bu qadriyat ong uchun fakt bo‘lolmaydi, hulq-atvor uchun esa umuman bo‘lolmaydi. Ziddiyatlar belgilangan qadriyatlar va mavjud hulq-atvor strategiyalarida salomatlik qadriyati sifatida va ijtimoiy amaliy jihatlarini yoshlar muhitida yaqqol nomoyon etishida kuzatiladi. Yoshlarda salomatlik interpritatsiyasi qandaydir kasalliklarga duchor bo‘lib emas, balki, jismoniy yetuklik, go‘zallik sifatida ko‘proq gavdalanadi.

3. Sog‘lom turmush tarzi va salomatlikning ijtimoiy ko‘rsatkichlari ijtimoiy qadriyat ekanligini tasniflab, shakllanmagan noadekvat va noto‘g‘ri steriotiplar inson salomatligiga va sog‘lom turmush tarzi sifatiga jiddiy, xatto ta’sir kuchi aholi o‘rtasida yoyilib va bu buzg‘unchi hulq-atvor modellar salomatlikka ziyon yetkazadi. Shuning uchun ham bu oqibatlarni oldini olish bo‘yicha maxsus ijtimoiy-madaniy konsepsiya va dasturlar majmuasini aholi uchun ishlab chiqib, bu konsepsiya va dasturlar majmuasi sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Dasturlar majmuasi nafaqat sog‘lom turmush tarzini multiparadigma sifatida konseptual tushunish uchun balki, metodologik, maxsus-nazariy va empirik darajada o‘rganishni, sog‘liqni saqlashni tatbiq etish bo‘yicha ta’lim texnologiyalarini yo‘naltirish va joriy etish hamda hayot darajasini indikatorini aniqlashda maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Bunga asosan insonni hayotga ijtimoiylashtiruvchi jarayon bo‘lagan sport tizimi

asos bo‘la oladi. Chunki, sport insonni nafaqat sog‘lomlashtiruvchi balki uni tarbiyalovchi va turmush darajasini ko‘taruvchi asosiy jarayonlardan hisoblanadi.

Qolaversa, davlatning xotin-qizlarning jismoniy tarbiyasi va sportiga bo‘lgan munosabatiga yuqorida qayd etilgan tarixiy, diniy omillar va an’analar ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Uchinchidan, ko‘plab tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, maktabda ko‘plab ayollar jismoniy tarbiya va ayniqsa sportga salbiy munosabatda bo‘lishadi. Bu, ayniqsa, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida maktab jismoniy tarbiya dasturlariga kiritilgan raqobat tamoyiliga taalluqlidir. To‘rtinchidan, ko‘pgina tadqiqotchilar ayollarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishdan bosh tortishining sabablaridan biri ularning “sport” tushunchasini noto‘g‘ri tushunishlari bilan bog‘liq deb hisoblaydilar. Ko‘pgina ayollarning sportni yoqtirmasliklari, ularning fikriga ko‘ra, asosan sportning tajovuzkor yoki erkak faoliyati sifatida tasvirlanganligi, bu mashg‘ulotlar ularni yoqimsiz qiladi degan qo‘rquv bilan bog‘liq.

Biz ayollarning tana mushaklarining rivojlanishiga noaniq munosabatda bo‘lishlarini ta’kidlaymiz, bu ayniqsa jismoniy tayyorgarlik kuch-quvvat mashqlariga asoslangan bo‘lsa, kuchayadi. Hattoki “mashg‘ulot” yoki “jismoniy tarbiya” kabi so‘zlar ham ba’zida ayollarni faoliyatdan uzoqlashtiradi, sportda mavjud bo‘lgan haddan tashqari tashkilotchilik haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Lankaster universiteti professori R.Dim ta’kidlaydiki, “spor” tushunchasini kengroq va erkinroq talqin qilsak, uning doirasi ko‘proq ayollarni qamrab oladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan sabablarga qo‘shimcha ravishda, biz ijtimoiy va moliyaviy ahvol, yoshlik, onalik, bola parvarishi, kasallik, vaqt yetishmasligi, uy yoki ish yaqinida sport inshootlarining yo‘qligi, sog‘lig‘ining yomonligi, oilada yaqinlaringizning istamasligi, ko‘chada ishonchsizlik, ayniqsa kechqurun, munosib baholi sport kiyimlari, poyabzal va qiziqarli sport va dam olish dasturlari yo‘qligi, darslarning yuqori narxi yoki yomon o‘qituvchi-murabbiy va oddiygina hech qanday motivlarning yo‘qligi, dangasalik va boshqa sabablarni keltirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, XXI asr boshlarida xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish muammosini hal etish. Agar biz, birinchi navbatda, maktab yoshidagi qizlar va qizlarning sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatini, sog‘lom turmush tarzida jismoniy tarbiya va sportning rolini o‘zgartirmasak, murakkab vazifaga aylanishi mumkin, bu esa, shubhasiz, ularning muntazam mashg‘ulotlarga keng jalb etilishiga xizmat qiladi. Mutaxassislarning fikricha, 90 - yillarning oxirlarida sport va sog‘liqni saqlash sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi va amalga oshirilmoqda, bu esa kelajakda ayollar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi: - sog‘lom turmush tarzi ko‘pchilik uchun ayollarning bo‘sh vaqtini o‘tkazishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda; -

yangi texnologiyalar, simulyatorlar va kompyuterlar jismoniy tarbiya va sport va sog‘liqni saqlash sohasiga tobora ko‘proq kirib bormoqda; - guruh darslari mustaqil, individual dasturlar bilan almashtiriladi; - oilaviy sport deb ataladigan sport turiga ko‘proq e’tibor qaratildi - ayollarning ehtiyojlarini to‘liq qondiradigan va ayollar orasida mashhur bo‘lgan ko‘plab yangi jismoniy faoliyat turlari paydo bo‘ldi. Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, ayollarga ular uchun zarur bo‘lgan sport va sog‘lomlashtirish xizmatlari taklif qilinishi kerak va ilgari bo‘lgani kabi, ma’lum bir klub markazda mavjud bo‘lgan xizmatlarni yuklamaslik kerak.

Xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlar o‘rtasida sport-sog‘lomlashtirish ishlarining ahvolini tahlil qilar ekanmiz, salomatlik va jismoniy tarbiya bo‘yicha olib borilayotgan ko‘plab tadqiqotlar, so‘rovlar, nashr etilgan kitob va qo‘llanmalarni alohida ta’kidlash lozim. Bu, ayniqsa, televizor uchun to‘g‘ri keladi. Salomatlik haqidagi bir nechta ko‘rsatuvlarda ham jismoniy tarbiya va sportning ko‘plab kasalliklarga qarshiprofilaktika chorasi sifatidagi ahamiyati deyarli ochib berilmaydi. Bu esa xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga tizimli jalb etish borasidagi ishlarni takomillashtirishning muhim jihatlaridan biridir. Jismoniy tarbiya va sport ayollarning sog‘lom turmush tarzida munosib o‘rin egallashi uchun ularning sog‘lig‘ining oldini olish va saqlashda, yaxshi niyatda, mashg‘ulotlar uchun normal ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar mavjudligida muhimligini tushunish kerak.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda ayollar o‘zlarining jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan munosabatlari va qiziqishlarini chuqurroq o‘rganishi lozim. Va bu munosabat kelajakda xotin-qizlarni yuqori marralarga olib chiqishda ko‘mak beradi. Ayollarning qiziqishlari orqali ularning sog‘lig‘i, mashg‘ulotlardan zavq va quvonch, o‘z nafsini qondirish va hokazolar uchun kerakligini tushunsagina ijobiy tomonga o‘zgaradi. Ammo hayot darajasi shunchalik yuqori bo‘lsa, ular sog‘lig‘iga ijtimoiy qadriyat sifatida munosabatda bo‘lishadi va ular bu haqda o‘ylashni boshlaydilar. Bundan tashqari, ushbu muammoni aniq tushunish kerak. Va buning uchun ushbu sohada imkon qadar ko‘proq tadqiqotlar va so‘rovlar o‘tkazilishi kerak.Yana shuni aytish joizki xotin-qizlarning sihat-salomatligini yaxshilash yo'lida tibbiyot, jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa, zamonaviy ta'lim jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'lda oila a'zolarining barchasini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlarini odatga aylantirishda qabul qilingan qonunlar hamda qarorlar asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizdagi tibbiyot xodimlari, pedagogik mutaxassislar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kadrlar tomonidan ishlab chiqilgan va uzoq davrlardan amalda qo'llanilayotgan sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar negizida yuqorida bayon etilgan tavsiyalar hamda mulohazalar mustahkam oila

qurish, obod turmush kechirish, samarali mehnat qilish, uzoq yillar davomida sog'lom bo'lib yurishlariga xizmat qila oladi.

Ayollarda va xotin-qizlarda sog’lom turmush tarzinin o‘rganib, quydagi mexanizmlarni tavsiya etishim mumkin.

1.Mahalla faollari ichida sport komplekstlarini ochilishi va ularning faoliyatlarini muntazam kuzatib borilishi darkor.

2.Ularga maxsus xonalar ajratilishi, sport bilan birga ularni pisixalogiyasini o‘rganilishi ,kayfiyatlarini ko‘tarish uchun professional dieatolog maslahatlaridan foydalanish lozim

3.Bularning barchasini ommaviy axborot vositalarida, «Mahalla» teleradio kanallarida olib borilishini ta’minlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **www.lex.uz**

2. Виноградов П.А., Душанин А.П., Жолдак В.И. Основы физической культуры и здорового образа жизни. – М.: Советский спорт, 1996.

3. Дегтярева Е.И. Новые виды и формы физической активности среди женщин в зарубежных странах и в России: Канд. дис. ВНИИФК, 1998.

4. Дим Р. Спорт и физическая активность: их значимость для досуга женщин: Доклад на конференции «Женский спорт и здоровье», – Стокгольм, 1996.

5. Akramov.X Sog‘lom turmush tarzining nazariy asoslari xususida ayrim mulohazalar .Doi Journal 10.26739/2181-9556

ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЧИВОСТИ И ДЕТЕРМИНИРОВАННОСТИ ПРИЗНАКОВ ГОЛОСЕМЯННОГО ЯЧМЕНЯ В УСЛОВИЯХ ОРОШЕНИЯ

Хужаёров Акобир Анвар угли
студент ГулДУ,
Кулиев Тожидин Хамдамович
канд. с.х. наук, доцент.,
Жуманов Уткиржон Тулкин угли
д.б.н (PhD) Гулистанский государственный университет, г.Гулистан, Узбекистан.

Ячмень как важнейшая зерновых культур возделывается во всех земледельческих хозяйством в мире. Зерно используют продовольственных, технических и кормовых целях. Культурный вид ячмень (H. vulgare L.), делится на пленчатых и голозерных разновидностей. У голосемянного ячменя зерновки голые и не соединяются с цветковыми чешуями, вследствие чего при обмолоте зерновки легко отделяются от них. Голозерный ячмень отличаются от пленчатых повышенным содержанием белка, незаменимых аминокислот, в первую очередь лизина, фенилаланина, метионина, треонина и жиров, богаты β-глюканами, стеролами, токотринолами, флавонолами,а также фитофенолами, обладающими антиоксидантной активностью[1,2,3].

Зерно голозерного ячменя используют для изготовления круп, муку. В Канаде распространены продукты, изготовленные из смесей муки пшеницы и ячменя. В Италии голозерный ячмень активно применяют для переработки в диетическую ячменную муку. Как кормовая культура, ячмень активно используется в России, странах СНГ, Восточной Европе и Канаде[1].

Введение в рационы птицы зерна ячменя голозерных сортов повышает мясную продуктивность гусят-бройлеров и яичную продуктивность несушек перепела[4].

Одним из основных факторов, ограничивающих широкое распространение голозерного ячменя, является его низкая урожайность по сравнению с пленчатым. Первым фактором являются низкой полевой всхожести семян. Эта связано с повреждением семенного материала во время очистки [1]. Вторым фактор являются климатические условия среды и генотипов. В условиях Канады урожайность голосемянного ячменя была ниже 12,0 %, - Омской области на- 8,4 % по сравнению с пленчатым

сортом. Сорт голозерного ячменя Челябинский превысил урожайность стандартного сорта на 0,5 т (5,1 против 5,6 т/га). Отсюда сделан вывод о значительном разнообразии голосемянных форм ячменя как по урожайности, так и по другим признакам (Цит.по:А.В.Железнов и др .2013.[2].

Известно, что для селекции большое научное и практическое значение имеют коллекционные образцы в качестве исходного материала. По литературным данным известно, что коллекционный образец голозерного ячменя var. himalayense из Узбекистана был первым зарегистрированным номером (к-1) в каталоге ВИР полученный в 1897г [1]. Среде коллекционных образцов голосеменного ячменя были выделены перспективные по содержанию белка, аминокислот, крахмал, сахаров. Например, содержание белка выделенных образцов составила 12,0-15,9 % [5].

Почвенная засолённость остается одной из сложных проблем в сельском хозяйстве, в том числе растениеводстве. В Сырдарьинской области, где проводились исследования что 90% орошаемой почвы имеет различную степень засоленности. Один из путей рационального использования засоленных почв является отбор и создание солеустойчивых культур. Путем индивидуального отбора из коллекционных образцов ячменя был создан новый голосемянный сортУзбеситан-30, который передан на государственные сортоиспытания. Как было отмечено выше [2], что голосемянный ячмень уступают по урожайности пленчатых сортов. В условиях орошение нами получены аналогичное результате, где урожайность голосемянный ячмень был ниже на 2-3 ц/га. Рекомендован данный сорт в качестве кормового , промежуточных культур. Посев осенью позволит фермером получить ранний урожай ячменя, после этого можно сеять другие кормовые культуры. Кроме этого , ячмень голосемянный является хорошим компонентом для гетерогенного агроценоза зерновых и зернобобовых культур. При посеве осенью вегетационный период составляет 238-240 дней, нормы посева 4-4,5 млн семян на гектар [6,7,8].

В целом можно сказать, что голосемянный ячмень представляет большой научный и практический интерес для селекции скороспелости, солевыносливости в условиях почвенного засоление. Кроме этого, в кормопроизводстве также имеет большое значение. Многие генетические возможности голосемянного ячменя не изучены в наших условиях. Целью данного исследования является изучить особенности изменчивости некоторых количественных признаков голосемянного ячменя в условиях почвенного засоления орошаемого земледелие.

Эксперимент проводился в условиях засоленности почвы экспериментального участка Гулистанского государственного университета. Объектом исследования служил сорт голосемянного ячменя Узбекистан-30 (Hordeum vulgareL). Коэффициент вариации (Cv, %) и коэффициент детерминации- r^2 (*детерминация это квадрат коэффициента корреляции–* r^2) признаки вычеслены с помощью программы SPSS-17[9].

Результаты показали(рис-1) что масса одного растения составила 4,7 г, высота роста растений - 88,7 см, масса одного колоса 2,1 г, количество зерен в одном колосе -39,4 штук, масса семян одного колоса -1,2 г, масса 1000 семян - 38,7г. Выход семян составил 56,7 %, длина колоса- 7,4 см, количество колосков в одном колосе 9,7 штук.



1-рис. Биометрические показатели голосемянного сорта ячмень Узбекстан-30 в условиях почвенного засоления.

Примечание: цифры обозначения признаков. 1.Масса одного растение.; 2- высота роста растений; 3-масса одного колоса,г; 4-длина колоса, см; 5-количество колосков в одном колосе; 6-количество зерен в колосе; 7-масса семян в одном колосе; 8-масса 1000 семян, г; 9-выход семян,%; 10-индекс урожая.

Изменчивость количественных признаков характерна для них (таблица). По данным таблицы видно, что минимальный показатель **массы одного растение (1) составил** -2,91г, а максимальный- 7,8г, по высоте роста растений (2) соответственно- 71,30см и 101,0см. Такие результате получены по всем изученным признакам. При этом каждый количественный признак формируется под влиянием условий среды при этом отражает генетическую возможность. В таких случаях изменчивость количественных признаков естественно. Чем больше признак зависит от условий среды, тем больше их изменчивость.

Таблица

Изменчивость биометрических признаков (*цифры обозначают признаки, например 1- масса одного растения)*

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Минимум									
2,91	71,30	1,20	6,10	6,00	22,00	0,38	33,30	31,67	0,12
Максимум									
7,8	101,0	3,3	8,5	12,0	60,0	2,3	48,9	78,7	0,39

Среди изученных признаков сильно детерминированными (*средний коэффициент детерминации* r^2= 0,405**)** были признаки масса семян одного колоса (7) и масса одного колоса (r^2= 0,365)(рис-3). Так как эти признаки были сильно корреляционно связаны с другими изученными признаками(рис-2). Между массой одного растения (1) и массой семян одного колоса (7) установлена сильная корреляционная (r=0.714) связь. Значит чем больше масса растений, тем больше масса семян. Аналогичное количество связей также было установлено с другими: 3, 4, 5, 6, 8, 9 признаками. Значить изменчивость массы семян одного колоса происходит согласовано с другими признаками. В таких случаях масса семян одного колоса зависит не только от генотипа, а также от условий среды.



Рис-2. Уровень корреляционных связей массы семян одного колоса другими признаками

Признаки как высота роста растений (2) (r^2=0,043) и длина колоса (4) (r^2= 0,163) была сравнительно стабильной (рис-3). Изменчивость этих признаков происходила самостоятельно. Аналогичные результаты получены по количеству колосков в одном колосе (5) и выход семян (9). Масса 1000 семян была слабо детерминированной (r^2=0,030) и сильно изменчивой (CV=39.0%).



Рис-3. Изменчивость (Cv%) и детерминированность(r^2) признаков голосемянного ячменя

Цифры обозначающие признаки (рис1).

В условиях почвенного засоление количественных признаков голосемянного ячменя отличались изменчивостью и детерминированностью. Среди изученных признаков сильно детерминированной была масса семян одного колоса. По мнению Ростовой Н.С(2002) эколого-биологические индикаторы -признаки, отражающие согласованную изменчивость особей в неоднородную среду. Значить в условиях почвенного засоления изменчивости продуктивность колоса связана в первую очередь с солеустойчивым генотипом. Солеустойчивый генотип был продуктивным, а не солеустойчивый был непродуктивным. Уровень продуктивности является главным фактором влияющие на изменчивость признака. Значить солеустойчивые генотипы отбирают по продуктивности [10].

Как была отмечено выше почвенное засоление остается одной из актуальных проблем в сельском хозяйстве. Одним из приёмов рационального использования засоленных почв является использование солеустойчивых сортов, генотипов растений. В этом деле новый сорт голосемянный ячмень представляет большой интерес в качестве кормовой культуры. Для введение селекционных семеноводческих работ в условиях орошения отбора генотипов провести по массе семян одного колоса. При этом обратить внимание на высоту роста растения и длину колоса которые способствуют сохранению сортовых признаков.

ЛИТЕРАТУРЫ

1.К.А. Лукина, О.Н. Ковалева, И.Г. Лоскутов. Голозерный ячмень: систематика, селекция и перспективы использования. Вавиловский журнал генетики и селекции. 2022;26(6):524-536 DOI 10.18699/VJGB-22-64

2.А.В. Железнов, Т.В.Кукоева, Н.Б. Железнова. Ячмень голозерный: происхождение, распространение и перспективы использования. Вавиловский журнал генетики и селекции, 2013, ТОМ 17, № 2 286-97с.

3.Meints B., Vallejos C., Hayes P. Multi-use naked barley: A new frontier. J. Cereal Sci. 2021;102:103370. DOI 10.1016/j.jcs.2021.103370

4.Грязнов А.А. Нудум 95 – высокобелковый сорт голозерного ячменя. АПК России. 2016;75(1):175-180.

5.Губанов, М. В. Продуктивность и качество зерна сортообразцов голозерного ячменя в северной лесостепи Тюменской области / М. В. Губанов // Вестник Красноярского ГАУ. – 2015. – № 1. – С. 145–148

6.Kuliev, H, Qo‘shiev., O‘.Jumanov., “Sho‘rlangan tuproq sharoitida o‘simliklarning seleksion qiymati”//O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi asosiy kutibxonasi. Navro‘z nashriyoti 2020 yil. Monografiya. 170 b

7. Т.Кулиев., Х,Қўшиев., У,Жуманов.А.Кенжаев., А.Абдукаримов. Пўстсиз арпанинг шўрланган тупроқ шаитдаги биометрик кўрсаткичлари..Пахтачилик ва дончилик,Тошкент, № 4, 2021, 48-53

8.Кулиев Т.Х., Жўманов Ў.Т., Содикова Д. Дони қобиқсиз арпанинг Ўзбекистон -30 нави. 2024. № 5 (17). BULLETIN OF THE AGRARIAN SCIENCE OF 7-13 б

XOTIN-QIZLARNING HUQUQLARI: IMKONIYAT VA HIMOYA

Zarina Umirova
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya *Maqolada xotin-qizlarning huquqlari, ularning jamiyatdagi o‘rni va huquqiy himoyasi yoritiladi. Xalqaro va milliy qonunchilik doirasida xotin-qizlarning ta’lim olish, mehnat qilish, iqtisodiy va siyosiy faollik kabi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Gender tengligi, xotin-qizlarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikka qarshi qonuniy choralar ham o‘rganiladi. Xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish ularning huquqlaridan to‘g‘ri foydalanishi va mavjud himoya mexanizmlaridan xabardor bo‘lishiga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xotin-qizlar huquqlari, gender tengligi, huquqiy himoya, imkoniyatlar, ta’lim huquqi, mehnat huquqi, iqtisodiy mustaqillik, siyosiy faollik, zo‘ravonlikka qarshi himoya, huquqiy savodxonlik.*

Kirish

Xotin-qizlarning huquqlari nafaqat ularning shaxsiy erkinligi va farovonligini ta’minlash, balki jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda butun dunyoda xotin-qizlarning ta’lim olish, mehnat qilish va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, gender tengligi va huquqiy himoya masalalari hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquqlari Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir”, deb belgilangan. Davlat tomonidan xotin-qizlarning ta’lim olishi, iqtisodiy faolligi va huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xotin-qizlarning huquqiy himoyasi: xalqaro va milliy tajriba

Xotin-qizlarning huquqlari xalqaro maydonda ham muhim masala hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan ,,Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiya ko‘plab davlatlarda gender tengligini ta’minlashda asosiy hujjatlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish uchun “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Shuningdek, Ayollar daftari orqali ehtiyojmand xotin-qizlarga yordam berilmoqda. Taqqoslash uchun, Skandinaviya mamlakatlarida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha maxsus sud tizimlari mavjud bo‘lib, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va kamsitish holatlari qat’iy nazorat qilinadi.

Ta’lim va iqtisodiy imkoniyatlar

Xotin-qizlarning ta’lim olishi ularning jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishiga sharoit yaratadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda xotin-qizlarning oliy ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Jumladan, magistraturaga shartnoma asosida kirgan xotin-qizlarning to‘lovlari davlat tomonidan qoplab berilmoqda.Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Yevropa Ittifoqi davlatlarida ayollar uchun maxsus grant va stipendiyalar ajratiladi. Masalan, Germaniyada Frauenförderung dasturi ayollarning oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi.Iqtisodiy mustaqillikka erishish masalasida O‘zbekistonda xotin-qizlar uchun imtiyozli kreditlar ajratilib, ularning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi rag‘batlantirilmoqda. Skandinaviya mamlakatlarida esa gender kvotalari asosida davlat va xususiy sektorda ayollarning bandligi ta’minlanadi.

Siyosiy faollik va gender tengligiXotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish davlat boshqaruvida ularning ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda gender tengligini mustahkamlash uchun ayollarning davlat boshqaruvidagi ulushi ortib bormoqda. Parlamentda ayollar ulushi 30% dan oshgan.Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda esa gender

kvotalari joriy etilgan bo‘lib, har bir siyosiy partiya o‘z nomzodlarining kamida 40% ini ayollar orasidan ko‘rsatishi shart.

Zo‘ravonlikka qarshi himoya va huquqiy savodxonlik

Gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha O‘zbekistonda muhim ishlar amalga oshirilmoqda. “Xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish markazlari” tashkil etilib, jabrlanuvchilarga huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatmoqda.

AQSh va Kanada tajribasida esa oilaviy zo‘ravonlik qurbonlari uchun maxsus huquqiy yordam markazlari faoliyat yuritadi. Bunday markazlar ayollarga nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy yordam ham ko‘rsatadi.

Xulosa: Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratish jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir. O‘zbekistonda bu borada muhim islohotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, xalqaro tajribadan o‘rganish orqali yanada samarali mexanizmlarni joriy etish mumkin. Gender tengligini mustahkamlash, ta’lim va iqtisodiy mustaqillikni oshirish hamda zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha ishlash davom etishi zarur.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari bu borada juda ibratlidir:

“Men bu hayotiy fikrni takrorlashdan charchamayman: bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz. Oila bilimli, ma’rifatli bo‘lsa, butun jamiyat bilimli va ma’rifatli bo‘ladi.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qonun hujjatlari:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun.

BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasi.

2. Prezident nutqlari va farmonlari:

Shavkat Mirziyoyevning gender tengligi va ayollar huquqlari bo‘yicha nutqlari.

“O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosati to‘g‘risida”gi farmon.

3. Ilmiy va statistik ma’lumotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ayollar huquqlari va gender tengligi bo‘yicha statistik hisobotlari.

Yevropa Ittifoqi va Skandinaviya mamlakatlarining gender tengligi bo‘yicha siyosati (maqolalar va hisobotlar).

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING TASVIRIY FAOLIYAT MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH MAHORATINI OSHIRISH

Xudoyberdiyeva Laylo Xolmo’min qizi
Guliston Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2/24 – gurux Magistri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish mahoratini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tasviriy san’at bolalarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va badiiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilar ushbu jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim. Maqolada tasviriy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari, metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak tarbiyachi, tasviriy faoliyat, ijodiy qobiliyat, metodika, innovatsion yondashuvlar.*

Annotation. *This article explores the development of future educators' skills in effectively organizing visual arts activities. Visual arts play a crucial role in shaping children's aesthetic taste, creative thinking, and artistic abilities. Therefore, prospective preschool teachers must receive specialized training to conduct these activities efficiently. The article discusses the pedagogical foundations, methodological approaches, and innovative technologies for organizing visual arts activities in early childhood education.*

Keywords: *future educator, visual arts, creative abilities, methodology, innovative approaches.*

Kirish.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun tasviriy faoliyat nafaqat san’atni anglash vositasi, balki tafakkur, tasavvur, ijodiy qobiliyat va motorik harakatlarni rivojlantirish vositasidir. Ushbu jarayonda tarbiyachining roli juda muhim bo‘lib, u bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish, ularni ilhomlantirish va san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Tasviriy faoliyat va bolalar rivojlanishi.

1.Taniqli psixolog L.S. Vigodskiy (2004) ta’kidlaganidek, bolalar ijodiy rivojlanishida tasviriy san’at muhim rol o‘ynaydi. Uning tadqiqotlarida tasviriy faoliyat bolalarning emotsional-intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi

qayd etilgan.L.S. Vigodskiyning fikriga ko‘ra, bola rasm chizish jarayonida faqat tasvir yaratibgina qolmay, balki o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, tasavvur qilish va reallikni tushunish kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydi. Howard Gardner (1983) o‘zining Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences asarida bolalarda "vizual-intellektual qobiliyat" mavjudligini ta’kidlaydi. Bu qobiliyat tasviriy faoliyat orqali rivojlanadi va bolalarning muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash, kuzatish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat metodikasi. Pedagog D. Ahmadova (2019) "Мактабгача таълимда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси" asarida bolalarning tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun pedagog qanday metodik yondashuvlarni qo‘llashi kerakligini ta’kidlaydi. Ahmadova fikriga ko‘ra, quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Ko‘rgazmali usul: Rasm chizish va boshqa tasviriy san’at turlarini tushuntirish uchun namunalar va real ob’ektlar ko‘rsatish.

Amaliy-uslubiy yondashuv: Bolalarni faol ishtirok etishga undash va ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish.

O‘yinli metod: Tasviriy faoliyatni o‘yin orqali tashkil etish, bu esa bolalarning qiziqishini oshiradi va ularning ishtirokini faollashtiradi.

3. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Sh. Hamidova (2020) "Мактабгача таълим тизимида инновацион педагогик технологиялар" kitobida ta’kidlaganidek, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida quyidagi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samarali natija beradi:

* Raqamli vositalardan foydalanish: Interaktiv doskalar, raqamli ilovalar va 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanish bolalarning tasviriy qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

* STEM va san’atni uyg‘unlashtirish: Tasviriy san’atga ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani (STEM) integratsiya qilish orqali bolalarning kompleks tafakkurini rivojlantirish mumkin.

* Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari: Bolalar uchun yangi texnologiyalar orqali interaktiv san’at tajribasi yaratish.

4. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi va tasviriy faoliyat. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligining "Мактабгача таълим ташкилотлари учун тасвирий фаолият методик тавсиялари" (2022) qo‘llanmasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tasviriy san’at mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Ushbu qo‘llanmada quyidagi jihatlarga urg‘u berilgan:

* Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish – 3-7 yoshdagi bolalar uchun mos metodlarni tanlash.

* Ijodiy muhit yaratish – bolalar erkin tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratish.

* Mashg‘ulotlarni qiziqarli va interaktiv o‘tkazish – an’anaviy yondashuvlardan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha maxsus metodik yondashuvlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim. Bu ularning kasbiy mahoratini oshirish va bolalarga sifatli ta’lim berish imkonini yaratadi. Tarbiyachining tasviriy faoliyatni tashkil etish mahorati bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish va estetik didini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak tarbiyachining tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish mahorati. Bo‘lajak tarbiyachilar quyidagi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

1. Metodik bilimlar va pedagogik yondashuvlar. Tarbiyachi tasviriy faoliyatni tashkil etishda quyidagi metodik asoslardan foydalanishi lozim:

* Ko‘rgazmali usul: Bolalarga rasm chizish, bo‘yash, haykaltaroshlik kabi san’at yo‘nalishlarini tushuntirish uchun namunalar ko‘rsatish.

* Amaliy-uslubiy yondashuv: Bolalarni faol ishtirok etishga undash, ularni ijodiy jarayonga jalb qilish.

* Didaktik o‘yinlar: Tasviriy faoliyatni o‘yin bilan bog‘lab, bolaning qiziqishini oshirish.

2. Ijodiy yondashuv va motivatsiya berish

Bo‘lajak tarbiyachilar tasviriy san’at orqali bolalarni quyidagicha rag‘batlantirishlari mumkin:

* Erkin ijod qilishga sharoit yaratish.

* Bolalarning ishlarini qadrlash va ko‘rgazmalar tashkil etish.

* Ularning harakatlarini ijobiy baholash va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish.

3. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida quyidagi innovatsion usullardan foydalanish samaradorlikni oshiradi:

* Interaktiv doskalar va multimedia resurslar: Ranglar, shakllar va kompozitsiyani tushuntirishda vizual vositalardan foydalanish.

* Raqamli rasm chizish dasturlari: Bolalar uchun maxsus mo‘ljallangan ilovalardan foydalanib, ularning texnologiyaga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish.

* 3D modellashtirish va VR texnologiyalari: Haykaltaroshlik va tasviriy san’atning yangi texnikalarini bolalarga tushuntirish.

4. Mashg‘ulotlarni interaktiv va qiziqarli tashkil etish.

* Ijodiy tanlovlar va loyihalar: Bolalar uchun musobaqalar tashkil etish orqali ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish.

* Tabiat va atrof-muhitdan ilhomlanish: Ochiq havoda rasm chizish va tabiiy ob’ektlardan foydalangan holda mashg‘ulot o‘tkazish.

* Bolalar ishtirokidagi spektakllar va san’at festivallari: Bu orqali bolalar o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa.

Tarbiyachi tasviriy faoliyatni tashkil etishda nafaqat texnik bilimlarga, balki pedagogik mahoratga ham ega bo‘lishi lozim. Uning maqsadi bolalarni ijodkorlikka o‘rgatish, san’atga muhabbat uyg‘otish va o‘z fikrlarini tasvir orqali ifodalashga rag‘batlantirishdir. Bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish mahoratini oshirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar yordamida bolalarning ijodiy rivojlanishiga ko‘maklashish mumkin. Bo‘lajak tarbiyachilar tasviriy faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari, bolalarni ilhomlantirish va ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish uchun ijodiy yondashuvlarni qo‘llashlari lozim.

Tavsiyalar.

1. Tarbiyachilar uchun maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish, bu ularning tasviriy san’at bo‘yicha bilimlarini boyitishga yordam beradi.

2. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, bolalarning qiziqishini oshirish va yangi imkoniyatlarni yaratish uchun muhimdir.

3. Bolalar ijodiy ishlarini rag‘batlantirish va ko‘rgazmalar tashkil etish, bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va san’atga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Shunday qilib, bo‘lajak tarbiyachilar tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun pedagogik va ijodiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishlari lozim. Bu esa bolalarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish va ularda san’atga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot: Bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish mahoratini oshirish.

Tadqiqot maqsadi: Bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha pedagogik mahoratini oshirishning samarali usullarini aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqot ishtirokchilari: Pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan 50 nafar bo‘lajak tarbiyachi.

Tadqiqot metodlari: Kuzatish, so‘rovnoma, tajriba-sinov mashg‘ulotlari, natijalarni statistik tahlil qilish.

Tadqiqot muddati: 3 oy.

Tadqiqot bosqichlar:

1. Diagnostika bosqichi (1-oy)

Maqsad: Talabalar orasida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha dastlabki bilim va mahoratini aniqlash.

Usullar:

Talabalar uchun so‘rovnoma o‘tkazildi. Unda quyidagi savollar kiritildi:

1. Tasviriy faoliyatni tashkil etishda qaysi metodlardan foydalanasiz?
2. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish tajribangiz bormi?
3. Mashg‘ulotni qiziqarli o‘tkazish uchun qanday yondashuvlarni bilasiz?

10 nafar talabaga tajriba-sinov darsi o‘tkazish topshirildi va ularning pedagogik ko‘nikmalari baholandi.

Dastlabki natijalar: 50 nafar talabadan 25% tasviriy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha to‘liq bilimga ega ekanligi aniqlandi.

60% talabalar faqat an’anaviy usullarni bilishlari, innovatsion texnologiyalar va interaktiv yondashuvlardan foydalanish tajribasiga ega emasligi ma’lum bo‘ldi.

15% talabalar esa tasviriy faoliyat metodikasi bo‘yicha umuman tayyorgarlikka ega emasligi aniqlandi.

2. Eksperimental bosqich (2-oy)

Maqsad: Bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini oshirish.

Intervensiya usullari:

a) **Interaktiv seminarlar:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha treninglar o‘tkazildi.

b) **Amaliy mashg‘ulotlar:** Bolalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy darslar tashkil etildi.

c) **Innovatsion texnologiyalardan foydalanish:** Raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha trening o‘tkazildi.

d) **Refleksiya va muhokama:** Har bir talabaga o‘z tajribasini tahlil qilish imkoniyati berildi.

3. Natijalarni baholash bosqichi (3-oy)

Maqsad: Intervensiya natijalarini tahlil qilish va bo‘lajak tarbiyachilarning mahoratini oshirish samaradorligini baholash.

Natijalar: Dastlabki bilim darajasi bilan solishtirganda, talabalar orasida ijodiy yondashuv va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari 50% ga oshdi. Tajribadan o‘tgan talabalarning 80% tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini interaktiv usulda tashkil etish bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirgani aniqlandi. An’anaviy usullarga tayanadigan talabalar soni 60% dan 30% ga kamaydi, ya’ni yangi pedagogik yondashuvlar o‘z samarasini ko‘rsatdi.

Quyida tadqiqot natijalari statistik tahlil qilinib, jadval shaklida ifodalangan. Bu jadvalda bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha bilim va amaliy mahorat darajalarining so‘rovnoma va tajriba-sinovlar natijasiga ko‘ra qanday o‘zgarishi aks ettirilgan.

Tadqiqot natijalari statistik tahlili:

Ko‘rsatkichlar	1-oy (boshlang‘ich daraja,%)	2-oy (treningdan keyin,%)	3-oy (tajribadan keyin,%)	O‘sish foizi (%)
Tasviriy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha nazariy bilim darajasi	25	60	85	60
Innovatsion metodlardan foydalanish qobiliyati	15	50	80	65
An’anaviy usullardan foydalanish darajasi	60	40	30	-30
Ijodiy yondashuv va interaktiv metodlarni qo‘llash darajasi	20	55	90	70
Bolalar	30	65	85	55

bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar				
Mustaqil dars o‘tish qobiliyati	**10**	**40**	**75**	**65**

Natijalarning tahlili:

Tasviriy faoliyat bo‘yicha nazariy bilim darajasi 25% dan 85% gacha oshdi, ya’ni talabalar bu sohada yetarli bilimga ega bo‘ldilar.

Innovatsion metodlardan foydalanish qobiliyati dastlab 15% ni tashkil etgan bo‘lsa, oxirgi bosqichda 80% ga yetdi. Bu interaktiv treninglarning samarali bo‘lganini ko‘rsatadi.

An’anaviy usullarga bog‘lanib qolgan talabalar ulushi 60% dan 30% gacha kamaydi, bu esa innovatsion yondashuvlar muvaffaqiyatli joriy qilinganini anglatadi.

Ijodiy yondashuv va interaktiv metodlarni qo‘llash qobiliyati 70% ga oshdi, ya’ni talabalar o‘z darslarini qiziqarli tashkil etish bo‘yicha mahoratlarini ancha rivojlantirdilar.

Bolalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar 55% ga oshdi, bu esa talabalar tajriba orttirganini bildiradi.

Mustaqil dars o‘tish qobiliyati 10% dan 75% gacha oshgan, bu esa talabalar pedagogik jarayonga tayyor ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu statistik ma’lumotlar bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha mahoratini oshirish uchun innovatsion metodlar va amaliy mashg‘ulotlar samarali ekanligini isbotladi. Uch oylik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligi pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishda eng samarali usuldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedova D. Maktabgacha ta’limda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi.
2. Jo‘rayeva N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences – bolalarning turli intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish

4. Vygotsky, L. S. Imagination and Creativity in Childhood – bolalar tasavvuri va ijodiy tafakkuri rivojlanishining psixologik asoslari

5. Hamidova Sh. Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar.

6. O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha talim vazirligi "Maktabgacha talim tashkilotlari uchun tasviriy faoliyatetodik tavsiyalari",

ABU ALI IBN SINO BOBOMIZNING BUYUK TABIB BO’LISH SIR ASRORLARI

Sulaymanov Xamro Ergashovich

Sayxunobod tuman 2-son Politexnikumning ishlab chiqarish ta’lim ustasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Abu Ali ibn Sino bobomizning tibbiyot faniga qiziqishi, mehnatsevarligi orqali fizika, musiqa, adabiyat, astronomiya fanlariga qo’shgan xissasini tar’iflab berildi.*

Kalit so’zlar: “*Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») , Avitsenna.*

Jahon fani, hususan tabobat ilmi taraqqaiyatiga ulgan hissa qo’shgan Al Husayn Ibn Abdulloh ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino tabiiy fanlarni, hususan tabobatni sevib o’rgangan. Abu Ali ibn Sino tug’ma iste’dodi va mehnatsevarligi tufayli Tib ilmida u juda tez kamol topa boshlagan. Abu Ali ibn Sina o’z tajrimai holida,-qiyin ilmlardan emas, shu sababdan qisqa muddat ichida bu fanda juda ilg’orlab ketdim, endi hatto bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmidan saboq oladigan bo’ldilar. Bemorlarni ham davolab turardim va shu yo’sinda ortdirgan tajribalarim natijasida, muolija eshiklari menga shu qadar keng ochilib ketdiki, uni ta’riflab berish qiyin deydi.

Abu Ali ibn Sino o’n etti yoshida Buxora xalq orasida mohir tabib sifatida dong chiqardi. O’sha kezlarda Somoniylar davlatining boshligi Nuh ibn Mansur kasal bo’lib, saroy tabiblari uni davolashdan ojiz edilar. Yosh tabib amirni davolash evaziga saroy kutubxonasidan foydalanish imkonidatiga ega bo’ladi. Butun o’rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilishi natijasida Abu Ali ibn Sino o’z bilim doirasini mislsiz darajasiga kengaytirdiki buyuk tabib bo’lishiga erishdi.

“Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») - ensiklopedik xarakterdagi asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda bo‘laklar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumliligiga e’tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxo‘v kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga o‘girilgan ko‘plab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismdan iborat bo’lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta’rifiga bag‘ishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o‘simlik ko‘rinishidadir

Sog‘lomlashtiruvchi mashqlar Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida jismoniy mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi va davolovchi tajribadagi o‘rni va roli haqida yozadi. Jismoniy mashqlarga to‘xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta’rif bergan.

Agar inson mo‘’tadil va o‘z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhtoj bo‘lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to‘xtatar ekan, u so‘nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo‘g‘imlarni, asabni mustahkam qiladi. Shuningdek, u mashqlarni bajarishda yoshni ham inobatga olishni maslahat bergan. Uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarda to‘xtalgan.

Kimyo sohasida Abu Ali ibn Sino efir moylarini haydash jarayonini ochgan. Xlorid, oltingugurt va azot kislotalari, kaliy va natriy gidroksidini chiqara olgan.

Ibn Sino astronomiya sohasida Arastuning yulduzlarga Quyosh nuridan yorug‘lik tushadi degan qarashlariga qarshi chiqarkan, yulduzlar o‘z yorug‘ligi bilan porlaydi, shuningdek, sayyoralar ham o‘zi nur sochadi, deya tahmin qilgan. 1032 yil 24 may kuni Zuhra sayyorasi Quyosh gardishidan o‘tayotganini kuzatganini ma’lum qilgan. Biroq, hozirgi zamon olimlari mazkur o‘tish aynan shu yerda va shu vaqtda bo‘lganligiga gumon qilishadi. Bu kuzatuvdan u ptolomey kosmologiyasiga binoan, Zuhra sayyorasi gohida Yerga Quyoshdan ko‘ra yaqinoq kelishini asoslash maqsadida foydalangan.

Mexanika Abu Ali ibn Sino to‘plangan (yoki qayd qilingan) kuch nazariyasiga katta xissa qo‘shgan. Bu o‘rta asr harakat nazariyasi bo‘lib, tana sarf qilgan harakat (keyinroq impetus nomini olgan) shunday kuchki, u tashqi manbalardan to‘plangan. Uning fikricha, “harakatga keltiruvchi kuch” (inson qo‘li, tarang tortilgan kamon ipi, palaqmon va boshqalar) harakatlanayotgan tanaga ba’zi “intilish” haqida xabar beradi, go‘yo olov suvga issiqlik uzatgani kabi. Harakatga keltiruvchi kuch o‘rnida, shuningdek, og‘irlik ham bo‘lishi mumkin.

“Intilish” uch xil bo‘ladi: ruhiy (tirik jonzotlarda), tabiiy va g‘ayritabiiy. “Tabiiy intilish” og‘irlik va tana tushishi natijasida yuzaga keladi, ya’ni Arastu ta’limotiga ko‘ra tananing tabiiy harakat holatida. Bunday holatda “intilish” harakatsiz tana holatida harakatga qarshilik ko‘rsatgan holda bo‘lishi ham mumkin. “G‘ayritabiiy intilish” filoponovsk harakatlanayotgan kuch analogi bo‘lib, u tashlangan tananing harakatga keltiruvchi kuchiga xabar beradi. Bo‘shliqda “g‘ayritabiiy intilish” o‘zgarmaganda edi, tana betinim harakatni amalga oshira olgan bo‘lar edi. Bunda olim inersiya tushunchasini oldindan ko‘rganligini payqash mumkin, lekin Avitsenna bo‘shliq tushunchasiga ishonmagan. Abu Ali ibn Sino “G‘ayritabiiy intilish”ga miqdoriy baho berishga uringan: uning fikriga ko‘ra, u vazn hamda tana harakati tezligiga teng.

Ehtimol, Abu Ali ibn Sinoning lotin tilidagi sarflangan kuch haqidagi g‘oyalari g‘arbda mashhur bo‘lib, Buridanning impetus nazariyasi rivojiga zamin bo‘lgandir.

Falsafa Abu Ali ibn Sino metafizika fani tushunchasida Arastu izidan borgan. Al Farobiydan keyin u mavjudlik va mavjud emaslik o‘rtasidagi farqni boshqalarga nisbatan hamda mavjudlik va mavjud emaslik o‘rtasidagi farqni o‘ziga nisbatan ko‘rsatadi. Abu Ali ibn Sino yaratganning abadiy ekanligini ta’kidlaydi. Abadiylik tushunchasini Abu Ali ibn Sino emanatsiyaning nooplatonik tushunchasi yordamida tushuntirib, shu orqali u boshlang‘ich yagonalikdan ko‘plik jonzotlar dunyosiga o‘tishni mantiqiy yoritib bergan. Biroq, koinotga bir kishi kelib chiqishining yakuniy natijasi sifatida emas, balki barcha ixtiyoriy mavjudodning zarur elementi sifatida qarab, nooplatonik tushunchadan farqli ravishda, emanatsiya jarayonini samoviy osmon olami bilan chegaralab qo‘ydi. Koinot uch olamga bo‘lingan: moddiy dunyo, yaralmagan abadiy qiyofa dunyosi va dunyoning barcha xilma-xilliklarini o‘zida jalb qilgan dunyo. Inson tanasi va qalb birligi tirik jonni hosil qiladi; falsafiy fikrlovchi insonga aqlli qalbni qabul qilishga moyil tana asos bo‘ladi. Mutloq haqiqatga fikrlash jarayonining eng yuqori nuqtasida hozir bo‘luvchi ichki hissiyot orqali erishiladi.

Ibn Sinoning tasavvuf asarlar doirasiga “Qushlar haqida kitob”, “Sevgi haqida kitob”, “Duo mohiyati haqida kitob”, “Ziyoratchilik mohiyati haqida kitob”, “O‘limdan qo‘rqishdan halos bo‘lish haqidagi kitob”, “Qismat kitobi” kabilar kiradi.

Psixologiya Abu Ali ibn Sino, shuningdek, temperament va inson xarakteri haqida o‘z ta’limotini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, inson mijozi to‘rtga bo‘linadi: issiq, sovuq, nam va quruq (zamonaviy psixologiyadagi to‘rt mijozga mos ravishda). Mazkur mijozlar turg‘un emas, balki meteorologik va havo o‘zgarishi kabi tashqi yoki ichki omillar natijasida o‘zgaradi. Organizmdagi suyuqlik darajasi ham inson mijoziga o‘zgarishlar kiritishi mumkin. Oddiy mijoz turlari

bilan birga, Avitsenna yana to‘rt mukammal mijozni ajratib, ular organizmdagi to‘rt suyuqlikdan biri (qon, shilliq, sariq va qora safro) ustun kelishiga ko‘ra tuslanishini bayon qilgan.

Adabiyot Abu Ali ibn Sino o‘zining ko‘pgina ilmiy ishlarini to‘rtliklardan foydalanib, doston ko‘rinishida yozgan. Shunday shaklda “Sevgi haqida risola”, “Qushlar haqida risola” va boshqa asarlari yozilgan. Ijodi namunalari orasida she’riy to‘rtliklar hamda ruboilar ham uchrab turadi.

Abu Ali ibn Sinoning asosiy adabiy asarlari-falsafiy kinoya-qissa “Xay ibn Yakzan”, yigirmata ikki misrali “Qushlar” bayti, “Salomon va Absal”. Mazkur asarlar va ruboilar arab, eron va turk adabiyoti rivojida katta o‘rin egallaydi. Jumladan, XII asr eron ijodkorlaridan mumtoz shoir Umar Xayyom Abu Ali ibn Sinoni o‘z ustozi deb bilgan.

Musiqa Avitsenna, shuningdek, musiqa nazariyasiga oid asarlar ham yozgan bo‘lib, ular ijodkorning ensiklopedik ishlarining bir qismidir:

- “Davo kitobi”da “Ilmda musiqiy to‘plam”;
- “Najot kitobi”da “Musiqa haqida kichik bayon”;
- “Bilimlar kitobi” dagi musiqa bo‘limi.

Nazariy nuqtai nazardan Abu Ali ibn Sino o‘rta asr an’analariga ko‘ra musiqani matematik bilimlar toifasiga kiritgan. U musiqaga tovushlarni o‘rganuvchi, ularnig mutanosib jo‘rligi natijasida kuy hosil bo‘luvchi fan deb qaragan. Pifagor ta’limotidan kelib chiqqan holda, u musiqa sonlarga tegishli va ular bilan uzviy bog‘liqdir, deb bilgan.

Abu Ali ibn Sino tarixda birinchi bo‘lib musiqaga faqat matematik fan emas, balki jamiyatshunoslik, psixologiya, poetika, etika va fiziologiya nuqtai nazaridan ham qarab, musiqa tarixiga puxta ilmiy tayanchni asoslaydi.

Buyuk olim O‘rta Osiyoda keng tarqalgan kamonli asbob bo‘lmish g‘ijjakni ham ixtiro qilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Ali ibn Sino ‘‘ Tib qonunlari’’ Toshkent 2020 yil

2. Абу Али ибн Сино ‘‘КАНОН ВРАЧЕБНОЙ НАУКИ тошкент 1954 йил

MOLEKULA TUSHUNCHASI VA KINETIK NAZARIYANING ASOSIY QOIDALARI

Kabirova Sadoqatxon Yorqinjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Fizika va kimyo fakulteti
Fizika-astanomiya yo‘nalishi talabasi
Sadoqatkabirova55@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola molekula tushunchasi va kinetik nazariyaning asosiy qoidalari to‘g‘risidagi maqola bo‘lib, bu maqoladagi molekula tushunchasi hozirda talabalar uchun o‘rganishi va tushunishi qiyin bo‘lib kelayotgan mavzulardan biridir. Ushbu maqola orqali yoritiladigan fikrlar va izohlarda molekulalar mavjudligi, ular atomlardan tashkil topganligi, turli hodisalarda masalan; Diffuziya, Braun harakati, moddalarning agregat holatlari singari qator hodisalarda o‘z tasdig‘ini topgan. Maqola orqali talabalarni fizika faniga qiziqishini yanada oshirish, kinetik nazariyani va molekulalar tushunchasini o‘rganishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Molekula tushunchasi, kinetik nazariya, atomlar, diffuziya hodisasi, Braun harakati, agregat holat.*

Аннотация: *Эта статья посвящена понятию молекулы и основным положениям кинетической теории, и понятие молекулы в этой статье является одной из тем, которые студентам в настоящее время сложно изучить и понять. Мысли и комментарии, освещаемые в этой статье, о существовании молекул, о том, что они состоят из атомов, о различных явлениях, например; Это подтверждается рядом явлений, таких как диффузия, броуновское движение и агрегатные состояния веществ. Статья направлена на дальнейшее повышение интереса студентов к физике, изучение кинетической теории и понятия молекул.*

Ключевые слова: *Понятие молекулы, кинетическая теория, атомы, явление диффузии, броуновское движение, агрегатное состояние.*

Abstract: *This article is about the concept of a molecule and the basic principles of kinetic theory, and the concept of a molecule in this article is one of the topics that is currently difficult for students to learn and understand. The ideas and explanations covered in this article are about the existence of molecules, that they are made up of atoms, in various phenomena, for example; This is confirmed by a number of phenomena, such as diffusion, Brownian motion, and aggregate states of matter. The article aims to further increase students' interest in physics, studying kinetic theory and the concept of molecules.*

Keywords: *Molecule concept, kinetic theory, atoms, diffusion phenomenon, Brownian motion, aggregate state.*

Kirish

Barchamiz bilamizki molekulalar bir nechta atomlarning kimyoviy bog‘lari birikishidan hosil bo‘lgan.Molekulakar eng kichik zarra va ular atomlarning kimyoviy xossalarini saqlab qoladi

Kinetik nazariya esa (molekulalar,atomlar va ionlarni) harakatini ,ta'sirini tushuntiradigan fundamental fizik nazariyasidir.Takidlab o‘tilgan fizik nazariya gazlar,suyuqliklar va qattiq jismlarning fizik xususiyatlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.Qisqacha qilib aytganda molekula tushunchasi va kinetik nazariya kimyo,fizika,bialogiya va materialshunoslik kabi fanlarda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qisim:

Molekula (lotincha- moles- massa)- modda massasini sarflab qolgan eng kichik zarracha. Molekulalar bitta yoki bir nechta atomdan tashkil topadi. Molekulalar harakatini birinchi bo‘lib kuzatgan odam ingliz botanigi Robert Braun edi. U 1827- yili gul changini suvda muallaq yurgan zarralarini mikroskop orqali kuzatdi. Ko‘rgan narsasi uni hayron qoldirdi. Bu haqda u shunday deb yozgan edi: «O‘lchamlari juda kichik, uzunligi dyuymning to‘rt mingdan biridan besh mingdan birigacha ulushicha kichik (ya'ni 5-6 mkm), suvga botirilgan zarralar yoki donalar bilan ishlashda ularning ko‘pchiligini harakatda bo‘lishini kuzatdim. Bu harakatlar shunday ediki, juda ko‘p takroriy kuzatishlardan so‘ng, men bu harakatlar suyuqlik oqimlaridan emas va uning doimiy bug‘lanishidan emas, balki zarralarning o‘ziga tegishli ekaniga ishonch hosil qildim».

Braun harakati – bu suyuqlik yoki gaz ichidagi mikroskopik zarrachalarning tartibsiz va doimiy harakatidir. Bu hodisani 1827-yilda ingliz botanigi **Robert** Braun kuzatgan va keyinchalik fizik Albert Eynshteyn uning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

Braun harakatining sabablari

Braun harakati suyuqlik yoki gaz molekulalarining doimiy va tartibsiz harakati tufayli yuzaga keladi. Molekulalar harakatlanib, mayda zarrachalarga urilib, ularning notekis va tasodifiy siljishiga sabab bo‘ladi.

Braun harakatining ahamiyati

Molekulalarning harakatini tasdiqlaydi. Bu hodisa gaz va suyuqlik molekulalarining doimiy harakatda ekanini eksperimental tasdiqlaydi

Diffuziya tushuntiriladi

Gazlar va suyuqliklarda diffuziyaning mexanizmini izohlashga yordam beradi.

Kolloid eritmalar xususiyatlarini o‘rganishda qo‘llanilad.

Kimyo va biologiyada muhim bo‘lgan kolloid eritmalar Braun harakati tufayli uzoq vaqt barqaror bo‘lib qoladi.

Atomistik nazariyani isbotlashga hissa qo‘shgan – Eynshteyn va Perrinning tadqiqotlari orqali atom va molekulalarning mavjudligini ilmiy isbotlashga xizmat qilgan.

Diffuziya lotincha “diffusion” (tarqalish, sochilish) yuqoridagi barcha fikrlar va olimlarning kuzatish natijalaridan yana biri bu diffuziya hodisasidir:ta’rifga ko‘ra Ikki modda moleklalarining bir-biriga aralashib ketish hodisasi diffuziya deb ataladi.Diffuziya turli xil atomlar yoki molekulalar bir jinsli bo‘lmagan konsentratsiyasining o‘z-o‘zidan baravarlashishidir. Agar idishga turli gazlar porsiyalarini kiritsak, birmuncha vaqt o‘tgandan so‘ng barcha gazlar bir tekis aralashadi: idishning hajmi birligida har bir xil molekulalar soni o‘zgarmay qoladi, konsentratsiya barvarlashadi. Xona burchagida ochiq turgan atir hidini diffuziya tufayli sezamiz. Moddalarning bir-biriga aralashish hodisasi suyuqlik, hattoki qattiq jismlarda ham aniqlangan, lekin gazlarda diffuziya ayniqsa intensiv ro‘y beradi, qattiq jismlardagidan ≈1010 marotaba tezroq ro‘y beradi. Suvga tomizilgan margansovka biroz vaqtdan so‘ng qizg‘ish tusga kirishi ham diffuziya tufaylidir.

Agar suv bilan siyohni ingichka (konveksiya bo‘lmasligi uchun) probirkaga, kapillyarga ehtiyotkorlik bilan solinsa, avval aniq bo‘lgan ajralish chegarasi yoyila boshlaydi va oxir oqibatda suyuqliklar aralashib ketadi.

Moddalarning agregat holatlari to‘rt xil bo‘ladi.

1. Qattiq holat; bu holatda modda atomlari o‘ta zich va tartib bilan joylashgan bo‘ladi.
2. Suyuq holat; bu holatda modda atomlari siyrak va taribsiz harakatda bo‘ladi.
3. Gaz holat; bu holatda modda atomlari juda siyrak va o‘ta tartibsiz (xaotik) harakatda bo‘ladi.
4. Plazma holat - kuchli ignlashgan holat.

Qattiq holatdagi moddaning tashkil qiluvchi molekulalar orasida kuchli ta'sir kuchlari mavjud. Ular itarish va tortishish kuchlaridan iborat. Har bir molekula o‘z muvozanat vaziyati atrofida tebranma harakatda bo‘ladi. Qattiq jismning asosiy xususiyati uning aniq shakl va hajmga ega ekanligidadir.

Suyuqlik molekullari bir biriga yaqin joylashadi. Shuning uchun har bir molekula qo‘shni molekula bilan o‘zaro ta'sirlashib turadi. Suyuqlik molekulalari gaz molekulalari kabi erkin harakatlana olmaydi. Suyuqlik molekulalari vaqti - vaqti bilan oldingi muvozanat vaziyatidan o‘z o‘lchamlariga yaqin bo‘lgan masofagacha uzoqlashib yangi muvozanat vaziyatini egallab turadi. Buning

oqibatida suyuqlik hajmi bo‘yicha tartibsiz ravishda ko‘cha boshlaydi. Suyuqlik aniq hajga ega ammo, aniq shaklga ega emas.

Normal sharoitda gaz molekulalari orasida masofa shu darajada kattaki, molekulalar orasidagi o‘zaro tortishish kuchlarini hisobga olmasa ham bo‘ladi. Bunday sharoitda gazning hususiyatlari, asosan molekulalarning harakat jadalligiga bog‘liqdir. Gaz aniq shakl va hajmga ega emas.

Barcha moddalar eng kichik zarra bo‘lmish molekula yoki atomlardan tashkil topgan degan nazariyaga molekulyar kinetik nazariya deyiladi. Molekulyar kinetik nazariyaga tegishli tushuncha va kattaliklar. Molekula va atomlarning massalari 10-26 kg tartibida bo‘lgani uchun hisob ishlarida ularning absalyut massalaridan emas, balki nisbiy massasidan foydalanish qulaydir. Shuning uchun, xalqaro kelishuvlarga muvofiq hamma atom va molekulalarning massasi uglerod atomining 1/12 qism massasi bilan taqqoslanadi. Buning sababi, birinchidan shu 1/12 qism massa bilan solishtirilganda barcha moddalarning nisbiy atom massalari butun sonlarga yaqin chiqadi. Ikkinchidan esa uglerod atomi tabiatda birikmalar tarkibida eng ko‘p tarqalgan element bo‘lib, ayniqsa organik birikmalar, uglevodlar va polimerlar molekulalarining hammasida ishtirok etadi. Nisbiy atom massasi deb modda molekulasi massasini uglerod atomi massasining 1/12 qismiga nisbatiga teng bo‘lgan kattalikka aytiladi. Bir birlik nisbiy atom massasi deb uglerod atomi massasining 1/12 qismiga teng bo‘lgan massaga aytiladi. Nisbiy atom massasi o‘lchamsiz kattalikdir.

Molekulyar kinetik nazariyasining mohiyati shundan iboratki, har qanday energiyaning hajmiy zichligi bosim ta'siriga ega. Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi sof nazariy yo‘l bilan olingan bo‘lsa-da u tajriba natijalari bilan to‘la mos keldi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda molekulalar tushunchasi va kinetik nazariyaning asosiy qoidalarini temperatura hamda bosim bilan bog‘liqligini tushuntiradi. Bu esa biz talabalar uchun suyuqliklarning fizik xususiyatlarini izohlashimiz uchun muhimdir. Molekulalar fizik va kimyoviy xususiyatlariga qarab turli shakl va o‘lchamlarga ega. Kinetik nazariya esa barcha moddalarning doimiy harakatda bo‘lgan zarrachalardan iborat ekanligini o‘rgatadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida molekula tushunchasi va kinetik energiya bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari asosan ilmiy markazlarda olib borilmoqda. Bu tadqiqot natijalariga ko‘ra molekulalarni chuqurroq tushunishga va energetika sohasida yangi texnologiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. E.X.Bozorov, K.T.Suyarov, M.B.Dustmuratov Fizika (1-qism. Mexanika va va molekulyar fizika) 2023-yil.
2. N.A.Muhammadaliyevich, B.D.Abdullajonova Fizika 2022-yil.
3. Xalilloyev Mahkam, Jabbarova Bahor Fizika fanidan ma'lumotnoma 2020-yil.
4. M.B.Do‘stmuratov, K.T.Suyarov, A.M.Tillaboyev Umumiy fizika (Mexanika).

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ESG TAMOYILLARI

Zoxidjonova Xabibaxon Xusanboy qizi
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasi
Korporativ boshqaruv yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
(habibazohidjonova18@gmail.com)

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni va uning rivojlanishida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining rolini o'rganadi. Maqolada yashil iqtisodiyotning ahamiyati, ESG tamoyillari asosida amalga oshiriladigan ishlar va O'zbekistonda ushbu yo'nalishda qilinayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning ESG tamoyillarini qo'llashi ularning barqaror rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi ham tahlil qilinadi.*

Annotation:*This article explores the transition to a green economy in Uzbekistan and the role of ESG (Environmental, Social, Governance) principles in its development. The paper highlights the importance of the green economy, the implementation of ESG principles, and the ongoing efforts in Uzbekistan in this direction. The impact of ESG principles on the sustainable development of joint-stock companies and limited liability companies is also analyzed.*

Аннотация:

В данной статье рассматривается процесс перехода к зеленой экономике в Узбекистане и роль принципов ESG (Environmental, Social, Governance) в ее развитии. В статье подробно описывается значение зеленой экономики, внедрение принципов ESG и усилия, предпринимаемые в Узбекистане в этом

направлении. Также анализируется влияние принципов ESG на устойчивое развитие акционерных обществ и обществ с ограниченной ответственностью.

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, ESG tamoyillari, Atrof-muhitni muhofaza qilish, Ijtimoiy mas'uliyat, Korporativ boshqaruv, O'zbekiston, Barqaror rivojlanish.*

Keywords: *Green economy, ESG principles, Environmental protection, Social responsibility, Corporate governance, Uzbekistan, Sustainable development.*

Ключевые слова: *Зеленая экономика, Принципы ESG, Защита окружающей среды, Социальная ответственность, Корпоративное управление, Узбекистан, Устойчивое развитие.*

Zamonaviy dunyoda atrof-muhit muammolari, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi kabi global muammolar yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyatini kuchaytirmoqda. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni uyg'unlashtirgan holda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston ham bu yo'nalishda qadamlar qo'yib, yashil iqtisodiyotga o'tish va uni rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning roli ayniqsa muhim hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati

Yashil iqtisodiyotga o'tish zamonaviy dunyoda tobora kuchayib borayotgan ekologik muammolarga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va inson salomatligini yaxshilashga ham qaratilgan. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi tabiiy resurslarni tejab ishlatish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashdir.

Ekologik jihatdan ahamiyati

Yashil iqtisodiyotga o'tish atrof-muhitni ifloslantirishni kamaytirish, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yengillashtirish va tabiiy resurslarni muhofaza qilish imkonini beradi. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol, suv) foydalanish karbon chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi. Chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklash esa tabiiy resurslarning isrof bo'lishining oldini oladi. Bu esa ekotizimlarning barqarorligini saqlab qolish va biologik xilma-xillikni himoya qilish uchun muhimdir.

Iqtisodiy jihatdan ahamiyati

Xulosamizga ko’ra, universitet talabalari ta’limga bo‘lgan motivatsiyani oshirish, kelajakdagi mutaxassislikni olish va kasb-hunar egallashda muhim bo‘lgan barcha zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yordamning kompleks dasturiga muhtoj. Motivatsiyani oshirishga qaratilgan ushbu qo‘llab-quvvatlashning bir qismi sifatida talabalarning his-tuyg‘ularini hisobga olish lozim, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida yanada nozik, ya’ni, samimiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, talabalarning past qobiliyatlarini oshiradigan moslashuvchan yondashuvdan foydalanish kerak. O‘z-o‘zini hurmat qilish, “talabalarning ijodiy qobiliyatlarini (amaliy va kognitiv faoliyatda) rivojlantirishga” yordam berish, shuningdek, ularning “yetuk bo‘lmagan muloqot qobiliyatlarini” yaxshilash choralarini ko‘rish tadbirlarini kiritish o‘rinli.

Talabalar zarur bilim va ko‘nikmalarni nafaqat majburiy o‘quv dasturini o‘zlashtirganda, balki fakultativ, ixtiyoriy fanlar shaklida o‘qitiladigan qo‘shimcha bilimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish hamda faol va qo‘shimcha o‘qitishning boshqa usullari orqali ham olishlari mumkin. Yuqori darajadagi motivatsiya bo‘lmasa, bunday hajmni yengish va yaxshi o’zlashtirish darajasiga erishish qiyin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.аньев Б.Г. Человек как предмет познания. Ленинград: ЛГУ, 2008. С. 64.,

2.еревалов В.Ф.Военная организатsiя безопасного типа миф или реальность. / / Вооружение. Политика. Конверсия. - Инф. - полит, жур. - 2000. - № 1.78 с.

3.толяренко Л.Д. Основы психологии: учебное пособие / Л.Д. Столяренко. - Ростов-на-Дону: Феникс, 1995. - 736 с.

GUL CHANGNING KIMYOVIY, FIZIKAVIY XOSSALARI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Abdurasulov Abduvali Anorboyevich
Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tuman 2-son Politexnikumining ishlab chiqarish ta’lim ustasi

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada gulchangning tuzilishi xilma -xilligi va tibbiyotda kam qonlik, kabziyat, gipertaniya xastaligi, nevrozlar, artrit, asab va endokrin tizimlari faoliyati bo‘zilishi, gastrit, oshqozon osti bezi faoliyatining sustlashuvi buyrak shamollashi va bir qalor xastaliklaming davolashda ishlatilishi.*

Gulchangning foydali ahamiyati inson organizmiga jinsiy funktsiyalarni tiklashi, kontseptsiya va homiladorlik uchun ijobiy tasir qilishni yoritib beradi.

Kalit so’zlar: *ishchi asalari, gul chang, ekzina, intina, zarracha, to’qima, yadro, oyoq xaltachalari, sporoderma, fermentlar.*

Kirish

Gul changi gulli o‘simliklar changdonlarida hosil bo‘ladigan chang donachalari. Urug‘li o‘simliklarda chang donachasi mikroskopik tuzilma (erkak gametofit) bo‘lib, unda changlanish paytida yoki undan keyin urug‘lanish uchun zarur bo‘lgan erkak gametalar (spermiylar) rivojlanadi. Chang donchalari shaqli (yumaloq, cho‘zinchoq, bo‘lakchali yoki ko‘p burchaqli), hajmi va qobiq ko‘rinishi bo‘yicha nihoyatda xilma-xil. Gulli o‘simliklar changi mayda, yirik va gigantlari ham bo‘ladi. Poliploid shakllarida changlar aytarli yirik, teshikchalari ko‘p va chang naychalari deyarli keng bo‘lishi kuzatilgan. Changi oziq moddalar (qand, yog‘, oqsil va hokazo) ga boy, shuningdek, tarkibida fermentlar, karotinoidlar, vitaminlar ko‘p uchraydi. Chang qobig‘i (sporoderma), odatda, ikki qavat: ichki yumshoq-intina va tashqi qattiq-sklerin (ekzina) dan iborat.

Gul chang to’qimalari yupqa intina qobig’ini usti qalin ekzina po’stlog’i bilan o’ralgan. Ekzina po’stlog’ida teshikchalar bo’lib, shu teshikchalarni bittasidan onalik organi rivojlanib o’sayotganda naycha chiqadi .

Asalari gulchangi asalarilar gullardan yig‘gan va mumkataklarga zichlagan, ustidan asal quyilgan gul changlari. Katakdagi gulchangning asal shimilgan yuqori qavati havoni o‘tkazmaydi. Anaerob sharoitlarda fermentlar, bakteriyalar, achitqi zamburug‘lar ta’sirida katakda sut kislotasi miqdori ortib boradi va gulchanglar aralashmasi asal ishtirokida gulchangi (perga) ga aylanadi.

Gulchangi tarkibida 13-60% oqsillar, 25-70% qand, yog‘lar, mineral tuzlar, vitaminlar, fermentlar, gormonlar bor.

Gulchanglarning o‘rtacha xajmi 0,02-0,05 mm ni tashkil etadi. tibbiyotda davolash ishlarida ishlatiladigan gulchang xajmi 0,004 mm ni tashkil etishi lozim.

Asalari gulchanglarida 50 dan ortiq biologik faol moddalar mavjud

Vitamin kompleksi B,C,E,A,P,H, o’zgaruvchan va muhim aminokislotalar, mikro va makroelementlar, gormonlar va fitohormonlar, fitonsidlar, minerallar.

Gulchangi asalarilar uchun qimmatli oqsil-uglevodli ozuqa hisoblanadi. Ishchi asalarilar oyoq xaltachalarida uyalariga olib kelayotgan bu gulchang zarrachalarini mikroskop ostida ko’rishimiz mumkin.

Ishchi asalarilar oyoqlarida olib kelgan gulchang to’plamida 3-4 ml gulchang zarrachalari bo’ladi. Shuncha gulchangni to’plash uchun ishchi asalarilar 200-500 tagacha gulga qo’nadi.

Bitta asalari oilasi 1 kunda 100 g dan 400 grammgacha gulchang olib kelsa, bir mavsumda 25-30 kg va undan ko’p gulchang to’playdi.

Gul chang zarrachalari har xil gullarda ko’rinishi va rangi hamda formasi har xil bo’ladi. Hayotiy vitaminlar va minerallarning ko’pligi gulchangni nihoyatda qimmatli va foydali qiladi. Bu uning dori sifatida keng qo’llanilishini belgilaydi. Asalari gulchanglaridan asalarilar o‘z avlodlarini oziqlantirish uchun foydalanadilar. Aqlli hasharotlar tabiatdan faqat eng foydali narsalarni oladi. Ular sovuqni muvaffaqiyatli davolashadi va o’tkir respirator virusli infektsiyalarning tarqalishini oldini oladi.

Yuqori qon bosimida asalari gulchanglari gipertenziyaga qarshi kurashda samarali yordam beradi. Yuqori qon bosimi uchun asalarichilik mahsulotini ovqatdan oldin kuniga 3 maxal 1 choy qoshiqdan isti’mol qilish tavsiya etiladi. Optimal terapiya kursi 21 kun. Shundan so’ng tanaffus qilinadi (10 kun) va bemor o’zini yaxshi his qilguncha takroriy davolash kursi o’tkaziladi.

Oshqozon-ichak kasalliklarida kislotalikning pasayishi bilan tavsiflangan oshqozon-ichak kasalliklarini davolash uchun polen asosida maxsus vosita tayyorlanadi. Buning uchun 20 g maydalangan mahsulot, 250 g tabiiy asal bilan aralashtiriladi va 50 ml aloe sharbati qo’shiladi. Yaxshilab aralashtiriladi, salqin joyda 5-6 soat davomida tindiradi. Tayyor mahsulot kuniga 3 mahal ovqatdan yarim soat oldin 1 choydan qoshiqda isti’mol qilinadi.

Xulosa: Gulchang biologik faol mahsulot sifatida tibbiyotda, chorvachilik, veterinariyada, kasmetika sanoatida keng qo’llaniladi. Gulchang iste’mol qilish bemorlar sog‘lig‘ini yaxshilash bilan birga kayfiyatni ham ko‘taradi.Gulchangining kimiyoviy tarkibi juda murakkab bo'lib uning tarkibida ko‘pgina oqsilsimon moddalardan albumin, glabulin, peptinlar hamda

fermentlar topilgan. 6-8 % miqdorda yog‘ moddasi uglevodlardan oddiy qand moddalari glyukoza va fhiktoza, saharoza, moltoza, polisaharidlardan kraxmal, selmoloza glyukon va shu kabilardir 8 dan ziyod har xil brikmalar topilgan.

Shuningdek, gulchangi tarkibida 21 xil organik va neorganik kislotalar topilgan. Mikroelementlardan kaliy-1 %, magniy -0,2 %, kalsiy-03 %, mis va marganets 0,01 dan, temir va kobalt 0,004 % ni tashkil qiladi.

Gulchang kam qonlik, kabziyat, gipertaniya xastaligi, nevrozlar, artrit, asab va endokrin tizimlari faoliyati bo‘zilishi, gastrit, oshqozon osti bezi faoliyatining sustlashuvi buyrak shamollashi va bir qalor xastaliklaming davolashda ishlatiladi.

Gulchang hususiyati dezinfektsiyalash va yallig’lanishni engillashtiradi, immunitet tizimini mustahkamlaydi, tana funktsiyalarini tiklaydi, shish faoliyatini bloklaydi, hujayra tuzilmalarini yoshartiradi. Gulchang shifobaxsh ta’siri erkaklar va ayollar uchun teng darajada qo’llaniladi.

Chunki gulchang tarkibida inson reproduktiv tizimiga foydali ta’sir ko’rsatadigan ko’plab komponentlar mavjud.

Gulchang jinsiy funktsiyalarni tiklaydi, kontseptsiya va homiladorlik uchun ijobiy muhit yaratadi, kuchli jinsiy aloqa uchun asalari gulchanglari tanani stress va asabiy taranglikdan himoya qiladi va hayotiylikni tiklaydi.

Yurak mushaklari faoliyatini normallashtiradi, qon tomirlarining elastikligi bilan bog’liq muammolarni bartaraf qiladi, ular tanani zararli xolesterindan tozalaydi, metabolizmni rag'batlantirish, buyrak va jigar patologiyalarini davolaydi, oshqozon-ichak kasalliklarini bartaraf qiladi, immunitet va asab tizimini mustahkamlaydi

To‘plangan gulchanglami quritish uchun ulami 1-1,5 sm qalinlikda, soya joyda, taxta ustiga yoyib quritiladi. Oftobda gulchangni quritish qat’iy man qilinadi, chunki oflob nuri gulchangdagi barcha foydali elementlami yemirib tashlaydi. Ko‘p miqdorda to‘plangan gulchanglami 40-45 °C quritish shkaflarida 3-5 soat davomida quritib olinadi. Quritilgan gulchanglarini polietilen qopchalariga solib, uni issiqlikda geremetik yelimlab tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sh.Fotihov“Asalarichilikni o’rganamiz”.Toshkent.“Turon-iqbol”nashriyoti,-2011.

2.B.A.Qahramonov,S.Sh.Isamuxammedov,O.S.To‘rayev,F.E.Safarova“

ASALARI OILASIGA BAHORGI XIZMAT KO’RSATISH VA PARVARISH QILISH TEXNOLOGIYASI

Usmonov Mirjalol Ilxom o'g'li
Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tuman 2-son Politexnikumining ishlab chiqarish ta’lim ustasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada asalari oilasini bahor oyida qilinadigan ishlar va asalari oilasini tanlashi, uyani kengaytirish asalari oilalarini bahor faslida parvarish qilish texnologiyasini yoritib beradi.*

Kalit so’zlar: *tutatgich (dimar), nozematoz tayoqchalari, ichketar kasallik.*

Kirish

Asalarichilik ho‘jaliklarida bajariladigan bahorgi ishlar ketma-ketligi, bahor mavsumida oilalami parvarishlash texnologiyasi, bahor mavsumida oilalaming rivojlanish davrlari, oziqlantirish yo‘llari, asalarilar uyasini umumiy tekshirish qoidalari, uyalami dog‘ va iflosliklardan tozalalanadi.

Mart oyida bajaradigan ishlar har bir hududning o'ziga xosligi asosida fevral-mart oylarida asalarilar ham qishdan chiqa boshlaydi. Yaxshi ob-havoda, ular uyadan uchib chiqib, gul shirasi va gulchangini yigishga kirishadi. Ammo, hali ob-havo unchalik barqaror bolmaydi, tabiatdan olinayotgan ozuqalar asalarilarga yetishmasligi mumkin. Shu sababli, asalari oilalariga qo‘shimcha ravishda ozuqa berish kerak. Havo 14-15 "C dan pasaymasa, asosiy bahorgi taftishni o‘tkazishga xarakat qiling.

Asalari oilasi yaxshi rivojlanishi uchun bahor faslida asalari oilalarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) Asalari uyasini umumiy tekshirish, ko‘zdan kechirish;
2) uyaning taglik qismi va ichki hajmini dog‘ va chiqindilardan tozalash;
3) uya romlarini dezinfeksiya qilish;
4) bahorgi taftish o‘tkazish;
5) uyaning ichki hajmini kengaytirish;
6) asalarini shakar sharbati bilan boqish;
7) qishlab chiqqan asalarilarni almashtirish.

Asalari oilasining bahorgi rivojlanishida 3 ta o‘ziga xos davrni ko‘rish mumkin:

1. Qishlab chiqqan asalarilarning o‘rnini almashish davri.
2. Asalari oilasining jadal rivojlanish davri.
3. Ko‘p sonli ishsiz qolgan yosh asalarilarning to‘planib qolgan davri.

Birinchi davr. Ona asalari tuxum qo‘yishni boshlagan vaqtdan boshlab 1 oycha vaqt o‘tgach, qishlab chiqqan asalarilarning o‘rin almashish davri bo‘ladi, bu davr asalarilarning jadal ishlash davrigacha cho‘ziladi.

Mana shu davr ichida qishlab chiqqan qari asalarilar o‘lib,ularning o‘rnini bahorda yetishtirilgan yosh asalarilar egallaydi. Ona asalari tuxum qo‘yishni janubiy viloyatlarda bahor oyining boshlarida, ya’ni fevral oyining birinchi 10 kunligida boshlaydi. Dastlabki kunlari ona asalari sutkasiga 40–80 ta, keyin esa 100–120 ta tuxum qo‘ya boshlaydi. Birinchi bahorgi uchishni o‘tkazib, orqa ichaklarida qishlash davomida to‘planib qolgan axlatlarni bo‘shatganidan keyin, ona asalarining tuxum qo‘yishi bir necha marotaba ortadi. Qishlashga yaxshi sharoit yaratilgan bo‘lsa, asalarilarning faol harakat qilish davridan uch hafta o‘tgach, oiladagi asalarilar soni 10 % gacha kamayib, hamma qari arilar o‘lib ketadi, ularning o‘rnini bosadigan yosh asalarilar hali inchalaridan chiqmagan bo‘ladi. Keyin yetishib chiqayotgan yosh asalarilar soniga o‘lib borayotgan asalarilar soni tenglashib, oilada o‘sish to‘xtab muvozanat holati yuzaga keladi va nihoyat, tug‘ilayotgan asalarilar soni o‘layotgan asalarilardan ortib, oila rivojlanib ko‘paya boshlaydi.

Asalari oilasining o‘sishi birinchi davrda juda sezilarli bo‘lib, sifat tomonga o‘zgarib boradi.

Ikkinchi davrda oilada qari asalarilarning o‘lib borishi uncha ko‘p bo‘lmay, o‘rta hisobda ona asalarining 56–66 kun avval qo‘ygan tuxumlari soniga tenglashadi (21 kun – ishchi asalarini yetishtirish kuni; asalarilarning yozda yashash kuni – 35–45 kun; jami 21 + 35 = 56 kun; 21 + 45 = 66 kun). Asalari oilasining ikkinchi davrda rivojlanishi,o‘sish tezligi oilani tashkil qiluvchi asalarilarning sifatiga ham bog‘liq bo‘lib, qishda muvaffaqiyatsiz qishlab chiqqan asalari oilasining rivojlanishi sutkasiga 3–5 % dan oshmaydi, yaxshi qishlab chiqqan kuchli ari oilasiniki esa 10–14 % ga yetadi.Ikkinchi davrning necha kun davom etishi asalari oilasining o‘sish kuchi va rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, oila qancha kuchsiz bo‘lsa, u shuncha uzoq rivojlanadi va, aksincha.

Uchinchi davr. Asalari oilasida 2–2,5 kg asalari yetishtirilganidan keyingina uchinchi davr boshlanadi. Bu davr ishsiz yosh asalarilarning to‘plagan davri deb ataladi. Bu davr asalari oilasining asalarilari 2,5–4 kg ga yetguncha cho‘ziladi.Uchinchi davrda ona asalarining tuxum qo‘yishi ko‘payadi, ammo bu ko‘payishda baribir yetishtirilayotgan yosh arilar sonidan lichinkalarning soni kam bo‘ladi, ya’ni boquvchi asalarilar bilan ona asalari qo‘yayotgan tuxumlar soni o‘rtasida sezilarli uzilish bo‘ladi. Oila qancha kuchli bo‘lsa, ona asalari o‘zining vazniga nisbatan shuncha kam lichinkalar yetishtiradi. Ona asalari sutkasiga 2000 tagacha tuxum qo‘ysa, bir dona tuxum qo‘yish uchun o‘rtahisobda 43 sekund sarflaydi. U ko‘p vaqtini bo‘sh, tozalangan inchalarni qidirishga

ketkazadi.

Yetishib chiqayotgan yosh asalarilar o‘lib borayotgan qari asalarilarga nisbatan bir oz ko‘proq bo‘lib, oila sekin rivojlanadi. Oila qanchalik kuchli bo‘lsa,u shunchalik sekin rivojlanib o‘sadi. Kuchli ari oilalari uzoq rivojlanganida 1 sutkada yetishtirilgan yosh asalarilar soni sutkasiga o‘lib borayotgan qari asalarilar soniga teng bo‘lib, oilaning rivojlanishi va o‘sishi to‘xtaydi.

Ozuqa tayyorlash va asalari oilalariga tarqatish texnologiyasini tashkil etish

Asalari oilasi kuzda tekis va atrofida erta bahorda gullab, gulchang hamda sharbat ajratuvchi o‘simliklar bor joylarga joylashtiriladi,chunki asalarilar uzoq qish davomida o‘z tanalarida yo‘qotgan oziq moddalarni erta bahorda gullaydigan o‘simlik gullaridan keltirilgan gulchang hisobiga to‘ldiradilar. Asalari uyalari asalari kiradigan teshigi quyosh chiqadigan tarafga qaratilgan holda joylashtiriladi. Joylashtirilgan ari yalarining orasi bir-biridan bir metr, qatorlarining orasi esa 3–4 metr bo‘lishi kerak. Ular yerdan 40–45 sm balandlikda qoziqlar ustiga o‘rnatiladi.

Ob-havo isigach asalarilarning uchishi kuzatilganida, ular uyadan uchib chiqqanidan keyin qorin qismlari shishgan bo‘lsa, sudralib yursa hamda orqa ichaklarini uya ichida bo‘shatib yuborsalar, u holda ari oilasi qishda sifatsiz oziq bilan oziqlangan, ya’ni oziqda nozematoz tayoqchalari bo‘lib, bu ichketar kasalligiga uchraganligidan dalolat beradi.

Asalarilar uyadan sust uchib chiqib, sekin uchsa, u holda bu asalari oilasi kam sonli bo‘lganini yoki ozig‘i yetishmaganligini bildiradi.Uyalardan chiqqan asalarilar tartibsiz harakatlanib, biror narsasini qidirayotgandek tuyulsa, u holda ular ona asalarisini yo‘qotgan yoki ona asalarisi o‘lgan bo‘ladi.

Oilaga qachon oziq qo‘shish yoki boqish kerakligini bilish uchun asalarichi erta bahorda gullab, sharbat ajratadigan o‘simliklarning gullashini kuzatishi kerak. Buning uchun bitta o‘rta kuchli ari oilasi taroziga qo‘yiladi va shu orqali asalarilarning sharbat keltirayotgani yoki uyadagi jamg‘arilgan oziqning iste’mol qilinayotgani tekshirib turiladi. Agar asalari oilasining vazni o‘zgarmagan bo‘lsa, u holda asalarilar biroz sharbat keltirib o‘zlari oziqlanayotgan bo‘ladi. Agar asalari oilasining vazni o‘zgargan bo‘lsa, u holda asalari oilasi sharbat keltirib,oziq miqdorini jamg‘arib ko‘paytirayotgan bo‘ladi. Asalarichilar yuqoridagi ikkala holda ham asalarichi asalari oilasiga asal,shakar, sharbat bermaydi.

Xulosa: Asalari oilasini tekshirish va ularga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish.

Asalari oilasini tekshirishdan avval maxsus tutatgich (dimar) yordamida asalari uyasi asalari kiradigan teshikcha orqali 2–3 marta tutatiladi,oradan 1–1,5 daqiqa o‘tgach uya qopqog‘i ochilib, yopqichning bir chekkasi qayirilib, sekin-asta romlar sug‘urib olinadi va tekshirishga kirishiladi.Tekshirish vaqtida

asalarilar bilan ishlash qoidasiga (uyalarni taqillatmay, asalarilarni bezovta qilmay) amal qilish kerak. Oilani tekshirish vaqtida asalarichi asalari kiradigan teshikcha oldini to‘sib qo‘ymasligi lozim, u uyaning yon tarafida turib ishlashi zarur, aks holda, asalarilar bezovtalanishi mumkin. Bundan tashqari, asalarilar tekshirilayotgan paytda qo‘shni uya asalarilari o‘g‘irlikka kirayotganini sezsa ham, asalarilar bezovtalanadi. Shuning uchun ham tekshirishni darhol arixonaning narigi chetidan boshlashi kerak. Shunday yo‘l tutilganida ham asalarilar o‘g‘irlikka kiraversa, u holda oilani tekshirish ishlari vaqtincha yoki batamom to‘xtatiladi.

Asalarichi ish bajarishga kirishishdan avval ishlash uchun kerakli asboblar: ko‘tarib yuradigan quticha, quruq chirigan to‘nka,tezaklar va tutatgich qurilmasini tayyorlab qo‘yishi lozim. Arixonada asalari oilasi bilan ish boshlashdan oldin oq xalat va boshga kiyiladigan to‘rli qalpoq kiyib olish, so‘ngra ishga kirishish kerak.

Uyadan sug‘urib olingan inchali mumkatak romlarni uya ustida kuzatish tavsiya etiladi, shunday qilinganida romdan to‘kilgan yosh asalarilar uyaga tushadi. Mumkatak romlarni asalarilardan tozalash kerak bo‘lsa, g‘oz patidan tayyorlangan supurgi yoki boylangan bir tutam o‘t yordamida asalarilar supurib tushiriladi. Agar o‘sha romda yosh asalari lichinkalari va yangi keltirilgan gul sharbati bo‘lmasa, u holda romning ikki chetidan mahkam ushlab, asalarilarni silkitib tushirish mumkin. Oilaning ichki hajmi kengaytirilayotganida yuzaki tekshiriladi va chekkadagi romlar bir oz chetga surilib, ularning o‘rniga kengaytirishga mo‘ljallangan inchali mumkatak romlar qo‘yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sh.Fotihov“Asalarichilikni o’rganamiz”.Toshkent.“Turon-iqbol”nashriyoti,-2011.

2.B.A.Qahramonov,S.Sh.Isamuxammedov,O.S.To‘rayev,F.E.Safarova“Asalarilar yordamida o’simlikllarni changlatish” Toshkent. “Tafakkur avlod” nashriyoti, - 2022.

3.O.A.Maxmadiyarova.Asalarichilik fanidan amaliy mashg’ulotlar.Toshkent-2022.

FARIDIDDIN ATTORNING “MANTIQ UT-TAYR” HAMDA SALOHIYNING “GUL VA BULBUL” ASARLARIDAGI QUSHLAR TIMSOLINING QIYOSIY TAHLILI

Surayyo Shodiyeva
Ilmiy rahbar: Turon universiteti o’qituvchisi
Mamayusufova Shaxrizoda
Turon universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” nomli tasavvufiy dostonlarda ishtirok etgan qushlar timsolining ramziy ma’no-mazmun kasb etishi aniq dalillar asosida tavsiflangan. Har ikki dostondagi qushlarning so’fiyona allegoriyasi hamda ijtimoy ahamiyati asl manbalarga tayanilgan holda o’rganib chiqilib ilmiy xulosalangan. Mazkur maqoladagi tahlil va talqin boshqa shu kabi asarlarni tadqiq etishda amaliy va nazariy yordam beradi.*

Kirish so’z: *Attor, “Mantiq ut-tayr”, Salohiy, “Gul va Bulbul”, tasavvufiy, so’fiyona, ramziy, Bulbul, Tovus, Kaklik, Humo, Hudhud Qumri, So‘fi, To‘ti, Foxta, Poklanish, Haq timsoli.*

Annotation: *In this article, the symbolic meaning of birds in the mystical epics “Mantiq ut-tair” and “Gul va Bulbul” is described on the basis of clear evidence.The Sufi allegory and social significance of the birds in both epics have been studied and scientifically conculuded based on the orginal sources. The analysis and interpretation in this article will provide practical and theoretical help in researching other similar works.*

Key words: *Attar,”Mantiq ut-tair” Salahi, “Gul va Bulbul” mystical, Sufi, symbolic, Nightingale, Peacock, Cuckoo, Humo, Hudhud, Qumri, Sufi Parrot, Foxta, Purification, Symbol of Truth.*

Абстрактный: *В данной статье на основе ясных доказателъств описано символическое значение символов птиц, участвующих в мистическом епосе “Мантик ут таир” и “Гуль ва Булбул”. Суфийская аллегория социалъное значение птиц в обоих епосах изучены и научно обоснованы на основе первоисточников. Анализ и интерпретация в етой статъе обеспечат практическую и теоретическую* поддержду для *исследования других подобных работ.*

Ключевые слова: *Аттар, “Мантик ут-таир”, Салахи, “Гулъ ва Булбул”, мистический, символичный, Соловей, Павлин, Куропатка, Хумо, Худхуд, Кумри, Суфийский, Попугай, Символ истины, очищения.*

Tasavvuf insonni baxt-saodat sari yo‘llovchi, haq yo‘li tomon yetaklovchi va

insonni Alloh taologa yaqinlashtiruvchi ta’limotdir. Tasavvuf yo‘liga kirmoqlik uchun inson o‘z aqliga tayanibgina emas, balki qalban va ruhan uni his qilmog‘i darkor. Tasavvuf tubsiz dengiz kabi va bu dengizni suzib chiqish va uning asl mohiyatini anglash esa har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Tasavvuf haqida yozilgan asarlar bevosita insonni o‘ziga chorlaydi. Ular insonni botiniy va zohiriy pok bo‘lishiga undaydi. Shu ma’nida tasavvufiy asarlarni o‘qish bizning qalbimizni, ong-u tafakkurimizni tubdan o‘zgarib ketishiga o‘zining ijobiy ta’sirlarini ko‘rsatadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tasavvufda o‘z nafsini yenga olgan insongina haqiqiy Haq yo‘liga kira oladi. Nafsni yengmoq esa faqat tildagina osondir. Lekin amalda bajarmoq eng mushkul ishlardan biridir. Zero, insoning o‘z nafsini yengishi, uning o‘zligidan o‘z menidan kechmog‘idir. Bunday asarlar insonni go‘zal xulq-atvorli, pokdil, samimiy, aqlli, iymon-e’tiqodli, tarbiyali va bilimli bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Mazkur asarlar, avvalo, insonni ruhini tarbiya qiladi. Chunki insoning qalbi va ruhi toza hamda pok bo‘lsa, albatta, uning amallari ham pok bo‘ladi. Poklanish o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi.

Birinchisi jismonan poklanish sanalsa, ikkinchisi ruhan poklanishdir. Jismonan poklanish insonning tashqi tomondan yuvinib taranishi bo‘lsa, ruhan poklanishda esa ruh va qalb orqali bo‘ladi. Jumladan, islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karimning sunnatlari va oyatlarini o‘qish, ularni qalb orqali zikr qilish qalban poklanish sari chorlaydi. Alloh yo‘lida har qanday aytilgan so‘zlar, zikr, salovatlar va duo, suralar ham qalbni pok bo‘lishiga xizmat qiladi. Alloh yo‘lida qilingan har qanday urinishlar, harakatlarning barchasi qalb pokligidandir. Qalban va ruhan pok bo‘lgan inson hatto yomonliklardan ham hikmat izlay oladi. Shu sababli ham bu hayotni zohiriy go‘zallik emas, balki botiniy go‘zlallik qutqara oladi. Diniy bilimlarni o‘rganish isonni ruhan pok bo‘lishiga tomon yetaklaydi.

Tasavvufiy asarlarning barchasida ilohiy ishq g‘oyasi ilgari suriladi. Xususan, “Mantiq ut-tayr” asarining asosiy g‘oyasi ham Haq vasliga talabgorlik hisoblanadi. Jumladan, asardagi “Parvonalar va sham” hikoyati bunga yaqqol misol bo‘ladi. Ushbu hikoyat tasavvufni anglashga va Alloh ishqi bilan yashamoq lozimligini, uning ishqida yonmoq kerakligiga undovchi hikoyatlardan biridir. “Parvonalar va sham” hikoyatida parvonalar yig‘ilishib, shamni ko‘rish ishtiyoqida birlashadilar, va bitta parvonani sham huzuriga yuborishga ahd qiladilar. Shu maqsadda parvona qasr tomonga yaqinlashib, shula nurlarini ko‘radi, va sham haqida boshqa parvonalarga so‘zlab beradi. Lekin boshqa parvonalar bu gaplardan qoniqmaydilar. Ular sen shamdan ogoh emassan deb boshqa parvonani jo‘natishadi. Boshqa parvona ham shamga yaqinlashib nurni his etadi, va nur ila o‘ynaydi-yu boshqalarga sham visolidan so‘zlaydi. Bu

parvonaning so‘zlari avvalgisi bilan bir xil ekanligini aytishadi. Keyin yana boshqa bir parvona yo‘lga tushadi, u uchib borib to‘g‘ri shamning ustiga borib o‘tiradi. Uning qo‘l-oyog‘i, badani ham olov bilan birlashib ketadi va butun vujudi olovday qizil rangga kiradi. Buni ko‘rgan boshqa bir parvona esa mana bu parvonaning ishqi haqiqiy ishqdir. U Haqqa yetdi va o‘zligini ham unutdi degan so‘zlarni aytadi. Bu hikoyadagi sham esa Haq taolo ya’ni Alloh sanaladi. Insonlar birma-bir Alloh ishqida yonmoqlikda intilishadi. Tasavvuf yo‘li eng mushkul yo‘ldir. Unga har kim ham yaqin borolmaydi. Ikki insoning Alloh ishqida yonganligi haqidagi so‘zlari boshqalarni qoniqtirmaydi.

Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi, shoir va mutafafakkir Mavlono Jaloliddin Rumiyning bir gaplari bor edi: “Haqiqiy tasavvuf aytmoq emas, topmoqdir”. Rumiyning ushbu so‘zlari yuqoridagi hikoyatning, ya’ni “Parvonalar va sham” hikoyatining asosiy negizini tashkil etadi. Mavlono Jaloliddin Rumiy aytgan so‘zlaridan har bir kishi uning ma’nolar dengiziga g‘arq bo‘ladi. Hazrati Rumiy hikmatlarining ma’nosini, ularning tub mohiyatini anglamoq uchun yuksak darajadagi bilim va tafakkur kerak bo‘ladi. Bu hikoyat oqali tasavvufning mushkul yo‘lligini va uni anglamoq uchun qalb ko‘zi ochiq bo‘lishi lozimligini anglab yetamiz. Farididdin Attor ushbu hikoyatning so‘ngida quyidagi so‘zlarni keltiradi:

Etmasan kuyida jonigni badar,
Senga janondin nechuk etgay xabar?
Kim senga qildin nishon ko‘rsatgusi,
Jabrini jonga ayon ko‘rsatgusi.
Bul maqomga kimsa maxram bo‘lmadi,
Yetmadi chun unda bir dam bo‘lmadi…

Ushbu baytlarda ifodalanishicha, Haq jamoliga yetishish uchun bir solik bu dunyoning barcha ne’matlaridan hatto o‘zidan ham voz kechmog‘i kerak. Zero bu yo‘lda o‘z jonini ayagan inson hech qachon Haq vasliga yetisha olmaydi. Chunki bu yo‘lda tun-u kun toat ibodat qilmoq, uning sunnatlariga rioya qilib yashamoq va Alloh taolo ishqidan bahramand bo’lishi uchun inson, avvalo, o‘z nafsidan voz kechmog‘i lozim. Shu sababli ham Attor o‘z joningni unutmasang, Janondan (Allohdan) xabar topolmaysan deydi, ya’ni shirin joningni azobga qo‘ymay turib, Haqqa yetishib bo‘lmasligini anglatadi. Bu hayotda ishq, sevgi-muhabbat tuyg‘ulari bor ekan hayot o‘zgacha zavq-u shavq bilan o‘tadi.

Haqiqiy ishq haqida Alisher Navoiy shunday deydi: “Allohga muhabbat izhor qilasanda, unga osiylik ham qilasan va yana muhabbatdan lof urasan… Bu ishing ajabdur. Agar sen muhabbatda sodiq bo‘lsang, Allohga itoat qilasan. Chunki muhib (sevuvchi) mahbubiga, albatta, itoatkor bo‘ladi”. Ilohiy ishq ana shunday ishqdir. Ilohiy ishqni his qilgan, uni ruhan anglab yetgan inson haqiqiy komil

inson sanaladi. Tasavvufning negizi ham ilohiy ishq, Alloh taoloni sevmoqlikdir. Jumladan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Salohiyning “Gul va Bulbul” asarlarini o‘qigan har bir inson ikki olamning sir-u sinoatlarini va tasavvufiy ilmlarning asl mohiyatini anglab yetadilar. Ushbu asarlarning bog‘liqlik jihati shundaki, ularning har ikkalasi ham tasavvufiy bo’lib, ularda Alloh jamoliga yetishmoq kabi eng oliy ruhan yuksaklik sari chorlovchi g‘oyalar ilgari surilganligidandir. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlari qushlar timsolida yozilgan majoziy poema hisoblanadi. Mazkur asarlarni o‘qir ekanmiz, bevosita ulardagi farqli va o‘xshash jihatlarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu ikkala asarda ham bir qancha qushlarning nomlari keltirilgan bo’lib, ana shu qushlar asarning asosiy qahramonlari hisoblanadi. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida keltirilgan qushlar majoziy shaklda insonlarning timsoli sanaladi. “Mantiq ut-tayr” asarida keltirilgan qushlarning nomlari quyidagicha: Kaklik, Musicha, To‘ti, Qarchig‘ay, Durroj, Bulbul, Tazarv, Qumri, Foxta, Qirg‘iy, Hudhud, Humoy, Burgut, Baliqchi qush, Boyqush, Sa’va kabilar. “Gul va Bulbul” asarida esa Hudhud Tovus, Humo, Qumri, So‘fi, To‘ti, Kabk, (kaklik) va Foxta kabi obrazlar mavjud. Ikkala asarda ham ba’zi qushlar ismi, tavsifida o‘xshashlik mavjud. Jumladan, ularga quyidagilar kiradi: Kaklik, Tovus, Hudhud, Qumri, Foxta, Bulbul, To‘ti, Humo kabilardir.

“Mantiq ut-tayr” asarida Hudhud qushlarga yo‘l boshchilik qiladigan pir timsolida tasvirlanadi. Salohiyning “Gul va Bulbul” dostonida esa Hudhud qushi Haq yo‘liga otlangan, inson sifatida tasvirlanadi:

Dedi Hudhud: Meni raxtim balanddur,
Tilimni totligi go‘yoki qanddur.
Muhabbatda bodasini aylagan no’sh,
Fasix ovoz ila sayrardurman jo’sh.
Nafsim karam erur, shirin zabonman,
Ki xushbo‘ylikda mushki zafaronman.
Bu vodiy qushlariga mo‘tabarman,
Haqiqat siridan ham boxabarman.

“Mantiq ut-tayr” asarida pir obrazi bo‘lganidek, “Gul va Bulbul” asarida ham pir timsoli mavjud bo‘lib, u Sabo obrazida namoyon bo‘ladi. “Mantiq ut – tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Ushbu asarlarda qushlar Haq yo‘liga kirmoq uchun yo‘lga otlanadilar, ammo qushlar bu yo‘lning qiyinchiliklariga dosh berolmay yo‘ldan qaytishadi. Haq yo‘liga kirmoq uchun inson, avvalo, irodali zehnli va diniy bilimlarni ruhan anglamog‘i lozim. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida qushlarni Haq tomon yetaklaydigan obrazlar Hudhud va Sabodir. Zero, Haq yo‘liga kirmoqchi bo‘lgan insonga, avvalo, ustoz bo‘lishi kerak. Shu sababli ham ikkala asarlarda yo‘l ko‘rsatuvchi

orif-pir obrazlar keltiriladi. Chunki pirsiz solikning Haq yo‘liga kirmog‘i yana-da mushkuldir. “Mantiq ut-tayr” asarida qushlarning Haq yo‘liga kirmoqchi bo‘lganlari sababi Hudhud ya’ni pir ularga Simurg‘ni tasvirlab bergach, ular ushbu yo‘lga otlanish uchun zavq-shavq bir-la quvonadilar. Hudhud qushlarga Simurg‘ni madh etib, ushbu gaplarni aytishi asarda quyidagicha ifodalangan:

Ibtido Simurg‘ ishiga shul jigar,
Nun yarim chin uzra bo‘ldi jilvapar.
Bitta par tushdin qanotidi xamon,
Tutdi jumla shahri kuylarni suron.
Har kishikim ko‘rdi andin o‘ldin naqsh,
Har kishi bir o‘zga suvrat soldi naqsh.
Shundagi par-boisi hikmat emish,
Chunda ersa, ilm agar urgan yemish.
Bilmasaydi ul pari naqshi ayon,
Bunchalar oshufta bo‘lmasdi jahon.
Barcha suvratlar sifoti baxshidin,
Barcha jonlar ul qanoti naqshidin.
Boshi yo‘qdir vasfining poyoni yo‘q,
Bundan ortiq so‘ylamak imkoni yo‘q.
Endi sirdan kim ersa mardona el,
Yuz buring yo‘lga, bosing mardona ul.

Ushbu misralarda Simurg‘ning sifatlari bayon etiladi. Simurg‘ bir kuni chin mamlakati ustidan uchib o‘tayotganida, undan bir pat yerga tushib qoladi. Simurg‘ning pati tushgan joydan nur yog‘ila boshlaydi. Odamlar quvonib ketishadi, sababiki, agar uning patining naqshi ayon bo‘lmaganida bunchalar g‘avg‘olar bo‘lmas edi.

Salohiyning “Gul va Bulbul” dostonida ham Saboning ya’ni pirning Bulbulga Qizil gulni ta’rif etguvchi so‘zlarni aytadi:

Dedi: Ey bulbul maxzuni maxjun,
Sening oting erur olamda mashhur.
Berib gullarga ko‘ngling, lol bo‘lma,
Yamon-u yaxshi qoshida xor bo‘lma.
Chechaklar orasinda bir chechak bor,
Kiroyi ul qilur bo‘lsang griftor.
Oti erur Qizil gul ul chamanda,
Sifotini qilurlar anjumanda.
Yuzimning rangi oning otashidur,
Latofat ichra xadsiz nozanindir.

Ko‘rib turganimizdek, “Gul va Bulbul” asarida ham Qizil gul go‘zal so‘zlar ila

bayon etilmoqda. Sabo Bulbulga boshqa gullarga ko‘nglingni berma degan so‘zlarni aytadi, ya’ni ko‘nglingni majoziy ishq bilan emas, balki ilohiy ishq bilan shod aylagin degan ma’noda keltiriladi. Jumladan, “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” dostonlarida keltirilgan Humo qushining Haq yo‘liga kirmoqdan bosh tortib, aytgan so’zlari ikkala asarda ham o‘xshash keltirilgan. Humo qushining aytgan so‘zlarini esa Attor o‘zining “Mantiq ut-tayr” asarida ushbu tarzda bayon etilgan:

Dedi: Ey kezguvchisiz cho‘l-u chaman,
Men shu qushlardek emasman boshqaman.
Himmatim oliy, ayondir barchaga,
Uzlatim eldin bayondin barchaga.
Nafs itin tuprog‘iga qordim bajardim
Topdi mendin izzat Afridinu Jam.
Podsholar topdi mendin parvarish,
Bo‘lmagay tobe gadolar menga esh.
Nafs itin oldiga qo‘ydim ustuvor,
Toki ul jonimga bergay deb omon.
Nafs itiga ustuxon qo‘ydim mudom,
Ul sabab jonimda shul oliy maqom.

Bu misralarda keltirilishicha, Humo qushi barcha qushlarga o‘zini barcha qushlardan ustun ekanligini aytadi. U o‘zini nafs itiga suyak tashlab, shu orqali ruhni bu itdan omonlikda saqlayman deydi. Humo qushining so‘ziga ko‘ra nafsimni yengganman deya o‘zini barcha qushlardan ustun ko‘radi. Aslini olganda esa u nafsini yengmagan inson, aksincha, nafsi uni yengan inson timsolidir. Chunki nafsini yenga olgan inson hech qachon barilla: “Men nafsimni yengdim, men barchadan aqlliroq va ustunroqman” – deya maqtanmaydi. Ushbu Humo qushi timsolida Attor o‘z nafsini yenga olmagan va o‘z nafsining quliga aylangan insonlarni tasvirlaydi. Salohiyning “Gul va Bulbul” asaridagi Humo qushining aytgan so‘zlari ham “Mantiq ut-tayr”dagi Humo qushining aytgan so‘zlari ham mohiyatan bir xildir. “Gul va Bulbul” asarida Humo qushining so‘zlari quyidagicha ifodalangan:

Meni har kim boshig‘a tushsa, soyam.
Jahonga podsho bo‘lgay o‘shal dam,
Jahon xalqi mening soyamga muhtoj.
Ki soyam tushsa boshig‘a kiyar toj,
Humoy soyabaxsh raxnamoman.
Bu vodiy qushlarig‘a podshohman,
Eshitgil vodiyda shohdurman.
Nechuk hukm aylasam andog‘ qilurman,

Qilib nafsimni maxbus qanoat,

Sitamni ko‘rdim o‘z jonimg‘a rohat.

“Gul va Bulbul” asaridagi Humo qushi ham o‘zini barcha qushlarga shoh ekanligini, uning soyasi kimga tushsa podshoh bo‘lib qolishini aytib, o‘z nafsini yenganligidan da’vo qiladi. U o‘zini podshoh deb aytar ekan, Haq yo‘liga kirishim ham shart emas degan so‘zlarni aytadi. Humo qushi orqali Attor va Salohiy o‘zini barcha insonlardan ustun ko‘radigan kibrli, o‘ta maqtanchoq, irodasiz, iymon-e’tiqodsiz va nafsiga yengilgan insonlarni yaratadi. Ushbu ikkala asarlarda yana bir qush Tovus ham tasvirlanadi. Ma’lumki, Tovus bu go‘zallik, latofat va nafosat timsolidir. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida Tovusni tasvirlashda uning go‘zalligi va nafisligi haqida so‘z yuritiladi. “Mantiq ut-tayr” asarida Tovusni o‘zidan jilva taratayotgan kelinga qiyoslanadi. Chunki, tovusni tasavvur etadigan bo‘lsak, avvalo, bizning xayolimizga oltin-u gavharlarga burkangan, ko‘zimizni qamashtiradigan darajadagi jilvakorlik namoyon bo‘ladi. “Mantiq ut – tayr” asarida Tovusning so‘zlariga ko‘ra, o‘zining go‘zalligi va shu go‘zalligi bilan ham jannatdan quvilganligi haqida so‘zlaydi. Tovusning jannatdan quvilishiga yagona sabab esa uning bir joyda ilon bilan do‘st tutinganligidir. Shu sababli ham Tovus jannatdan quviladi. U Simurg‘ning men bilan qanchalik ham ishi bor deydi, lekin jannatga yana bir bor kirish umidida ekanligini aytadi. Haq yo‘liga kirmoqlik uchun esa quruq umid qilishdan hech qanday foyda yo‘q. Salohiyning “Gul va Bulbul” asarida ham Tovusning go‘zalligi haqida so‘z boradi. Faqat bu asarda Tovus o‘z go‘zalligi bilan maqtanadi. U o‘zining husniga shu qadar bino qo‘ygan ediki, o‘zini barcha qushlar podshohiman degan so‘zlarni aytadi. Tovus o‘zining adolatli ekanligini va adolat taxti uzra podshohman deya ta’kidlaydi. Mazkur asarlarda Tovusning timsolida o‘zining husn-u jamoliga Alloh tomonidan berilgan go‘zallikka haddan ortiq mahliyo bo‘lib, shu go‘zallik tufayli kibrlanadigan insonlar timsoli badiiy talqin etilgan. Biz Alloh taoloning ojiz bandalari Allohning yaratgan suratiga emas, balki yaratganing o‘ziga mahliyo bo‘lib uning ishqida yonib kuymoqligimiz lozimdir.

Har ikkala asarda yana bir qush To‘ti ham keltiriladi. “Mantiq ut-tayr” asarida to‘tining shirinsuxonligi haqida so‘zlanadi. U so‘zlasa tilidan bol tomadigan uddaburon va zukkolik timsoli sanaladi. Salohiyning “Gul va Bulbul” asarida To‘ti o‘zining shirinso‘zligini, tilidan dur-u gavharlar sochilishini va egnida zangori libos bilan ziynatlanganidan g‘ururlanadi. Ushbu ikkala asarlarda ham To‘tining timsolida shirinso‘zligi, uddaburonligi, aqlliligi va go‘zal liboslari bilan o‘zida o‘zgacha faxr tuyadigan insonlar haqida so‘z yuritiladi va ularning bu ishlari qoralanadi. Ushbu asarlarda Kaklik qushi ham keltiradi-ki, “Mantiq ut-tayr” asarida uning tumshug‘i qizil, qanotlari shafaqday go‘yoki dur konidan

sarmast, mag‘rur ko‘zlari esa qaynoq qon tufayli, qizargandek deya tasvirlanadi. Kaklik har ikkala asarda ham o‘zining dur-u gavharlarga qiyoslaydi. Kaklikning fikricha, dur-u gavharlar har nedan-da ustundir. Aslini olganda dur-u gavharlarning barchasi, oddiy toshdan boshqa hech narsa emas, ularga haddan ortiq ko‘ngil qo‘ymoqlik esa kofirning ishidir. Kaklik o‘zini gavharga qiyoslar ekan, bu ishi bilan o‘zini oddiy toshga qiyoslaydi xolos. Kaklik qushining turli xil oltin, dur-u gavharlarni sevganligi uning butun vujudi ham toshga aylanganligidan dalolat beradi. Zero bu dunyodagi oltin-u gavharlarni sevgan inson hech qachon Alloh ishqida yonmoqlik neligini anglamaydi. “Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlarida Kaklik orqali hayotimizdagi oltin, olmos, dur-u gavharlarga mukkasidan ketgan, va Haq taoloni anglab yetmagan, insonlarning timsoli sanaladi.

“Mantiq ut-tayr” va “Gul va Bulbul” asarlaridagi qushlarning timsoli ularning bu yo‘lning mashaqqatlariga bardosh bera olmay, o‘z nafslarining hukmi ila turli xil bahonalar topib aytayotgan so‘zlari va bularga javob berayotgan pirning timsoli ham mazkur asarlarda ko‘p jihatdan o‘xshash ekanligini ko‘rib chiqdik. Umuman olganda, maqsad mohiyat bitta – Haq yo‘liga kirmoqlikdir. “Mantiq ut-tayr” asarida Haq tajallisi Simurg‘ qushi bo‘lsa, “Gul va Bulbul” asarida esa Qizil gul timsolida bayon etilgan. “Gul va Bulbul” asarida Bulbulning ya’ni tariqat yo‘liga kirmoqchi bo‘lgan solikning Qizil gulga Haq tajallisiga yetishmoqlik uchun boshidan kechirganlari tasvirlanadi. Bulbul Gul ishqida yonib-kuyib yashaydi. Asarda Bulbulning Gulga bo‘lgan ishqi, solikning Alloh taologa bo‘lgan ishqidir. Asar voqeligida Bulbulning gul ishqida yonishi va uning qafasga tushib oh urib jonining chiqishi uning Alloh taologa bo‘lgan ishq ila birlashib ketmog‘idir. Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida qushlarning uzri va bularga Hudhudning javobi va shu javoblarga mos tarzda g‘oyat mahorat bilan yozilgan hikoyatlar qalamga olingan. Attor o‘zining “Mantiq ut-tayr” asarining kitob xotimasida shunday so‘zlarni keltiradi:

Aylading, Attor shu olamga nisor,
Mushki asroringni har dam necha bor.
Cho‘lg‘anib atunga ofoqi jahon,
To‘ldilar shavqingda ushshoqi jahon.
Kel, ishqdin dam urib, ofoq chek,
Goh navoye pardayi ushshoq chek.
Yozganing ushshoqi Haqqa keldi xush,
Har so‘zingdin tushdi shu jonlarga xush.
Senda xatm o‘ldi chunon oftobda nur,
Mantiq ut tayr-u maqomati tuyur.

Xulosa qilib aytganda, Attorning “Mantiq ut-tayr” hamda Salohiyning “Gul va

Bulbul” asarlarining asosiy negizi ham bittadir, ya’ni vahdat ul - vujud sanaladi. Vahdat ul-vujud birlik va Allohni yagonaligiga iymon keltirish hamda u bilan bir butunlikni hosil qilishdir. Qur’oni karimning “Baqara” surasining 82-oyatida shunday so‘zlar keltirilgan: “Iymon keltirib solih amallarni qilganlar esa, aynan ular Jannat ahlidirlar va u yerda abadiy qoluvchilardir”. Yuqoridagi asarlarda esa bu ta’limot badiiy talqinda o‘z aksini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
2. Farididdin Attor. Mantiq ut – tayr (she’riy bayon). Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
3.
aloliddin Rumiy. Ma’naviy va Masnaviy (Asqar Mahkam tarjimasi) – Toshkent: Sharq nashriyot, 1999.
4.
ison ut-tayr. Alisher Navoiy. **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
5.
ur’oni karim. (Abdulaziz Mansur tarjimasi). **www.ziyouz.com** kutubxonasi.
6.
alohiy. Gul va Bulbul tasviri. (Tabdil va lug‘atlar muallifi: Surayyo Shodiyeva) – Toshkent: Firdavs -shoh, 2023.

BOLA HUQUQLARINI XALQARO HUQUQIY HIMOYA QILISH

Ergashaliyeva Sevinch
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy huquq fakulteti
2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarının qat’iyat bilan ta’minlanganligini ta’kidlaydi. Konstitutsiyamız insonlarni va ularning hayotlarini e'tirof etishni, ularning unikaliliklarını, qiymatini va boshqa daxlsiz huquqlarını yuqori qiymat sifatida ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Demokratiya, Konstitutsiya, erkinlik, huquq, burch, qonun, jamiyat.*

Аннотация: *В данной статье подчеркивается, что права человека твердо гарантированы Конституцией Республики Узбекистан. Наша Конституция направлена на признание людей и их жизни, их уникальности, ценности и других неприкосновенных прав как высокой ценности.*

Ключевые слова: *Демократия, Конституция, свобода, право, обязанность, закон, общество.*

Annotation: *This article emphasizes that human rights are firmly guaranteed in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Our Constitution aims to recognize people and their lives, their uniqueness, value and other inviolable rights as a high value.*

Key words: *Democracy, Constitution, freedom, right, duty, law, society.*

KIRISH

Bola huquqlari, aslida inson huquqlari deb hisoblanadi. Ushbu huquqlar avvalambor tarzda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qat’iyat bilan ta’minlangan. Konstitutsiyamizning asosiy mablag‘ida insonni va uning hayotini e’zoz qilish iloji bor. 13-modda bo‘yicha: "O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umumiy insoniy prinsiplarga asoslangan, ular o‘zlariga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, qiymati va boshqa daxlsiz huquqlari yuqori qiymatli hisoblanadi. Demokratik huquqlar va erkalar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" deyilgan. Konstitutsiyaning II-bobida, insonlar va fuqarolar huquq va erkalariga oid qonunlarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII, VIII, IX, X, XI-bablarida insonlar va fuqarolar shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari, taqdirlari hamda ularni himoya qilishning shartlari belgilangan.

Bola huquqlari xalqaro miqyosda himoyalangan, bu esa, bola huquqlari sohasidagi deklaratsiyalar, rezolyutsiyalar, va konvensiyalar yaratish, bola huquqlari himoyasi uchun maxsus nazorat organlarini o‘rnatish, davlatlar qonunlarini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali amalga oshiriladi. BMT Bolalar jamg‘armasi – YUNISEF bu yo‘nalishda faoliyat yuritadi va bola muammolarini bartaraf etishga intiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII, VIII, IX, X, XI-bablarida konstitutsiyaviy normaga muvofiq, har bir insonning dunyoga kelishi bilan birga, o‘z tabiiy huquqlariga, ya’ni shaxsiy huquqlariga ega bo‘lishi ta’minlanadi. Misol uchun, Bosh Qonunimizning 24-moddasi, "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir" degan qoidani mustahkamlaydi. Yashash huquqi insonning tug‘ilishi bilan boshlanadi va uning vafot etishi bilan tugaydi. Ushbu normada yashash huquqidan kimga bo‘lishi yoki uning hayotiga suiqasd qilishning eng og‘ir jinoyat ekanligi ta’kidlanib, bunday jinoyat uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi to‘g‘risida tegishli normativ hujjatlarda jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Bola huquqlariga oid bo‘lsa, bu davlatning sog‘lom bolish va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlaydi. Sog‘lom avlod jamiyatning eng katta qadriyatini oladi. Yosh avlod qadrlanmagan jamiyat hech qachon mukammal va tez rivojlana olmaydi. Kelajakni to‘g‘ri o‘rnating uchun, har qanday jamiyat o‘ziga yosh avlodni qadrlash, uning umumiy sog‘lomlikni ta’minlash va har tomonlama tarbiyalanishiga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratishi zarur.

Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq, har bir bola inson va fuqaroga huquq va erk beriladi va davlat tomonidan kafolatlanadi.

Keyinchalik, O‘zbekiston milliy qonunchiligining xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash muhimdir. Bizning fikrimizning isboti sifatida, davlatimiz bola huquqlari kafolatlari, odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida va boshqa bola huquqlarini himoya qilishga doir boshqa qonunlarni qabul qilganligidir.

Hamimizga ma'lumki, 1948 yilda BMT Bosh Assambleyasi Inson Huquqlari Umumiy Deklaratsiyasini qabul qildi. 1989 yil 20 noyabrda esa Bosh Assambleya rezolyusiyasi asosida "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. O'zbekiston davlati bu konvensiyani 1992 yil 9 dekabrda rasmiy ravishda tasdiqladi. Keyinchalik, 2008 yil 7 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi va unga ko'ra bola huquqlarini himoya qilishning asosiy yo'nalishlarini belgiladi. Bola huquqlarini, ularning erkinliklarini va qonuniy foydalarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlari ta'minlanishi va bu sohadagi

xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta'sirchan tizimini yaratish maqsadida, 2019 yil 22 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Bola huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirilishi haqida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Bu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson Huquqlari Vakili (Ombudsman) lavozimi joriy etildi. BMT Bola Huquqlari To'g'risidagi Konvensiyasini amalga oshirish strategiyasini va bola huquqlari masalalarini o'rganishda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi.

Xulosa: Davlatimiz bola huquqlarini kafolatlash bo'yicha olib borilayotgan harakatlarni mamlakatimizda not only in ongoing efforts, but also in a series of normative-legal acts. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar bo'limida tegishli javobgarlik normativlari ko'rsatilgan. Bu yerda, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy hatti-harakatlarga jalb qilish, voyaga yetmagan bolalarni tilanchilik qilishga majbur qilish, o'n olti yoshga yetmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, ularga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish kabi jinoyatlar uchun qat'iy jazo choralarini aniqlangan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlatimiz bola huquqlarini himoya qilish yuzasidan Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan normativlarni amalga oshirish siyosatini Bolaga va uning huquqlarini ta'minlashga qaratadi. Biror bir bola huquqiga oid huquqiy masala sud organining asoslantirilgan qaroridan tashqari, hech qanday organ yoki shaxs tomonidan cheklanishi mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-“O‘zbekiston”-2021.

2. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi. “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari”. Toshkent-2009, 7-b.

BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

Toxirova Marjona Murodali qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bolalar psixologiyasining asosiy tushunchalari, psixik rivojlanishning qonuniyatlari va yosh davrlaridagi xususiyatlari yoritilgan. Bola shaxsining shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri tahlil qilinib, rivojlanishning ilmiy asoslari bayon etilgan. L.S. Vigotskiy, J. Piaget, A.N. Leont'ev kabi olimlarning nazariy yondashuvlari asosida bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi ko‘rib chiqilgan. Maqola pedagoglar, psixologlar va talabalar uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

Kalit so’zlar: *Bolalar psixologiyasi, psixik rivojlanish, yosh xususiyatlari, ontogenez, rivojlanish qonuniyatlari, kognitiv taraqqiyot, emotsional rivojlanish, pedagogik psixologiya, psixologik diagnostika.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные понятия детской психологии, закономерности психического развития и возрастные особенности детей. Анализируется взаимодействие биологических и социальных факторов в формировании личности ребенка, а также раскрываются научные основы развития. Рассмотрены теоретические подходы Л.С. Выготского, Ж. Пиаже, А.Н. Леонтьева в когнитивном, эмоциональном и социальном развитии детей. Статья может быть полезна педагогам, психологам и студентам.*

Ключевые слова: *Детская психология, психическое развитие, возрастные особенности, онтогенез, закономерности развития, когнитивный рост, эмоциональное развитие, педагогическая психология, психологическая диагностика.*

Annotation: *This article examines the fundamental concepts of child psychology, the laws of psychological development, and age-specific characteristics of children. It analyzes the interaction of biological and social factors in shaping a child's personality and discusses the scientific foundations of development. Theoretical approaches of L.S. Vygotsky, J. Piaget, and A.N. Leont'ev in cognitive, emotional, and social development are explored. The article may be useful for educators, psychologists, and students.*

Keywords: *Child psychology, psychological development, age characteristics, ontogenesis, laws of development, cognitive growth, emotional*

development, pedagogical psychology, psychological diagnostics.

KIRISH

Inson psixikasi uzluksiz rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Bolalar psixologiyasi esa aynan ushbu rivojlanish jarayonining qonuniyatlarini, bola ruhiyatining turli bosqichlardagi xususiyatlarini va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganadi. Bolaning psixik taraqqiyoti nafaqat biologik omillarga, balki ijtimoiy muhitga ham bog‘liq. U oilasi, do‘stlari, o‘qituvchilari va atrof-muhit ta’sirida shakllanadi.

Psixologlar bolalar rivojlanishini o‘rganishda turli nazariyalarni ilgari surganlar. L.S. Vigotskiy ta’lim bolaning rivojlanishini belgilovchi omil ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, J. Piaget bolaning aqliy rivojlanish bosqichlarini aniqlashga harakat qilgan. Ushbu maqolada bolalar psixologiyasining rivojlanish qonuniyatlari, yosh davrlari va turli nazariy qarashlar tahlil qilinadi.

BOLALAR PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

1. Ontogenez qonuni

Har bir bola o‘ziga xos rivojlanish yo‘liga ega. Genetik omillar bolaning rivojlanish yo‘nalishini belgilasa-da, ijtimoiy muhit ushbu yo‘nalishning qay darajada rivojlanishini aniqlaydi. Masalan, aqliy rivojlanishi yuqori bo‘lgan bola qo‘llab-quvvatlanmasa, uning qobiliyatlari to‘liq yuzaga chiqmasligi mumkin.

2. Notekis rivojlanish qonuni

Bolalar psixik rivojlanishi doim ham bir maromda davom etmaydi. Ba’zi yosh davrlarida rivojlanish tezlashadi, ba’zida esa sekinlashadi. Masalan, maktabgacha yoshda bolaning tasavvuri va ijodi tez rivojlansa, o‘smirlik davrida mantiqiy tafakkur shakllanishi ustunlik qiladi.

3. Rivojlanishning eng yaqin zonasi qonuni (L.S. Vigotskiy)

Bola mustaqil ravishda bajara oladigan vazifalar va kattalar yordami bilan bajara oladigan vazifalar o‘rtasidagi farq rivojlanishning eng yaqin zonasini belgilaydi. Shuning uchun ta’lim jarayoni bolaning o‘sishiga mos ravishda tashkil qilinishi lozim.

4. Krizis davrlar qonuni

Bolalar rivojlanishida keskin o‘zgarishlar bo‘ladigan davrlar mavjud. Masalan, 3 yosh, 7 yosh va o‘smirlik davri psixologik krizis bosqichlari hisoblanadi. Ushbu bosqichlarda bolaning xulq-atvori va hissiyotlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

BOLALAR PSIXOLOGIYASINING YOSH BOSQICHLARI

1. Chaqaloqlik davri (0-1 yosh)

Asosiy rivojlanish: reflekslar, sezgi organlari.
Ona bilan emotsional bog‘liqlik shakllanadi.
2. Go‘daklik davri (1-3 yosh)
Nutq shakllanadi.
Harakat koordinatsiyasi rivojlanadi.
3. Maktabgacha yosh (3-6 yosh)
O‘yinning rivojlanishi.
Tasavvur va ijodiy tafakkur kuchayishi.
4. Kichik maktab yoshi (6-11 yosh)
Mantiqiy fikrlash shakllanadi.
Mustaqil ta’lim olishga o‘tish boshlanadi.
5. O‘smirlik davri (11-16 yosh)
O‘zlikni anglash jarayoni boshlanadi.
Mustaqil qaror qabul qilish shakllanadi.

Bolalar psixologiyasi insonning eng muhim rivojlanish davrlarini o‘rganadigan fan sifatida pedagogika, fiziologiya, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog‘liq. Bolaning psixik rivojlanishi tug‘ilganidan boshlab turli omillarning ta’siri ostida shakllanadi. Ushbu omillar biologik, ijtimoiy va psixologik jihatlarga bo‘linadi. Genetik omillar bolaning rivojlanishining asosiy bazasini tashkil etsa, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya va ta’lim uning individual xususiyatlarini shakllantiradi.

Bolalar psixologiyasining rivojlanish qonuniyatlari, xususan, notekis rivojlanish qonuni, rivojlanishning eng yaqin zonasi, krizis davrlar qonuni va ichki hamda tashqi omillarning o‘zaro ta’siri bolaning psixologik o‘sish jarayonini chuqur tushunish uchun asosiy nazariyalar hisoblanadi. Bu qonuniyatlar asosida bolaga mos ta’lim va tarbiya metodlarini ishlab chiqish mumkin. L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan rivojlanishning eng yaqin zonasi nazariyasi bolaning o‘qitish jarayonida uning imkoniyatlarini oshirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bola o‘zining hozirgi qobiliyatidan biroz oldinda bo‘lgan bilimlarni kattalar yoki murabbiylar ko‘magi bilan egallash orqali rivojlanadi.

Bolaning psixik rivojlanishi uzluksiz jarayon bo‘lib, u turli yosh bosqichlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Chaqaloqlik davrida bola asosan sezgi va reflekslarga tayanadi, go‘daklik davrida esa nutq shakllanadi va mustaqillik hissi ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin orqali bilish faoliyatini rivojlantiradi, ularning tasavvuri, ijodiy tafakkuri kuchayadi. Kichik maktab yoshida bola mantiqiy tafakkurga, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘la boshlaydi. O‘smirlik davri esa o‘zlikni anglash, shaxsiy qarorlarni qabul qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish bosqichi

hisoblanadi.

Bolalar psixologiyasida shaxsiy rivojlanish va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik juda muhimdir. Pedagogik psixologiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Agar bolaning rivojlanish bosqichlari va uning individualligini e’tiborga olgan holda ta’lim-tarbiya berilsa, u holda bola to‘laqonli intellektual va ijtimoiy rivojlanishga erishadi. Shuning uchun ham zamonaviy ta’lim metodikalarida psixologik yondashuvlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Bolalar psixologiyasini o‘rganish ota-onalar, o‘qituvchilar, psixologlar va pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir. Chunki bolaning ruhiy holatini, emotsional ehtiyojlarini va individual qobiliyatlarini chuqur tushunish unga to‘g‘ri tarbiya berish imkonini yaratadi. Shuningdek, bolaning xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni to‘g‘ri talqin qilish, uning ijtimoiy moslashuviga yordam berish, stress va emotsional muammolarni oldindan ko‘ra olish imkonini beradi.

Bugungi kunda bolalar psixologiyasini o‘rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodning barkamol bo‘lib shakllanishi, ularning ruhiy salomatligini ta’minlash va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash – jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir. Shu boisdan, bolalar psixologiyasi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va yangi pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular bolalarni tarbiyalash va o‘qitishda ilg‘or usullardan foydalanish imkonini beradi.

Kelgusida bolalar psixologiyasining chuqur tadqiq qilinishi nafaqat ta’lim sohasida, balki bolalar bilan bog‘liq boshqa sohalarda ham samarali natijalar berishi mumkin. Xususan, bolalar psixodiagnostikasi, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodlari, emotsional-intellektual rivojlanish usullari kabi yo‘nalishlar yanada rivojlantirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bolalar psixologiyasi inson rivojlanishining uzluksiz jarayonini o‘rganish va unga ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim fanning bir qismi hisoblanadi. U bola shaxsini shakllantirish, uning ruhiy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu boisdan, bu sohani chuqur o‘rganish va amaliyotga tadbiq qilish jamiyatning barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lidagi eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa: Mazkur maqolada "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" (NamDU-ARM-3363) kitobidan foydalanib, bolalar psixologiyasining asosiy qonuniyatlari, yosh davrlariga bo‘linishi va psixik rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Ushbu kitobdan olingan ma’lumotlar asosida bolalar psixologiyasining ilmiy jihatlari yoritildi va turli nazariy yondashuvlar tahlil qilindi.

Bolalar psixik rivojlanishi izchil va uzluksiz jarayon bo‘lib, har bir yosh davrida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Kitobdagi ma’lumotlarga asoslanib, bolalarning chaqaloqlik, go‘daklik, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi va o‘smirlik davridagi psixologik xususiyatlari batafsil yoritildi. Bolaning ruhiy o‘sishi faqat biologik omillarga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy muhit va ta’lim orqali ham shakllanishi kitob mualliflari tomonidan alohida ta’kidlangan.

Kitobdan kelib chiqib, L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan rivojlanishning eng yaqin zonasi nazariyasi bolaning o‘qitish jarayonida uning imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy rol o‘ynashi aniqlandi. Shuningdek, A.N. Leont'ev va J. Piaget yondashuvlariga ko‘ra, bolaning bilish faoliyati va mantiqiy tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning rivojlanishi krizis bosqichlari va psixologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar ta’lim va tarbiya vositasida boshqarilishi mumkin. "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" kitobidan olingan xulosalarga ko‘ra, bolalar bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlari, emotsional holati va individual qobiliyatlari hisobga olinishi zarur.

Shunday qilib, ushbu maqolada "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" kitobidan foydalangan holda, bolalar psixik rivojlanishining asosiy jihatlari, pedagogik va psixologik yondashuvlar tahlil qilindi. Kelgusida bolalar psixologiyasini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish nafaqat ta’lim tizimi, balki oilaviy tarbiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, bolalar psixologiyasiga oid tadqiqotlarni davom ettirish va yangi metodlarni ishlab chiqish bugungi jamiyat uchun dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vigotskiy L.S. – “Psixologik taraqqiyot nazariyalari”, Moskva, 1986.
2. Piaget J. – “Bolalar tafakkurining rivojlanishi”, Jeneva, 1952.
3. Leont'ev A.N. – “Faoliyat va ong”, Moskva, 1972.
4. Obuxova L.F. – “Bolalar psixologiyasi”, Moskva, 2010.
5. NamDU-ARM-3363 – "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi", Toshkent, 2017.

АЖДОДЛАРИМИЗ СИЙМОСИНИНГ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ

Явкачева Мадинабону Бахтиёржоновна

Тошкент шаҳар юридик техникуми, талаба

madinayavkacheva@gmail.com

Аннотация: *Мақолада оилада таълим-тарбия олиб, вояга етган фарзаднинг таълим–тарбияси билан шуғулланадиган оналар сиймоси мужассамлаштирилган. Ўзбекистон – ниҳоятда қадимий ва бой тарихга эга давлат. Туркий хоқонлар, хоразмшоҳлар, сомонийлар, қорахонийлар, шайбонийлар ва бошқа султонлар ватанимиз замирида ҳукмронлик қилиб ўтдилар. Шу билан бирга Темурийлар ва уларнинг бўғини бўлмиш Бобурийлар даври тарихимизнинг шонли зарварақлари ёрқин намоён бўлаверади. Темурийлар даврида илм-фан, маданият, санъатнинг янада равнақ топишида маликаларнинг ўзига хос ўрни бор. Темурийлар даврида илм-фан маданият, санъатнинг янада равнақ топишида маликаларнинг ўзига хос ўрни бор. Улар Бибихоним, Гавҳаршодбегим асос солиб ривожлантирилган. Анъаналарга умр бўйи содиқ қолишга имкон қадар мамлакат, давлат фаровонлигига муносиб ҳисса қўшишга интилишгани кўплаб тарихий асарларда акс этган. Темурий маликаларнинг ҳаёти ва фаолияти кўп жиҳатдан ёш авлодларга ибрат. Зеро, уларнинг, аввало, шахсий фазилатлари, эзгу хислатлари замондош хотин – қизларга намунадир. Даврнинг, тақдирнинг ғоят мураккаб, оғир синовлардан зўр матонат, ирода билан ўта олиш, ҳар қандай мушкул шароитда ҳам оқилалик, зукколик,тиришқоқлик сингари фазилатларни йўқотмаслик, эзгулик, муҳаббат, инсонийлик принципларида садоқат темурий маликаларнинг ўзига хос ёрқин жиҳатлари фарзанд тарбиясида алоҳида ўрин тутиши ёритилган.*

Калит сўзлар: *давлат, таълим-тарбия, миллат, шахс, малика, эзгулик,*

она, инсонийлик, муҳаббат.

Аннотация: *в статье воплощена моча матери, которая занимается образованием и воспитанием взрослого ребенка в семье. Узбекистан - государство с чрезвычайно древней и богатой историей. На нашей родине, в Замири, правили тюркские каганы, хорезмшахи, Саманиды, Караханиды, Шайбаниды и другие султаны. В то же время ярко проявляются славные жемчужины нашей истории - Тимуридов и их ответвления, бабурийцев. В эпоху Тимуридов царицы занимали особое место в дальнейшем процветании науки, культуры, искусства. В эпоху Тимуридов наука занимала особое место для принцесс в дальнейшем процветании культуры, искусства. Они были разработаны на основе бибихонимов, Гавхаршодбегим. Стремление внести достойный вклад в благосостояние страны, государства, как можно дольше сохранять верность традициям на протяжении всей жизни отражено во многих исторических трудах. Жизнь и творчество принцесс Темура во многом являются уроком для подрастающего поколения. Ведь их, прежде всего, личные качества, хорошие качества являются примером для современных женщин. Очевидно, что из чрезвычайно сложных, тягостных испытаний эпохи, судьбы, суметь пройти усилием воли, не растерять такие качества, как благоразумие, изобретательность,трудолюбие, верность принципам добра, любви, человечности, присущие тимуровским принцессам светлые стороны занимают особое место в воспитание детей даже в любых сложных условиях.*

Ключевые слова: *государство, образование, национальность, личность, королева, доброта, мать, человечность, любовь.*

Abstract: *the article embodies the urine of a mother who is engaged in education and upbringing of an adult child in the family. Uzbekistan is a state with an extremely ancient and rich history. In our homeland, in Zamiri, Turkic kagans, Khorezmshahs, Somanids, Karakhanids, Shaybanids and other sultans ruled. At the same time, the glorious pearls of our history, the Timurids and their offshoot, the Baburians, are vividly manifested. In the Timurid era, the queens*

occupied a special place in the further prosperity of science, culture, and art. In the era of the Timurids, science occupied a special place for princesses in the further prosperity of science, culture, art. They were developed on the basis of bibichonyms, Gavkharshodbegim. The desire to make a worthy contribution to the welfare of the country, the state, as long as possible to remain faithful to traditions throughout life is reflected in many historical works. The life and work of the Temur princesses are in many ways a lesson for the younger generation. After all, their, first of all, personal qualities, good qualities are an example for modern women. It is obvious that out of extremely difficult, harsh trials of the era, fate, to be able to pass by an effort of will, not to lose such qualities as prudence, ingenuity, diligence, loyalty to the principles of goodness, love, humanity, inherent in the Timur princesses light sides take a special place in the education of children even in any difficult conditions.

Keywords: *state, education, nationality, personality, queen, kindness, mother, humanity, love.*

Кириш

Ўзбекистон – ниҳоятда қадимий ва бой тарихга эга давлат. Туркий хоқонлар, хоразмшоҳлар, қорахонийлар, шайбонийлар ва бошқа сулолалар ватанимиз заминида ҳукмронлик қилишган.Шу билан бирга, темурийлар даври тарихимизнинг шонли зарварақлари сифатида янада ёрқин намоён бўлаверади.

Ҳижрий VIII асрнинг иккинчи ярмига келиб мўғуллар тарқалиб кетишди.Улардан ҳар бир раҳбар ўзининг минтақасини мустақил қилиб олди ва орадаги ўзаро урушлар, низолар кучайиб кетди. Худди мана шу даврда Амир Темур пайдо бўлди ва унинг учун қулай шароит вужудга келди.

Мусулмон Африкасидаги сингари Ҳиндистон минтақасини ҳам кичик подшоҳликлар ўзаро бўлишиб олган бўлиб, мусулмон дунёси буюк бир

шахсга эҳтиёж сезаётган эди.Худди ана шундай зот Самарқандда пайдо бўлди. Бу Барлос уруғидан чиққан Темур эди.

Адабиётлар тахлили

Амир Темур тўғрисида унинг замондошлари қимматли йирик асарлар яратганлар. Ғиёсиддин Алининг “Рўзномайи ғазовоти Ҳиндустон”, Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома”, Шарафиддин Алининг “Зафарнома”, асарлари шулар жумласидандир. ”Тузукоти Темурий”асари булар орасида алоҳида ўрин тутади.

”Тузукоти Темурий”нинг ўзбекча ва рус тилларига қилинган таржималари хусусида фикр билдирмоқчимиз.Ўзбек тилига у 1857 йилда Хивада Муҳаммад Юсуф Рожий томонидан қисқартириб таржима қилинган.Асарнинг Мир Абу Толиб Ҳусайний матнига мувофиқ ўзбекчага тўлиқ таржимаси марҳум Алихон Тўра Соғуний томонидан 1967 йилда Тошкентда амалга оширилган.

Бундан ташқари Бобур томонидан ёзиб қолдирилган “Бобурнома”асарини дунё олимлари якдиллик билан қомусий асар сифатида баҳолашган ва темурийлар Уйғониш даври ва Бобур мавзусини ёритиш бўйича мукаммал манба, деб билишган.

Муҳокама ва натижалар

Асарда марказлашган давлат асосчиси, буюк саркарда, илм-фан, адабиёт, санъат, маданият ҳомийси,темурийлар Уйғониш даври асосчиси Соҳибқирон Амир Темур номи, ҳаёти, фаолияти билан боғлиқ ўттиздан зиёд тасвир, лавҳа, изоҳларнинг келтирилиши ҳам ниҳоятда эътиборли.Булардан кўринадики, Бобур бобокалони билан фахрлангани, темурийларнинг тарихини яхши ўргангани, кўрган – билганларини ёрқин ва таъсирли ҳолда ифодалангани, улуғ аждодидек адолатли ҳукмдор бўлишга бел боғлагани яққол сезилади.

Темур буюк шахс эди.Ҳеч қачон жангда мағлуб бўлмаган,фавқулодда жасурлиги билан донг таратган Амир Темурнинг улуғ зот, истеъдодли лашкарбоши бўлганлигини ҳеч ким инкор эта олмайди.Бу буюк давлат

арбоби, ўта талабчан раҳбар Ислом шарафини ҳамма нарсадан устун қўяр, бу йўлда жонини ҳам аямас эди.

Салтанати поёнсиз: тасарруфидаги ҳудуднинг бир учидан иккинчи учига бориш учун сайёҳ бир йил юриши лозим бўлади.Мана шу масофаларда тўлиқ хавфсизлик таъминланган.Оддий йўловчилардан тортиб савдо карвонларигача шу йўллар бўйлаб эркин ҳаракат қилишади.Мабодо бирор бир ҳудудда қароқчилар босқини ёки талончилик содир бўлса, Амир Темур биринчи галда ўша ҳудуднинг маҳаллий ҳукмдорини қатл эттиради.Чунки Амир Темурнинг фикрича, токи маҳаллий ҳукмдор қароқчилар билан тил бириктирмаса,вазифасини виждонан, ҳалол адо этса – ҳеч қандай тўда катта йўлларда қароқчилик қилишга журъат этмайди.

Темур араб, форс ва турк тилларида эркин сўзлашади. У калом илмида ва ислом ҳуқуқшунослигида шу қадар беқиёс билимга эгаки, бирор - бир мусулмон уламоси илмий баҳс ва мунозарада уни енга олмаган.У олимларни, шоирларни бағоят қадрлайди. Уларга ҳурмат кўрсатади.Бунинг сабаби унинг ўзи ҳам олим эканидандир.

Амир Темурнинг юксакликка эришишида волидалари Тегина Моҳбегимнинг ўрни беқиёсдир.Фосиҳ Хавофийнинг “Мужмали Фасиҳий” асарида қайд этилишича,Тегина Моҳбегим Бухорои шарифда таваллуд топган.Тегина Моҳбегим тақводор қиз сифатида ўсиб- улғайган хонадон Бухородаги ислом уламолари сулоласига мансуб эди.

Шундай нуфузли оилада таълим-тарбия олиб, вояга етган Тегина Моҳбегим фарзандининг таълим –тарбияси билан шуғулланади.

Темурийлар даврида илм-фан, маданият, санъатнинг янада равнақ топишида маликаларнинг ўзига хос ўрни бор.Темурий маликаларнинг ҳаёти ва фаолияти кўп жиҳатдан ёш авлодларга ибрат.Зеро, уларнинг, аввало, шахсий фазилатлари, эзгу хислатлари замондош хотин – қизларга намунадир. Даврнинг, тақдирнинг ғоят мураккаб, оғир синовлардан зўр матонат, ирода билан ўта олиш, ҳар қандай мушкул шароитда ҳам оқилалик, зукколик,тиришқоқлик сингари фазилатларни йўқотмаслик, эзгулик,

муҳаббат, инсонийлик принципларида садоқат темурий маликаларнинг ўзига хос ёрқин жиҳатларидир.Албатта, бу борада оилапарварлик, фарзандлар таълим-тарбияси учун масъулият, ҳар томонлама зукко, тадбирли бўлиш ҳам алоҳида ўрин тутади.

Хулоса: Юқоридаги фикрлардан хулоса қилиш мумкинки,ҳар бир жамият тараққиётининг юқори чўққиларини забт этиши учун, албатта,ёш авлод барча соҳаларда билимга эга бўлиши лозим. Ёшларни юксак маънавият ва Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялаш барчамизнинг вазифамиздир. Жамиятнинг энг кичик бўғини бу оиладир. Ёш авлод маънавиятининг биринчи босқичини оиладан, ота-онадан олади. Оилада фарзандга ота-она масъулдир. Ота- она фарзандининг соғлиғи, кийими,хулқу- одоби,маънавиятига эътибор бериб, уни назорат қилиши лозим. Чунки ота- она фарзандини тарбиялаб, эл- юртини гуллатиб яшнатадиган ёки эътиборсизлиги ва масъулиятсизлиги туфайли арзимаган маблағга орини, имонини сотадиган кимсани жамиятга туҳфа қилади.Бунинг олдини олиш учун ота-оналар ҳам китобхонлик масаласига эътибор беришлари лозим.

Илм бор ерда китоб кўпаяди. Китоб бор ерда илм ривожланади. Ҳозиргача ҳар бир жамиятдаги китоблар ва уларга бўлган муносабат ўша жамият аъзоларининг илмга бўлган муносабатининг ўлчови бўлиб келган. Мелодий тўққизинчи асрдан бошлаб, мусулмонларда ҳақиқий бойлик деганда китоб тушунилган. Бировга энг қимматбаҳо ҳадя қилишни хоҳлаган одам китоб олиб борган.Бағдод халифаси халққа арзигулик бирор ҳадя қилиш ҳақида ўз вазирларига маслаҳат солганида ҳаммалари бир овоздан яхши бир кутубхона ҳадя қилишга ишора этганлар. Бу кутубхона мусулмонлар оммасига ҳадя этилгач,“ Дорул-ҳикма” номини олган ва кейинчалик дунёдаги биринчи фанлар академиясига айланган.Мусулмонларнинг илмга бўлган рағбатлари, китобга бўлган қизиқишлари иймон ва ихлос асосида бўлгани учун у тезда ўз самарасини берди. Улар бутун инсониятга турли илмларни тартибга солиб тақдим

этдилар.Жадал ривожланиб бораётган жамият ва давр билан ҳамнафас илдам одимлаб боришда китобхонлик масаласи ўз ўрнига эгадир Ёшларимиз тарбияси – бу бир кишининг иши эмас.Агар ҳаммамиз биргалашиб ҳаракат қилсак,фарзандларимиз Ватан ва эл – юрт ривожига ҳисса қўшадиган,мустақил қарор чиқарадиган инсонлар бўлиб улғаядилар.Яхши тарбия инсонга маънавият каби она сути,ота намунаси ва аждодлар ўғити билан бирга сингади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи.-Т.: Ҳилол, 2018 й.
2. Аҳмедов Бўрибой Тарихдан сабоқлар.-Т.:” Ўқитувчи”, 1994 й.
3. “ Маърифат ”газетаси.2019 й.
4. Алимов Усмонхон. Оилада фарзанд тарбияси.-Тошкент:
” Мовароуннаҳр” 2017 й.

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚИНИНГ ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ҚЎШГАН ХИССАСИ.

ВКЛАД НАРОДА УЗБЕКИСТАНА ВО ВТОРУЮ МИРОВУЮ ВОЙНУ.

THE CONTRIBUTION OF THE PEOPLE OF UZBEKISTAN TO THE SECOND WORLD WAR.

Атабаева Нигора Махмуджановна
Андижон давлат педагогика институти катта ўқитувчиси
email: *nigora.atabayeva.74@mail.ru*

Аннотация: *Мақолада иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистоннинг собиқ СССРнинг фронт арсеналига айланиши, саноатда меҳнат қилган ишчиларнинг урушда немис фашистлар устидан қозонилган ғалабага қўшган муносиб ҳиссаси фактик маълумотлар асосида очиб берилган.*

Калит сўзлар: *Иккинчи жаҳон уруши, саноат, фашизм, милитаризм, арсенал, беш йиллик режалар, оғир саноат, енгил саноат, ғалаба.*

Аннотация: *В статье на основе фактических данных раскрывается превращение Узбекистана во фронтовой арсенал бывшего СССР в годы Второй мировой войны, значительный вклад промышленных рабочих в победу над немецкими нацистами в войне.*

Ключевые слова: *Вторая мировая война, промышленность, фашизм, милитаризм, арсенал, пятилетки, тяжелая промышленность, легкая промышленность, победа.*

Abstract: *The article reveals the transformation of Uzbekistan into a front-line arsenal of the former USSR during the Second World War, the significant contribution of industrial workers to the victory over the German Nazis in the war, based on factual information.*

Key words: *World War II, industry, fascism, militarism, arsenal, five-year plans, heavy industry, light industry, victory.*

Ўзбекистон мустақил давлат мақомига эга бўлгандан кейин тарихимизни, айниқса, ўта соҳталаштириб талқин этилган совет даври тарихини, хусусан, иккинчи жаҳон уруши йиллари тарихини мафкуравий қарашлардан ҳоли тарзда ўрганиш зарурияти туғилди. Фашистлар Германиясини махф этилиши, таслим этилиши, иккинчи жаҳон урушида шонли ғалабанинг қўлга киритилишида Ўзбекистон халқи, ҳарбийларининг салмоқли ҳиссасини, ўзбек жангчиларининг фронтда кўрсатган жасоратларини, ғалаба йўлида тўкилган қон ва йўқотишларни, уруш йилларида фронт ва фронт ортида халқимиз кўрсатган мислсиз

қахрамонликлар тарихини ҳолисона, миллий истиқлол ғояси асосида махсус тадқиқ зарур.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев бу уруш ва унда ўзбекистонликларнинг иштироки масаласига тўхталиб шундай фикрларни илгари сурган: “Ҳеч шубхасиз, бу даҳшатли уруш, бутун инсоният қатори бизнинг халқимизга ҳам мислсиз кулфат ва йўқотишлар олиб келди. Иккинчи жахон урушида юзлаб юртдошларимиз Совет Иттифоқи Қахрамони унвонига сазовор бўлди. Булардан Қўчкор Тубрдиев, Мамадали Топволдиев, Собир Умарович Раҳимовлардир. Минглаб ота-боболаримиз жанговар орден ва медаллар билан мукофотландилар. Халқимиз фронт ортида фидокорона меҳнат қилиб, уруш майдонларига жуда катта миқдорда ҳарбий техника, қурол-яроғ, дори - дармон, кийим - кечак, озиқ-овқат маҳсулотлари етказиб берди. Ғалаба биз учун нақадар қимматга тушгани, халқимиз дунёни фашизм балосидан халос этишга қандай катта хисса қўшганини яққол кўрсатади. Тарихнинг ана шундай бешафқат ва суронли синовларидан ёруғ юз билан, ҳар томонлама муносиб ўтган халқимизга ҳар қанча таъзим қилсак, ҳар қанча тасаннолар айтсак арзийди, албатта” [1.396-397]. дея билдирган фикр мулохазалари ўзбек халқининг урушга қўшган хиссаси ва иштироки бениҳоя салмоқли эканини кўрсатади.

Иккинчи жаҳон уруши бошланғич даврининг энг мураккаб ва масъулиятли вазифаларидан бири иқтисодиётни ҳарбий изга солиш, саноат ҳамда қишлоқ ҳўжалигини тўлиқ уруш манфатларига бўйсиндиришдан иборат бўлди. Мамлакатда ҳарбий махсулотлар ишлаб чиқаришни кескин ошириш уришнинг дастлабки даврида асосий кечиктириб бўлмас вазифа эди. Шу йўналишдаги ишларни ташкил этишга қаратилган дастлабки амалий ҳаракат 1941 йил 30 июнда қабул қилинган “1941 йил 3-чорагида халқ хўжалигини умумий сафарбар этиш режаси”да намоён бўлди.Режага асосан тинч даврга нисбатан қурол - яроғ ишлаб чиқарилиши 26 фоизга оширилди [2.29]. Темир йўлларда ҳарбий юклар, кўмир, ёқилғи, металлар ва

ғалладан ташқари бошқа юкларнинг ташилиш ҳажми камайтирилди.

Ҳарбий саноатни жонлантиришда СССРнинг шарқий ҳудудларига, жумладан, Ўзбекистонга катта эътибор берилди. Қисқа вақт ичида Ўзбекистондаги саноат корхоналарини ҳарбий изга мослаб қайта қуриш ва мудофа маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ўтказиш лозим эди. Чегараланган вақт ичида бундай катта кўламдаги ишни амалга ошириш катта куч ва ташаббусни талаб этди.

Ўзбек халқининг фидокорона меҳнатининг самараси ўлароқ бу ишларнинг ҳаммаси қисқа муддатларда бажарилди. Чунки бу даврда, урушдан олдин Совет Иттифоқининг қарийб 40% аҳолиси истиқомат қиладиган, кўмирнинг 63 фоизи қазиб олинадиган, пўлатнинг 50 фоизи, доннинг 38 фоизи, саноатнинг 30 фоизи ишлаб чиқариладиган, қудратли машинасозлик базаси, шу жумладан, кўпгина мудофаа корхоналари жойлашган ғарбий ҳудудини немис босқинчилари босиб олган эди[233-34]. Мудофаа аҳамиятига эга бўлган оғир саноат корхоналарининг ҳам катта қисми ғарбий ҳудудларда жойлашган эди.

Мудофа комитети олдидаги вазифа тез фурсатларда ана шу катта йўқотишнинг ўрнини қоплаш ва душман устидан ғалабани таъминлайдиган ҳарбийлашган саноат ишлаб чиқаришини йўлга қўйиш эди. Бу ишларни амалга шарқда жойлашган Ўрта Осиё республикалари жумладан, Ўзбекистон ССРнинг ўрни катта бўлди. Урушнинг дастлабки йилларидаёқ Ўрта Осиё республикаларига Иттифоқнинг марказий раёнларидан 308 та завод ва корхоналар эвокуация қилинди. Шулардан, 104 та корхона Ўзбекистонга жойлаштирилди. Бу корхоналар зудлик билан республикамизга жойлаштирилиб, уларнинг тенг ярми 1941 йил охиригача, қолгани 1942 йил баҳоридан фронт эҳтиёжи учун маҳсулот ишлаб чиқара бошлади[3.6].

Кўчириб келтирилган заводлар орасида Ленинград тўқимачилик машиналари заводи, “Россельмаш”, “Қизил Оқсой”, Сумск компрессор ва Днепропетровск карборунд заводлари, Москвадаги “Электрокабель” ва

“Подъёмник” заводлари, Темир йўллар халқ комиссарлигининг машинасозлик заводи, Чкалов номинади авиация заводи, “Красный путь” заводи, Киевдаги “Транссигнал” заводи, Сталинград кимё комбинати ва бошқалар бор эди.

Эвакуация завод ва фабрикаларни тиклашда талабалар, ўқувчилар, уй бекалари, фан ва маданият ходимлари, хизматчилар ва колхозчилар қўлга белкурак, кетмон, лом олиб чарчаш нималигини билмай меҳнат қилдилар. Урушдан олдинги вақтда йиллар мобайнида қилинадиган ишлар бу кунларда кунлар ва ойлар мобайнида бажарилди. Чунончи, “Россельмаш” заводи 25 кунда, “Қизил Оқсой” заводи бу ерга етиб келгандан кейин орадан 29 кун ўтганда маҳсулот ишлаб чиқара бошлади. 1941 йил декабрга келиб эвакуация қилинган корхоналарнинг қарийиб 50 таси ишга туширилди[4.136]. 1942 йилнинг ўрталарига келиб республика индустрияси мамлакат шарқидаги ҳарбий саноат базасининг таркибий қисми бўлиб қолди. Республикада ҳарбий маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг ўсиши ва ривожлана бориши билан бир қаторда ҳом ашё ва ёқилғи - энергетика базасини кенгайтириш вазифаси ҳам кескин бўлиб турди.

Ўзбекистон Компартияси Марказий қўмитасининг1941 йил 25 августда қабул қилган махсус қарори асосида саноат корхоналари ишига раҳбарлик қилиш учун республика ҳукумат комиссияси тузилди. Бу комиссия республика саноатини ҳарбий изга солиш масалалари билан шуғулланди. Натижада урушгача тинч мақсадлар учун ишлаётган саноат корхоналари қисқа муддат ичида ҳарбий техника, қурол - яроғ ишлаб чиқарадиган корхоналарга айлантирилди. Ўзбекистонда 1941 йилнинг охирларига келиб 300 та завод ва фабрика Қизил Армия учун қурол - яроғ ва ўқ - дори ишлаб чиқара бошлади[5.2]. Биринчи навбатда турган масала мудофаа саноати корхоналари учун зарур бўлган ёқилғи, электр қуввати ва металл билан таъминлашдан иборат бўлди. Ўзбекистон Компартияси Марказий Қўмитасининг 1941 йил 5 - 7 декабрда бўлиб ўтган V Пленуми республика саноатини ҳарбий изга солиш соҳасидаги ишларга якун ясади. Ўзбекистонга

кўчириб келтирилган саноат корхоналарини тезлик билан ишга тушириш, фронт учун зарур маҳсулотларни етказиб бериш билан боғлиқ масалалар муҳокама қилинди ва уни амалга ошириш бўйича тадбирлар ишлаб чиқилди.

Уруш рангли металлар ишлаб чиқаришни жадаллик билан кўпайтиришни зарур қилиб қўйди. Шунинг учун ҳам 1942 йилда Лангар молибден конини фойдаланишга топшириш соҳасидаги ишлар тез суръатлар билан бошланиб кетди. Бу ерда мисли кўрилмаган қичқа муддатда молибден фабрикаси барпо этилди. Айни вақтда Қўйтош конининг ишлаб чиқариш қуввати кескин оширилди. Олмалиқда йирик қурилиш ишлари авж олдириб юборилди, бу ерда мис ва бошқа рангли металларнинг бой конлари топилди. Ангрен кўмир разрези республиканинг биринчи кўмир марказига айланди.

Саноат қурилишида ўлка аҳолисининг барча қатламлари фаол иштирок этди. Меҳнат ресурсларининг энг катта базасини ташкил этган қишлоқ меҳнаткашлари бу ишга айниқса салмоқли ҳисса қўшдилар. Фақат 1941 йилнинг иккинчи ярмида ҳарбий объектлар қурилишига қарийб 500 минг колхозчи жалб қилинган[6.441-442].

Оғир уруш даврида ривожланаётган саноатни ишчи кучи билан таъминлаш вазифаси айниқса кескин бўлиб турди. Кўп минглаб тажрибали ишчиларнинг фронтга кетиши натижасида вужудга келган жуда катта етишмовчилик саноат корхоналарига янги келган ва тажрибага, меҳнат малакасига эга бўлмаганларни ғоят қисқа муддат ичида турли ишлаб чиқариш касбларига ўргатиш ва ўқитиш йўли билан тўлдириб борилди. Шунингдек, ЎзССР Олий Совети Президиумининг 1942 йил 13 февралдаги фармони билан уруш даврида ишламаётган меҳнатга лаёқатли аҳоли – хотин - қизлар, ўсмирлар, нафақахўрларни сафарбар қилиш ҳисобига ҳам ишчилар сафи кенгайиб борди.

Саноат ишлаб чиқарилишига хотин - қизлар айниқса фаол жалб қилинди. Агар 1940 йилда саноатда ишловчилар орасида хотин - қизлар салмоғи 34,0

фоизни ташкил этган бўлса, 1942 йилга келиб бу кўрсаткич ўсиб, 63,5 фоизга етди. Умуман урушдан олдин Республика халқ хўжалигида саноатнинг улиши 34,6 фоизни, қишлоқ хўжалигининг улуши 63,6 фоизни ташкил этган бўлса. 1942 йилга келиб Республика саноат ишлаб чиқаришининг ҳажми 75 фоизга етди[7.89].

Электр энергияси, ёқилғи ва ҳомашё базаларини ривожлантириш масалаларига ҳам катта эътибор берилди. 1942 йилнинг ноябригача Чирчиқ, Тошкент энергетика тизимларининг қишки қуввати 160 - 170 минг киловаттга етказиш, 4 - 5 ой ичида Тошкент ёнида 60 - 70 минг киловатт электр энергия бера оладиган иссиқлик электростанциясини қуриш, бу станцияларни маҳаллий кўмир асосида ишлатиш тадбирлари илгари сурилди. Республикада металл - кўмир ва нефт қазиб чиқаришни кўпайтириш тадбирлари белгиланди. Бу эҳтиёжлар учун бир миллиард сўм маблағ ажратилди.

Иккинчи жаҳон уруш йилларида Ўзбекистонда Товоқсой, Оқтепа, Оққовоқ, Қибрай, Салор, Қуйи Бўзсув ва ГЕС аскадлари қурилиб ишга туширилди, натижада Ўзбекистонда электр энергия ҳосил қилиш 1940 йилдаги 482 млн kW соатдан 1945 йилда 1.187 млн kW соатга кўпайди[8.373].

Ўзбекистонда уруш йилларида 280 та янги корхона барпо этилди. Республиканинг саноат потенциали 1945 йилга келиб 1940 йилдагига нисбатан деярли икки баравар кўпайди, нефт қазиб олиш 4 баравардан зиёд, металл ишлаш тармоқлари маҳсулотлари 4,8 баравар, кўмир қазиб чиқариш 30 баравардан кўпроқ, пўлат ва прокат эритиш 2 баравар, электр энергия ишлаб чиқариш 2,42 марта ортган[2.41-42].

Ўзбекистон саноатчилари уруш йилларида фронтга 2100 та самолёт, 17342 та авиамотор, 2318 дона авиабомба, 17100 та миномёт, 4500 бирликдан иборат миналарни йўқ қилувчи қурол, 60 мингга яқин ҳарбий - кимёвий аппаратура, 22 млн дона мина ва 560 минг дона снаряд, 1 млн дона граната, дала радиостанциялари учун 3 млн радио лампа, қарийб 300 мингта

парашют, 5 та бронепоезд, 18 та ҳарбий санитария поезди, 2200 та кўчма ошхона ва бошқа кўпгина ҳарбий анжомлар етказиб бердилар. Фақат республика енгил саноат халқ комиссарлиги корхоналарининг 1941 - 1945 йиллар мобайнида 7518,8 мингта гимнастерка, 2636,7 мингта пахтали нимча, 2861,5 мингта армия этиги тайёрлаб бердилар[7.91-92].

Хулоса қилиб айтганда, иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон собиқ СССРнинг қурол аслаҳа етказиб берувчи арсеналига айланган бўлиб, саноатчиларимиз ҳам ўзбекистонлик жангчилар ҳамда халқ хўжалигининг бошқа соҳалари вакиллари каби немис фашистлари тормор келтирилишида ўзларининг муносиб улишларини қўшдилар.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. – Тошкент Ўзбекистон, 2017.

2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939-1991 йиллар. – Тошкент: O’zbekiston, 2019.

3. Голованов А.А., Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. – Самарканд: Изд. СамГУ, 2006. Часть II.

4. Нуруллин Р. Узбекистан – арсенал фронта в годы войны// Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг тарихий ҳиссаси (Илмий-назарий конференция материаллари). – Тошкент,1996.

5. Совет Ўзбекистони. 1985 йил. 20 апрел.

6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент: Шарқ, 2000.

7. Узбекистан ССР в годы Великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Том 3. – Ташкент: Фан, 1985.

8. Шамсутдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи. Тошкент: Академнашр, 2019.

МАТО ТЎҚИМАЧИЛИГИНИННГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ ВА АНАНАЛАРИ ҲАҚИДА МАЪЛУМОТЛАР.

Абуллаева Насибахон Арабовна
АДПИ Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси (PhД)

Асоснома: *Марказий Осиё ҳудудида қадимдан мато тўқиш ва унга бадиий ишлов бериш билан халқимиз шуғулланиб келишган.*

Калит сўзлар: *Мато, Марказий Осиё, Фаргона водийси, безак бериш, урф-одат, мато номлари.*

Аннотация: *На территории Средней Азии издавна ткачеством и художественной обработкой ткани занимался **наш** народ.*

Ключевые слова: *Мото, Центральная Азия, долина Фаргона, декоративность, традиции, названия тканей.*

Abstract: *On the territory of Central Asia, our people have long been engaged in the weaving of fabric and artistic processing of it.*

Key words: *Cloth, Central Asia, Fargona Valley, decoration, custom, cloth names.*

Кириш

Маълумки, Марказий Осиё жаҳоннинг энг кўҳна маданият ўчоқларидан бири ҳисобланади. Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, маҳаллий аҳоли мато тўқиш ва унга бадиий ишлов бериш билан қадимги даврларданоқ шуғулланиб келган.

Асосий қисм: Халқ анъанавий санъатининг юксак намунаси ҳисобланган матога кашта (безак) тикиш санъати, каштадўзлик ҳам Марказий Осиё халқларида милоддан аввалги асрлардаёқ шакллана бошлаган. Фарғона водийси каштачилиги кўплаб олим ва мутахассисларнинг диққатини жалб қилган. Уларнинг илмий изланишлари асосан каштачиликнинг келиб чиқиши, урф-одатлар билан боғлиқлиги, турмуш маданияти томонидан ўрганилган. Бундан олдин ҳам ўзбек анъанавий каштачилиги кўплаб этнограф олимларни ҳамда санъатшунос мутахассисларни қизиқтирган. Уларнинг илмий тадқиқотлари натижасида анъанавий каштадўзлик санъат даражасига кўтарилганини, бадиий томондан ўзига хос хусусиятларини санъатшунослар ҳам ўрганган. Фарғона водийси халқининг анъанавий каштадўзлигини тарихий этнографик жиҳатдан ўрганишга бағишланган, тадқиқот мавзусига бевосита алоқадор муаммовий йўналишлар бўйича қуйидаги гуруҳларга ажратиб таҳлил қилиш

мумкин:

1. Фарғона водийси халқи анъанавий каштадўзлигининг шаклланиш тарихи ва каштанинг генезисига алоқадор адабиётлар.

2. XИХ-XX асрларда Фарғона водийси халқининг мато тайёрлаш усулларига оид ва водий каштадўзлигида этник жамоалар.

3. Моддий маданиятнинг ўзига хос хусусиятини кўрсатиб берувчи адабиётлар.

3. Тоталитар тузум давридаги тарихий-этнографик тадқиқотлар.

4. Мустақиллик давридаги тадқиқот ишлари.

5. Фарғона водийси ҳақидаги хорижий адабиётлар.

Бугунги кунга келиб айтиш мумкинки, Фарғона водийси аҳолисининг қадимги ва илк ўрта асрлар давридаги каштадўзлик тарихини ўрганишга доир бир қанча ютуқлар қўлга киритилган. Айниқса, археолог олимларнинг бу борадаги ишларини алоҳида эътироф этиш керак бўлади. Чунончи, А. Н. Бернштам, Ю.А. Заднепровский, Б.А. Литвинский, Н.Г. Горбунова, А. А. Анорбоев, Б. Матбобоев, Г. Майтдинова этнограф олим У. Абдуллаев каби тадқиқотчиларнинг ишларида биз ўрганаётган ҳудуд аҳолисининг шаклланиш жараёни, этник таркиби, маданиятига доир кўплаб маълумотлар мавжуд.

Фарғона водийси ҳудудида археологлар томонидан олиб борилган кузатишлар натижасида пахта, жун ва ипакдан тайёрланган кийимларнинг қолдиқлари топилган. Иқлим шароитлари сабаб жун ва ипак газламалардан фарқли ўлароқ, ип газламали матолар Фарғонада ёмонроқ сақланган. Демак, Исфара тумани (Тожикстон)да олиб борилган пахта толаси тўқимачилигига оид кузатиш янада аҳамиятлироқ бўлган. У ерда олиб борилган тадқиқотлар натижасида кийимларнинг 23 тури сифатли пахта толасидан тайёрланганлиги аниқланди. Фарғона қўрғонларида олиб борилган археологик ишлар тўқимачиликка оид тадқиқотларга бағишланган. Б.А. Литвинскийнинг умумлаштирувчи ишида пахта матоларини муаллиф икки гуруҳга бўлади. Биринчи гуруҳ матосининг зичлиги арқоқ 14 - 18 та ип 1см^2, асосий ип 10 - 16 та ип 1см ^{2} тўғри келади. Иккинчи гуруҳ матолари бир мунча сифатлироқ бўлиб, улардан 10 та тури топилди. Бундаги матонинг зичлиги 8 - 10 та арқоқ ип 1см^2 асосий ип эса 7 - 10 та ип 1 см^2 дан иборат бўлган. Иккинчи гуруҳ матоларини ип эшилиши камроқ. Матонинг қўпол тўқилганлиги сабабли кўринишидан қоп хусусиятини беради. Биз бундан шундай хулосага келамизки, ўрта асрда тўқилган матолар пишиқ ва қаттиқ тўқилган. Шундан келиб чиқиб кийим турлари яратилган. Ип-газлама тўқимачилигининг ўрта асрлар ҳолати шуни кўрсатадики, улар Хитой манбаларида келтирилган маълумотларни тасдиқлайди. Яъни ўрта

асрларда Фарғона аҳолиси пахтани қайта ишлаб чиқарган, кийимларни ип ва ипак матолардан ҳамда теридан тиккан. Хонлик давридан эса ипак матолардан ҳам кийимлар тайёрлаш кенгайган. Ўрта аср тарихига оид энг муҳим маълумотларни энг тўлиқ ҳолда Мунчоқтепада олиб борилган изланишлар берди. Кўмилган марҳумлар асосан оддий аҳоли эди. Булар косиб, чевар, мусиқачи, ҳарбий, кексалар, эркак, аёллар бор. Бу қабрлардаги одамлар устидаги кийимлар ўша даврда кенг тарқалган матолардан тикилган. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кўмилганлар учун алоҳида кийим тикилмаган, улар кундалик уст бошлари билан дафн этилган. Бунга турмушда орттирилган доғлар, этиклардаги ямоқлар далил бўла олади. Кийимлар ип мато ва ипак матолардан тикилган бўлиб, ип матолардан тикилганлари у қадар сақланмаган. Айрим бўлаклари қолган, холос. Ипак матолардан тайёрланган кийимлар ва ипак билан берилган безаклар яхши сақланган. А. А. Ҳакимовнинг «Изобразительно-орнаментальные образы и мотивы прикладного искусства» номли мақоласида ИХ асрда ва ХИИИ асрнинг бошларига келиб адабиёт ва рассомчилик санъатида ўзгаришлар рўй берди. Чунки Ўрта Осиёда буюк алломалар етишиб чикди. Булар Фаробий, Фирдавсий, ибн Сино, Ал-Хоразмий, Беруний, Умар Ҳайём кабилардир. Ўрта Осиёда мусулмон дунёсининг таъсири, тарихнависликнинг ривожланиши, халқ ҳунармандчилиги, хусусан, тўқувчиликнинг ривожланишига ва бошқа хунармандчилик турларининг ривожланишига олиб келди. Натижада Сопол буюмларга расм чизиш ривожланди.

Бу ҳол орнаментлардаги тасвирларнинг ривожланишига, турли хил белги ва рамзлар ўрнини нафосат ғояларининг ўсиши туфайли умумий магик тасаввурлар асосида умумий бўлган орнаментлар вужудга келди. Бунда ўсимликлар, ҳайвонлар, геометрик шакллар уйғунлашиб, кесишган чизиқли нақшлар пайдо бўлди.

IX-XIII асрлар, яъни ўрта асрларда, шу жумладан, Фарғона водийсида деб айтилмаган бўлса-да, араб географлар ва тарихчилари ал-Муқаддаси, Наршахий, Ибн-Ҳайкалнинг маълумот беришича, ички бозор учун жун, пахта толасидан, каноп дан, ипакдан матолар ишлаб чиқарилган, четдан эса аралаш толали, турли матолар, парча (ипак ва кумуш толасидан тайёрланган мато) матоси келтирилган. Наршахийнинг маълумотига кўра, оқ, кизил, зангори матолар ишлаб чикарилиб, Византия ва Мисрга экспорт линган. Бухоро ва Марвда «байт ул тараз» бўлиб, халифалик хазинасига гиламлар, палослар, тўқилган матолар, топширилган. Зардана ва қишлоқларда пахта толасидан “занданачи”, “ванданача” матолар ишлаб чиқарилган. А.М. Белиницкий, И.Б. Бентович совет олимлари бу матолар асосида илмий

изланиш олиб борди. Бунга кўра, Наршахийнинг маълумоти ва А.М.Белинский, И.Б. Бентович фикрлари бир-биридан фарқ қилади. Берилган фикрлардан хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, араб босқинига қадар ипак Хитойдан келтирилган. Араблар Ўрта Осиёни босиб олгач, Хитойдан ипак олиб келиш тўхтатилиб, Ўрта Осиёда ипак мато ишлаб чиқариш ривож топган. Шу сабабли матолар XIII асрда пахта ва ипак толасидан тўқилган. Бу ҳол каштачиликка ҳам ўз таъсирини ўтказди. Ўрта Осиё халқлари XIII асрга қадар кашта тикиш учун фақат “бўз” матосидан фойдаланишган. Шу даврга келиб матога гул беришда ҳам ўзгаришлар бўлганлигини А.А. Ҳакимов «Изобразительно-орнаменталные образы и мотивы прикладного искусства» мақоласида IX–XIII орнаментларини иккита даврга бўлиб кўрсатган. Арабларнинг кириб келиши, араб халифалиги ўз таъсирини ўтказгани туфайли ипак мато ишлаб чиқариш янада ривожланди. Бу даврда «Олача», «Занданачи» каби матолар Термиз, Қарши, Самарқанд, Бухоро, Марғилон каби Ўзбекистоннинг бир нечта ҳудудларида ишлаб чиқарилган. Айнан шу матолар Хитойда ҳам ишлаб чиқарилган эди. Бу ҳақда Маҳмуд Қошғарий ўзининг «Девони луғоти турк» асарида, Ахмад Югнакий «Хиббатул хаққойиқ» асарида ёзганлиги ҳақидаги маълумотни С.М. Маҳкамова «К истории ткачества в Средней Азии» маколасида кўрсатиб ўтган. Бу маколада Хитойда ишлаб чиқарилган матолардаги орнаментлар, Ўрта Осиёда ишлаб чиқарилган мато орнаментларига ўхшайди, лекин уларнинг рангида фарқ бор. Марказий Осиёда мўғил босқини натижасида XIII асрнинг биринчи чорагидан бошлаб, зўрлик билан киритилган мўғил-хитой анъаналари барча соҳалар қатори либосларда ҳам ўз аксини топди. XIV асрнинг иккинчи чорагидан бошлаб, мўғил-хитой либос русуми сиқиб чиқарилган ва маҳаллий кийимларнинг янги турлари шаклланган. Аммо эркаклар тўни, кийимларнинг кўкрак қисмига тикилган кашта безаклари, либослар елкаси ва бел қисми кийим этагининг белигача ёки ундан узунроқ қилиш каби мўғил-хитой кийимларига хос ҳусусият сақланган. 1403 йилда Амир Темур саройида бўлган испаниялик элчи Руи Гонсалес де Клавихо ўз эсдаликларида саройдаги аёлларнинг бош кийимлари, яъни рўмоллари ипакдан тикилган кашталар билан безатилганлигини ёзади. А. Вамбер эсдаликларида ҳам айрим маълумотлар учрайди. У ўз саёҳатномасида Марказий Осиё аҳолисининг анъанавий кийим-кечаклари ҳақида асосан эркак ва аёлларнинг оёқ кийимлари тўғрисида фикр юритади, “бу ерда эркаклар ва аёлларнинг пойабзали анча яхши ишланган бўлиб, аёлларнинг оёқ кийимлари ажойиб ипаклар билан безатилган”. Мовароуннаҳрда ва сўнгра бобурийлар замонида Ҳиндистонда алломалар, давлат амалдорлари,

улламолар «паранжи» русумидаги либос кийиб юрадиган бўлди. Шайбонийлар даврига келиб, илм аҳли олимлар киядиган кийим вазифасини бажарган. Кейинчалик мазкур кийим аёлларнинг кундалик ташқарига чиққанда киядиган кийим вазифасини ўтаган. Айнан шу даврда эркакларнинг турли хилдаги тўнлари вужудга келди. ХИХ-ХХ асрларда анъанавий либослар тараққий этган ҳолда каштадўзлик ҳам ривожланди. Фарғонада Қўқон хонлигида марказлашган ҳокимиятнинг вужудга келиши водийнинг иқтисодий ривожига таъсир қилди.

Собиқ Иттифоқ даври адабиётлари.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, Фарғона водийси халқларининг анъанавий каштадўзлик машғулоти этнологик нуқтаи назардан яхши ўрганилмаган. Айни вақтда эътироф этиш керакки, ушбу мавзу доирасида ўрганиб чиқиш кўзда тутилган масалаларга оид айрим материалларни юқорида кўрсатиб ўтганимиздек, бир қатор тадқиқотчиларнинг ишларидан топиш мумкин. Чунончи, М.С. Андреев, А.М. Белиницкий, И.Б. Бентович, А.Н. Бернштам, Э.К. Кверфельд, А.Н. Тарасов, К.И. Антипина, М.Б. Ўроқов, А.К. Писарчик, Р.Я. Расудова, Н.Э. Симаков, Н.Н. Соболев, О.А. Сухарева ва бошқалар. Марказлашган ҳокимиятнинг водийда олиб борган иқтисодий ва сиёсий тадбирлари натижасида XIX аср бошларига келиб бу ҳудуд нафақат сиёсий, балки иқтисодий жиҳатдан ҳам ривожланди. Шу даврга келиб каштадўзлик ҳам ривожланди. Фарғона водийси ҳудудида миграцион жараёнлар фаоллашиб, ўзга ўлкалардан кўплаб этник гуруҳлар кўчиб келди. Фарғона водийсига қорақолпоқлар, уйғурлар, белоруслар, украинлар, татарлар, руслар, қозоқлар, туркманлар кўчиб ўтди. Ўзаро иқтисодий-маданий алоқалар кучайди. Фарғона водийси аҳолиси анъанавий кийимлари ривожланиб, такомиллашиб борди. Бош кийим тикувчилар Бухорода “такиядўзлар”, Фарғона водийсида “дўппидўзлар”, “каштадўзлар” деб аталди. Оёқ кийим тикувчиларни Бухорода «музадўз», атаган бўлишса, Фарғонада «маҳсидўз» ёки «этикдўзлар», деб аталди. Кийимлар ривожланиб боргани сари кийимларга тикиладиган кашталар ҳам нафис, жозибали кўринишга келди. Кашта аёллар кўйлагининг этак қисмига, енг қисмига ёки ёқанинг олд қисмига тикилган бўлса, эркаклар яктакларининг бўйин қисмига, этикларининг қўнжига, белбоғларининг қирғоғига тикиладиган бўлди. Бу ҳақида, Н. Содиқова «Ўзбек миллий кийимлари XIX-XX асрлар», Антипина К.И. «Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов», Исмоилов Х. «Анъанавий ўзбек кийимлари», Томина Т.Н. «Тканы одежда кочевых и поликочевых народов Средней Азии», «Традиционная одежда Средней Азии и Казахстана» асарларида XIX- XX асрларда Ўрта Осиёда, хусусан, Фарғона водийсининг анъанавий

кийимлари ҳақида, уларнинг ривожлангани, уларга тикилган кашталарнинг эстетик дидга тўғри келиши, кашта буюмларни уй ва оила учун эмас, балки бозор учун ҳам тикиладиган бўлди. Бу орқали кашта буюмлари янада такомиллашди. Фарғона водийси халқлари ўртасида иқтисодий, маданий алоқалар кенгайди. Водийнинг марказий шаҳарларида - Андижон, Наманган, Фарғона, Қўқон, Ўш, Ўзган, Марғилонда маҳаллий бозорлар бўлган. Кашта буюмлари ҳам, шакллари ҳам ўзгарди. Эркаклар бош кийими XIX аср бошларида узун бошга кийиладиган қисми айланасимон, юқори қисми учли трапецияга ўхшаш шаклда бўлиб, сўнг XIX асрнинг охирларида думалоқ ярим шар шаклида, мана шу шакл икки бора ўзгариб, XX асрда тўрт томонли дўппи шаклига келди. Дўппининг ривожланиши асосан XIX-XX асрнинг бошларига тўғри келади. XX асрнинг ўрталарида Фарғона водийсида Чуст дўппилари, Андижон дўппи, Марғилон дўппилари тикилган. Бу дўппилар бир-биридан гули билан, тепа ва ён томонларининг кенг ва торлиги билан, гулларнинг ҳажми билан, дўппи шаклининг турига қараб фарқланган.

Анъанавий кийимлардан белбоғ ҳисобланиб, XIX-XX асрларда белбоғ шаклида ҳам ўзгаришлар бўлди. XIX асрнинг бошларида белбоғ 2-3 метрли узун кенглиги 40 см бўлган тасмасимон бўлиб, матонинг икки ён томонига ўсимликсимон гуллар «йўрма» ёки «босма» чок билан тикиб чиқилган. XX асрга келиб, белбоғ шакли ўзгарди. Унинг шакли тўртбурчак бўлиб, ўлчами ёшига қараб белгиланди. Белбоғнинг шакли водий бўйлаб бир хилда бўлди. Белбоғдаги гуллар, нақшлар ўзгарди, геометрик шакллардан, судралиб юрувчи ҳайвон тасвирларидан, кам ҳолларда ўсимликсимон гуллардан фойдаланди. Ўлчамлари: 90x90, 60x60, 50x50, 30x30 см ҳажмда бўлган. Белбоғни тикишда «дуря», «сув», «чамак», «йўрма» чокларидан фойдаланган. Сўзана, палак, зардевор, чойшаб (руйжо) каби маҳсулотлар тикиш, четга экспорт килиш кенгайди. XX асрнинг 30 йилларига келиб, собиқ Иттифоқ ва унинг томонидан олиб борган сиёсат Фарғона водийси каштачилигига ҳам таъсирини ўтказди. Натижада қўлда кашта тикиш ўрнига, бадиий буюмлар фабрикасида, туманларда жойлашган тикувчилик артелларида «йўрма» машинасида кашта тикиладиган бўлди. Бу ҳол кашта сифатига, кашта хусусиятига ўз салбий таъсирини ўтказди. Андижонда, Фарғонада, Наманганда, Марғилонда, Қўқонда ва бошқа шаҳарларда ҳунармадчилик артеллари ва бадиий буюмлар фабрикаси иш бошлади.

С. М. Маҳкамованинг «К истории ткачества в Средней Азии» мақоласида Ўрта Осиё, шу жумладан, Ўзбекистон ҳудудида ишлаб чиқарилган қадимги матолар, уларга солинган орнаментлар ҳақида муҳим маълумотлар келтирилган.

В. П. Наливкин, И.А. Шахназаров, У. Жохонов сингари тадқиқотчиларнинг ишларида ҳам водийнинг ўтроқ аҳолисини деҳқончилик хўжалиги ҳақида кўплаб маълумотлар келтириб ўтилган, водий каштадўзлигини ўрганишда бу асар ҳам қимматли аҳамиятга эга. Каштачилик санъатини этнографик нуқтаи назардан ўрганиш О. А. Сухареванинг тадқиқотларидан бошланди. Олима 1920-1930 йилларда каштачилик намуналарини йиғиб, музейларга топшириш билан бирга, илмий тадқиқотлар ҳам олиб борган. 1937 йили олиманинг “Самарқанд безак каштачилигининг тарихий ривожланиши” асари чоп эттирилади. Бу асарда Самарқанд безак каштачилигининг тарихий ривожланиши, унинг босқичлари, марказнинг ўзига хослиги, чеварлар томонидан қўлланиши, кашталарнинг маъноси ва бадиий аҳамиятини батафсил ёритиб берган. Этнограф олимлардан А. К. Писарчук эса Нурота кашталарини тўплаш, унинг хусусиятларини ўрганиш бўйича илмий изланишлар олиб борган. Каштачилик фаолияти бўйича М. А. Бекжонова ҳам тадқиқот олиб борган. Олима Тошкент кашталарининг ривожланиш тарихини ўрганиб, айрим туманлардаги кашталарни тўпланган. Олима ўз тадқиқот ишида кашталарнинг маҳаллий ўзига хослигини, XIX аср охири XX аср бошларида эса кашта услублари ўзгарганлиги ҳақида қимматли маълумотлар берган. А. С. Морозова тадқиқотлари 1960 йилда чоп этилган “Ўзбекистонда йўрмадўзчилик“ асарида республикамиздаги айрим каштачилик асосий марказлари, каштачи чеварларнинг ижодий изланиши, кашта нақшларининг тур ва маъноларига, машина кашталари, ундаги кашта нақшларига, асосий марказ кашталарининг ўзига хослигига тўхталган. Г. П. Чепелевецкаянинг 1961 йилда нашр этилган “Ўзбекистон сўзанаси” номли китобида каштачилик мактабларига қисқача изоҳ бериш билан бирга, кашта нақшлари маъносини санъатшунослик нуқтаи назар билан очиб берган. Р. Рассудованинг 1960 йилда чоп этилган “Узбекский художественный шов” китоби ўзбек каштачилигининг чокларига бағишланган бўлиб, каштачиликда ишлатилган ҳамма асосий чокларни таҳлил қилиб, бажарилиш усулларини бирма-бир кўрсатиб берган. Ярим кўчманчи ўзбеклар этнографияси бўйича Б. Х. Кармышева “Очерки этнической истории горных районов Таджикистана и Узбекистана” номли асарида Тожикистон ва Ўзбекистон музей тўпламларида сақланаётган жуда қизиқарли айрим деворий кашталар ҳақида қимматли маълумотлар берган. О. А. Сухарева 1985 йилда чоп эттирган “Ходжентские сузани” мақоласида тожикистонликлар, эҳтимол, ўзбекистонлик тожиклар каштачилигининг этник хусусиятларини кўрсатиб берган. А.К. Писарчик “Тожикларнинг халқ амалий санъати” китобида XIX асрдан XX асрнинг 30-йилларига қадар

анъанавий каштачиликнинг ривожланиш тарихини ўрганиб, уларнинг хилларини ва туркумларини ўрганди. Олима Н. Исаева (Юнусова) 1979 йилда нашр эттирган “Таджикская вышивка” асарида тожик каштачилигининг ривожланиш босқичлари, унинг композицион нақшлари ҳақида ва нақш тузилишини кўрсатиб, батафсил тушунтириб берган. XIX аср охири XX аср бошлари бадиий каштачилик тарихи, унинг материали, чизмакашлар фаолияти, ипак ипларнинг ишлатилиши ва улар билан ҳосил қилинган ранглар уйғунлиги ҳақида 1972 йилда нашр этилган “Декоративно-прикладное искусство Узбекистана” асарида Д. А. Фахретдинова тўла кўрсатиб берган. К. Турсуналиевнинг “XIX-XX асрлар Ўзбекистон кашталари” каталоги Ўзбекистон халқлари тарихи музейида сақланаётган 400 га яқин кашталар ҳақида маълумот беради. А. Алламуродовнинг “Қорақалпоқ кашталари” номли монографиясида кўчманчи қабилалар анъанавий каштадўзлик санъатининг бир тури ҳақида маълумот беради. Бунда қорақалпоқ (қора уйлари)ни безаш, қорақалпоқ келинлари бош кийимлари “ сэукеле”, кўкрак безаги ”хайкаль”, кашта тикилган кўйлаклар “кок койлак”, отлар учун “от қозлик”, қўлнинг енги устидан киювчи “женгсе, женгуш”ларнинг қорақалпоқ кашталари билан безатилганлиги ҳақида маълумот берган. Қорақалпоқ кашталари ҳақида А.Е. Россикова ҳам ўзининг “По Аму-Дарье от Петро-Александровска до Нукуса” асарида аёлларнинг рўмоллари орқа бурчак қисми икки қатор йўл берилиб, қизил ва қора ипак иплар билан, булар ораси турли рангдаги ипак иплар билан кашталар орқали безатилган. Бунда Бухоро ипак ипларидан фойдаланганлиги ҳақида маълумот берган. XИХ асрнинг охири XX асрнинг бошларига келиб қорақалпоқлар тўй кийимларининг асосий эламентларидан бири “кзыл кимешек “ ҳисобланадиган бўлди. Диққатга сазовор томони шуки, қорақалпоқ кашталарининг асосий белгилари сақланиб, ривожланиб борган. Бу асар ҳам Фарғона водийси халқлари анъанавий каштачилигини ўрганишда муҳим манбалардан бири бўлиб ҳисобланади. Каштадўзликни ўрганишда В. Чепелевнинг “Киргизское народное изобразительное искусство” мақоласида шарқ халқлари қадимдан ҳаво рангга ўзгача эътибор қаратганлиги изоҳланади. Шарқ халқлари қадимдан само жисмларини қадрлаган ҳамда Ўрта Осиё халқларида ҳаво ранг азадор кийими ҳам ҳисобланган. Каштада ҳаво ранг ва тўқ ҳаво рангнинг тутган ўрни ҳақида ҳам қимматли фикрлар берилган. М. Андреевнинг “Орнамент горных таджиков и киргизов памира” асарида тоғлик тожиклар, Помир қирғизлари ҳақида, уларнинг турмуш тарзи, меҳнат қилиш усуллари, аёлларнинг каштачилик буюмлари, буюмларда акс этган тасвирлар, нақшлар, уларда ифодаланган белгилар, нақш белгиларида араблар тамонидан турмуш

маданияти орқали акс эттирилган белгиларнинг ифодаланиши, араб архитектурасида қўлланилган белгиларнинг кашта нақшларидаги таъсири таҳлил қилинган. Араб кашталаридаги белгилар Фарғона водийси кашталарида ҳам учрайди. Доира, тўртбурчак, учбурчак, араб ёзувидаги ғазаллар бу арабларда «фалак» билан боғлаш, демакдир. «Фалак» кейинчалик халқ тилида «Палак», деб ҳам аталди. Араблар VIII асрда Ўрта Осиёга, шу жумладан, Фарғона водийсига ҳам бостириб кирдилар. Маълумки, араблар Фалакни қадрлаганлар. Шунинг учун кашта орнаментларида ҳам фалак билан боғлиқ белгилар ифодаланган. Бу ҳолат Фарғона водийси каштачилигига ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Китобнинг иккинчи бўлимида Помир олди Олой водийсида яшовчи қирғизлар, уларнинг турмуш маданияти, яшаш тарзи ҳақида алоҳида маълумотлар берган. Олой водийси қирғиз аёлларининг бош кийимлари, турли халталар, ёстиқлар, ёстиқ жилдлари, покриваллар (жой ёпқилар), чакмонлар, палослар, ширдак, деб аталувчи тақир гиламлар, аввал шаклидаги от ёпқичлар қирғиз нақшлари билан безатилган. Қирғиз халқи каштачилигида 30 дан ортиқ кашта нақши белгилари бўлиб, булар қўл меҳнати иши ҳисобланиши ҳақида ёзган. Қўл меҳнати ёрдамида аёллар кашта буюмларини тайёрлаш жараёнини, кашта нақшларини тасвирлашини худди муссавирларга ўхшатган. Тайёрланган палослар ёрдамида ўтовлар (қирғиз уйлари, ер уйлар) ичлари, уст қисми безатилгани ҳақида чуқур таҳлил қилиб берган. Уларнинг кашта тикишда фойдаланган чоклари ҳақида маълумот берилган. Улар кашталарида ишлатилган чоклар: “илмадўзи”, ”басма”, “кўптирма”, “джурмама”, “терс-айқ” каби чоклардан фойдаланганлиги ҳақида ёзилган. Андреев ўз асарида қирғиз кашталарида энг кўп қўлланган нақш “қўчқороқ”, яъни қўчқор шохи нақши ҳақида тўла маълумот берган. Бундан шундай хулосага келиш мумкинки, Фарғона водийсида яшаётган қирғиз этнослари ҳам кашта тикишда «кўчкорок», яъни қўчқор шохи нақшини кенг қўллаб келмоқда. Бу асар Фарғона водийси каштачилигини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Фарғона водийси каштачилигини илмий жиҳатдан ўрганиш, бошқа этнослар билан каштачиликдаги умумийлик ва уларнинг бир-биридан фарқларини қиёсий ўрганиш талаб қилинади. Бунга Антипина К. И. “Особенности материалной культуры и прикладного искусства южных киргизов” асарида Фарғона водийсида яшовчи қиргиз халқи ва уларда тайёрланадиган кашта буюмлари уларни тайёрлаш усуллари, кашта тикишда қўлланиладиган чок турлари ҳақида қимматли маълумотлар берган. Шунингдек Х. Исмоилова ва Қ. Жумаевларнинг қатор мақолаларида ўзбек аёлларининг бетакрор санъати каштадўзлик ҳақида қимматли маълумотларни берган.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, Фарғона водийси халқларининг анъанавий каштадўзлик машғулоти этнологик нуқтаи назардан яхши ўрганилмаган. Айни вақтда эътироф этиш керакки, ушбу мавзу доирасида ўрганиб чиқиш кўзда тутилган масалаларга оид айрим материалларни юқорида кўрсатиб ўтганимиздек, бир қатор тадқиқотчиларнинг ишларидан топиш мумкин. Чунончи, М.С. Андреев, А.М. Белиницкий, И.Б. Бентович, А.Н. Бернштам, Э.К. Кверфельд, А.Н. Тарасов, К.И. Антипина, , А.А. Абдураззоқов, А.К. Писарчик, Р.Я. Расудова, Н.Э. Симаков, Н.Н. Соболев, О.А. Сухарева ва бошқалар.

Мустақиллик даври адабиётлари.

Ўзбекистон мустақилликка эришганидан сўнг Президентимиз ташаббуси билан миллий анъаналаримизни қадрлаш, уни келгуси авлодга асраб-авайлаб етказиш масаласига катта эътибор берилди. Халқимиз бунга жавобан миллий анъанамиз ҳисобланган каштачиликни сақлаб колиш учун дўппи, чорси, зардевор, чойшаб, палак, жойнамоз каби кашта буюмларини тикиб, анъана тарзда ёш авлодга ўргатишга ҳаракат қилмоқда. Шу тариқа кашта тикиш анъанаси давом этмо

Чунки Ватанимиз Мустақилликка эришгандан сўнг Президентимиз ташаббуси билан миллий қадриятларни қадрлашга, уларни асраб-авайлашга, йўқолиб бораётган анъаналарни асраб қолишга йўл очилди. Бу эса Фарғона водийсида яшовчи халқларнинг анъаналарини ўрганиш ва шу масалаларда илмий тадқиқот ишларини олиб бориш учун катта йўл очди. У. А. Абдуллаев, А. А. Аширов каби тадқиқотчиларнинг изланишлари Фарғона водийсини этнографик жиҳатдан ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлди. У. Абдуллаевнинг «Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар» асари Фарғона водийси этнослари, уларнинг таркиби ва этносларнинг жойлашув хусусиятлари, халқларнинг хўжалик фаолияти, тураржойлари ва шаклланиш жараёнидаги ўзаро этник алоқалар, водий халқининг анъанавий кийимлари, таомлари, маънавий маданият соҳасидаги этнослараро муносабатлари ўрганилган. Бу асарда Фарғона водийси халқларининг анъанавий каштадўзлигини этно-ҳудудий хусусиятларини ўрганишда ёрдам беради. Бу асарда каштачилик фаолияти ҳақида фикр айтилмаган. А. Ашировнинг «Ўзбек халқининг қадимги эътиқод ва маросимлари» асари Фарғона водийсини этнологик томондан ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Бу асарда Ўзбекистонда қадимий диний эътиқодлар ва динлар, ананавий оила, турмуш маросимларида қадимий диний эътиқодлар, фарзанд туғилиши ва бола тарбияси билан боғлиқ маросим, урф-одатлар, қадимги диний эътиқодлар излари, ўзбек хўжалик анъаналарида диний-эътиқодий қарашлар ўзбек халқининг моддий маданиятида, қадимий диний тассавурлар ва эътиқодий

қарашларнинг архаик излари, тураржойлар билан боғлиқ урф-одатларда қадимий диний эътиқодлар ҳақида батафсил маълумотлар берилган. Бу асар ҳам Фарғона анъанавий каштачилиги, унга боғлиқ урф-одатларни ўрганишда, ҳамда кашталарда акс этган белгиларни ўрганишда муҳим манба ҳисобланади.

Мустақиллик йилларида санъатшунослар ҳам тадқиқот ишларини олиб бордилар. Н. Содиқованинг «Ўзбек миллий кийимлари XIX-XX асрлар» асарида ҳам Ўзбекистондаги миллий кийимлар, жумладан, Фарғона водийсидаги ўзбек кийимлари ҳақида ҳам маълумот беради. Фарғона водийси халқлари анъанавий каштачилигини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Бу эса Фарғона водийси каштачилигини санъатшунослар томонидан ҳам ўрганилмаганлигини кўрсатади. Булардан Ш. К Абдуллаева, К. Б. Акилова, К. Жумаевлар ўз тадқиқотларида Ўзбекистонда каштачилик фаолиятларини ўрганган. Юқорида номлари зикр этилган санъатшунослар асарларида Бухоро, Ғиждувон, Нурота, Шаҳрисабз, Самарқанд кашталари ўрганилганлигини кўрдик. XIX-XX аср Ўзбекистон бадиий кашталари ҳақидаги махсус илмий адабиётлар ҳам Фарғона водийси каштачилиги бўйича илмий изланиш олиб борилмаганини кўрсатади. О. А. Сухареванинг 2006 йилда чоп этилган «Сузани среднеазиатская декоративная вышивка» асарида ҳам Фарғона водийси кашталари ўрганилмаганлиги кўрсатилган. М. Б. Ўроқов, Э.Гюльъ*81* тадқиқотлари хам Фарғона водийси халқлари каштадўзлигини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.

Мазкур монографиянинг манбавий асосини индувидуаль дала экспедициялари натижасида йиғилган маълумотлар; мавзунинг у ёки бу жиҳатларига алоқадор адабиётлар ҳамда тадқиқ қилинаётган муаммонинг айрим томонларини ўзида акс эттирган, лекин ҳали чоп эттирилмаган тадқиқотлар ва илмий ҳисоботлар, 55 та саволдан иборат сўровнома асосида олинган маълумотлар натижалариўрин олган.

Ўзбекистон Республикаси Мустақилликка эришгандан сўнг халқимизнинг анъанавий каштачилик ҳунарига, анъанавий санъатига бўлган қизиқиши янада ортди. Бунинг асосий сабаби Юртбошимиз И. А. Каримов ўзининг асарларида миллий анъаналаримиз, маънавий қадриятларимизни ёшлар онгига сингдириш, уларни асраб-авайлашга ўргатиш, маънавий билимларини ошириш, ота-боболаримиз анъаналарига содиқ фарзандлар қилиб тарбиялашни асосий вазифалардан бири эканлиги кўрсатиб берди. Халқимизнинг маданият намуналарини қидириб топишга, уларни музей фондларига топширишга, анъаналар сирларини ўрганиб, уни давом эттириш орқали бардавомийлигини сақлаб қолишга ўргатиш ҳар бир Ўзбекистон фуқаросининг инсоний бурчи эканлигини тушунтирди. Бу вазифалар

Ўзбекистон ҳудудида каштачиликни янада ривожлантирди, миллий қадриятларни қадрлашга ўргатди. Бундай фидокорона ҳурфикр Фарғона водийси халқлари анъанавий каштачилигининг этно-ҳудудий хусусиятларини ўрганиш зарур эканлигини кўрсатди ва ўрганилди.

Хорижий адабиётлар.

Фарғона водийси А. Вамбернинг рус тилидаги «Путешествие по Средней Азии в 1863 г. » номли асарида Қўқон хонлиги аҳолиси ва уларнинг машғулоти ҳақида умумий маълумотлар келтириАмерикалик этнограф олима Э. Гюльнинг «Жойнамоздаги рамзлар» номли мақоласи Ўзбекистон анъанавий каштадўзлигининг бир тури бўлган жойнамоздаги рамзлар, уларга тикилган кашта хусусиятлари ҳақида маълумот беради. Француз антропологи ва этнографи К. Уйфальвиннинг асари алоҳида аҳамиятга эга. 1876-1877 йилларда Марказий Осиё, хусусан, Фарғона водийси бўйлаб саёҳат килган тадқиқотчи водий аҳолисига оид қизиқарли этнографик маълумотлар ёзиб қолдирган. Бу асарда Фарғона водийсидаги ўтроқ ва яримкўчманчи аҳолининг водийда жойлашиши, уларнинг тили, маданияти ҳамда воҳа ва тоғлик тожиклар берган маълумотлар Фарғона водийсини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Юқорида кўрсатиб ўтилган адабиётлардан кўриниб турибдики, Фарғона водийси анъанавий каштачилиги этнографик жиҳатдан ўрганилмаган. Бу эса Фарғона водийси халқининг ҳам моддий маданиятга ўз ҳиссасини неча-неча асрлардан буён қўшиб келаётганлигини, анъанавий каштачилик қадимдан авлоддан-авлодга ўтиб келаётган анъана эканлигини, бу анъанани асраб-авайлаб келгуси авлодларга ҳам етказиш зарур масала эканлигини кўрсатади. Шунинг учун ҳам Фарғона водийси халқининг тўқимачилик сохасини этно-ҳудудий хусусиятларини ўрганиш долзарб вазифалардан бирига айланди.

Хулоса қилиб айтадиган булсак Ўрта Осиеда Фаргона водийсида қадимдан матолар тўкилган.Дастлаб пахта толасидан мато тўкилган Сўнгра эса ипак матолар тўқилган.Бу матолар тўқиладиган марказлар Марғилон, ,Самарканд,Бухоро,Шахрисабз каби худудларда матолар тўкилиб Византия ва бошқа худудларга экспорт қилинган .

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ОБОЗНАЧАЮЩИЕ МУЖЧИН И ЖЕНЩИН В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Кувандикова Махлиё Журабек кизи
Лингвистика (русский язык) Магистрантка 1 курс
Термезский государственный университет

Аннотация: *Статья посвящена анализу лексических единиц, обозначающих мужчин и женщин в русском языке, с акцентом на гендерные различия и роль этих единиц в отражении социальной структуры и культурных стереотипов. Рассматриваются различные категории слов, включая те, что обозначают возраст, семейное положение, профессиональную деятельность, а также родственные отношения. Отдельное внимание уделено гендерной нейтральности в языке, изменениям, происходящим в контексте современных социальных движений и стремлению к инклюзивности. Статья также исследует проблему закрепления стереотипов в языке и изменения, происходящие в языке с учетом равенства полов.*

Ключевые слова: *лексика, гендер, мужчины и женщины, русский язык, семейные отношения, профессиональные термины, гендерная нейтральность, социальные стереотипы, язык и культура, равенство полов, инклюзивность.*

Гендерная маркированность — это важный аспект, который включает в себя использование различных слов и форм для обозначения мужчин и женщин. В русском языке гендерная маркированность проявляется в разных аспектах: от грамматических форм до лексических единиц, которые обозначают не только пол человека, но и его социальный статус, профессиональную роль и даже возраст.

Возраст — один из важнейших факторов, влияющих на выбор лексической единицы для обозначения мужчины или женщины. Вот как это проявляется:

- Мужчина / Женщина — это общие термины, которые используют для обозначения взрослого человека мужского или женского пола, без привязки к возрасту.
- Юноша / Девушка — употребляется для молодых людей, обычно до 30 лет. При этом «юноша» часто используется в литературном или

архаическом контексте, а «девушка» сохраняет свою популярность и в повседневной речи.

• Парень / Девушка — нейтральные формы для молодых людей, которые могут использоваться как для обозначения подростков, так и для людей до 30 лет. Особенно слово «девушка» актуально в разговорах на бытовом уровне.

Важно отметить, что в русском языке существует тенденция употреблять «парень» и «девушка» в отношении людей до 30 лет, а после этого возраста чаще используют более формальные термины — «мужчина» и «женщина».

В русском языке большое внимание уделяется семейным и родственным отношениям. Слова, которые обозначают мужчин и женщин в семье, как правило, отражают их социальные роли и статус.

• Отец / Мать — это базовые термины, обозначающие родителей. Они не только указывают на биологическое родство, но и обозначают важные социальные роли в воспитании детей.

• Сын / Дочь — отражают пол детей, но также несут в себе культурные и социальные коннотации. Например, слово «дочь» может подразумевать более сильную привязанность к семье и дому, чем «сын», что связано с исторически сложившимися ожиданиями от мальчиков и девочек в обществе.

• Брат / Сестра — родственные термины, которые показывают не только пол, но и место человека в семье. Эти слова также могут быть использованы в переносном смысле для обозначения близких по духу людей, даже если они не связаны кровным родством.

В русском языке профессии, как и в других языках, могут быть разделены по гендерному признаку. Это делается не только через лексические единицы, но и через грамматическое согласование. Например, существует несколько способов образовать форму профессии в зависимости от пола человека:

• Певец / Певица — классический пример различия в словах для обозначения мужчин и женщин. Формы «певец» и «певица» обозначают людей, занимающихся музыкальной деятельностью, в зависимости от пола. Однако, с ростом гендерного равенства и борьбой за инклюзивность, такие различия становятся все менее актуальными. В современном языке наблюдается тренд использования нейтральных терминов — например, «артист» и «музыкант», которые подходят и для мужчин, и для женщин.

• Доктор / Докторша — профессия врача в русском языке также имеет гендерное разделение. Однако, в последние десятилетия форма «докторша»

утратила популярность, и все чаще используется просто «доктор» или «врач», что является нейтральной формой.

• Учитель / Учительница — для обозначения преподавателей, учителей также используются разные формы. В последнее время есть тенденция к использованию слова «учитель» как нейтральной формы для обоих полов.

Таким образом, профессиональные термины в русском языке подчеркивают не только пол, но и исторические стереотипы о мужских и женских профессиях. В прошлом существовали профессии, которые считались «мужскими» или «женскими», например, женщин часто ассоциировали с ролью домохозяек, учителей младших классов или медсестер, а мужчин — с инженерией, юриспруденцией, военной службой. Однако с развитием общественных движений и равенства полов это разделение стало значительно размываться.

В последние годы гендерная нейтральность в языке становится важной темой. В контексте равенства полов в русском языке появляются новые формы, которые помогают избегать гендерных стереотипов.

• Человек — это одна из самых простых и универсальных форм, которая используется для обозначения индивида без привязки к полу. В юридических, научных и официальных текстах используется термин «человек», чтобы не акцентировать внимание на гендере.

• Гражданин / Гражданка — здесь также есть стремление к инклюзивности. Вместо «гражданка» все чаще используется «гражданин» как универсальная форма, чтобы не исключать женщин.

• Работник / Работница — гендерное разделение в профессиях часто проявляется через эти слова, но в последние годы все больше употребляются нейтральные выражения, такие как «сотрудник», которые не обозначают пол человека.

В связи с глобальными движениями за равенство полов и инклюзивность, использование гендерно-нейтральных форм становится все более популярным в научных исследованиях, официальных документах и повседневном общении.

Одной из проблем, с которой сталкиваются исследования гендера в языке, является закрепление стереотипов. Например, выражения вроде «женщина за кухней» или «мужчина на работе» ограничивают представление о том, что может и не может делать человек в зависимости от его пола. В последние годы появляются призывы изменить такие фразы на более инклюзивные и отражающие современные реалии.

Кроме того, стоит отметить, что в русском языке существует несколько

выражений, которые относятся к женскому полу с явной стереотипизацией, например, «женская слабость», «тряпка» (об уничижительном обращении к женщине), что связано с культурными представлениями и гендерными предвзятостями.

Заключение:Русский язык, как и любой другой язык, является отражением культуры, социальной структуры и исторических процессов общества. Лексика, обозначающая мужчин и женщин, претерпевает изменения в соответствии с развитием социальных норм и гендерных идеалов. Хотя гендерная маркированность в языке по-прежнему сильна, мы наблюдаем постепенное движение к большей инклюзивности и равенству, что находит отражение в изменении лексических форм и профессиональных наименований. В будущем возможно расширение и развитие гендерно-нейтральных форм, что станет очередным шагом в сторону равенства и уважения к каждому индивидууму вне зависимости от его пола.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бенашвили, И. Л. (2013). *Лексика русского языка и гендер: Социокультурный анализ*. Москва: Наука.

2. Григорьева, Н. М. (2017). *Гендер в языке и культуре: теоретические аспекты*. Санкт-Петербург: Алетейя.

3. Калинин, В. А. (2015). *Гендерная маркированность в русском языке*. Москва: Русский язык.

4. Кравченко, С. И. (2019). *Гендер и язык: современные подходы и проблемы*. Тюмень: ТГПУ.

5. Лапин, С. С. (2016). *Социолингвистика: Гендер и язык*. Казань: Казанский университет.

6. Петрова, М. П. (2020). *Язык и культура: гендерные стереотипы в языке*. Санкт-Петербург: Издательство СПбГУ.

7. Хромова, И. В. (2018). *Гендерная нейтральность и инклюзивность в русском языке*. Москва: Высшая школа экономики.

8. Фомина, Л. Е. (2021). *Гендерные стереотипы и языковая практика: от исторических традиций к современным вызовам*. Москва: Научная книга.

9. Щербакова, О. А. (2020). *Гендер и язык: изменения в языке в контексте равенства полов*. Екатеринбург: УрФУ.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI ”QIZIL KITOBI” GA KIRITILGAN YALPIZDOSHLAR *LAMIACIEAE* OILASINING NUROTA DAVLAT QO’RIQXONASIDA TARQALGAN TURLARI

Azizova Qizlarxon Olimboy qizi
Biologiya o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi ‘Qizil kitobi’ga kiritilgan o’simliklarning Nurota davlat qo’riqxonasida tarqalgan Yalpizdoshlar Lamiacieae oilasiga kiruvchi:Olga bozulbangi,Proskoryakov bozulbangi,Sarxush bozulbang,To’mtoq marmarak,Uchpoyali oqto’sha, Ko’rimsiz qo’ziquloq kabi turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan*

Kalit so’zlar : *tur, endem, relaktik , tog’, yarimbutacha, ko’p yillik o’t mayda va yirik toshlar*

Yalpizdoshlar *Lamiacieae* oilasi Yalpizkabilar kichik sinfi, Yalpiznamolar qabilasiga mansub yer yuzidagi eng yirik oilalardan biri hisoblanadi.Uning vakillari asosan issiq va mo’tadil iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan.Bu oilaga 200ga yaqin turkum va 3000 ta tur kiradi. O’rta Osiyoda 53 turkumga mansub 360 tur O’zbekistonda esa 39 turkumga mansub 238ta tur, Farg’ona vodiysida esa 26 turkumga oid 59 tur o’sishi ma’lum

Yalpizdoshlar oilasi O’zbekiston florasida ham keng tarqalgan oilalardan biri bo’lib foydali turlarga boyligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi .Shu jumladan Yalpizdoshlar olisiga mansub 30 ta tur O’zbekiston Respublikasi ‘Qizil kitobi’ga kiritilgan bo’lib , ulardan quyidagilar Nurota tog’ tizmasida o’sadi.

Olga bozulbangi *Lagochilus olgae Kamelin* - Kamyoblilik darajasi 2 . Nurota tizmasidagi kamyob endem o’simlik. Nurota tizmasida o’sadi. Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Soni kam uchraydi . Yakka holda yoki kichik guruhlar hosil qilib o’sadi. Yarimbutacha bo’yi 20-50 sm. May oyining oxiri iyulda gullab , mevasi iyul – avgustda yetiladi. Urug’idan ko’payadi. Tog’larning pastki va o’rta qismlaridagi tosh –chag’ir toshli yonbag’irlarda turli o’t shuvoqli, yirik o’t va yarim butalardan iborat jamoalarda o’sadi. Nurota davlat qo’riqxonasida muhofaza qilinadi.

Olga bozulbangi *Lagochilus olgae Kamelin*

Proskoryakov bozulbangi *Lagochilus proskorjakovii Ikromov* – Kamyoblik darajasi 1. Nurota tizmasi uchun o’ta noyob,endem tur. Nurota tizmasida o’sadi, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Soni juda kam tarqalgan, yakka yakka holda o’sadi. Bo’yi 25 -35 sm li yarimbutacha .Poyalari oddiy yoki shoxlangan, siyrak,qisqa tukli. Urug’idan ko’payadi, iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda mevasi yetiladi. Tog’larning o’rta qismidagi quruq tosh chag’ir toshli yonbag’irlarida o’sadi. Sharoitning noqulayligidan kam uchraydi.Nurota davlat qo’riqxonasida muhofaza qilinadi.

Proskoryakov bozulbangi *Lagochilus proskorjakovii Ikromov*

Sarxush bozulbang *Lagochilus inebrians Bunge* – Kamyoblik darajasi 3. G’arbiy Pomir Oloy va janubiy Qizilqumning qoldiq tog’laridagi kamayib borayotgan endem o’simlik. Jizzax, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari, Nurota tog’lari etaklarida , Zirabuloq, Ziyovuddin tog’larida, Zarafshon hamda,Turkuston tizmalarida shuningdek Qizilqumdagi Tomditog’da tarqalgan. Soni tabiatda onda sonda va kichik tuplar hosil qilib tarqalgan. Eng zich tuplari Nurota va Oqtog’larda uchraydi. Bo’yi 30-60 sm oralig’odagi poyalari oddiy yoki sershox yarimbuta. Iyun-avgustda gullab iyul-sentabrda mevasi yetildi. Urug’idan ko’payadi. Urug’i 5-7 yil mobaynida unuvchanligini yo’qotmaydi. 1957-1960-yillar mobaynida Samarqand viloyatida 2 gektat yerga ekib o’stirilgan. 1960-yildan buyon O’zR FA Botanika bog’ida ekilib kelinadi.Namgarchilik yetishmasligi chorva mollari tomonidan payxon qilinishi va ko’p yillar maboynida katta miqdorlarda yig’ib olinishi soni va arealiga katta zarar yetkazgan. Nurota qo’riqxonasida muxofaza qilinadi.

Sarxush bozulbangi *Lagochilus inebrians Bunge*

To’mtoq marmarak *Salvia submutica Botsch et Vved* – Kamyoblik darajasi 2. Nurota tizmasidagi kamyob, relikt, endem o’simlik. Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlari, Nurota tizmasida tarqalgan. Soni tabiatda yakka-yakka holda va kichik tuplar bo’lib tarqalgan. Ko’proq Nurota davlat qo’riqxonasida o’sadi. Bo’yi 15-40 sm ga yetadigan ko’pyillik o’t. Poyasi bitta, tik, qalin bezchasimon tukli. Urug’idan ko’payadi. Iyun- iyulda gullab, iyul-avgust oylarida mevasi yetiladi. Tog’larning o’rta qismidagi surilmalarda qoyalarda , shag’alli va toshli yonbag’irlarda o’sadi. Chorva mollarining ko’plab boqilishi turning kamayib ketishiga sabab bo’lmoqda. Bu tur o’sadigan yerlarning bir qismi Nurota qo’riqxonasida muhofaza qilinadi.

To’mtoq marmarak *Salviya submutica*

Uchpoyali oqto’sha *Phlomoides anisochila Salmaki*-Kamyoblik darajasi 2. Nurota tizmasidagi nihoyatda kamyob, endem o’simlik. Jizzax viloyati: Qo’ytosh tog’ining Uxum qishlog’i atroflarida, Nurota tizmasining markaziy qismida tarqalgan. Tog’larning o’rta qismida shag’al toshli quruq yonbag’irlarida o’sadi.Bo’yi 20 sm ga yetadigan ko’p yillik, qalin tukli o’t. Poyalari uchta, pastki qismidan tarvaqaylab shoxlangan , qalin tuklar bilan qoplangan. Iyun-iyul oyida yetiladi va urug’idan ko’payadi.Nurota davlat qo’riqxonasida muhofaza qilinadi.

Uchpoyali oqto’sha *Phlomoides anisochila*



Nurota tog’ tizmasi

Ko’rimsiz qo’ziquloq *Phlomis nubilans Zokirov*- Kamyoblik darajasi 3. Nurota tizmasidagi kamyob, endem o’simlik. Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlari, Nurota tizmasi va Oqtog’da tarqalgan. Tog’ning pastki va o’rta qismida mayda jins tuproqli , shag’lli va toshli yonbag’irlarda o’sadi. Bo’yi 30-40 sm oralig’idagi ko’p yillik o’t. Poyasi bir nechta . Iyulda gullab , avgust oyida mevasi yetiladi. Urug’idan ko’payadi. Qishloq xo’jalik ekinlari uchun yerlarning o’zlashtirilishi va chorva mollarining boqilishi tufayli kamaygan. Populyatsiyasining bir qismi Nurota davlat qo’riqxonasida muhofaza qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, I – tom. O’simliklar.Toshkent Chinor ENK, 1998

2.Узбекистон Республикаси Кизил китоби, I – том Тошкент Чинор ЕНК 2009.

3. **https://www.plantarium.ru/**

4. O’zbekiston Respublikasining Qizil kitobi , -T “Chinor ENK “

ekalogik – noshirlik kompaniyasi, 2019.

RAQAMLI TEXNOLOGIYA

Mamarasulova Aziza Mamasoat qizi

11.10.2004 yilda tugilganman. Hozirda Toshkent axborot texnologiyalar universititi 2-kurs talabasiman. Bir qancha kurslarni muvaffiqiyatli tamomlaganman . Turkiya da BAYGENC Yayincilik nashriyotida maqolam chop etilgan.

Bugungi kunda kishilik jamiyatining barcha jabhalarida yangi innovatsion g`oyalar va raqamli texnologiyalarga talab ortib bormoqda. Ulardan foydalanish inson hayotini o`zgartirib uning faoliyati sifatini oshirishga yo`l ochmoqda.

Raqamli texnologiyalar (**inglizcha**: Digital technology) -**signallarni** uzluksiz **spektr** shaklida emas, balki **analog darajadagi diskret** diapazonlarda ko‘rsatishga asoslangan **texnologiyalar**.

Raqamli texnologiyalarining taraqqiyoti, jamiyatning turli qatlamlaria, ayniqsa yoshlarning fikrlash darajasining kengayishga va axborat olish imkoniyatini osonlashtirishga xizmat qilmoqda. Hozirda raqamli texnologiyalar – bu ma’lumot “raqamlashtirilgan”, ya’ni universal raqamli shaklda taqdim etiladigan texnologiyalar bo‘lib, ular muammolarni tezda hal qilish uchun axborotni kodlash va uzatish usullariga asoslanadi. Bunda axborot ikkilik kod shaklida uzatiladi.Kod bitlardan tashkil topgan. Bitlar 1 (birlik; signal bor) va 0 (nol; signal yo‘q)dan tashkil topgan ikkilik sonlardir. Oddiy qilib aytganda, raqamli texnologiyalar elektron hisoblash va ma’lumotlarni o‘zgartirish bilan bog‘liq barcha narsalarni o‘z ichiga oladi: gadjetlar, elektron qurilmalar, texnologiyalar, dasturlar.

Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda.Bunda esa ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi.Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg’ulotlar o’tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo`llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma’lum.Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo’ladi.Demak, raqamli ta’limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega;

- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko`taradi;
- vaqt va mablag` sarfini keskin kamaytiradi;
-“raqamli dunyo”da yo`qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo`lishgi kabilar.

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o`stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug’iladi. Bu esa o’z navbatida ta’lim beruvchilarni o`z ustida ko`proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalari sohasidagi muammolar juda ko`p va ko`p yo`nalishlarda paydo bo`lishi mumkin. Ba`zilari quyidagilar bo`lishi mumkin:

1. Xavfsizlik: Ma'lumotlarning yoki tizimlarning xavfsizligi, so'nggi va asosiy muammolardan biri bo'lib turadi. Kiber-hujumlar, ma'lumot olish va shaxsiy ma'lumotlarning hacklanishi kabi xavflovchi holatlar ro'yxatdan o'tadi.

2. Ma'lumot himoyalash: Ma'lumotlar ko'plab qurilmalar va tarmoqlar orqali almashtirilishi sababli, ularni muhofaza qilish va ma'lumotlarning to'g'ri va xavfsiz saqlanishi zarur.

3. Farqni baholash: Raqamli texnologiyalar, odamlarga qanday maslahat bermoqda, ularning murojaatlari va fikrlari o'rganilishi, va ma'lumotlar bo'yicha bizning hayotimizni qanday o'zgartirishiga duch keltirish.

4. Tarmoq qulayligi va kengayish: Internetni ulashishni yaxshilash va internet foydalanishni yanada kengaytirish, bevosita texnologiyalardagi tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish kerak. Bu muammolar, keng doirada sohalarda, masalan, katta shaharlar va qishloqlar yoki keskin orqaga qolgan mintaqalarda hosil bo'lishi mumkin.

5. Texnologiyalar integratsiyasi va interoperativlik: Raqamli texnologiyalar ko'plab platformalar va qurilmalar orqali integratsiyalash, ularga muvofiqlik va bir-biriga mos kelishini ta'minlash lozim. Bu, faol murojaat va ma'lumot almashishni osonlashtiradi.

6. Huquqiy muammolar: Raqamli texnologiyalar hayotimizning har sohasiga kirib keladi va shuningdek, huquqiy tartiblarning yagona birliklari ham o'zgaradi. Bu, insonlarning shaxsiy ma'lumotlari, fikrlari va avtoral huquqlarini muhofaza qilishning qiyinligini o'z ichiga oladi.

Bu muammolar, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ularni sodda, xavfsiz va samarali qilish uchun mustaqil yechimlarni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalardagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'llarni ko'rsatish mumkin:

1. Xavfsizlikni ta'minlash: Ma'lumotlar va tizimlar uchun kuchli xavfsizlik

protokollari va himoyalash usullaridan foydalanish. Bu, ma'lumotlarni shifrlash, xavfsizlik so'rovlari va zararli kuchlar bilan kurashish, foydalanuvchilar uchun xavfsizlik ta'limoti kabi qo'llanmalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Huquqiy muammolarni hal qilish: Insonlarning shaxsiy ma'lumotlari va avtoral huquqlari kabi muammolar uchun qonunlar va huquqiy tartibotlarni rivojlantirish. Bu, ma'lumotlarni himoya qilish, farqni baholash, va texnologiyalarni o'zgartirishga ixtiyoriy ta'sir etish mumkinligini ta'minlaydi.

3. Texnologik integratsiyani oshirish: Texnologik platformalarni integratsiyalash va bir-biriga mos kelishini ta'minlash. Bu, ma'lumot almashish va o'zaro murojaatni osonlashtiradi, shuningdek, tizimlar orasidagi aks etishimlarni yaxshilaydi.

4. Foydalanuvchilar uchun ta'lim va tarbiya: Foydalanuvchilarga texnologiyalarni foydalanish, xavfsizlik masalalari va farqni baholashni o'rganish uchun ta'lim va tarbiya taqdim etilishi. Bu, foydalanuvchilar uchun texnologik bilimlarni oshirish va ularning xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi.

5. Innovatsiyalarni rag'batlantirish: Texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish va rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar, korxonalar, va dasturlash guruhlari bilan hamkorlik qilish. Bu, yangi yechimlarni va texnologik hodisalarni o'rganish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni ta'minlashga yordam beradi.

6. Ishbilarmonlik va ijro etishning qulayliklarini oshirish: Ishbilarmonlik va ijro etishning qulayliklarini oshirish, ma'lumotlar olish va taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirish va ish joylarining raqamli yechimlardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash.

Bu yo'llar, raqamli texnologiyalardagi muammolarni bartaraf etishda yordam berishi mumkin. Barcha sohalar, qonunlar, hodisalar va foydalanuvchilar o'rtasida birlikda ishlash orqali raqamli texnologiyalar o'z kuchini namoyish etishi mumkin.

Raqamli texnologiya yan artificial intelligence, ya'ni, sun'iy aql-informatikaning alohida sohasi bo'lib, kompyuter yoki mashinaning inson ongidagi imkoniyatlarga taqlid qilishi, codda qilib aytganda, sun'iy aql kompyuterlarni odam kabi o'ylash va yechim topishga yo'naltirilgan texnologiya hisoblanadi. Big Data — salmoqli ma'lumot atamasi kuniga 100 gigabaytdan ko'p ma'lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo'llanib kelingan.Keyinchalik ma'lumotlarning keskin ko'payishi oqibatida bu tushuncha yanada keng qamrov kasb eta boshladi. Ushbu atama odatda terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasidagi katta hajmdagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi.

Sun'iy intellekt (SI) raqamli texnologiyalarning keng qamrovli bir qismidir. SI,

kompyuterlar va boshqa mashinlar uchun shaxsiy amal qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish, o‘rganish, va muammolarni yechish uchun dasturlar yaratishning o‘rganilgan usullaridan foydalanadi. Bu texnologiya, shaxsiy asboblar, avtomobillar, tibbiyot, ilmiy tadqiqotlar, tadbirkorlik va boshqa sohalarda o‘zaro munosabatlarda va muammolarni yechishda foydalaniladi.

Kelajakda raqamli texnologiyalar o‘z kuchini oshirib, insonlar bilan, asboblar bilan va sistemalar bilan aloqani yanada kengaytirishga yo‘naltirilgan. Men bu kengaytirilishni, ma'lumotlar analitikasi, yapilish bo‘yicha axborotlar va iste'molchilarning xohishlari bo‘yicha ma'lumotlar bilan foydalanish orqali boshqarishni keng ko‘rib chiqaman. Raqamli texnologiyalar, matematika, axborotlar, va axborotlar texnologiyalari sohasida yangiliklarni qo'llash, boshqarish va iste'mol qilishni o‘z ichiga oladi. Bu esa ta’lim, salomatlik, transport, energiya va boshqa sohalar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

OILAVIY MUNOSABATLARNING BUZILISHI, NIKOH AJRIMLARI VA ULARNING OQIBATLARI

Boymatova Omina Muhammadjon qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston millliy unversiteti «Psixologiya» yo’nalishi 4-bosqich talabasi
boymatovaumida4@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan turli hil kelishmovcholiklar hamda nizolarning yuzaga kelish sabablari hamda ularning oqibatlari haqida yoritilgan. Maqolada mavzuning dolzarbligi, oilaviy nizolarning turli olimlar tomonidan o’rganilgan darajasi va oilaviy munosabatlarni o’rganish uchun metodikalar tahlili ham keltirilgan. Shuningdek maqolada oilaviy nizo va ajrimlar oqibatida farzandlarning ijtimoiy ahloq normasidan og’ish holatlarini statistik jihatdan tahlil qilingan, maqola so’ngida umumiy hulosa hamda ma’lum bir tavfsiyalar ham keltirilgan. Bundan tashqari maqolada oila masalasi bilan shug’ulanub kelayotgan oilimlarning oilada er-xotin o’rtasidagi nizoning kelib chiqish sabablariga ham alohida to’xtalib o’tilgan va ajrimda so’ng yuzaga keladiga salbiy oqibatlar ayollarda kuchliroq bo’lishi hamda uning bosqichlari haqida ham ma’lumotlar keltirilib o’tilgan. Oila jamiyatning ijtimoiy bo’g’ini sifatida yosh avlodni voyaga yetkazadigan ijtimoiy tizim sifatida jamiyatga hizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *nizo, kelishmovchiliklar, shaxsiyat, ijtimoiy tizim, bo’g’in, krizis, emotsional tasdiq, ajrim, norozilik kayfiyati.*

Аннотация. *Данная статья освещает различные виды конфликтов и причин их возникновения в семейных отношениях, а также их последствия. В статье рассмотрены актуальность темы, уровень изученности семейных конфликтов различными учеными и анализ методик, используемых для исследования семейных отношений. Также в статье статистически проанализированы отклонения в социально-этических нормах у детей в результате семейных конфликтов и разводов, в конце статьи приведены общие выводы и определенные рекомендации. Кроме того, в статье отдельно обсуждаются причины возникновения конфликтов между супругами в семьях, занимающихся вопросами семьи, а также указаны, что негативные последствия разводов чаще проявляются у женщин, и представлены этапы этих процессов. Семья, как социальная ячейка общества, служит социальным институтом, воспитывающим молодое поколение и оказывающим влияние на общество.*

Ключевые слова: *конфликт, разногласия, личность, социальная*

система, единица, кризис, эмоциональное подтверждение, развод, настроение недовольства.

Annotation. *This article discusses the various types of conflicts and the reasons for their emergence in family relationships, as well as their consequences. The article examines the relevance of the topic, the degree to which family conflicts have been studied by different scholars, and analyzes the methodologies used for studying family relationships. Additionally, the article provides a statistical analysis of deviations in social and ethical norms among children as a result of family conflicts and divorces, and it concludes with general findings and specific recommendations. Furthermore, the article specifically addresses the reasons for conflicts between spouses in families that are engaged in family-related issues, noting that the negative consequences of divorces are more pronounced in women, and presents information about the stages of these processes. The family, as a social unit of society, serves as a social system that raises the younger generation and contributes to society.*

Key words: *conflict, disagreements, personality, social system, unit, crisis, emotional validation, divorce, mood of discontent*

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda oilaviy nizolar, kelishmovchiliklar tufayli ayrim oilalarda ajrim holatlari yuz bermoqda, buning oqibatida esa farzandlar otasiz yoki onasiz voyaga yetishga yetishga majbur bo’lishyabdi. Bu esa o’z navbatida bolaning shaxs sifatida shakllanishiga, jamiyatda o’z o’rnini topishiga, uning psixikasiga salbiy ta’sir ko’rsatdigan omil bo’lganligi uchun ham bu mavzu dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga oila jamiyatning bir bo’g’ini sifatida undagi nizo va kelishmovchiliklar jamiyatimiz taraqiyotiga uning ma’naviyatiga, yosh avlodning tarbiyasiga ham bog’liqligi bilan ahamiyatga ega.

Ma’lumki, jamiyatimizdagi oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari asosan er-xotin o’rtada yoki qarindosh-urug’ bilan bog’liq bo’ladi. Oilaviy nizolarning eng harakterlilaridan biri bu er va xotin o’rtasidagi mojorodir.

Er va xotin o’rtasidagi mojorolarni bir qancha sabablarini ko’rsatish mumkin Bular:

- turmush o’rtoqlarning bir birlariga qo’yayotgan talablari bo’yicha mos kelmasligi, ba’zi erkaklar ayaliga nisbatan biroz e’tiborsiz bo’lib qolishadi uy ro’zg’or va bola tarbiyasiga umuman vaqt ajratishmaydi. Ayollar esa, nafaqat ish balki uy ro’zg’or ishlari, bola tarbiyasiga ham imkon qadar vaqt ajratishga harakat qilishadi bu esa albatta er-xotin o’rtasidagi nizoning uchqun olishiga sabab yaratadi.

- er-xotin o’rtasida o’zoro hurmatning yo’qligi yaniy, oilada yetakchilik mavqeyini qo’lga kiritish uchun kurash yoki ro’llar almashinuvida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar

